

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT TILLAR PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**Filologiya fakulteti**

**O‘ZBEK ADABIYOTI kafedrası**

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI” fanidan**

**O‘QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

**Bilim sohasi: - 100000 - Ta‘lim**

**Ta‘lim sohasi: - 140000 - O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogik fanlar**

**Ta‘lim yo‘nalishi: -5141300- O‘zbek filologiyasi (qirg‘iz tili va adabiyoti)**

**Tuzuvchi: NARGIZA SHERMATOVA**

**ANDIJON**

## Uqtirish xati

Uslubiy qo'llanmada **“O‘ZBEK ADABIYOTI”** kursini o‘qitish bo‘yicha ta’lim texnologiyalari, ularni qo’llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta’limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan.

Uslubiy qo'llanma oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalari, tilni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash jarayonlariga qiziquvchilar uchun muljallangan.

## MUNDARIJA

1. **KIRISH**-----4
2. **I BO‘LIM.**----- 5
3. O‘zbekiston davlat standarti. O‘zbekiston uzluksiz ta’limi Davlat standartlari tizimi-----  
-----6
4. **“O‘ZBEK ADABIYOTI”**fanidan namunaviy dastur.----- -

5. “O‘ZBEK ADABIYOTI”fanidan ishchi o‘quv dasturi-----	28
6. II BO‘LIM “O‘ZBEK ADABIYOTI”» o‘quv fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari-----	62-144
7. “O‘ZBEK ADABIYOTI”fanidan seminar mashg‘ulotlarida	
8. o‘qitish texnologiyasi.-----	144-215
9. Ma’ruza matni-----	216
10. Uslubiy qo‘llanma-----	388
<b>11. III BO‘LIM</b>	
12. Oraliq nazorat uchun savollar-----	338
13. Yakuniy nazorat uchun variantlar-----	343
14. Test savollari-----	344-365
15. Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati-----	366

## K I R I S H

Talabalarga bilim brishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati to‘g‘risida So‘z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning «O‘quv jarayoniga yangi axbrot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik kursatadigan o‘qituvchi va domlarga e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jixatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor»<sup>1</sup> degan So‘zlarini ta’kidlash o‘rinlidir. Bu masala «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida ham asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Qo‘llanmada keltirilgan ta’lim texnologiyalarining har biri ustida o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish shart-sharoiti to‘g‘risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. – Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

ko'zlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotining rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o'quv mashg'ulotining texnologik kartasini, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatini bosqichma-bosqich ta'riflanishini ham o'z ichiga oladi.

Qo'llanma tarkibi kirish, ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari, har bir mavzu bo'yicha ma'ruza hamda amaliy va seminar mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasidan iborat. Ma'lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni o'zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalanilgan.

Qo'llanmaning konseptual asoslari qismida dastlab « O'zbek adabiyoti» fanining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur o'quv fanining tarkibiy tuzilishi, o'qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan konseptual fikrlar, kommunikatsiyalar, axborotlar berilib, so'ngra loyihalashtirilgan, o'qitish texnologiyalari taqdim etilgan.

yigirma turdagi ma'ruza mashg'ulotlari: kirish, tematik, muammoli, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, ma'ruza-munozara, hamkorlikdagi ma'ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza, sharxlovchi ma'ruza berilgan.

Muammoli seminar va amaliy mashg'ulotlar, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yo'naltirilgan seminar, aniq holatlarning yechimi bo'yicha seminar va amaliy mashg'ulotlar utish texnologiyalari mavjud.

Innovatsion va zamonaviy pedagogik goyalarni amalga oshirishda, jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilim olishning yagona manbai bulib kolishi kerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining menejeri bo'lishi lozim. Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish asosida aynan shu g'oyalar yotadi.

## **I BO`LIM**

- **O`ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI. O`ZBEKISTON UZLUKSIZ TA`LIMI DAVLAT STANDARTLARI TIZIMI**
- **“O`ZBEK ADABIYO`TI”FANIDAN NAMUNAVIY DASTUR**
- **“O`ZBEK ADABIYO`TI”FANIDAN ISHCHI O`QUV DASTURI**

**Qayd raqami**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI**  
O‘zbekiston uzluksiz ta’limi davlat standartlari tizimi

**OLIY TA’LIM**

**5141300 – *Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan  
TALABLAR**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent**

**UDT**

---

- 1. Ishlab chiquvchilar:  
Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi;  
Toshkent davlat pedagogika universiteti.**
- 2. Respublikaning kadrlar iste’molchi korxonalar va tashkilotlari,  
Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari. Manfaatdor oliy ta’lim muassasalari  
bilan kelishilgan.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2008  
yil « \_ » \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan.**
- 4. Standartning amal qilish muddati - 5 yilgacha.**

---

**Ushbu standart O‘zstandart agentligining ruxsatisiz ko‘paytirilishi va tarqatilishi mumkin  
emas.**

## Mundarija

1. 5141300 – <i>Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)</i> ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi.....	9
2. 5141300 – <i>Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)</i> ta’lim yo‘nalishi zaruriy bilimlar mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar. ....	10
3. Ta’lim dasturining mazmuni va komponentlari. ....	21
4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash. ....	30
5. Eslatma. ....	
<u>6. Ilova</u> .....	32



1. *5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi.

**1.1 Yo‘nalish** O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim Davlat ta‘lim standartlari, Oliy ta‘lim Davlat ta‘lim standarti, Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga kiritilgan.

**1.2. Ta‘limning** kunduzgi o‘qish shakli me‘yoriy **muddati – 4 yil**. Akademik darajasi – «**Bakalavr**».

**1.3. Bakalavr:**

• ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;

• ta‘lim yo‘nalishi hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarining tegishli magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ta‘limni davom ettirish;

• kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasbiy ta‘lim olishga **tayyorlangan bo‘lishi shart**.

**1.4. 5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha **bakalavrning kasbiy faoliyat doirasi va ob‘ektlari tavsifi:**

**1.4.1. Yo‘nalishning ta‘lim sohasidagi o‘rni**

*5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta‘lim yo‘nalishi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qirg‘iz tili va adabiyoti bo‘yicha o‘qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig‘indisidan iborat bo‘lgan ta‘lim yo‘nalishidir.

**1.4.2. Kasbiy faoliyat ob‘ektlari**

*5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrning kasbiy faoliyati ob‘ektlari: umumta‘lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari, o‘quvchilar, o‘quv-tarbiya jarayoni, o‘qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, qirg‘iz tili va adabiyoti, arab va lotin grafikasi.

**1.4.3. Kasbiy faoliyat turlari**

*5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr o‘z psixologik-pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslik tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

• *o‘qituvchilik*: akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumta‘lim maktablarida qirg‘iz tili va adabiyoti o‘qituvchisi;

• *tarbiyachilik*: maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

• *o‘quv-metodik*: ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash;

• *ilmiy-tadqiqot*: o‘quv jarayoni bilan bog‘liq jarayonni o‘rganuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi mumkin.

**1.4.4. Kasbiy moslashuvchanlik imkoniyatlari**

*5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr quyidagi kasbiy faoliyat turlari:

• *tarjimon-redaktorlik*: redaksiya va nashriyotlarda;

• *bibliografiya*: ta‘lim muassasalaridagi kutubxonalarda;

• *ilmiy-tadqiqot*: kichik xodim sifatida ilmiy-tadqiqot muassasalari va markazlarida ishlashga moslashishi mumkin.

**1.5. Ta‘limni davom ettirish imkoniyatlari**

*5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr quyidagi:

5A141301 – Ona tili (qirg‘iz tili)

5A141302 – Adabiyot (qirg‘iz adabiyoti)

5A140801 – Pedagogika  
5A140802 – Psixologiya  
5A140803 – Ta’lim tizimi menejmenti  
5A220101 – Adabiyotshunoslik  
5A220102 – Lingvistika

5A220105 – Adabiy tanqid mutaxassisliklari hamda ta’limning vakolatli organi tomonidan aniqlanadigan turdosh yo’nalishlar mutaxassisliklari bo’yicha ikki yildan kam bo’lmagan muddatda magistraturada o’qishni davom ettirish mumkin.

2. 5141300 – *Ona tili va adabiyoti (qirg’iz tili va adabiyoti)* ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar

### **2.1. Bakalavrning tayyorgarligiga qo’yiladigan umumiy malakaviy talablar**

#### **Bakalavr:**

- dunyoqarash xarakteridagi sistemali bilimlarga ega bo’lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o’z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlool g’oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o’z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- sog’lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo’yicha ilmiy tasavvur va e’tiqodga ega bo’lishi, o’z-o’zini jismoniy chiniqtirishi;
- axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va o’z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

### **2.2. Kasbiy malakaviy talablar**

#### **Bakalavr:**

- *nazariyani amaliyotga tatbiq etish bo’yicha:* qirg’iz tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qirg’iz adabiyoti tarixi, nazariyasi, qardosh va chet el adabiyotiga oid bilimlarni egallash, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg’ay olish va o’quvchilarga yetkaza olishi;
- *metod va texnologiyalarni o’quv jarayoniga tatbiq etish bo’yicha:* an’anaviy va noan’anaviy metodlar, ilg’or pedagogik texnologiyalarni fan va mavzularni o’tish chog’ida tanlay olishi, o’z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo’llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishi;
- *ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo’yicha:* har bir mavzuning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, psixologik hususiyatlarini yoritish, o’qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunida fanning o’rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo’yicha pedagogik o’qishlarda ma’ruzalar o’qishi, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari differensial ta’limni yo’lga qo’ya olishi, o’quv jarayoni bilan bog’liq barcha hujjatlarni yoritish;
- *ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha:* har bir o’quvchining ruhiy, ahloqiy holatini bilishi, yakka tartibda o’quvchilar bilan va guruh bilan ishlay olishi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o’quvchilar ongiga milliy istiqlool g’oyasini singdirish, diniy ekstremizmga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

• *o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha*: dars tiplarini bilish va ularni maqsadga muvofiq tashkil etishi, o'quv reja va fan dasturi, tematik rejani tayyorlay olishi ta'lim muassasasi metodik birlashmasi ishini rejalashtirish va rahbarlik qila olishi, dars jadvalining tuzilish tamoyillarini bilishi, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishni **bilishi kerak**.

***Kasbiy mahorat bo'yicha*** o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga **javob berishi kerak**.

### **2.3. Ta'lim dasturlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar**

#### **2.3.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha talablar**

*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar* blok bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

#### **2.3.2. Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar**

##### ***Matematik kommunikativ kurs***

##### **Bakalavr:**

• dunyoni bilishning maxsus usuli bo'lgan matematika, uning tushunchalari va tasavvurlarining yaxlitligi;

• axborot texnologiyasining jamiyatni rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati;

• yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim sohasida foydalanish formalari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lish***;

• matematik analiz, analitik geometriya va matematik statistikaning asosiy tushunchalari va metodlari;

• pedagogik dasturlash vositalari;

• matnlarni va grafik axborotlarni tayyorlash, tahlil qilish va ishlov berish, axborot texnologiyalarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi***;

• ob'ektlarni sifat va miqdor munosabatlarini ifodalashda matematik belgilardan foydalanish;

• pedagogik dasturlash vositalarini ishlab chiqish;

• yangi axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash;

• tarmoq texnologiyalari (internet, elektron pochta va boshqalar) vositalari bilan ishlash;

• axborot texnologiyasining dasturiy vositalaridan foydalanib, turli hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim***.

##### ***Tabiiy-ilmiy kurs***

##### **Bakalavr:**

• koinotning yaxlit fizik ob'ekt ekanligi va uning evolyutsiyasi;

• tabiiy fanlarning fundamental birligi, tabiatni bilishning tugallanmasligi, uning yanada taraqqiy etishi;

• tabiatda diskretlik va davomiylik;

• tabiatdagi tartiblilik va tartibsizlik orasidagi nisbat haqida, ob'ektlar tuzilishining tartibga solinganligi, ularning tartibsizlik holatiga o'tishi va aksincha holatlar;

• tabiatning dinamik va statistik qonunlari;

• tabiiy tizimning ob'ektiv tavsifi bo'lgan ehtimollik;

• tabiatshunoslikning turli bo'limlaridagi o'lchamlar va o'ziga xoslik;

• tabiatshunoslikning fundamental konstantalari;

• muvofiqlik (simmetriya) tamoyili va tabiatni asrash qonunlari;

• tabiatdagi holatlar va uning vaqt o'tishi bilan o'zgarib turishi;

• tabiatdagi ob'ektlarning individual va kollektiv munosabatlari;

• tabiatshunoslikda zamon;

• materiya tuzilishining biologik shakli xususiyati, tirik sistemalarni qayta tiklash va rivojlantirish tamoyillari;

• biosfera va uning evolyutsion yo'nalishi;

- tirik sistemalar yaxlitligi va gomeostazi;
- organizm va atrof-muhitning o‘zaro ta’siri, organizmlar hamjamoasi, ekosistemalar;
- tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni asrashga qaratilgan texnologiyalar yaratish istiqboli;
- tabiatshunoslikdagi eng yangi kashfiyotlar, ulardan texnik qurilmalar yaratishda foydalanish istiqbollari;
- fizik va biologik modellashtirish;
- odam biosferasi va ijtimoiy biologiyasi birligi tabiati nuqtai nazardan ularning kasbiy faoliyatdagi oqibatlari;
- Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik joylashishi, tabiiy-iqtisodiy va aholi potentsiali;
- yosh fiziologiyasi va gigienasining asosiy tamoyillari to‘g‘risida **tasavvurga ega bo‘lishi**;
- mexanika, elektr va magnetizm, tebranish va to‘lqinlar, kvant fizikasi, statik fizika va termodinamika, moddalarning reaksiyaga bardoshlilik, ekologiyaning asosiy tushunchalari, qonunlari va modellari;
- fizika va ekologiyada nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borish usullari;
- Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik tavsifnomasi, muammolari va rivojlanish istiqbollari;
- fizik va biologik hodisalarning zararli oqibatlaridan atrof-muhitni, insonni muhofaza qilish usullari va metodlari;
- yosh fiziologiyasi fanining asoslari va gigiena talablarini **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi**;
- sodda fizik, kimyoviy va biologik tizim modellaridan o‘quv jarayonida foydalanish;
- tabiatshunoslik fanlarining turli bo‘limlari uchun xarakteri bo‘lgan kattaliklarning tartib raqamlarini o‘lchash va baholash;
- atrof-muhit va odamni zaharli moddalardan muhofaza qilish;
- gigiena talablariga rioya qilish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim**.

### **2.3.3. Umumkasbiy fanlar bloki bo‘yicha talablar**

#### ***psixologiya va pedagogika kursi***

#### **Umumiy psixologiya**

##### **Bakalavr:**

- psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi;
- psixologiyaning sohalari;
- psixologiya va falsafaning o‘zaro aloqasi;
- psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot;
- pedagog faoliyatida psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida **tasavvurga ega bo‘lishi**;
- psixika tirik mavjudodning ob’ektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi;
- psixika va ong munosabati;
- ulug‘ mutafakkirlarning psixologik qarashlari;
- psixologiyaning o‘rganish metodlari;
- faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari;
- refleksiya nazariyasi;
- odam psixikasining paydo bo‘lishi;
- odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti;
- yuksak psixik funksiyalarining tarkib topishi;
- motivatsiya sohalari;
- irodaviy harakatlar va uni boshqarish;
- individ, shaxs, individuallik;

- shaxs faoliyati;
- shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari;
- muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri;
- nutq va uning funksiyalari;
- diqqat, uning fiziologik mexanizmlari, turlari;
- sezgi va idrokning fiziologik asoslari;
- xotira nazariyasi;
- xayol va uning turlari;
- tafakkur va hissiy bilish;
- temperament nazariyasi, tiplari;
- xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog'liqligi;
- qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda***

***qo'llay olishi;***

- shaxs (o'quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi metod va texnologiyalar;
- o'quv jarayonini boshqarish;
- eksperimentlar o'tkazish;
- shaxs (o'quvchi) psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish;
- o'quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo'llay olish;
- psixologik ma'rifiy ishlarni tashkil etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

**Yosh va pedagogik psixologiya**

**Bakalavr:**

- umumiy psixologiya va yosh psixologiyasi;
- umumiy psixologiya va pedagogik psixologiya;
- fiziologik va psixologik rivojlanish jarayoni;
- yosh va pedagogik psixologiyaning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni to'g'risida

***tasavvurga ega bo'lishi;***

- iqtidorli bolalar va ularni tanlash;
- yosh psixologiyasining paydo bo'lishi;
- yosh psixologiyasini o'rganish metodlari;
- ta'limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni;
- maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari;
- kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
- o'smir va o'spirinlar psixologiyasi;
- ta'lim va aqliy taraqqiyot;
- pedagogik qobiliyat va uning turlari;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va***

***amalda qo'llay olishi;***

- bolalarning psixologiyasiga xos xususiyatlarni o'rganish bo'yicha eksperimentlar o'tkazish;
- bolalarning maktabga tayyorgarligi bo'yicha xulosa bera olish;
- insonning rivojlanish bosqichlaridagi psixologik o'zgarishlarini tadqiq qilish;
- pedagogik faoliyatda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo'yicha maslahatlar olib borish;
- yosh psixologiyasi bo'yicha olib borilgan eksperiment va kuzatuvlarni rasmiylashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

**Umumiy pedagogika**

*pedagogika nazariyasi va tarixi*

**Bakalavr:**

- ilmiy tadqiqot ob'ektlari va metodlari;
- pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligi;

- pedagogika fanining metodologiyasi;
  - pedagogikaning jamiyatdagi o‘rni;
  - ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi;
  - pedagogika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari;
  - o‘tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo‘nalishlari;
  - ilg‘or pedagogik qarashlar;
  - jahon ta’lim tizimi;
  - pedagogikaning maqsadiga ko‘ra turlari;
  - pedagogik jarayondagi integratsiyalar to‘g‘risida *tasavvurga ega bo‘lishi*;
  - O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli;
  - ta’lim va tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, birligi, differentsiatsiyasi, yagona pedagogik jarayon;
  - XXI asr pedagogi obrazi;
  - pedagogik antropologiya;
  - ta’lim nazariyasi (didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari;
  - ta’lim prinsiplari;
  - ta’lim metodlari, texnologiyalari;
  - ta’lim turlari va bosqichlari;
  - ta’limni tashxis qilish;
  - tarbiya nazariyasining mohiyati;
  - tarbiyaning mazmuni, prinsiplari;
  - tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat (psixologiya);
  - tarbiya metodlari va texnologiyalari;
  - maxsus pedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari;
  - tarbiya turlari;
  - jamoada, oiladagi tarbiya hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari;
  - O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi;
  - ta’limni boshqarish shakllari;
  - shaxsga ta’lim va tarbiya berish g‘oyasining paydo bo‘lishi;
  - ta’lim va tarbiya to‘g‘risida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari;
  - tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi;
  - jahon pedagogik jarayoni;
  - O‘zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini *bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi*;
  - ta’lim va tarbiya jarayonida milliy g‘oya va ma’naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish;
  - o‘z pedagogik faoliyatini rejalashtirish;
  - ta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo‘llash;
  - o‘quvchini rag‘batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste’dodi, iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
  - o‘quvchilar bilimni baholash;
  - ota-onalar, jamoa, o‘quvchilar bilan yakka va guruh bo‘lib ishlash;
  - o‘quvchilar guruhlarini boshqarish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim*.
- Pedagogik texnologiyalar**
- Bakalavr:**
- ana’naviy o‘qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar;
  - ta’lim jarayoni va texnologik jarayon;

- pedagogik faoliyat va ijod;
- ta'limda novatorlik;
- pedagog shaxsining imkoniyatlari;
- bilish jarayonini optimallashtirishda pedagogik texnologiyaning ahamiyati;
- pedagogik texnologiya tushunchasi va uning ta'riflari;
- pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- pedagogik texnologiya jarayoni, uni loyihalash;
- pedagogik texnologiyani ta'minlovchi jihozlar, vositalar;
- texnologik jarayonlarning takomillashib borish tarixi;
- o'quvchi shaxsi va pedagogik jarayon;
- pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- an'anaviy ta'lim metodlari va texnologiyalari;
- pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi va b.;
- ta'lim oluvchilarning faoliyatini jonlantiruvchi pedagogik texnologiyalar;
- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari;
- modulli, interaktiv, o'yinli va boshqa texnologiyalar;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi**;
- ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatlarini baholay olish;
- konkret vaziyatni hisobga olib, zarur bo'lgan texnologiyalarni tanlash;
- texnologik jarayonni loyihalash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish, o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- texnologik jarayonni sifatli tashkil etish;
- pedagogik texnologiya loyihalari, texnologik kartalarni ishlab chiqish;
- ta'lim oluvchilar bilimini aniqlash bo'yicha eksperiment o'tkazish, qayta aloqani ta'minlash **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim**.

### **Pedagogik mahorat**

#### **Bakalavr:**

- pedagog kasbning o'ziga xos xususiyatlari;
- pedagog shaxsi, uning jamiyatda tutgan o'rni;
- pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari;
- kasbiy mahorat tushunchasi;
- pedagog va ta'lim sohasidagi axborot texnologiyalar;
- XXI asr pedagogiga qo'yiladigan asosiy talablar to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari;
- pedagogik qobiliyat, uning turlari;
- pedagogning kommunikativ qobiliyati, uning vositalari;
- pedagogning muloqot madaniyati va psixologiyasi;
- pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik nazokat va odob-ahloq me'yorlari;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;
- ta'lim jarayonidagi pedagogning mahorati;
- pedagog mahoratini takomillashtirish shart-sharoitlarini **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi**;
- tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish;
- ta'lim va tarbiya jarayonida talab qilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish;
- yuz bergan noxush vaziyatdan chiqib keta olish;
- pedagogik jarayonda har qanday nizolarning oldini olish;

- o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish va bunda go‘zallikka erishish;
- o‘z pedagogik nazokati va odobini takomillashtirib borish;
- nazokat bilan so‘zlash texnikasiga rioya qilish;
- ta’lim va tarbiya jarayonida san’atkorlik unsurlaridan foydalanish;
- o‘z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtdan unumli foydalanish;
- o‘z mahoratini tinmay oshirib borish;
- ilg‘or tajribalarni o‘z faoliyatiga singdirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

### **Qirg‘iz tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi**

#### **Bakalavr:**

- qirg‘iz tilining ta’lim tizimida tutgan o‘rni;
- qirg‘iz tilini o‘qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog‘liqligi;
- qirg‘iz tilini o‘qitish metodlari va texnologiyalari tarixi;
- qirg‘iz tili bo‘yicha yaratilgan darsliklar, qo‘llanmalarining xususiyatlari to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***

- qirg‘iz tilini o‘qitish metodikasining tilshunoslik fanlari bilan bog‘liqligi;
- qirg‘iz tilini o‘qitish metodlari, texnologiyalari, ularning nazariy asoslari;
- umumiy o‘rta ta’lim qirg‘iz tili mazmuni;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi qirg‘iz tili mazmuni;
- qirg‘iz tilini o‘qitishda didaktik prinsiplar;
- qirg‘iz tilini o‘qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlari;
- qirg‘iz tili bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi;***

- qirg‘iz tiliga o‘quvchilarda mehr uyg‘ota olish;
- qirg‘iz tilini o‘qitishning metod va texnologiyalarini qo‘llay olish;
- qirg‘iz tili bo‘yicha mustaqil tahsil olishga o‘quvchilarni yo‘llash;
- qirg‘iz tili bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholay olish;
- qirg‘iz tili darslari, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yuritish;
- qirg‘iz tili darslarini rejalashtirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

### **Qirg‘iz adabiyotini o‘qitish metodikasi**

#### **Bakalavr:**

- qirg‘iz adabiyotining ta’lim tizimida tutgan o‘rni;
- qirg‘iz adabiyotini o‘qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog‘liqligi;
- qirg‘iz adabiyotini o‘qitish metodlari va texnologiyalari tarixi;
- qirg‘iz adabiyoti bo‘yicha yaratilgan o‘quv adabiyotlarining xususiyatlari to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***

- qirg‘iz adabiyotini o‘qitish metodikasi fanining adabiyot fanlari bilan bog‘liqligi;
- qirg‘iz adabiyotini o‘qitish metodlari va texnologiyalari, ularning nazariy asoslari;
- adabiyotni o‘qitishning didaktik prinsiplari;
- umumiy o‘rta ta’lim adabiyot fani mazmuni;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi adabiyot fani mazmuni;
- qirg‘iz adabiyoti bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi;***

- adabiyot o‘qitishda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llay olish;
- adabiyotga o‘quvchida mehr uyg‘ota olish;
- o‘quv-tarbiya jarayonida adabiyot materiallaridan foydalana olish;
- adabiyot bo‘yicha bilimlarini baholash;
- adabiyotni o‘qitish bo‘yicha talab qilingan hujjatlarni tayyorlash;
- badiiy asarni mustaqil tahlil qilish, kitobxonlar konferensiyasini o‘tkazish;
- adabiyot darslarini rejalashtirish;



- yozma ishlarni tekshirish va baholash;
- ifodali o‘qishni o‘rgatish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

### **O‘qituvchi nutqi madaniyati**

#### **Bakalavr:**

- madaniyat va uning inson ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni;
- nutq va uning shakllari;
- nutq texnikasi;
- nutq madaniyatining boshqa tilshunoslik fanlari bilan aloqasi;
- nutqiy faoliyat to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***
- nutq madaniyatining nazariy asoslari;
- nutq madaniyatining kommunikativ belgilari;
- nutq madaniyati va stilistik normalari;
- nutq madaniyati va adabiy til;
- nutq madaniyatining ta‘lim taraqqiyotidagi o‘rni;
- ilmiy-texnik terminologiya va nutq madaniyati;
- notiqlik san‘ati asoslari;
- nutq madaniyatini takomillashtirish yo‘llarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda***

#### ***qo‘llay olishi;***

- ifodalarni to‘g‘ri tuzish;
- nutqni mantiqli, aniq ifodalay olish;
- soha terminlarini bilish;
- adabiy tilda sof gaplasha olish;
- ta‘lim jarayoni etiketlariga rioya qilish;

notiqlik san‘atini namoyish qila olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

#### **Ifodali o‘qish praktikumi**

#### **Bakalavr:**

- to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***
- ifodali o‘qishning predmet iva vazifasi;
- intonatsiya (ohang) komponentlari;
- ritm, temp, ritorika, tushunchalari;
- she‘riy asarlar va uni ifodali o‘qish;
- she‘r san‘atlari va ularga rioya qilgan holda o‘qish;
- nasriy va grammatik janrlarning xususiyatlari va ularni ifodali o‘qish;
- aruz va barmoq vaznidagi she‘rlarni ifodali o‘qishni ***bilishi, malaka hosil qilishi va***

#### ***amalda qullay olishi;***

- ifodali o‘qishni baholay olish;

janrlar bo‘yicha ifodali o‘qish namunalarini ko‘rsata olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;***

#### ***Tilshunoslik kursi***

#### **Bakalavr:**

- tilning jamiyatda tutgan o‘rni;
- tilshunoslik va uning fanlar tizimidagi o‘rni;
- qirg‘iz tilining davlat tili sifatida rivojlanish omillari;
- qirg‘iz til bilimi fanining yuzaga kelishi;
- qirg‘iz tilining turkiy tillardan biri ekanligi;
- qirg‘iz tilining o‘ziga xos xususiyatlari va uning grafik sistemasi to‘g‘risida ***tasavvurga***

#### ***ega bo‘lish;***

- tilning strukturasi va sistemasi;
- til va yozuvning paydo bo‘lishi;
- jahon tillarining klassifikatsiyasi;
- tilshunoslik tarixi;

- tilshunoslik maktablari;
- til va nutq, til va tafakkur, til va axborot munosabatlari;
- hozirgi qirg'iz tilining fonetik va fonologik tizimi;
- qirg'iz tilining imlo va talaffuz qonuniyatlari;
- qirg'iz tilining lug'at tarkibi va so'z semantikasi;
- qirg'iz tilidagi turg'un iboralari;
- qirg'iz tili leksikologiyasi;
- qirg'iz tilidagi so'zlarning morfemik va morfologik tahlili;
- qirg'iz tili morfologiyasi kategoriyalari;
- so'z yasash tizimi;
- so'z turkumlari va uning ichki kategoriyalari;
- qirg'iz tilidagi so'z birikmalari sintaksisi;
- qirg'iz tilining sodda va qo'shma gap sintaksisi;
- qirg'iz tilidagi murakkab sintaktik butunliklar;
- qirg'iz punktuatsiyasi asoslari;
- qirg'iz tilining tarixiy ildizlari: qadimgi turkiy til, qirg'iz tilining tarixiy grammatikasi, qirg'iz adabiy tili tarixining taraqqiyot davrlari;
- qirg'iz tilining dialektal tarkibi;
- eski qirg'iz yozuvi va uning xususiyatlari;
- fors va arab tillarining asosiy xususiyatlari;
- qirg'iz adabiy tilining funksional uslublari;
- matnning kommunikativ bo'laklari;
- matn sintagmatikasi;
- matnning pragmatik xususiyatlari;
- matnning lingvistik tahlili;
- qirg'iz tilining funksional uslublarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***
- qirg'iz tilshunosligi fanlari orasidagi nazariy va amaliy bilimlarni bog'lay olishi;
- qirg'iz tili strukturasi va sistemasini ajrata olish;
- qirg'iz tilining o'z va o'zlashgan qatlamini farqlay olishi;
- qirg'iz tilidagi matnni fonetik, leksik va grammatik jihatdan tahlil qilish;
- qirg'iz tilining jahon tillari klassifikatsiyasida tutgan o'rnini belgilash;
- qirg'iz tilining uslubiga xos asosiy xususiyatlarini farqlash;
- tilning taraqqiyot bosqichlari va jarayonlarini farqlash;
- sharq tillaridagi matnlarni o'qiy olish, tarjima qilish va og'zaki bayon qilish;
- qirg'iz tili grafikasi, orfoepiyasi, orfografiyasi, punktuatsiyasi qoidalarini hayotda qo'llash, uni o'z faoliyatida ijodiy rivojlantira bilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

#### ***Adabiyotshunoslik kursi***

##### **Bakalavr:**

- ifodali o'qishning ta'lim tizimida ahamiyati;
- ifodali o'qish va adabiy janrlar;
- ifodali o'qish va she'riy san'atlar
- adabiyotning filologik fan ekanligi;
- qirg'iz adabiyotining taraqqiy etish omillari;
- qirg'iz adabiyoti jahon adabiyotining bir qismi ekanligi;
- adabiyotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi;
- adabiyot va san'at munosabatlari;
- ifodali o'qishning ta'lim tizimida ahamiyati;
- ifodali o'qish va adabiy janrlar;
- ifodali o'qish va she'riy san'atlar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari;

- adabiyot nazariyasining asoslari;
- qirg'iz adabiyoti va uni davrlashtirish;
- qirg'iz adabiyoti janrlari taaraqqiyoti;
- qirg'iz klassik adabiyoti va ularning namoyandalari asarlari tahlili;
- XX asr adabiyoti, uning tematik va janrlar yo'nalishi, ularning namoyandalari asarlarining tahlili;
- mustaqillik davri adabiyoti;
- qirg'iz bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari;
- qirg'iz xalq og'zaki ijodi namunalarini;
- hozirgi adabiy jarayonning adabiy-nazariy takomili darajasini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***
- qirg'iz va jahon adabiyoti namunalarini g'oyaviy-estetik jihatdan tahlil qilish;
- badiiy adabiyotning turlari va janrlarini farqlash;
- har bir adabiyot namoyandasining asarlariga davr nuqtai nazardan yondoshib baholay olish;
- qirg'iz adabiyotini milliy istiqlol g'oyasi asosida tahlil qilish;
- badiiy asarni muhokama qila olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

#### **2.3.4. Ixtisoslik fanlari bloki bo'yicha talablar**

##### **Bakalavr:**

- ixtisoslikka mos ta'lim sohasining asosiy ilmiy-metodik muammolari va rivojining istiqbolini hamda ularning turdosh sohaslar bilan o'zaro aloqasini tushunishi;
- ixtisoslikning muayyan sohasi bilan bog'liq bo'lgan asosiy ob'ektlarni, hodisa va jarayonlarni bilishi, ularni ilmiy-tadqiq qilish usullaridan foydalana bilishi;
- o'rganilayotgan fan, metod va texnologiyalarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablarni ta'riflab berishni uddalashi, ularni amalga oshirishning mavjud ilmiy-metodik vositalarini bilishi kerak.

Bakalavr ixtisosligiga qo'yiladigan muayyan talablar ixtisoslik fanlari turkumidan tanlangan variantdagi o'quv fanlarining mazmuni bo'yicha oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

#### **2.3.5. Bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablar**

Bitiruv malakaviy ishida bakalavr tugallangan kasbiy vazifalarni hal qiladi va bunda barcha blok fanlari bo'yicha olingan bilimlardan foydalaniladi.

##### **Bu ishda bakalavr:**

- o'rganilayotgan masalaning holati va tarixini tahlil qiladi;
- ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik masalani aniqlab oladi, uning yechilishidagi bir necha variantlarni ko'zda tutadi va ulardan eng muhim variantini tanlaydi;
- xulosani shakllantiradi va hal qilingan masala natijalari bo'yicha tavsiyalar beradi va tegishli fan sohasida qo'llanishi imkoniyatlarini belgilaydi.

#### **2.3.6. Malakaviy amaliyot bo'yicha talablar**

##### **pedagogik amaliyot**

##### **Bakalavr:**

- umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'limdagi qirg'iz tili va adabiyoti ta'limi mazmuni, davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari bo'yicha ish yuritish;
  - qirg'iz tili va adabiyoti fanlarining sinflar va kurslar bo'yicha o'quv rejalarida joylashtirilish;
  - sinf-dars tizimiga rioya qilgan holda qirg'iz tili va adabiyoti fanlari bo'yicha plan-konspekt, kalendar-plan asosida dars o'tish;
  - an'anaviy va zamonaviy metod hamda texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;
  - qirg'iz tili va adabiyoti o'tish chog'ida tarbiya ishlarni olib borishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.***
- o'quv amaliyoti***

**Bakalavr:**

- qirg'iz shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini his qila olish;
- sheva vakillari bilan ilmiy-amaliy muloqot o'rnatish;
- sheva faktlarini tahlil qila olish;
- qirg'iz folklori namunalarini yozib olish;
- yozib olingan xalq og'zaki ijodi namunalarini mavjud materiallarga qiyoslay olish;
- qirg'iz shevalari va folklorini yozib olish metodlarini qo'llash bo'yicha ***bilishi va ulardan foydalana oilshi lozim.***

**2.3.7 Bakalavrlarning stajerlik faoliyati mazmuni va uni tashkil etishga qo'yiladigan talablar.**

Bakalavrlarning stajerlik faoliyati yosh pedagogning pedagogik kasbga kirishib ketishini amaliy jihatdan ta'minlaydigan jarayondir.

**Stajerlik faoliyatining maqsadi** – pedagogik ishga qabul qilingan har bir bakalavrning pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun faol kirishib ketishi va unga ko'nikishi, pedagogik kasbni davom ettirish uchun uning nazariy bilimlari asosida amaliy faoliyatini tashkil etishni tizimga solishdir.

**Stajerlik faoliyatining vazifasi** – bakalavrning pedagog sifatida shakllanishi, uning o'quv-metodik va ilmiy-metodik jarayonni tashkil etishi hamda uni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bu vazifa quyidagi mazmuni o'z ichiga oladi:

*O'quv jarayoni bo'yicha:*

umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi DTSLarini o'quv jarayoniga bog'lab sinchiklab o'rganib chiqish;

o'zi mashg'ulot o'tkazadigan fanning o'quv dasturini tahlil qilish va shu asosda ishchi o'quv dasturini tayyorlash;

kalendar-tematik rejani shakllantirish;

sinf jurnalining rasmiylashtirilishini o'rganish;

o'quvchilar bilimini nazorat qilishning reyting nizomini o'rganish va amalda tatbiq etish, o'quvchilar bilimini baholay olish;

fan kabinetini, uning zamonaviyligini ta'minlash, jihozlarni ishlatish bo'yicha ishlanmalar bilan tanishish va uni boyitish;

fanlar bo'yicha metod birlashmalar ish mazmunini o'rganish va undagi o'zining majburiyatlarini belgilab olish;

mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va reja-konspekt tuzilmasini tahlil qilish va shu asosda o'zining kunlik reja-konspektlarini tuzish;

darsliklar ustida ishlash;

qo'llanmalar, o'quv-metodik tavsiyanomalar ustida ishlash;

tarqatma materiallar tayyorlash malakalarini egallash;

o'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalarni tasniflash va o'quv jarayonida qo'llash;

turli darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash metodikasini egallash;

o'quvchilarda fanni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish;

global tarmoqlar orqali o'qitish metodlari va texnologiyalarini qabul qila olish, uni qayta ishlash va o'quv jarayoniga olib kirish.

**Tarbiyaviy va tashkiliy ishlar bo'yicha:**

umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tadbirlar majmuasini o'rganib chiqish va bunday tadbirlarni tashkil etish va o'kazish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularni o'z amaliy faoliyatida foydalanish;

sinf rahbariga yuklatiladigan vazifalarni aniqlash va ish rejasini tuzish;

ota-onalar bilan ishlash tajribalarini o'rganish va uning rejasini ishlab chiqish;

o'quvchilarga axloq, ayniqsa, sharqona odob normalarini singdirish;

o'quvchilar shaxsini, jamoa a'zolari, rahbariyatni hurmat qilish tamoyillariga amal qilish;

o'quvchilar orasida milliy g'oyani targ'ib qiluvchi va ma'naviyatini boyituvchi ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish;

san'at va xalqaro ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarning milliy tarbiyaga salbiy ta'sirini tez anglash va ma'rifiy yo'llar bilan ularning oldini olish.

Bakalavrlarning stajerlik faoliyatiga mas'ul organlar va shaxslarga qo'yiladigan talablar.

**Bakalavrga qo'yiladigan talablar:**

stajerlik faoliyati bo'yicha yillik ish rejasini («ustoz» bilan hamkorlikda) tuzish va uni izchil amalga oshirish;

umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va tarbiya jarayonini normativ hujjatlar asosida o'rganib chiqish;

amaldagi hujjatlar asosida o'z shaxsiy rejalarini ishlab chiqish;

internetdan yangi axborotlarni olish va uni o'quv jarayoniga kiritish;

o'qitish metodlari va texnologiyalarini egallash va o'quvchi shaxsi xususiyatlariga mos ravishda metod va texnologiyalarni tanlay olish;

o'quv adabiyotlari (asosiy va qo'shimcha)dagi materiallarni ijodiy qayta ishlay olish;

ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga amal qilish;

o'zining faoliyatiga baho bera olish va hisobot tayyorlash.

**Kadr tayyorlagan oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga qo'yiladigan talablar:**

oliy ta'lim axborot-resurs markazi bazasidan, shuningdek, oliy ta'lim muassasasining internetdagi portalidan bepul foydalanishga imkoniyat yaratish;

bakalavrning o'quv-metodik va ilmiy-metodik ishlariga rahbarlik qilish uchun mutaxassis tayinlash;

bakalavrlarning stajerlik faoliyati natijalarini umumlashtirish, ilmiy-tadqiqotlar olib borish va takomillashtirish.

**Ish beruvchi ta'lim muassasasi rahbariyatiga qo'yiladigan talablar:**

bakalavrga ta'lim muassasasining axborot-resurs markazi bazasidan to'liq foydalanishga ruxsat berish;

muassasaning internetga ulangan kompyuterida har kuni kamida bir soat ishlashiga sharoit yaratish;

yillik stajerlik faoliyati rejasini shakllantirishga yordam berish va uni metod birlashmada hamda pedagogik kengashda tasdiqlash;

yillik ish rejasining bajarilishini pedagogik kengashda har chorakda muhokama qilib borish va metodik yordam tashkil etish;

bakalavrga tajribali mutaxassisni «ustoz» sifatida biriktirish va uning ham faoliyati axborotini pedagogik kengashda muhokama qilib borish va baho berish;

o'rnatilgan namunada vazirlikka va oliy ta'lim muassasasiga ma'lumotnoma yo'llash (elektron pochta orqali).

**Qadrlarga buyurtmachi bo'lgan ta'limni boshqarishga vakolatli davlat organi rahbariyatiga qo'yiladigan talablar:**

ta'lim muassasalarida bakalavrlarning o'quv-metodik ta'minotini tahlil qilib borish va uni yo'lga qo'yishning zarur choralarini ko'rish;

xalq ta'limi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarining yosh kadrlarning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirayotgan tadbirlarini vazirlik Hay'ati yoki boshqarma kengashlarida muhokama qilish;

bakalavrlarning pedagogik ko'nikishlariga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish.

3. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari

**3.1. 5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg'iz tili va adabiyoti)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning 4 yillik kunduzgi shakli ta'lim dasturi quyidagicha taqsimlanadi:

Nazariy ta'lim, shu jumladan oraliq va yakuniy attestatsiyalar	136 hafta
Malakaviy amaliyot	24 hafta
Bitiruv malakaviy ishi	7 hafta

Davlat attestatsiyasi  
Ta'tillar

1 hafta  
36 hafta  
**204 hafta**

### **Jami**

**3.2.** Talabanning haftalik maksimal o'quv yuklanmasi 54 soat bo'lib, shundan 28 soatgacha auditoriya va qolganlari mustaqil ta'lim soatlariga taqsimlanadi.

**3.3.** Joriy, oraliq va yakuniy attestatsiyalarni hisobga olgan holda ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun 9072 soatni tashkil etadi.

**3.4.** Ta'lim dasturini o'zlashtirishda bir qator masalalar auditoriya soati hisobiga integrallashtirilgan kurslar muammosi bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi ko'zda tutiladi.

**3.5. 5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg'iz tili va adabiyoti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni**

#### **3.5.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar**

*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar* blok bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

#### **3.5.2. Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar**

##### ***Matematik kommunikativ kurs***

##### **Oliy matematika asoslari:**

asosiy algebraik tuzilmalar, vektor fazo va chiziqli akslantirish, analitik geometriya, ko'p o'lchovli yevklid geometriyasi, topologiya elementlari, mantiqiy hisoblashlar, algoritmlar nazariyasi, kombinatorika, differensial va integral hisoblash, differensial tenglamalar, ehtimolliklar nazariyasining matematik asoslari, tasodifiy hodisalar modellari, gipotezalarni tekshirish, eng katta o'xshashlik prinsipi, eksperiment natijalarini qayta ishlashning statistik metodlari.

##### **Informatika va axborot texnologiyalari:**

axborotlarni yig'ish jarayoni, uzatish, qayta ishlash va to'plash haqida umumiy tavsifnoma; axborotlarni tarqatish jarayonida texnik va dasturlash vositalari.

Texnologiya tushunchasi. Axborot texnologiyalari, ularning ko'rinishlari va klassifikatsiyasi. Yangi axborot texnologiyalari. Yangi axborot texnologiyalari vositalari. Shaxsning o'qishida, tarbiyalanishida va rivojlanishida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Matn va grafik axborotlarni tayyorlash, tahlil qilish va qayta ishlash texnologiyasi. Multimedia texnologiyasi. Tarmoq texnologiyalari. Internet texnologiyasi. Masofadan o'qitish.

##### ***Tabiiy-ilmiy kurs***

##### **Yosh fiziologiyasi va gigiena:**

organizmning yosh xususiyatlari va organlar hamda tizimlarning turli vazifalari. Organizm - yaxlit bir tizim. Odamning o'sish va rivojlanishi. Organizmning atrof-muhit bilan aloqadorligi. Irsiy kasalliklarning genezisi va ularni profilaktika qilish masalalari. Yosh organizmning o'sishi va rivojlanishining o'ziga xosligi. Ichki sekretsiya bezlarining faoliyati. Garmonlar muhim biostimulyator va regulyator sifatida. To'qima, organ va organizmlar vazifalarinnig gumoral boshqaruvi, organizmlar hayot faoliyatida nerv tizimining ahamiyati. Har tomonlama taraqqiy etgan shaxsni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Bolalar sog'lig'ini himoya qilishda oilaning o'rni. Sog'lom organizmni ta'minlashda ovqatlanish kun rejimi va boshqa omillarning ahamiyati. Inson organizmining jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishida gigienaning ahamiyati. Shaxsiy gigienaga qo'yiladigan talablar va gigiena me'yorlari.

##### **Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish:**

*odam va biosfera:* biosferaning tuzilmasi, ekosistemalar, organizm va muhitning o'zaro munosabatlari, odamning sog'lomligi va ekologiya. Atrof-muhitning global muammolari.

*tabiatdan foydalanish:* tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ekologik tamoyillari va tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy asoslari. Atrof-muhitni

muhofaza qilish texnika va texnologiyalari. Ekologik huquq asoslari va kasbiy mas'uliyat. Atrof-muhit sohasida xalqaro aloqalar.

### **Markaziy Osiyo geografiyasi:**

«Markaziy Osiyo» atamasi mohiyati, Markaziy Osiyoning chegaralari, o'lchamlari, geografik o'rni, qo'shni mamlakatlar bilan tarixiy geografik yaqinligi, tabiiy-demografik potentsiali; hozirgi vaqtdagi siyosiy-iqtisodiy holati, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari – Markaziy Osiyoning muhim siyosiy-iqtisodiy geografik sub'ektlari sifatida, Markaziy Osiyo respublikalarining geografik xarakteristikasi, rivojlanish muammo va istiqbollari, tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy rayonlari.

### **3.5.3. Umumkasbiy fanlar**

#### ***Pedagogika va psixologiya kursi***

#### **Umumiy psixologiya:**

*Umumiy psixologiya:* umumiy psixologiyaning ob'ekti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida. Psixika haqida tushuncha, psixikaning orientirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Bosh miya va psixika. Psixika va ong. Psixologiya va falsafa. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari. Psixika va ongni tahlil qilish prinsiplari. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilmasi va uning prinsiplari. Psixologiyaning sohalari.

Psixologiyaning metodlari va uning tahlili. Faoliyatning psixologik tahlili. Motivlar va faoliyat.

Psixikaning taraqqiyoti. Motivatsiya va emotsiya psixologiyasi. Motivatsiya sohasining umumiy tuzilishi. Iroda psixologiyasi.

Shaxs psixologiyasi. Shaxs, individ, individuallik tushunchalari. Frustratsiya va shaxsning istiqbol rejalari. Konformizm. Dunyoqarash va e'tiqod.

Muloqot psixologiyasi va nutq. Diqqat va uning turlari. Sezgi va idrok. Xotira va xayol. Tafakkur. Muammoli vaziyat va uni hal qilish. Temperament, uning o'ziga xos xususiyatlari.

*yosh va pedagogik psixologiya:* yosh va pedagogik psixologiyaning predmeti, uning rivojlanish tarixi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Yosh psixologiyasidagi maktablar. Yosh psixologiyasini o'rganish metodlari. Ta'lim mazmuni va psixik taraqqiyot. Yoshning umumiy xarakteristikasi. Yosh taraqqiyotini davrlashtirish.

Maktabgacha yosh davri xarakteristikasi. Kichik maktab yoshi davri psixologiyasi. O'smir psixologiyasi, o'spirin psixologiyasi. Ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. Tarbiya metodlari va formalari. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot.

#### **Umumiy pedagogika:**

*Pedagogika nazariyasi va tarixi:* pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot ob'ekti, metodlari.

«Ta'lim to'g'risida Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta'lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta'lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari. Ta'limning rivojlanish yo'nalishlari (konsepsiyasi): uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, texnologizatsiya konsepsiyasi, ta'lim paradigmatlari.

Didaktik prinsiplar(tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari. Ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar. Ta'lim jarayonida motivatsiya.

Ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari. Umumiy va xususiy metodlar. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga qaratilgan metod va texnologiyalar. Metod tanlash va motivatsiya. O'quv adabiyotlari va ularning turlari. Elektron o'quv adabiyotlari.

Ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik texnologiyalar. Ta'lim shakllari. Ta'limni tashxis etish.

Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayoni, muhiti(sotsium), tarbiya prinsiplari, tarbiyaga qo'yiladigan talablar. Tarbiya metod va texnologiyalari. Milliy tarbiya masalasi. Tarbiya turlari. Tarbiya va milliy g'oya. Tarbiya va ma'naviyat. Oila tarbiyasi.

Ta'lim tizimini boshqarish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim muassasasi, uni boshqarish. Boshqaruvda vasiylik va homiylik masalalari.

Maxsus(korreksion) pedagogika, uning maqsad va vazifalari, uning pedagog faoliyati uchun ahamiyati.

Pedagogika tarixi. Ta'lim, tarbiya va ta'lim muassasasi to'g'risidagi g'oyaning paydo bo'lishi. Eng qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlash taraqqiyoti. Islom madaniyati va tarbiya. Tarbiya to'g'risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Turkistonda ta'lim va tarbiya. Markaziy Osiyoda maktab, maorif, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish tarixi. Mustaqillik davrida ta'lim va tarbiya. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogik fikrlarning xususiyatlari.

*Pedagogik texnologiyalar:* pedagogik texnologiya tushunchasi va ta'rifi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va pedagogik texnologiyalar. Pedagogik texnologiya tushunchasi, o'quv jarayoni, o'quv muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi metod va formalariga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'zbekiston Respublikasida ta'limning rivojlanishi va kadrlar tayyorlashning milliy dasturi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi, shaxsning sifat tizimi. O'qitish jaryonida bilim olish, malaka va ko'nikma hosil qilish. Innovatsion faoliyat tizimi va pedagogning innovatsion faoliyati.

Pedagogik texnologiyalarga ilmiy-nazariy yondashuv. Turli didaktikachi pedagoglarning pedagogik texnologiyalari haqida ma'lumot. Pedagogik texnologiyaning YuNESKO e'tirof etgan tavsifi. Pedagogik texnologiyaning asosiy sifatleri, klassifikatsiyasi va ilmiy asoslari.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya: o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiya, muammoli o'qitish, dasturli o'qitish, o'qitishning axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasi, o'qitishning takomillashib borish texnologiyasi, o'yinli texnologiyalar, modul texnologiyasi, interaktiv texnologiyalar, bilimlarni nazorat qilish texnologiyasi. Texnologik karta.

*Pedagogik mahorat:* pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya, pedagogik mahoratning nazariy asoslari. Pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari. Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati. Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari. O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik g'oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo'llari. Pedagogik mahorat taraqqiyot tarixi. Mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, pedagog faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslari.

#### **Qirg'iz tilini o'qitish metodikasi:**

qirg'iz tili o'qitishning xususiy va umumiy metodikasi. Qirg'iz tili o'qitish metodikasining tilshunoslik fanlari bilan aloqasi. Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi ona tili mazmuni. Ta'limning ilg'or metodlari va usullari. Dars tiplari va bo'limlari. Darslik, o'quv qo'llanmasi, dastur, dars rejasiga qo'yiladigan talablar va o'qitish prinsiplari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlari, fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi. Qirg'iz tili bo'yicha darsdan tashqari ishlar.

#### **Qirg'iz adabiyotini o'qitish metodikasi:**

qirg'iz adabiyotining o'qitishning umumiy va xususiy metodika tushunchasi, qirg'iz adabiyotini o'qitish metodikasi tarixi. Qirg'iz adabiyotini o'qitish usullari va yo'llari. O'qitish metodikasi nuqtai nazaridan badiiy asar tahlili nazariyasi. Qirg'iz adabiyoti bo'yicha umumiy



o'рта ta'lim, o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi qirg'iz adabiyoti mazmuni, o'quv rejasi, maktab dasturlari va darsliklarining mazmuni. Ta'lim muassasalarida badiiy asarni o'rganish bosqichlari. Dars turlari. Adabiyot darslarining rejalari va konspektlari. O'quvchilar bilimlarini baholash mezonlari. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, qirg'iz adabiyotini o'qitishning umumnazariy va xususiy xususiyatlari. Adabiyot darslarida ko'rgazmalilik. Adabiyot bo'yicha darsdan tashqari ishlar.

#### **O'qituvchi nutqi madaniyati:**

nutq madaniyati haqida tushuncha. Nutq madaniyatining nazariy asoslari. «Nutq madaniyati»ning boshqa tilshunoslik fanlari bilan aloqasi. Nutq madaniyati tarixi. Nutq madaniyatining kommunikativ belgilari: to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, soflik, ifodalilik, boylik va boshqalar. Nutq madaniyati va stilistik norma. Nutq madaniyati va adabiy til. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Ta'lim jarayonidagi nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati. Nutq texnikasini takomillashtirish yo'llari.

#### **Tilshunoslik kursi**

##### **Tilshunoslik asoslari:**

til haqidagi fanning predmeti. Tilshunoslik fanining boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi. Tilning mohiyati va vazifalari. Til va jamiyat, til va millat. Til tizimi va tuzilishi, uning sathlari, birliklari va ularning namoyon bo'lish qonuniyatlari. Tilning paydo bo'lish nazariyasi. Yozuvning asosiy taraqqiyot davrlari. Alfavit. Tilni o'rganish metodlari. Qiyosiy-tarixiy metod haqida tushuncha. Jahon tillari tasnifi. Jahon tillarining genialogik va tipologik tasnifi.

##### **Umumiy tilshunoslik:**

tilshunoslik asoslari va umumiy tilshunoslik. Tilshunoslik tarixi: qadimgi Xitoy va Hindistonning tilshunosligi, Grek va Rim tilshunosligi, Arab tilshunosligi, Yevropa uyg'onish davridagi tilshunoslik. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va uning oqimlari. Markaziy Osiyoda tilshunoslik. Tilshunoslikning hozirgi zamon maktablari va yo'nalishlari, ularning nazariy asoslari. Til tizimi va tuzilishi. Til va axborot. Tilni o'rganish metodlari.

##### **Qirg'iz tili praktikumi:**

qirg'iz tili normativ grammatikasining predmeti, maqsadi va vazifalari. So'zning fonetik, leksik va grammatik tahlili. Orfoepik va imloviy xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llari. Og'zaki va yozma nutqda grammatik xatolar va ularni bartaraf etish. Punktatsiya, punktatsion xatolar.

##### **Hozirgi qirg'iz adabiy tili:**

hozirgi qirg'iz tili kursining maqsad, vazifalari va tuzilishi. Qirg'iz tilining ijtimoiy vazifa, davlat tili ekanligi. Qirg'iz tili – turkiy tillardan biri. Adabiy til. Qirg'iz tilining fonetik va fonologik tizimi. Nutq apparati, tilning artikulyatsion bazasi, nutq tovushlari va fonema, fonemalarning variatsiya va variantlari, unli va undosh fonemalar klassifikatsiyasi, nutq tovushlari talaffuzidagi fonetik xususiyatlar, bo'g'in, urg'u.

Orfoepiya haqida tushuncha. Alohida tovush va so'zlarning hamda o'zlashgan so'zlarning talaffuz qoidalari. Nutq madaniyatining shakllanishida orfoepiyaning roli va o'rni. Harflar, alfavit, grafemalar. Qirg'iz orfografiyasining prinsiplari, orfografiya qoidalari. Orfografiya va transkripsiya, orfografiya va transliteratsiya, orfografiya va punktatsiya, orfografiya va orfoepiya. Qirg'iz yozuvlari tarixi.

Leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya. Leksikologiya – qirg'iz tilshunosligi bo'limlaridan biri. Qirg'iz tilining lug'at tarkibi. Lug'at tarkibining asosiy birliklari va taraqqiyotining qonuniyligi. So'zning semantik tuzilishi. Leksik ma'no turlari. Omonim, sinonim, antonim va ularning turlari. Omonim va uning yondosh hodisalarga munasabati. Lug'aviy birliklarning tarixiy, zamonaviy, semaseologik, ekspressiv nuqtai nazardan tavsifi, qirg'iz tili lug'at tarkibini boyitish usullari.

Frazeologik birliklarning semantikasi va strukturasi. Frazeologik birliklar komponentlarining semantik birikuvchanlik darajasiga ko'ra klassifikatsiyasi. Frazeologizm va so'zlarning o'zaro aloqasi, ularning umumiy va farqli tomonlari, til va nutqdagi o'rni.

Leksikografiya, lugʻatlarning turlari; lugʻat tuzishning prinsiplari. Qirgʻiz leksikografiyasi tarixi.

Morfema va uning turlari: oʻzak, affiks, sodda, murakkab, monofunksional, polifunksional soʻz oʻzgartiruvchi, forma yasovchi, kategorial va nokategorial. Tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan oʻzak va affikslar. Soʻzlarning morfemik tahlili. Soʻz tarkibida morfemaning oʻrni va roli.

Soʻz yasash – yangi leksik birliklarning paydo boʻlishi sinxron va diaxron soʻz yasash. Soʻz yasashining turlari: fonetik, leksik-semantik, affiks, kompozitsion. Yasama soʻzlarning strukturasi. Soʻz yasovchi oʻzak, soʻz yasovchi affiks. Affiksoitlar. Soʻz turkumlarining yasashi. Otlar, sifatlar, ravishlar, feʼllarning yasashi.

Grammatik maʼno, forma, kategoriyalar; kategorial va funksional formalar.

Qirgʻiz tilida soʻz turkumlarining ajratilish prinsipi. Ot va uning leksik va grammatik xususiyatlari. Otning ichki kategoriyalari. Sifat. Sifatning leksik-grammatik xususiyati, ichki kategoriyalar. Son va olmosh va ularning maʼno turlari. Feʼl, uning grammatik kategoriyalari va funksional formalari. Feʼllarning tuslanish. Ravish va uning maʼno turlari. Koʻmakchilar, ularning grammatik va funksional xususiyatlari. Modal soʻzlar, undovlar, mimemalar va ularning xususiyatlari.

Sintaksis aspektlari: formal, kommunikativ va semantik tomoni. Sintaktik birliklar va qirgʻiz tilining grammatik maʼno ifodalash vositalari. Sintaktik aloqa turlari. Ergash aloqalarining turlari. Soʻz birikmasi va uning turlari. Sodda gap va uning struktur va semantik belgilari. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari. Gapda paradigma va sintigma tushunchasi.

Gap boʻlaklari va ularning turlari. Gap boʻlaklarining tartibi. Gapning uyushiq va ajratilgan boʻlaklari. Bir bosh boʻlakli gaplarning struktur-semantik turlari. Undalma, kirish soʻzlar, kirish konstruksiyalar (birikmalar). Qoʻshma gaplarning struktur-semantik turlari. Koʻchirma va oʻzlashtirma gap. Punktatsiya, tinish belgilari sistemasi va ularning funksiyalari. Sintaksis va punktatsiya. Matn sintaksisi.

#### **Qirgʻiz tili stilistikasi:**

amaliy stilistika predmeti, qirgʻiz tilining funksional uslublari tizimi. Qirgʻiz tili stilistikasining tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari bilan aloqasi. Stilistik norma va stilistik xatolar tushunchasi. Matn uslublari ustida ishlash.

#### **Qadimgi turkiy til:**

qirgʻiz tili turkiy tillar oilasi sistemasidagi til sifatida. Qadimgi turkiy tilning manbalari va uni davrlashtirish. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari va ularning grafik xususiyatlari, uygʻur va run yozuvi yodgorliklari. Qadimgi turkiy tilning fonetik qonunlari. Qadimgi turkiy tilning fonetik sistemasi: vokalizm, konsonantizm va ularning keyingi davrda va hozirgi turkiy tillarda aks etishi. Qadimgi turkiy tilning leksik tartibi. Qadimgi turkiy tilning asosiy morfologik va sintaktik xususiyatlari va punktatsiya sistemasi. Qadimgi turkiy matnlarning oʻqilishi va interpretatsiyasi.

#### **Qirgʻiz tilining tarixiy grammatikasi:**

qirgʻiz tilining tarixiy grammatikasi manbalari va yodgorliklari tilini oʻrganish metodlari. Qirgʻiz yozuv yodgorliklarining leksik tarkibi va uning rivojlanishi. Qirgʻiz tili fonetik sistemasining rivojlanish tarixi: vokalizm, fonetik qonun, oʻz va oʻzlashgan fonemalar, singarmonizmning xususiyatlari. Qirgʻiz tili grammatik qurilishining rivojlanish davrlari. Soʻz turkumlari va ularning grammatik kategoriyasi. Qirgʻiz yozuvi yodgorliklari tilining sintaksisi. Soʻz birikmasi, qirgʻiz tilida turkiy, forsiy va arabiy soʻz birikmalari. Sodda, qoʻshma va murakkab gaplarning strukturasi va semantikasi. Punktatsiya tizimining rivojlanish qonuniyatlari.

#### **Qirgʻiz adabiy tili tarixi:**

qirgʻiz adabiy tili, uning yozma va ogʻzaki formasi, tayanch dialekti. Uslubiy tarixiy nuqtai nazaridan adabiy tilni oʻrganish. Qirgʻiz adabiy tili tarixi va fors-tojik, arab, rus tili. Qirgʻiz adabiy tilining rivojlanish davrlari, qirgʻiz adabiy tili tarixining manbalari. Qirgʻiz xalqining va uning tilining tarixiy atamasi. Qirgʻiz xalq adabiy tilining qadimgi, oʻrta va keyingi

davri. Qirg'iz milliy adabiy tili rivojlanishida buyuk so'z ustalarining roli. Qirg'iz adabiy tilining shakllanishida turli oqimlar va nazariyalar. Qirg'iz adabiy tili va davlat tili.

#### **Turkiy yozuvlar tarixi:**

grafika haqida umumiy tushuncha. Turkiy yozuv turlari. Qadimgi turkiy alifbo. O'rxun-Enasoy va Talas yozuvlari. Arab imlosidagi qirg'iz yozuvi, uning grafik xususiyatlari. Arab xarflari va diakritik belgilarini yozish shakllari. Arab grafikasidagi qirg'iz tili imlosi. Arab yozuvidagi qirg'iz yozuvining isloh qilinishi. Litografik va tipografik nashrdagi qo'lyozmalarning xususiyatlari. Uzoq xorijda yashovchi qirg'izlar grafikasi.

#### **Qirg'iz dialektologiyasi:**

qirg'iz dialektologiyasi kursining maqsad va vazifalari. Lingvistik geografiya, qirg'iz tilining dialektlari: Qirg'iz dialektlarining klassifikatsiyasi, ularning o'rganilishi. Dialektlarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. Qirg'iz dialektlarini tasvirlash usullari. Dialektlar va adabiy til. Dialektal xatolar va ularni tuzatish usullari.

#### **O'zbek filologiyasi:**

*o'zbek tili:* o'zbek tili haqida umumiy ma'lumotlar: o'zbek tilining qisqacha tarixi, uning sheva tarkibi. O'zbek tilining davlat tili maqomi xususida. Fonetika va fonologiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi, grammatika. O'zbek adabiy tili.

*o'zbek adabiyoti:* o'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti. Adabiy meros. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish. Adabiy janrlar, adabiy oqimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi. O'zbek va fors-tojik adabiyotining o'zaro aloqasi. O'zbek adabiyotining tematik xilma-xilligi. Xalq og'zaki ijodi va adabiy meros. Qadimgi, o'rta va keyingi davr o'zbek adabiyoti. O'zbek adabiyotining ma'naviy, g'oyaviy va janr jihatdan boyishida klassik shoir va yozuvchilarning roli. Klassik adabiyotning she'riyatida vazn masalasi. XX asr o'zbek adabiyotini davrlashtirish muammolari. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy va madaniy hayot. Jadidchilik va jadid adabiyoti. Jadid adabiyoti vakillari. O'zbek matbuotining paydo bo'lishi. 20-yillar adabiyotida g'oyaviy kurash. O'zbek adabiyoti va mafkura. 20-yillar o'zbek adabiyotining namoyondalari.

II Jahon urushi yillarida o'zbek adabiyoti. Urushdun keyingi davr adabiyoti. 60-80 yillar o'zbek adabiyoti. She'riyatda yangi yo'nalish.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. Adabiyotda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi.

#### **Sharq tillari:**

*arab tili:* eski o'zbek tilida arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arab tili islom tili sifatida. Eski o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'z va iboralarning asosiy grafik, semantik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari. Arab tilida so'z yasalish tizimi. Eski o'zbek va hozirgi o'zbek tilidagi arab tili o'zlashmalarining qiyosiy tahlili.

*fors tili:* fors tili hind-evropa tillarining biri sifatida. O'zbek tilida fors tilidan o'zlashgan so'zlar. Eski o'zbek tili va fors tili, fors tilining grafik va fonetik xususiyatlari. Fors tili lug'ati ustida ishlash. Fors tili grammatik qurilishining asosiy xususiyatlari.

#### **Adabiyotshunoslik kursi**

##### **Adabiyotshunoslik asoslari:**

adabiyot haqidagi fan. Adabiyotshunoslik fanini o'rganishning asosiy sohalari va ob'ektlari. Adabiyot – so'z san'ati. Adabiyotda mazmun va shakl xususiyatlari. Mavzu, g'oya va ularning o'zaro bog'lanishi. Adabiy obraz, uni yaratish yo'llari va usullari. Kompozitsiya va syujetning rivojlanish tasnifi. So'zning ko'p qirraliligi. O'zbek she'rlari tizimi. Adabiy tur va manbalar. Adabiy uslub, usul va yo'nalishlar.

##### **Adabiyot nazariyasi:**

badiiy adabiyot va adabiyot nazariyasi. Adabiy-nazriy bilim tarixi. Yevropada adabiy-estetik oqimlar. Bilish nazariyasi va badiiy adabiyot. Badiiy adabiyotda voqelik va xarakter, qarama-qarshilik, kompozitsiya, asar mazmuni, estetika va tragediya (fojea), tipiklik va tip, milliylik va baynalminallik, an'ana va yangilik, shakl va mazmun. Adabiy janrlar, turlar va uslublar. Ijodiy uslublar va oqimlar. Lirik, she'riyat haqida tushuncha, ularni tahlil va tadqiq qilish prinsiplari.

### **Qirg'iz adabiyoti tarixi:**

qirg'iz adabiyoti, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uning xalq taraqqiyoti tarixi bilan bog'liqligi, jahon adabiyotida tutgan o'rni. Adabiy meros, unga bo'lgan munosabat. Qirg'iz adabiyoti tarixini davrlashtirish. Qirg'iz va turkiy xalqlar adabiyoti manbalari. Qadimgi turkiy adabiyot. Qirg'iz adabiyoti tarixi va xalq og'zaki ijodi. Mif va afsonalar. XI-XIV asrlardagi qirg'iz adabiyotining tematik va janr xususiyatlari, namoyandalari. M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, A.Yassaviy, va boshqa adiblar asarlarining adabiy-estetik talqini.

Xonlik adabiyotining tashkil topishi. Klassik adabiyotdagi adabiy-nazariy qarashlar, vazn masalasi. Qirg'iz adabiyotining rivojlanishida Buxor jirov, Aqtamberdi jirov, Dospambet jirovlar hamda XV-XIX asrlarda ijod etgan adiblarning roli, ular asarlarining badiiy-estetik tahlili.

Ma'rifatparvarlik adabiyoti, uning yirik vakillari ijodining ahamiyati va tahlili.

XX asr adabiyoti va uni davrlashtirish. Qozog'istondagi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy va madaniy hayot. Jadid adabiyoti. Adabiyotda yangi tur va janrlarning paydo bo'lishi. Qirg'iz matbuoti va adabiyot. Tarjima adabiyoti. Tanqidchilik. Adabiyotda mafkuraviy kurash. Hokim mafkura masalasi. Taniqli qirg'iz shoir va yozuvchilari hayoti va ijodi. Milliy uyg'onish adabiyoti, uning vakillarining hayoti va ijodi.

30-50-yillar qirg'iz adabiyoti va unda mafkuraviy kurash. Taniqli qirg'iz shoir va yozuvchilarining hayoti va ijodi. Fashizmga qarshi kurash davri adabiyoti, uning tematik va janr xususiyatlari. 60-90-yillar qirg'iz adabiyoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, bu davrda ijod etgan shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodi. Mustaqillik davridagi qirg'iz adabiyoti. Adabiyotda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi.

### **Qirg'iz bolalar adabiyoti:**

bolalar va kattalar adabiyotining o'ziga xos tomonlari, bolalar adabiyotining paydo bo'lishi, bolalar adabiyotining folklor bilan bog'liqligi, qirg'iz bolalar adabiyotining rivojlanish davrlari, har bir davr bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, qirg'iz bolalar adabiyotining taniqli vakillari hayoti va ijodi.

### **Qirg'iz xalq og'zaki ijodi:**

xalq og'zaki ijodining paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi. Xalq og'zaki ijodining qadimiyligi va janrlari; qo'shiqlar va lirik she'rlar, afsonalar va rivoyatlar, ertaklar. Qirg'iz ishqiy-sarguzasht dostoni. Dostonlarda umumiylik va doston xususiyatlari. Qo'shiqlar va she'r turlari. Xalq og'zaki ijodi janrlarining mavzulari, g'oyaviy yo'nalishlari. Latifalar, masallar.

### **Jahon adabiyoti:**

*chet el adabiyoti:* antik jamiyat va uning insoniyat tarixida tutgan o'rni. Grek adabiyoti, uning mifologik asosi. Qahramonlik eposi. Grek tragediyasi va komediyasi. Rim adabiyoti. Quldorlik Rim tarixi. O'rta asrlar eposi. Ritsar adabiyoti. Provans va uning ritsar lirikasining rivojidadagi o'rni.

O'rta asrlar shahar adabiyoti. Klassitsizm, sentimentalizm – XV-XVII asrlari asosiy adabiy yo'nalishlari. Ma'rifat davrining xususiyati. Atoqli adiblar ijodi. Romanizm – XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi adabiy oqim. Janrlar rivoji. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida realizm oqimining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi. Shu asr yozuvchilarining ijodi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi chet el adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Adabiy yo'nalishlarning turli-tumanligi: naturalizm, impressionizm, simvolizm, modernizm va boshqalar. Chet el adabiyotini aks ettiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi matbuoti – «Jahon adabiyoti».

*MDH xalqlari adabiyoti:* MDH xalqlari adabiyotining yuzaga kelishi, uni davrlashtirish, klassik va zamonaviy adabiyotning uzviy aloqasi va uzviyligi. Hozirgi zamon adabiyotining janr, mavzu, g'oyaviy jihatdan tahlili. MDH xalqlari adabiyoti mashhur namoyandalarning hayoti va ijodi, ularning ijodiy merosini baholash, ayrim asarlarning ilmiy-nazariy tahlili. Qirg'iz adabiyoti va MDH xalqlari adabiyoti. Adabiy aloqlar. Adabiy ta'sir. Tarjima va uning adabiy aloqalardagi roli. Xalqlar orasidagi hamkorlik ishida adabiyotning roli.

### **Ifodali o'qish praktikumi:**

«Ifodali o‘qish» kursining predmeti va vazifasi, she’riy intonatsiya, ritm, tepm, ritorika. She’riy, nasriy va dramatik janrlarning xususiyatlari. Aruz va barmoq vazni xususiyatlari. Ifodali o‘qishni baholash.

#### **3.5.4. Ixtisoslik fanlari**

##### **Markaziy Osiyo tarixi:**

Markaziy Osiyodagi qadimgi makonlar, qadimgi aholi, davlat birlashmalarining tashkil topishi, Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatlar. Ko‘chmanchi qabilalarning ijtimoiy-siyosiy qurilishi. Markaziy Osiyoda millatlarning shakllanishi. Madaniyat. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati. Sobiq «Sho‘rolar» hokimiyati davridagi Markaziy Osiyodagi respublikalarining madaniy-maishiy hayoti. Beshta respublikaning iqtisodiy va madaniy hamkorligi. Yagona iqtisodiy makonning tashkil etilishi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti.

##### **Badiiy asarning estetik tahlili:**

badiiy asarning estetik tahlili. Tahlil tamoyillari, metodologiyasi va metodlari. Badiiy asarda obraz va obrazlilik. Badiiy matnning o‘ziga xosligi. Til va uslub muammolari. Badiiy asarning janr xususiyatlari va poetik mahorati masalasi. Badiiy asarning boshqa turdagi san’at asarlari bilan qiyosiy tahlili.

##### **Turkologiya tarixi:**

tilshunoslikning ilk manbalari. Turkiy tillar va ularning tasnifi. Qadimgi turkiy tilning o‘rganilishi. Mahmud Qoshg‘ariy va boshqa o‘rta asr Markaziy Osiyo tilshunoslarining asarlari. Turkologiyaning vujudga kelishi, unda rus va mahalliy millat vakillarining ishtiroki. Turkologiyaning XX asrdagi taraqqiyoti. Turkologiyaning yo‘nalishlari.

##### **Qirg‘iz adabiy tanqidchiligi tarixi:**

adabiy tanqid tushunchasi. Qirg‘iz adabiy tanqidchiligi tarixini o‘rganishning metodologik masalalari. O‘tmish adabiy tanqidchiligi. Adabiy tanqidning o‘ziga xosligi. Qirg‘iz adabiy tanqidchiligi tarixini davrlashtirish. Qirg‘iz adabiy tanqidchiligi bosqichlari. XIX asr qirg‘iz adabiy tanqidchiligi. Ch.Valixanov, I.Altinsarin, A.Qunanboevlarning adabiy-tanqidiy qarashlari.

XX asr qirg‘iz adabiy tanqidchiligi. Professional tanqidchilikning yuzaga kelishi. Yangi janrlarning (taqriz) paydo bo‘lishi. Turg‘unlik davri qirg‘iz adabiy tanqidchiligi, unda tanqidchilik janrlari rang-barangligi.

Milliy istiqlol davri tanqidchiligi: adabiy jarayon va adabiy tanqid. Tanqidchilikda ijodiy metod va adabiyot konsensiyasining o‘zgarishi. Ijod erkinligi. Estetik tahlil – adabiy tanqidchilikning asosiy mezon. Qirg‘iz adabiy tanqidchiligi namoyandalari.

##### **Badiiy matnning lingvistik tahlili:**

badiiy matn tushunchasi. Badiiy matnning g‘oyaviy-estetik yo‘nalishi. Lingvistik matn tushunchasi. Mikromatn, makromatn. Matnning kommunikativ bo‘laklari. Matn sintagmatikasi. Matnning pragmatik xususiyati. Matni lingvistik tahlil qilish metodlari, usullari. Tahlil tiplari.

Matni fonetik, leksikologik va grammatik tahlil qilish. Matn va kontekst. Matn va uslub.

Ixtisoslik fanlarining ro‘yxati va mazmuni kadrlar buyurtmachilarining talablari hamda bakalavrlar tayyorlanadigan ushbu yo‘nalish fan, ta’lim metodlari va texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

#### **3.5.5. Malakaviy amaliyotlar**

**pedagogik amaliyot:** umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘tkaziladi va unda talabalar oliy ta’lim muassasalarida oliy nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Uning mazmuni maxsus nizom bilan belgilanadi.

**o‘quv amaliyoti:** aholi orasida dialektologik va folklor materiallarini to‘planadi, qo‘lyozma xazinalari bilan tanishiladi.

#### **3.5.6. Bitiruv malakaviy ishi**

bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ta’lim muassasasining bitirtiruvchi kafedralari tomonidan kadrlarga talabgorlarning talablarini, shuningdek zamonaviy fan, ta’lim metodlari va texnologiyalari yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi ilimiy-metodik yoki ilmiy-tadqiqot yoʻnalishida boʻlishi mumkin.

Talabaga bitiruv malakaviy ishi topshirigʻi, odatda, u uchinchi kursni tugatgandan soʻng beriladi. Ish kasbiy va maxsus fanlarni talaba oʻzlashtirib borgani sari toʻrtinchi kurs mobaynida, shuningdek, mazkur standartda bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmini kafedra belgilaydi.

### **3.5.7. Taʼlim dasturini amalga oshirish**

**5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirgʻiz tili va adabiyoti)** taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlar tayyorlashning taʼlim dasturi mazkur yoʻnalish boʻyicha akkreditatsiyalangan oliy taʼlim muassasalarida rivojlanayotgan taʼlim texnologiyalaridan, axborot texnologiyalaridan va taʼlimning zamonaviy texnika vositalaridan foydalanib tayyorlashda amalga oshiriladi.

Taʼlim maboynida talaba ikkitadan kam boʻlmagan Davlat attestatsiyasi (gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan va xorijiy tildan) topshiradi va bitiruv malakaviy ishni bajaradi. Davlat attestatsiyasi oʻquv jarayoni tugashi bilanoq tegishli integrallashgan kurs boʻyicha oʻtkaziladi.

Malakaviy amaliyot taʼlim muassasalarida, zamonaviy korxonalar, tashkilotlar va ilmiy tekshirish institutlarilarda oʻtkaziladi.

## **4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash**

**4.1.** Bakalariat yoʻnalishi boʻyicha kadalr tayyorlashning sifatini nazorat qilish quyidagilarni qamrab oladi:

*ichki nazorat:* oliy taʼlim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy taʼlimni boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan reyting nazorat tizimi haqidagi nizom asosida oʻtkaziladi;

*yakuniy davlat nazorati:* u davlat taʼlim standartlariga muvofiq ravishda fanlar boʻyicha yakuniy Davlat attestatsiyalari hamda bitiruv malakaviy ishi himoyasini oʻz ichiga oladi;

*davlat-jamoatchilik nazorati:* oliy taʼlimni boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

*tashqi nazorat:* belgilangan tartibda Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va taʼlim muassasalari attestatsiyalar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar isteʼmolchilari tomonidan mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

### **4.2.** Oliy taʼlim muassasalarining majburiyatlari:

- oliy taʼlim muassasalari davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi toʻgʻrisidagi Nizomga muvofiq ushbu standart talablariga rioya qilish va bakalavr tayyorlash sifatini taʼminlash;

- professor-oʻqituvchilar tarkibi va oʻquv-yordamchi xodimlar saviyasining malaka talablariga mos kelishini taʼminlash;

- har bir fanni oʻquv dasturiga muvofiq ravishda zarur oʻquv-metodik adabiyotlar hamda mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar materiali bilan taʼminlash;

- oʻquv jarayonini moddiy-texnik jihatdan taʼminlash.

## **5. Eslatma**

### **5.1.** Oliy taʼlim muassasasiga:

-ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmuni taʼminlagan holda talabanning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan oʻquv materialini oʻzlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini oʻquv fanlari bloklari uchun 5% oraligʻida, blokga kiruvchi oʻquv fanlari uchun 10% oraligʻida oʻzgartirish;

-umumkasbiy fanlar blokiga mos ravishda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy oʻquv fanlarining alohida boʻlimlarini chuqurlashtirib oʻqitishni belgilash;

-oʻquv fanlari mazmuniga, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda oʻzgartirishlar kiritish huquqi beriladi;

-bitiruv malakaviy ish mavzusini belgilash oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

**5.2.** Kurs ishlari muayyan o'quv faoliyatning bir turi sifatida ko'riladi va ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar chegarasida bajariladi.

**5.3.** Davlat ta'lim standartini bilish professor-o'qituvchilar tarkibini tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

**5141300 – Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz tili va adabiyoti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
ta’lim dasturining tuzilishi**

№	O‘quv fanlari, integrallashirilgan kurslar va bloklarining nomlari	Umumiy yuklama-ning hajmi
		sotalarda
1.	2	3
<b>1.00</b>	<b>Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar</b>	<b>1704</b>
<b>2.00</b>	<b>Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar</b>	<b>660</b>
	<i>Matematik kommunikativ kurs</i>	340
2.01	Oliy matematika asoslari	114
2.02	Informatika va axborot texnologiyasi	226
	<i>Tabiiy-ilmiy kurs</i>	320
2.03	Yosh fiziologiyasi va gigiena. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish	216
2.04	Markaziy Osiyo geografiyasi	104
<b>3.00</b>	<b>Umumkasbiy fanlar</b>	<b>3698</b>
	<i>Psixologiya va pedagogika kursi</i>	<b>862</b>
3.01	Umumiy psixologiya	244
3.02	Umumiy pedagogika	370
3.03	Qirg‘iz tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi. O‘qituvchi nutqi madaniyati	248
	<i>Tilshunoslik kursi</i>	<b>1748</b>
3.04	Tilshunoslik asoslari	74
3.05	Umumiy tilshunoslik	68
3.06	Qirg‘iz tili praktikumi	72
3.07	Hozirgi qirg‘iz adabiy tili	504
3.08	Qirg‘iz tili stilistikasi	74
3.09	Qadimgi turkiy til	72
3.10	Qirg‘iz tilining tarixiy grammatikasi	142
3.11	Qirg‘iz adabiy tili tarixi	74
3.12	Turkiy yozuvlar tarixi	150
3.13	Qirg‘iz dialektologiyasi	72
3.14	O‘zbek filologiyasi	144
3.15	Sharq tillari	302
	<i>Adabiyotshunoslik kursi</i>	<b>1088</b>
3.16	Adabiyotlik asoslari	80
3.17	Adabiyot nazariyasi	78
3.18	Qirg‘iz adabiyoti tarixi	540
3.19	Qirg‘iz bolalar adabiyoti	80
3.20	Qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi	78
3.21	Jahon adabiyoti	160
3.22	Ifodali o‘qish praktikumi	72



<b>4.00</b>	<b>Ixtisoslik fanlari</b>	<b>610</b>
4.01	Markaziy Osiy tarixi	150
4.02	Badiiy asarning estetik tahlili	150
4.03	Turkologiya tarixi	150
4.04	Qirg'iz adabiy tanqidchiligi tarixi	80
4.05	Badiiy matnning lingvistik tahlili	80
<b>5.00</b>	<b>Qo'shimcha fanlar</b>	<b>450</b>
5.01	Qo'shimcha fanlar	450
<b>6.00</b>	<b>Tanlov fanlar</b>	<b>222</b>
	<b>Jami</b>	<b>7344</b>
	<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>1296</b>
	<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	<b>378</b>
	<b>Davlat attestatsiyasi</b>	<b>54</b>
	<b>Jami</b>	<b>1728</b>
	<b>Hammasi</b>	<b>9072</b>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»:  
O'quv ishlari prorektori  
Q.Abdullaev \_\_\_\_\_  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 200\_\_yil

**O'zbek adabiyoti** fanidan  
O'QUV DASTUR

Bilim sohasi: 200000 -gumanitar fanlar va san'at  
Ta'lim sohasi : **140000**- o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani  
Bakalavr yo'nalishi: **5141300**-ona tili va adabiyoti (Qirg'iz tili va adabiyoti)

Andijon

Fanning o'quv dasturi Andijon Davlat universiteti Filologiya fakulteti Ilmiy kengashining  
2007 yil 30 avgust 1-son majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

5141300-ona tili va adabiyot (qirg'iz tili va adabiyoti) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga  
muvofiq ishlab chiqildi

**Tuzuvchilar: Karimov Halimjon -**  
F.f.n. dotsent

**Mirzaeva Nilufar**-O'zbek adabiyoti kafedrasida assistenti

**Taqrizchilar: Mirzaeva Salimaxon** - Filologiya fanlari  
doktori, dotsent

**Jalolova Lazokatxon** - Filologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi

Filologiya fakulteti kengashida ko'rib chiqildi va tavsiya etildi. 2007-yil 30-avgust 1-bayonnoma

Andijon davlat universiteti o'quv-uslubiy hayatining 2007-yil  
-avgustdagi qaytnomasi bilan tasdiqqa tavsiya etilgan

## **UQTIRISH XATI**

O'zbek adabiyoti kursi oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti qirg'iz tili va adabiyoti yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan qirg'iz tili va adabiyoti yo'nalishi 4 bosqich talabalari uchun 7 va 8-semestrda 34 soat laboratoriya mashg'ulotlari tarzida o'tiladi.

Talabalar mashg'ulotlarda mazkur fan bo'yicha o'zbek adabiyotidan atroflicha bilimga ega bo'lishi va o'z bilimini hayotga tatbiq eta olishi kerak. Talabalar adabiyotimizning turli taraqqiyot bosqichlaridagi rivojlanish qonuniyatlarini, xususan, adabiy taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot rivoji bilan uzviy bog'liqligi, o'tmishdagi mumtoz adabiyotimiz an'analari, xalq og'zaki ijodi boyliklari, qo'shni xalqlar adabiyotlari bilan ijodiy hamkorlik munosabatlarining adabiy kamolotdagi o'rni va ahamiyatini anglab yetishlari kerak.

## **KIRISH**

O'zbek adabiyoti fani, maqsad va vazifalari, manbalari, boshqa fanlar bilan aloqasi.  
**O'zbek adabiyoti tarixi fanining o'tmish adabiyot bilan ish ko'rish. Fan va madaniyatimizning yuksak bosqichda taraqqiy etishida adabiyot tarixining o'rni. Mazkur kurs o'tmishda yaratilgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlarning badiiy olami, nafosati, she'riy san'atlar, shoirning san'atkorligi, she'rning estetik jozibasi kabilardan saboq berishi xususida. Shuningdek, nazariy kurs sifatida adabiyot nazariyasiga doir bilimlar hosil qilinishi. Adabiyot hodisalarini tadqiq qilishning ilmiy-metodologik asoslaridan, ularning tarixidan nazariy ma'lumotlar berishi. Bu kurs mashg'ulotlarining talabalarining estetik didi, dunyoqarashi, badiiy tafakkurini shakllantirishi. Bu kursda badiiy tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari, ramziy-majoziy timsollar olami, badiiy talqin tamoyillarining o'rganilishi. Mazkur fanning bir qancha ijtimoiy, filologik fanlar bilan chambarchas bog'liqligi. Mumtoz adabiyotning tasavvuf tarixi, tasavvuf nazariyasi bilan chambarchas aloqada**

**ekanligi. Folklor, etnografiya, tarix, etika-estetika, falsafa, mantiq, til tarixi, geografiya tarixi kabi fanlar bilan aloqasi.**

### **ENG QADIMGI ADABIYOT YODGORLIKLARI**

Eng qadimgi ogʻzaki adabiyot yodgorliklari. Qadimgi davr – eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar. Arablar istilosi va uning oqibatlari.

Eng qadimgi ogʻzaki adabiy yodgorliklar. Asotirlar va afsonalar. Mif va afsonalar qadimgi odamlarning hayot va tabiat haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi ekanligi.

Qahramonlik eposi. Oʻrta Osiyo eposlar vatani ekanligi. Sharq epik adabiyotining mashhur qahramonlari Rustam, Siyovush, Afrosiyob haqidagi afsonalarning dastavval Oʻrta Osiyo xalqlari orasida tugʻilganligi.

Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: «Toʻmaris», «Shiroq», «Zarina va Striangiya», «Zariadr va Odatida» qissalari haqida umumiy maʼlumot.

YoZMA YoDGORLIKLAR. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi ekanligi. Asarning adabiy, ilmiy, tarixiy ahamiyati.

Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari. Yodgorliklarning turkiy tilda yozilgan eng qadimiy yodgorliklardan ekanligi. Kashf qilinishi haqida maʼlumotlar. Ularning til xususiyati, adabiy qimmatlari.

### **MAHMUD QOSHGʻARIY**

Mahmud Qoshgʻariyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida maʼlumot. «Devonu lugʻatit-turk» asarining yaratilishi va tuzilishi. Asarda turkiy tillar leksikasi va morfologiyasining izohlanishi.

Mahmud Qoshgʻariyning turkiy tillar fonetik qonuniyatlarining kashfiyotchisi ekanligi. «Devonu lugʻatit-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati.

### **YUSUF XOS HOJIB.**

Yusuf Xos Hojib –XI asrning mutafakkir shoiri. Uning hayoti va ijodini oʻrganish tarixi. «Qutadgʻu bilig» dostoni. Uning yaratilish tarixi.

Dostonida didaktika. Unda muhim ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-taʼlimiy masalalarning qoʻyilganligi. Asardagi diniy-tasavvufiy fikrlar. Dostonning syujeti va kompozitsion qurilishi. Undagi obrazlarning majoziy xarakteri.

Oʻzbek adabiyoti rivojida Yusuf Xos Hojib dostonining tutgan oʻrni va ahamiyati.

### **AHMAD YUGNAKIY**

Ahmad Yugnakiy – oʻzbek didaktik adabiyotining namoyandasi sifatida. Shoir hayoti va ijodini oʻrganish tarixi.

«Hibat-ul haqoyiq» dostonida didaktika. Asardagi ijtimoiy, falsafiy va axloqiy masalalar. Diniy-tasavvufiy fikrlar.

Dostonning qurilishi, badiiy qimmatlari, badiiy ifoda uslubi, sheʼriy sanʼatlar, vazn va qofiya. Asarning til xususiyatlari. Shoir ijodining turkiy xalqlar adabiyoti rivojida oʻrni.

### **AHMAD YASSAVIY**

Ahmad Yassaviy –turkiy adabiyotning yirik vakili. Shoir hayoti va ijodining oʻrganilish tarixi. Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati. Tasavvuf – shoir ijodining bosh mavzusi sifatida. Ahmad Yassaviy «Hikmat»lari – turkiy adabiyotning nodir namunasi.

Ahmad Yassaviy «Hikmat»larining badiiy qimmatlari.

Ahmad Yassaviyning turkiy hikmat maktabini taʼsis etishi. Adabiyot rivojida Ahmad Yassaviy ijodining ahamiyati.

#### **XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot RABG‘UZIY**

Mo‘g‘ul xukmronligining zaiflashishi. Temur imperiyasining yemirilishi. Shayboniylar imperiyasining yuzaga kelishi. Shayboniylar haqida ma‘lumot. XIV-XVII asarlarda ilm –fan taraqqiyoti.

Davr adabiyotining yetakchi xususiyatlari: dunyoviy adabiyotning maydonga kelishi, o‘zbek adabiyotining boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqasining kuchayishi, yozma adabiyot bilan xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi munosabatning rivoji, turkiy tilning adabiy til darajasigi ko‘tarilishi, o‘zbek adabiyotining eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilishi.

Rabg‘uziy XIV asr o‘zbek adabiyotining yirik vakili. Rabg‘uziyning hayoti va ijodiy faoliyati. «Qissasi Rabg‘uziy» asari. Uning yaratilish tarixi, tuzilishi, g‘oyaviy mazmuni. Hikoyatlarning badiiy xususiyatlari.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati. O‘zbek nasri rivojidagi ahamiyati.

#### **XORAZMIY**

Xorazmiy- yirik shoir. Xorazmiy haqida ma‘lumot beruvchi manbalar. Shoir ijodining o‘rganilish tarixi. Xorazmiy ijodiga eskicha qarashlarga munosabat.

Sharq adabiyotida noma janri. «Muhabbatnoma asarining yaratilish tarixi, kompozitsiya xususiyatlari. Noma janrining xususiyatlari. «Muhabbatnoma» asarida timsollar, g‘oyaviy yo‘nalishlar. Asar badiiyati. O‘zbek adabiyoti tarixida, XX asr adabiyotida «Muhabbatnoma» an‘analari.

#### **SAKKOKIY**

Sakkokiy- lirik shoir. Shoir hayoti va ijodi haqida ma‘lumot beruvchi manbalar. Sakkokiy ijodining o‘rganilish tarixi, ularga munosabat. Adabiy merosi. Shoir devonining kompozitsiyasi.

Sakkokiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g‘oyaviy yo‘nalishlari, badiiy xususiyatlari. Shoir ijodida ilohiy muhabbat mavzusi. Shoir g‘azallarining badiiy go‘zalligi. Sakkokiy lirikasida insoniy muhabbat masalasi.

Sakkokiy-qasidanavis. Qasida janri xususiyatari. Shoir qasidalarini tahlili. O‘zbek adabiyoti tarixida, XX asr adabiyotida shoir ijodi an‘analari. Shoir lirikasining tarbiyaviy ahamiyati.

#### **ATOIY-ISTE‘DODLI LIRIK SHOIR.**

Shoir hayoti va ijodi haqida ma‘lumot beruvchi manbalar. O‘toiy ijodining o‘rganilish tarixi. Shoirning taxallusi masalasi. Uning lirik merosi.

Atoiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g‘oyaviy yo‘nalishlari, badiiy xususiyatlari. Shoir lirikasida haqiqiy va majoziy ishq talqini. O‘zbek adabiyotining g‘oyaviy-badiiy takomilida Atoiy ijodining o‘rni.

O‘zbek adabiyotida Atoiy ijodining o‘rni.

#### **LUTFIY**

Lutfiy – turkiy adabiyotning yirik namoyandasi. Lutfiy ijodi. Shoir hayoti va ijodi haqida ma‘lumot beruvchi manbalar. Lutfiy ijodining o‘rganilish tarixi. Lutfiy va Navoiy.

Lutfiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g‘oyaviy yo‘nalishlari, badiiy xususiyatlari. Lutfiyning lirik qahramoni. Ma‘shuqa, zohid, raqib obrazlari talqini. Lutfiy va xalq og‘zaki ijodi. Lutfiy va Bobur ijodiy munosabatlari. O‘zbek adabiyoti tarixida Lutfiy ijodi an‘analari.

## **NAVOIY HAYOTI VA IJODI** **NAVOIY LIRIKASI. NAVOIYNING BADIY MAHORATI.**

Shoirning bolalik va yigitlik davri. Lutfiy, Kamol, Turbatiy, Jomiy, Xusayn Bayqarolar bilan munosabati . Navoiy Samarqandda.

Navoiyning Xirotdagi faoliyati. Xusayn Bayqaro saltanati ravnaqida Navoiyning o'zni. Navoiyning yurt obodligi, xalq mahoratlari yo'lidagi xizmatlari. Shoirning uylanmay o'tish sabablari, bu haqidagi fikrlarga munosabat.

Navoiy hayotining so'nggi yillari.

Shoirning ijod yo'li : lirik, epik, ilmiy asarlari.

Navoiy lirikasining maktablari. Shoir lirikasi o'zbek lirik merosining cho'qqisi ekani. Navoiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g'oyaviy yo'nalishlari, janr xususiyatlari. O'zbek lirik ijodiyotiga shoir tomonidan kiritilgan yangiliklar. Navoiy shaxsi va lirik qahramon masalasi. Navoiyning badiyat haqidagi qarashlari. Navoiy lirikasida she'riy san'atlar jilosi.

«XAMSA»

**Navoiy-epik shoir. Sharq adabiyotida «Xamsa»chilik an'anasining boshlanishi. «Xamsa»chilik an'anasi tushunchasi. Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy «Xamsa»laridagi dostonlar. Navoiy «Xamsa»si «Xamsa»chilikning cho'qqisi ekani.«Xayrat-ul abror». Dostonning nomlanishi, kompozitsiyasi. Dostonning salaflar dostonlari bilan mushtarak va o'ziga xos tomonlari. Dostonda falsafiy, ijtimoiy, ahloq va odob masalalari. Dostonni o'rganishdagi yangicha talqinlar. Doston va zamonamiz. «Farhod va Shirin». Doston syujeti timsollar tizimi, g'oyaviy yo'nalishlari, badiiy xususiyatlari. Dostonda Komil inson, xalqlar do'stligi, mehnatni ulug'lanish kabi masalalar talqinida Navoiyning ilg'or qarashlari. «Layli va Majnun» Doston syujeti sayyor syujet eposi. Dostonning o'ziga xos xususiyatlari. Doston syujeti, timsollar tizimi, g'oyaviy yo'nalishlari, badiiy xususiyatlari.«Sab'ai sayyor» syujeti, kompozitsiyasi, timsollar tizimi, g'oyaviy yo'nalishlari, badiiy xususiyatlari. Dostondagi tush epizodi, uning mohiyati. Saddi Iskandariy «Aleksandr Makedonskiy va Iskandar timsoli». Doston syujeti, timsollar tizimi, g'oyaviy yo'nalishlari, badiiy xususiyatlari. Dostonda Navoiy faxriyalari.**

Bobur hayoti va ijodi. Bobur lirikasi.

**Bobur hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Bobur ijodining o'rganilish tarixi. Bobur ijodiga g'ayri ilmiy qarashlari tanqid. Shoirning taxallusi masalasi. Boburning hayot yo'li. Boburning ijod yo'li. Boburning bizga yetib kelgan, yetib kelmagan asarlari haqida ma'lumot. Badiiy adabiyotda Bobur timsolining ishlanishi. Mustaqillik yillarida Bobur hayoti va ijodiga yangicha munosabatlar. Bobur va Andijon.**

**Bobur lirikasining manbalari. Bobur lirikasining o'rganilish tarixi, nashrlari. Bobur lirikasining o'ziga xos xususiyatlari. Shoir lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g'oyaviy yo'nalishlari, janr xususiyatlari. Boburning badiyat haqidagi qarashlari. Boburning ma'lum she'riy san'at asosiga qurilgan g'azallari. Bobur lirikasida she'riy san'at timsollari.**

«Boburnoma».

**«Boburnoma»ning yaratilish, o'rganilish tarixi. Tarjimalari, nashrlari haqida. «Boburnoma» -o'zbek nasrining Nodir yodgorligi. Asar shoir ijodining laboratoriyasi ekani.Asarda joylar tasviri. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar tasviri. Asarda Bobur timsoli. «Boburnoma»-ensiklopedik asar.**

MASHRAB

**Mashrab hayoti va ijodini o'rganish, asarlarini nashr etish, tarjima qilish tarixidan. Mashrab shaxsiyati va adabiy merosi atrofidagi bahs-munozaralar. «Devonai Mashrab» qissasining mundarijasi.**

**UVAYSIY. NODIRA**

**Uvaysiy hayoti va ijodi. Uvaysiy adabiy merosi.**

**Uvaysiy lirik she'riyatining mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi. Uvaysiy talqinida ishq, insoniylik, odob va axloq masalalari. Shoira lirikasida ijtimoiy hayot masalalarining yoritilishi.**

**Uvaysiy adabiy merosining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan mavqei. O'zbek adabiyoti va san'atida Uvaysiy obrazi.**

**Nodira hayoti va ijodi. Nodira haqida zamondoshlari. Nodira va Umarxon. Nodiraning adabiy merosi. Asarlarning mavzu doirasi – sevgi va sadoqat, samimiyat va vafo, do'stlik va insonparvarlik, visol va hijron mavzusi.**

**Lirik qahramon Nodira she'rlarida ijtimoiy tematika.**

**Nodira she'rlarining tili, uslubi va badiiy xususiyatlari. Nodira adabiy merosining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan mavqei.**

**O'zbek adabiyoti va san'atida Nodira obrazi.**

#### OGAHIY

**Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodi. Tarjimai holi. Ogahiyning adabiy-ilmiy merosi.**

**«Ta'viz ul-oshiqin» devonining tuzilishi. Asarlarning mavzu doirasi. She'riyatining g'oyaviy yo'nalishi. Ogahiy lirik she'riyatidagi qahramonlar tavsifi.**

**Ogahiyning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati. Ogahiy va Navoiy. Ilmiy-tarixiy asarlari. «Riyozud-davla», «Zubdatut tavorix», «Jome'ul voqeoti sultoni», «Gulshani davlat», «Iqboli Firuziy» asarlarining yaratilishi. Ogahiy asarlarining Xorazm tarixiga bag'ishlangan asarlar silsilasidagi ahamiyati.**

**Ogahiy ilmiy-adabiy faoliyatining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan mavqei. Ogahiy izdoshlari. Ogahiy va zamonamiz.**

#### Adabiyotlar ro'yxati:

##### Asosiy:

1. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi, T., 1965 yil
2. O'zbek adabiyoti tarixi., 2-kitob , III., 1978 yil
3. O'zbek adabiyoti tarixi., 5 jildlik , I-jild., 1971 yil

##### Adabiyotlar:

1. Nasriddin Burxonuddin Rabg'uziy. «Qissasi Rabg'uziy». 1-II kitoblar T., 1990 yil
2. Jalilov B. Meros va ixlos. Andijon, 1995 yil
3. Rayimjonova D. «Muhabbatnoma» va «Latofatnoma» asarlarining qiyosiy taxlili. Andijon. 1992 yil.
4. Atoiy. Tanlangan asarlar, T., 1958 yil
5. Hayot vasfi., T., 1988 yil
6. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995 yil
7. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T. , 1960 yil
8. Rustamov E. O'zbekeskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M., 1963 yil
9. Lutfiy. Devon., T. 1965 yil
10. Erkinov s. Lutfiy, T. 1965 yil
11. Xayitmetov N. Navoiy lirikasi, T., 1961 yil
12. Isaqov Ye. Navoiy poetikasi. T., 1983 yil
13. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati., T., 1979 yil
14. Akramov B. Fasohat mulkining sohibqiron. T. 1991 yil
15. Valixonov O. G'azal nafosati. T. , 1972 yil
16. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. T 1974

17. Jalolov T. «Xamsa» talqinlari. T., 1968.
18. Erkinov S. Navoiyning «Farhod va Shirin» va uning qiyosiy tahlili. T. 1971.
19. Qayumov A. «Xayrat –ul- abror» tahlili. T. 1972.
20. Qayumov A. «Farhod va Shirin» sirlari. T 1978.
21. Qayumov A. «Ishq vodiysi chechaklari. T. 1985.
22. Qayumov A. «Saddi Iskandariy». T. 1975.
23. «Boburnoma» T, 1960
24. Nazarova X. Bobur asarlari uchun qisqacha lugʻat. T., 1972

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI***

«Tasdiqlayman»

O`quv ishlari bo`yicha prorektor v.b.  
\_\_\_\_\_ O` Ubaydullayev



«\_\_»\_\_\_\_\_2010-yil

O`zbek filologiyasi fanining

# ISHCHI O`QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** - 100000 - Ta`lim

**Ta`lim sohasi:** - 140000 - O`qituvchilar tayyorlash va pedagogik fanlar

**Ta`lim yo`nalishi:**-5141300- O`zbek filologiyasi (qirg`iz tili va adabiyoti)

**Umumiy o`quv soati** -72

**Shu jumladan:**

**Ma`ruza** 19

**Amaliy** 10

**Laboratoriya** -

**seminar** 9

**Mustaqil ta`lim soati** -14

**Mustaqil ish** -20

**ANDIJON-2010**

Fanning ishchi o`quv dasturi Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti kengashining 2010-yil \_\_avgustdagi \_\_-sonli yig`ilishida muhokama etildi va ma`qullandi.

5141300-ona tili va adabiyoti (qirg`iz tili va adabiyoti) ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr akademik daraja beruvchi o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

**Mirzayeva Salimaxon -**

“Qirg`iz tili va adabiyoti ” kafedrasida katta o`qituvchi,

\_\_\_\_\_ (imzo)

**Taqrizchilar:**

**Jalilov B -** O`zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.n.

**Jalolova Lazokatxon - Filologiya fanlari nomzodi, katta o`qituvchi**

Fanning ishchi o`quv dasturi Filologiya fakultet kengashida tasdiqlandi  
( 201 -yil \_\_\_avgustdagi \_\_\_-sonli bayonnoma)

**Kengash raisi:** \_\_\_\_\_ f.f.n. dotsent **Z. QODIROV**  
(imzo)

**Kelishildi:**

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ f.f.d. dotsent **S. MIRZAYEVA**  
(imzo)

201 -yil \_\_\_avgust

1-ilova  
201 —201 o`quv yili uchun “O`zbek filologiyasi” fanidan ishchi o`quv dasturiga o`zgarishlar va qo`shimchalr kiritish tig`risida Filologiya (O`zbek filologiyasi) ta`lim yo`nalishi bo`yicha “O`zbek filologiyasi” fanining ishchi o`quv dasturiga qiyidagi o`zgartirish va qo`shimchalar kiritlmoqda:

O`zgartirish va qo`shimchalarni kirituvchilar:

**Mirzayeva Salimaxon -**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Temirova Mahbuba -**

\_\_\_\_\_

(imzo)

ishchi o`quv dastur Filologiya fakul`tet Ilmiy kengashida muhokama etildi va ma`qullandi (201 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ dagi « \_\_\_\_\_ » -sonli bayonnoma).

Ilmiy kengash raisi: \_\_\_\_\_ f.f.n. dotsent **Z. QODIROV**  
(imzo)

### UQTIRISH XATI

O`zbek filologiyasi kursi oliy o`quv yurtlarining filologiya fakul`teti qirg`iz tili va adabiyoti yo`nalishi o`quv rejasidagi fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan qirg`iz tili va adabiyoti yo`nalishi 3 bosqich talabalari uchun 5 semestrda 19 soat ma`ruza, 10 soat seminar, 9 soat amaliy mashg`ulotlari tarzida o`tiladi.

Talabalar mashg`ulotlarda mazkur fan bo`yicha o`zbek adabiyotidan atroflicha bilimga ega bo`lishi va o`z bilimini hayotga tatbiq eta olishi kerak. Talabalar adabiyotimizning turli taraqqiyot bosqichlaridagi rivojlanish qonuniyatlarini, xususan, adabiy taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot rivoji bilan uzviy bog`liqligi, o`tmishdagi mumtoz adabiyotimiz an`analari, xalq og`zaki ijodi boyliklari, qo`shni xalqlar adabiyotlari bilan ijodiy hamkorlik munosabatlarining adabiy kamolotdagi o`rni va ahamiyatini anglab yetishlari kerak.

### KIRISH

**O`zbek filologiyasi fanining ta`limiy maqsadi:** talabalarni ozbek adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari, adabiy janrlarning shakllanishi, eng qadimgi adabiy yodgorliklar, o`zbek mumtoz adabiyotiga mansub bo`lgan ijodkorlar ijodi (M. Koshg`riy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Bobur, Nodira, Ogahiy va boshqalar), ularning asarlarida ko`tarilgan muammolar, ilgari surilgan g`oyalar bilan tanishtirish va nazariy bilimlarini shakllantirish.

**O`zbek filologiyasi fanining tarbiyaviy maqsadi:** talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Ularga o`zbek adabiyotidagi ijodkorlar asarlaridagi eng ilg`or g`oyalar: gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini singdirish.

**O`zbek filologiyasi fanining rivojlantiruvchi maqsadi:** talabalarda o`zbek adabiyotidagi badiiy asarlar va ularning g`oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qilish ko`nikmalarini shakllantirish.

O`zbek adabiyoti fani, maqsad va vazifalari, manbalari, boshqa fanlar bilan aloqasi.

**O`zbek adabiyoti tarixi fanining o`tmish adabiyot bilan ish ko`rishi. Fan va madaniyatimizning yuksak bosqichda taraqqiy etishida adabiyot tarixining o`rni. Mazkur kurs o`tmishda yaratilgan g`oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlarning badiiy olami, nafosati, she`riy san`atlar, shoirning san`atkorligi, she`rning estetik jozibasi kabilardan saboq berishi xususida. Shuningdek, nazariy kurs sifatida adabiyot nazariyasiga doir bilimlar hosil qilinishi. Adabiyot hodisalarini tadqiq qilishning ilmiy-metodologik**

**asoslaridan, ularning tarixidan nazariy ma`lumotlar berishi. Bu kurs mashg`ulotlarining talabalarning estetik didi, dunyoqarashi, badiiy tafakkurini shakllantirishi. Bu kursda badiiy tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari, ramziy-majoziy timsollar olami, badiiy talqin tamoyillarining o`rganilishi. Mazkur fanning bir qancha ijtimoiy, filologik fanlar bilan chambarchas bog`liqligi. Mumtoz adabiyotning tasavvuf tarixi, tasavvuf nazariyasi bilan chambarchas aloqada ekanligi. Fol`klor, etnografiya, tarix, etika-estetika, falsafa, mantiq, til tarixi, geografiya tarixi kabi fanlar bilan aloqasi.**

### **ENG QADIMGI ADABIYO T YODGORLIKLARI**

(2 soat ma`ruza , 2 soat seminar)

Eng qadimgi og`zaki adabiyot yodgorliklari. Qadimgi davr – eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar. Arablar istilosi va uning oqibatlari.

Eng qadimgi og`zaki adabiy yodgorliklar. Asotirlar va afsonalar. Mif va afsonalar qadimgi odamlarning hayot va tabiat haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi ekanligi.

Qahramonlik eposi. O`rta Osiyo eposlar vatani ekanligi. Sharq epik adabiyotining mashhur qahramonlari Rustam, Siyovush, Afrosiyob haqidagi afsonalarning dastavval O`rta Osiyo xalqlari orasida tug`ilganligi.

Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: «To`maris», «Shiroq», «Zarina va Striangiya», «Zariadr va Odatida» qissalari haqida umumiy ma`lumot.

### **Islomgacha bo`lgan davr adabiyoti**

(2 soat ma`ruza , 2 soat amaliy)

YoZMA YODGORLIKLAR. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi ekanligi. Asarning adabiy, ilmiy, tarixiy ahamiyati.

"Avesto" - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. «Avesto»ning mundarijasi Zardusht va zardushtiylikning paydo bo`lishi, o`rganilishi. Zardushtiylik g`oyalarining o`z davri uchun muhim bo`lgan jihatlari. "Avesto"ning tarixiy, ilmiy va adabiy qimmat. "Avesto" dastlab ko`chirilganda 12 ming qoramol terisida 21 nask - kitobdan iborat bo`lgan. A.Makedonskiy tomonidan aksariyat qismi yo`q qilingan. "Avesto"ning bizga qadar Vendidot, Vispared, Yasna, Yasht deb nomlanuvchi to`rt kitobigina saqlanib qolgan. "Avesto"ning g`oyaviy muhimligi Bizgacha yetib kelgan «Avesto» nusxalari ikki variant «Avesto» qadimgi eron tillari gruppasidagi tillarning qadimgi yodgorliklaridan «Avesto» asos e`tibori bilan mehnatkash ommaning orzu-tilaklarini aks ettirgan. bu «Avesto»ning keng tarqalishi va uzoq umr ko`rishi boislardan biri Axura Mazdaning oltita eng yaqin yordamchilari Voxu-Manax, - ezgu fikr - (poda va chorvani) Asha Vahishta - yuksak haqiqat (olovni) Xisatra Varog - munosib qudrat, hokimiyat (ma`danni)Sienta Armati–muqaddas itoat (erni) Harvatat - salomatlik - (suvni) Ameretat - manguilik - (o`simliklar dunyosini) Axa Mana - yovuz fikr Taurva-so`lish, Zarik - o`lim, Ayshma-g`azab,qahr,urushAraska-hasad, Uda - ezmalik, shallaqilik. Zardusht g`oyalarining eng ulug` (progressiv) jihati dunyoviy ishlarga faol munosabatda bo`lishga undash.

O`rxun-Enasoy yodgorliklari. Yodgorliklarning turkiy tilda yozilgan eng qadimiy yodgorliklardan ekanligi. Kashf qilinishi haqida ma`lumotlar. Ularning til xususiyati, adabiy qimmat.

## **Islom ta`siri ostida yaratilgan adabiyot**

(2 soat ma`ruza , 2 soat seminar)

Mahmud Qoshg`ariyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma`lumot. «Devonu lug`atit-turk» asarining yaratilishi va tuzilishi. Asarda turkiy tillar leksikasi va morfologiyasining izohlanishi.

Mahmud Qoshg`ariyning turkiy tillar fonetik qonuniyatlarining kashfiyotchisi ekanligi. «Devonu lug`atit-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati.

Yusuf Xos Hojib –XI asrning mutafakkir shoiri. Uning hayoti va ijodini o`rganish tarixi. «Qutadg`u bilig» dostoni. Uning yaratilish tarixi.

Dostonda didaktika. Unda muhim ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta`limiy masalalarning qo`yilganligi. Asardagi diniy-tasavvufiy fikrlar. Dostonning syujeti va kompozision qurilishi. Undagi obrazlarning majoziy xarakteri.

O`zbek adabiyoti rivojida Yusuf Xos Hojib dostonining tutgan o`rni va ahamiyati.

Ahmad Yugnakiy – o`zbek didaktik adabiyotining namoyandasi sifatida. Shoir hayoti va ijodini o`rganish tarixi. «Hibat-ul haqoyiq» dostonida didaktika. Asardagi ijtimoiy, falsafiy va axloqiy masalalar. Diniy-tasavvufiy fikrlar. Dostonning qurilishi, badiiy qimmat, badiiy ifoda uslubi, she`riy san`atlar, vazn va qofiya. Asarning til xususiyatlari. Shoir ijodining turkiy xalqlar adabiyoti rivojida o`rni.

Ahmad Yassaviy –turkiy adabiyotning yirik vakili. Shoir hayoti va ijodining o`rganilish tarixi. Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati. Tasavvuf – shoir ijodining bosh mavzusi sifatida. Ahmad Yassaviy «Hikmat»lari – turkiy adabiyotning nodir namunasi. Ahmad Yassaviy «Hikmat»larining badiiy qimmat. Ahmad Yassaviyning turkiy hikmat maktabini ta`sis etishi. Adabiyot rivojida Ahmad Yassaviy ijodining ahamiyati.

## **XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot**

(2 soat ma`ruza , 2 soat amaliy)

Mo`g`ul xukmronligining zaiflashishi. Temur imperiyasining yemirilishi. Shayboniylar imperiyasining yuzaga kelishi. Shayboniylar haqida ma`lumot. XIV-XVII asarlarda ilm –fan taraqqiyoti.

Davr adabiyotining yetakchi xususiyatlari: dunyoviy adabiyotning maydonga kelishi, o`zbek adabiyotining boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqasining kuchayishi, yozma adabiyot bilan xalq og`zaki ijodi o`rtasidagi munosabatning rivoji, turkiy tilning adabiy til darajasiga ko`tarilishi, o`zbek adabiyotining eng yuqori cho`qqiga ko`tarilishi.

Rabg`uziy XIV asr o`zbek adabiyotining yirik vakili. Rabg`uziyning hayoti va ijodiy faoliyati. «Qissasi Rabg`uziy» asari. Uning yaratilish tarixi, tuzilishi, g`oyaviy mazmuni. Hikoyatlarning badiiy xususiyatlari.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati. O`zbek nasri rivojida ahamiyati.

Xorazmiy- yirik shoir. Xorazmiy haqida ma`lumot beruvchi manbalar. Shoir ijodining o`rganilish tarixi. Xorazmiy ijodiga eskicha qarashlarga munosabat.

Sharq adabiyotida noma janri. «Muhabbatnoma asarining yaratilish tarixi, kompozisiya xususiyatlari. Noma janrining xususiyatlari. «Muhabbatnoma» asarida timsollar, g`oyaviy yo`nalishlar. Asar badiiyati. O`zbek adabiyoti tarixida, XX asr adabiyotida «Muhabbatnoma» an`analari.

Sakkokiy- lirik shoir. Shoir hayoti va ijodi haqida ma`lumot beruvchi manbalar. Sakkokiy ijodining o`rganilish tarixi, ularga munosabat. Adabiy merosi. Shoir devonining kompozitsiyasi.

Sakkokiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari. Shoir ijodida ilohiy muhabbat mavzusi. Shoir g`azallarining badiiy go`zalligi. Sakkokiy lirikasida insoniy muhabbat masalasi.

Sakkokiy-qasidanavis. Qasida janri xususiyatari. Shoir qasidalar tahlili. O`zbek adabiyoti tarixida, XX asr adabiyotida shoir ijodi an`analari. Shoir lirikasining tarbiyaviy ahamiyati.

Shoir hayoti va ijodi haqida ma`lumot beruvchi manbalar. O`toiy ijodining o`rganilish tarixi. Shoirning taxallusi masalasi. Uning lirik merosi.

Atoiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari. Shoir lirikasida haqiqiy va majoziy ishq talqini. O`zbek adabiyotining g`oyaviy-badiiy takomilida Atoiy ijodining o`rni.

*O`zbek adabiyotida Atoiy ijodining o`rni.*

Lutfiy – turkiy adabiyotning yirik namoyandasi. Lutfiy ijodi. Shoir hayoti va ijodi haqida ma`lumot beruvchi manbalar. Lutfiy ijodining o`rganilish tarixi. Lutfiy va Navoiy.

Lutfiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari. Lutfiyning lirik qahramoni. Ma`shuqa, zohid, raqib obrazlari talqini. Lutfiy va xalq og`zaki ijodi. Lutfiy va Bobur ijodiy munosabatlari. O`zbek adabiyoti tarixida Lutfiy ijodi an`analari.

## **NAVOIY HAYOTI VA IJODI . NAVOIY LIRIKASI. «XAMSA»**

(2 soat ma`ruza , 2 soat seminar)

Shoirning bolalik va yigitlik davri. Lutfiy, Kamol, Turbatiy, Jomiy, Xusayn Bayqarolar bilan munosabati . Navoiy Samarqandda.

Navoiyning Xirotdagi faoliyati. Xusayn Bayqaro saltanati ravnaqida Navoiyning o`rni. Navoiyning yurt obodligi, xalq mahoratlari yo`lidagi xizmatlari. Shoirning uylanmay o`tish sabablari, bu haqidagi fikrlarga munosabat.

Navoiy hayotining so`nggi yillari.

Shoirning ijod yo`li : lirik, epik, ilmiy asarlari.

Navoiy lirikasining maktablari. Shoir lirikasi o`zbek lirik merosining cho`qqisi ekani. Navoiy lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, janr xususiyatlari. O`zbek lirik ijodiyotiga shoir tomonidan kiritilgan yangiliklar. Navoiy shaxsi va lirik qahramon masalasi. Navoiyning badiyat haqidagi qarashlari. Navoiy lirikasida she`riy san`atlar jilosi.

**Navoiy-epik shoir. Sharq adabiyotida «Xamsa»chilik an`anasining boshlanishi. «Xamsa»chilik an`anasi tushunchasi. Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy «Xamsa»laridagi dostonlar. Navoiy «Xamsa»si «Xamsa»chilikning cho`qqisi ekani.«Xayrat-ul abror». Dostonning nomlanishi, kompozitsiyasi. Dostonning salaf dostonlari bilan mushtarak va o`ziga xos tomonlari. Dostonda falsafiy, ijtimoiy, ahloq va odob masalalari. Dostonni o`rganishdagi yangicha talqinlar. Doston va zamonamiz. «Farhod va Shirin». Doston syujeti timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari. Dostonda Komil inson, xalqlar do`stligi, mehnatni ulug`lanish kabi masalalar talqinida Navoiyning ilg`or qarashlari. «Layli va Majnun» Doston syujeti sayyor syujet eposi. Dostonning o`ziga xos xususiyatlari. Doston syujeti, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari.«Sab`ai sayyor» syujeti, kompozitsiyasi, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari. Dostondagi tush epizodi, uning mohiyati. Saddi Iskandariy «Aleksandr Makedonskiy va Iskandar timsoli». Doston syujeti, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, badiiy xususiyatlari. Dostonda Navoiy faxriyalari.**

**Bobur hayoti va ijodi. Bobur lirikasi.**  
(2 soat ma`ruza , 2 soat amaliy)

**Bobur hayoti va ijodini o`rganish manbalari. Bobur ijodining o`rganilish tarixi. Bobur ijodiga g`ayri ilmiy qarashlari tanqid. Shoirning taxallusi masalasi. Boburning hayot yo`li. Boburning ijod yo`li. Boburning bizga yetib kelgan, yetib kelmagan asarlari haqida ma`lumot. Badiiy adabiyotda Bobur timsolining ishlanishi. Mustaqillik yillarida Bobur hayoti va ijodiga yangicha munosabatlar. Bobur va Andijon. Bobur lirikasining manbalari. Bobur lirikasining o`rganilish tarixi, nashrlari. Bobur lirikasining o`ziga xos xususiyatlari. Shoir lirikasining mavzulari, timsollar tizimi, g`oyaviy yo`nalishlari, janr xususiyatlari. Boburning badiyat haqidagi qarashlari. Boburning ma`lum she`riy san`at asosiga qurilgan g`azallari. Bobur lirikasida she`riy san`at timsollari.**

**«Boburnoma»ning yaratilish, o`rganilish tarixi. Tarjimalari, nashrlari haqida. «Boburnoma» -o`zbek nasrining Nodir yodgorligi. Asar shoir ijodining laboratoriyasi ekani. Asarda joylar tasviri. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar tasviri. Asarda Bobur timsoli. «Boburnoma»-ensiklopedik asar.**

**XVI-XVII asr adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari**

(2 soat ma`ruza , 2 soat amaliy)

Mashrab hayoti haqida ma`lumot beruvchi manbalar. "Shoh Mashrab" manqabasi. Tazkiralarda Mashrab hayoti va ijodi lavhalari. Ishaq Bog`istoniy va Majzub Namangoniy. Mashrabshunoslik tarixidan. Mashrabning tarjimayi holini tiklash muammolari.

Lirikasi va uning janrlar ko`lami. Mashrab lirikasida aks etgan mavzu va masalalar. Mashrab she`riyatida ilohiy va majoziy ishq talqini. Mashrab she`rlarining badiiyati.

Tasavvufiy she`rlaridagi timsollar tizimi. Mashrabga nisbat berilayotgan asarlar ("Mabdai nur", "Kimiyo") talqini.

**Mashrab hayoti va ijodini o`rganish, asarlarini nashr etish, tarjima qilish tarixidan. Mashrab shaxsiyati va adabiy merosi atrofidagi bahs-munozaralar. «Devonai Mashrab» qissasining mundarijasi.**

**Qo`qon adabiy muhiti**

(2 soat ma`ruza , 2 soat seminar)

Madaniy-adabiy hayot. Qo`qonda qurilgan madaniy obidalar. Qo`qon adabiy maktabining shakllanishi. Bayozchilik va matbaa ishlari. Qo`qon adabiyoti vakillari: Ado, Fazliy, Dabir, Nodiri Uzlat va boshqalar. Qo`qon adabiy maktabida janrlar poetikasi. Qo`qon adabiyotida satirik yo`nalish. Gulxaniy va Ma`dan ijodi.

Hakimxon to`raning "Muntahobu-t-tavorix", Fazliyning "Umarnoma", Mirza Olim Ho`qandiyning "Ansobu-s-salotin", Muhammad Amin Ro`zining "Tuhfatu-t-tavorix" asarlari. Tazkirachilik maktabi. Fazliy rahbarligida tuzilgan "Majmuayi shoiron" tazkirasini va uning janr xususiyatlari.

Shoir hayoti va ijodi manbalari. Umarxonning bunyodkorlik ishlari. Adabiy maktabning asoschisi. "Devoni Amiriy" mundarijasi. Turkiy g`azal, muhammas, musaddas va tuyuqlarning tasnifi. An`ana va yangilik. G`azallarining timsollar tizimi. Tasavvufiy, rindona g`azallari talqini. Amiriy g`azallari poetikasi.

Gulxaniy ijodi. Shoirning tarjimai holi. Shoirning she`riy merosi. Zullisonaynlik an`anasi. She`riyatining o`ziga xosligi. «Zarbulmasal» asari va sharq nasri an`analari. Asardagi g`oyalar va timsollar tizimi talqini. Asar tarkibidagi masallar. Asar badiiyati, tili va uslubi.

**Uvaysiy hayoti va ijodi. Uvaysiy adabiy merosi.**

**Uvaysiy lirik she`riyatining mavzusi, g`oyaviy yo`nalishi. Uvaysiy talqinida ishq, insoniylik, odob va axloq masalalari. Shoira lirikasida ijtimoiy hayot masalalarining yoritilishi.**

**Uvaysiy adabiy merosining o`zbek adabiyoti tarixida tutgan mavqei. O`zbek adabiyoti va san`atida Uvaysiy obrazi.**

**Nodira hayoti va ijodi. Nodira haqida zamondoshlari. Nodira va Umarxon. Nodiraning adabiy merosi. Asarlarning mavzu doirasi – sevgi va sadoqat, samimiyat va vafo, do`stlik va insonparvarlik, visol va hijron mavzusi.**

**Nodira she`rlarining tili, uslubi va badiiy xususiyatlari. Nodira adabiy merosining o`zbek adabiyoti tarixida tutgan mavqei.**

**O`zbek adabiyoti va san`atida Nodira obrazi.**

### **Xiva adabiy muhiti**

(2 soat ma`ruza , 2 soat amaliy)

Munis ijodi. Shoirning adabiy, ilmiy, tarix va tarjima sohasidagi merosi. «Munis ul ushshoq» devoni. Shoir she`riyatining mavzular doirasi va g`oyaviy ko`lami. «Savodi ta`lim» risolasi. «Ravzatu-s- safo» asarining tarjimasi.

**Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodi. Tarjimai holi. Asarlarning mavzu doirasi.**

**She`riyatining g`oyaviy yo`nalishi. Tarixiy asarlari**

**Ogahiyning adabiy-ilmiy merosi. «Ta`viz ul-oshiqin» devonining tuzilishi. Ogahiy lirik she`riyatidagi qahramonlar tavsifi.**

**Ogahiyning badiiy san`atlardan foydalanish mahorati. Ogahiy va Navoiy. Ilmiy-tarixiy asarlari. «Riyozud-davla», «Zubdatut tavorix», «Jome`ul voqeoti sultoni», «Gulshani davlat», «Iqboli Firuziy» asarlarining yaratilishi. Ogahiy asarlarining Xorazm tarixiga bag`ishlangan asarlar silsilasidagi ahamiyati.**

**Ogahiy ilmiy-adabiy faoliyatining o`zbek adabiyoti tarixida tutgan mavqei. Ogahiy izdoshlari. Ogahiy va zamonamiz.**

### **Buxoro xonligida adabiy hayot.**

( 1 soat ma`ruza , 1 soat seminar)

Ashtarxoniylar sulolasi davrida madaniy hayot. Madrasa tizimidagi o`zgarishlar. Ashtarxoniylar sulolasidagi ijodkor xonlar. Saroy adabiyotining xalq hayotidan uzoqlashuvi. Subhonqulixon va Abulfayzxon saroyidagi adabiy muhit. Tarixnavislik. Amin Buxoriy, Yusuf Munshiy, Abdurahmon Tole` asarlari. Tazkiranavislik. Mutribiy, Maleho Samarqandiy va boshqalarning asarlari. Xalq kitoblari. "Yusufbek va Ahmadbek", "Alibek va Bolibek", "Tohir va Zuhra" kabi asarlar. Tasavvuf adabiyoti. Naqshbandiylik tariqatining kengayishi. So`fi Ollohyor ijodida naqshbandiylik. Mashrab ijodida qalandariylik tariqati xususiyatlarining aks etishi.

Shoir ijodining o`rganilish tarixidan. Turdining ijodiy merosi. Turdi she`rlarining janr xususiyatlari. Turdi lirikasi. Turdi hajviyoti. "Subhonqulixon haqida hajv" asarida saroy amaldorlari hajvi.

2-ilova

**O`zbek filologiyasi fanidan o`tiladigan mavzular va ular bo`yicha mashg`ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti**

Tr	Fanning bo`limi va mavzusi, ma`ruza mazmuni	Soatlar				
		Jami	Ma`ruza	Amaliy	Labora toriya	seminar



1.	Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari	4	2	-		2
2.	<i>Islomgacha boʻlgan davr adabiyoti</i>	4	2	2		-
3.	Islom taʼsiri ostida yaratilgan adabiyot	4	2	-		2
4.	XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot	4	2	2		-
5.	Navoiy hayoti va ijodi Navoiy lirikasi. «Xamsa»	4	2	-		2
6.	<b>Bobur hayoti va ijodi</b> Bobur lirikasi. «Boburnoma».	4	2	2		-
7.	XVI-XVII asr adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari	4	2	2		-
8.	Qoʻqon adabiy muhiti	4	2	-		2
9.	Xiva adabiy muhiti	4	2	2		-
10.	Buxoro xonligida adabiy hayot	2	1	-		1
	<b>Jami:</b>	<b>38</b>	<b>19</b>	<b>10</b>		<b>9</b>

3-ilova

### Talabalar mustaqil taʼlimining mazmuni va hajmi

Ishchi oʻquv dasturlarining mustaqil taʼlimga oid boʻlim va mavzulari	Mustaqil taʼlimga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari	Hajmi (soatda) 14
1	2	3	4
Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari	1.Seminar mavzulariga tayyorlanish.  2.Dasturda koʻrsatilgan adiblarning hayoti va ijodlari	Sentyabr`	2
<i>Islomgacha boʻlgan davr adabiyoti</i>		Sentyabr`	2
Islom taʼsiri ostida yaratilgan adabiyot		Oktayabr`	1
XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot		Oktyabr`	1

	bo'yicha o'qib konspekt yozish.  3. Ayrimlarining ijodlaridan namunalar yodlash.		
Navoiy hayoti va ijodi Navoiy lirikasi. «Xamsa»		Noyabr`	1
<b>Bobur hayoti va ijodi</b> Bobur lirikasi.		Noyabr`	2
«Boburnoma».		Dekabr`	1
XVI-XVII asr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari		Dekabr`	1
Qo`qon adabiy muhiti		Yanvar`	1
Xiva adabiy muhiti		Yanvar`	2

### O`quv yuklamasi

	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat		
		5-semestr	8-semestr	jami
1	<b>Ma`ruza</b>	19	-	19
2	<b>Amaliy</b>	10	-	10
3	<b>Laboratoriya</b>	-	-	-
4	<b>seminar</b>	9	-	9
5	<b>Mustaqil ta`lim soati</b>	14	-	14
6	<b>Mustaqil ish</b>	20	-	20
	<b>Jami</b>	<b>72</b>		<b>72</b>

### Ballar taqsimoti

№	Fan	35 ball						35 ball						30ball
		JB						OB						YaB
		soni	ball	jami	soni	ball	jami	soni	ball	jami	soni	ball	jami	
1	O`zbek filologiyasi (Qirg`iz tili va adabiyoti)	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	yozma 30 ball

**O`zbek filologiyasi (Qirg`iz tili va adabiyoti)  
fanidan REYTING REJASI  
2010-2011 o`quv yili 1- yarim yillik  
Qirg`iz filologiya ta`lim yo`nalishi 3-kurs**

Ma`ruza	19
Amaliy	10
Laboratoriya	-
seminar	9
Mustaqil ta`lim soati	-14
Mustaqil ish	-20

Maksimal ball - 100  
Saralash bali -55

Reyting nazoratlari soni	Mavzular tartib raqami	muddati	Reyting ball			Nazorat shakli	
			O`quv soat	Mustaqil ish	jami	O`quv ishi	
Joriy baholash ( 35ball )							
1	1-10	21.02.2011	19	10	35	Og`zaki	
Oraliq baholash ( 35ball )							
1	1-10	23.02.2011	19	10	35	Og`zaki	
Yakuniy nazorat (30 ball)							
1	1-10	26.02.2011		-	30	yozma	

### Fan bo`yicha reyting tizimi

Ma`lumki reyting tizimi talabalarning fanni muntazam tizimli ravishda , ya`ni belgilangan muddatlarda va hajmda o`zlashtirishni etishga bir tomonda qaratilgan bolsa , o`qituvchining baholashga xolisligini ta`minlashga qaratilgan.

Bu tizimda talabalarning bilimlarini nazorat qilish joriy, oraliq va yakuniy baholash og`zaki, test va yozma tarzda amalgam oshiriladi.

Joriy va oraliq baholashlar soni fanning umumiy o`quv soatlar hajmidan kelib chiqib belgilanadi. 2010-2011 o`quv yilgi o`quv dasturida 4- kurs talabarlari O`zbek filologiyasi (Qirg`iz tili va adabiyoti) fanidan umumiy hajmi 72 soat bo`lgan , ya`ni ma`ruza 19 soat, amaliy 10 soat, seminar 9 soat, mustaqil ta`lim soati-14 soat, mustaqil ish -20 soat hajmida bo`lgan dars miqdori ajratilgan. Joriy baholashlar har bir seminar va amaliy mashg`ulotlarda 100 ballik tizim asosida baholanadi. Oraliq baholash ham shu tarzda amalgam oshiriladi.

ADU talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi O`zbekiston respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligining 2010-yil 29- avgustdagi 333- sonli buyrug`i asosida tashkil etilib , reyting tizimi 100 balli tizimda amalgam oshirilib, quyidagi nazorat turlarini o`z ichiga oladi:

Joriy nazorat: 35=25+10 (m.i)

Oraliq nazorat: 35=25+10 (m.i) Jami: 100

Yakuniy nazorat: 30

Talabaning umumiy reyting bali semestrda fanga ajratilgan umumiy o`quv yuklamasi (soatlarda)ni fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi (ballarda) ga ko`paytiriladi:

$$R^1 = \frac{V * O^1}{100}$$

**V** - semestrda fanga ajratilgan umumiy o`quv yuklamasi (soatlarda)

**O<sup>1</sup>** - fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi (ballarda)

Joriy nazorat , amaliy ,seminar mashg`ulotlarida baholash 100 balli tizim asosida amalga oshiriladi. Har bir talabaning bilimi mashg`ulotlarda quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

### Baholash turlari bo`yicha ball qo`yish mezonlari

Dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to`la topshirgan, vazifalarni to`la bajargan, darsda faol qatnashib, mavzuni reja asosida ijodiy yoritgan, adabiy va ilmiy atamalarni izohlay olgan va ular bilan bog`liq tushunchalarni anglay olgan, nazariy ma`lumotlarni badiiy materialga tatbiq qila olgan, mavzuga oid badiiy matndan yod bilgan, xulosa va qaror qabul qila olgan, ijodiy fikrlay olgan, mustaqil mushohada yurita olgan, olgan bilimlarini amalda qo`llay olgan,

mohiyatini tushungan talabalarga \_\_\_\_\_ 86-100

%

Dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to`la topshirgan, vazifalarni to`la bajargan, darsda faol qatnashib, mavzuga tegishli ilmiy yoki adabiy atamalarni izohlay olgan, biroq mavzuga oid atamalarni va ular bilan bog`liq ta`riflarni bilgan, mustaqil mushohada yurita olgan, olgan bilimlarini amalda qo`llay olgan, mohiyatini tushungan, mavzuga oid matndan qisman yod bilgan talabalarga \_\_\_\_\_ 71-85 %

Dars qoldirmagan, avvalgi nazorat turlarini to`la topshirgan, vazifalarni bajargan, mavzuni reja asosida yoritgan, lekin o`quv materialiga ijodiy yondashishga qiynalgan, mavzuga doir adabiy yoki ilmiy atamalarni izohlashda qiynalgan, badiiy matndan chala yod bilgan, mohiyatini tushungan darsda sust qatnashgan talabalarga \_\_\_\_\_ 55-70 %

Ko`p dars qoldiradigan, avvalgi nazorat turlarini topshirmagan, uy vazifalarini bajarmaydigan, aniq tasavvurga ega bo`lmagan, fanni bilmagan talabalarga \_\_\_\_\_ 0-54 %

### **Amaliy va seminar mashg`ulotlar**

Joriy baholash 1marta o`tkaziladi.

JN og`zaki bo`lib, unda talabalar quyidagi mavzular asosida joriy nazorat topshiradilar.

#### **JORIY BAHOLASH MAVZULARI**

##### **1. Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari**

##### **2. Islomgacha bo`lgan davr adabiyoti**

3. Islom ta`siri ostida yaratilgan adabiyot
4. XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot
5. Navoiy hayoti va ijodi
6. Navoiy lirikasi. «Xamsa»
- 7. Bobur hayoti va ijodi**
8. Bobur lirikasi.
9. «Boburnoma».
10. XVI-XVII asr adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari
11. Qo`qon adabiy muhiti
12. Xiva adabiy muhiti

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirgan ijodkorlar ijodini o`rgangan, badiiy matn bilan tanishib, uni tahlil qila olgan talabaga 22-25 ball qo`yiladi.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirgan ijodkorlar ijodini o`rgangan, badiiy matn bilan qisman tanishib, uni qisman tahlil qila olgan talabaga 18-21 ball qo`yiladi.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirgan ijodkorlar ijodini o`rgangan, badiiy matndan parcha o`qib, uni tahlil qila olmagan talabaga 13-17- ball qo`yiladi.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirmagan ijodkorlar ijodini o`rganmagan, badiiy matndan parcha o`qib, uni tahlil qila olmagan talabaga 0-12- ball qo`yiladi.

#### **Mustaqil ishni baholash:**

Talaba quyidagi mavzular asosida mustaqil ish yozadi. Unda berilgan mavzu haqida nazariy fikrlarni o`rganadi, badiiy asarni tahlil qiladi va yoddan keltirilgan misol orqali fikrini dalillaydi. Qoshimcha savollarga javob berish bilan yozilgan mustaqil ishni himoya qiladi. Mazkur vazifalar to`liq bajarilsa, talabaga 9-10 ball qo`yiladi.

Talaba quyidagi mavzular asosida mustaqil ish yozadi. Unda berilgan mavzu haqida nazariy fikrlarni o`rganadi, badiiy asarni tahlil qiladi va yoddan keltirilgan misol orqali fikrini

dalillayolmasa, qo`shimcha savollarga javob berish bilan yozilgan mustaqil ishni himoya qiladi. Mazkur vazifalar bajarilsa, talabaga 7-8 ball qo`yiladi.

Talaba quyidagi mavzular asosida mustaqil ish yozadi. Unda berilgan mavzu haqida nazariy fikrlarni o`rganadi, badiiy asarni tahlil qila olmasa va yoddan keltirilgan misol orqali fikrini dalillay olmasa, qo`shimcha savollarga javob berish bilan yozilgan mustaqil ishni himoya qiladi. Mazkur vazifalar bajarilsa, talabaga 5-6 ball qo`yiladi.

Talaba quyidagi mavzular asosida mustaqil ish yozmasa, vazifalar bajarmasa, talabaga 0-4 ball qo`yiladi.

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik.
2. Seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik.
3. *Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari*
4. Mahmud Koshg`ariy
5. Yusuf Xos Hojib.
6. Ahmad yugnakiy
7. Ahmad yassaviy
8. XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot rbg`uziy
9. Xorazmiy
10. Sakkokiy
11. Atoiy-iste`dodli lirik shoir.
12. *Lutfiy*
13. Navoiy hayoti va ijodi
14. Navoiy lirikasi. Navoiyning badiiy mahorati.
15. **«Xamsa»**
16. **Bobur hayoti va ijodi. Bobur lirikasi.**
17. **«Boburnoma».**
18. **Mashrab**
19. **Uvaysiy.**
20. **Nodira**

**Oraliq nazorat 1** marta o`tkaziladi. Unda talaba quyidagi oraliq nazorat savollarini oqib o`rganadi.

### **Oraliq nazorat uchun savollar**

1. Eng qadimgi og`zaki adabiyot yodgorliklarini aytib bering.
2. Maxmud Qoshg`ariyning hayoti va faoliyati haqida ma`lumot.
3. Yusuf Xos Xojib hayoti va faoliyatini o`rganish tarixi
4. Arablar istilosi va uning oqibatlarini ayting.
5. «Devonu-lug`otit-turk» asarning yaratilishi va tuzilishi.
6. «Qutadg`u bilig» dostoni.
7. Asotir va afsonalar.
8. «Devonu-lug`otit-turk» asarida turkiy tillar leksikasi va morfologiyasining izohlanishi.
9. «Qutadg`u bilig» dostonining yaratilish tarixi.
10. Qaxramonlik eposi.
11. Maxmud Qoshg`ariyning turkiy tillar fonetik qonuniyatlarining kashfiyotchisi ekanligi.
12. «Qutadg`u bilig» dostonida didaktika.
13. O`rta Osiyo eposlar vatani ekanligi.
14. «Devonu-lug`otit-turk» asarining tarixiy ahamiyati.
15. «Qutadg`u bilig» dostonidagi diniy-tasavvufiy fikrlar.
16. Qadimgi qaxramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari haqida.
17. «Devonu-lug`otit-turk» asarining ilmiy ahamiyati.

18. «Qutadg`u bilig» dostonining syujeti va kompozision qurilishi.
19. «Avesto» muqaddas kitob.
20. «Qutadg`u bilig» dostonidagi obrazlarning majoziy xarakteri.
21. Ahmad Yugnakiy o`zbek didaktik adabiyotining namoyondasi sifatida.
22. «Avesto»ning adabiy, ilmiy, tarixiy ahamiyati.
23. O`zbek adabiyoti rivojida Yusuf Xos Xojib dostonining tutgan o`rni va ahamiyati.
24. «Hibat-ul-haqoyiq» asaridagi ijtimoiy falsafiy va ahloqiy masalalar.
25. O`rxun-Enasoy yodgorliklari.
26. «Qutadg`u bilig» va halq og`zaki ijodi.
27. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o`rganish tarixi.
28. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining kashf qilinishi haqidagi ma`lumotlar.
29. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o`rganish tarixi.
30. Ahmad Yassaviy- turkiy adabiyotning yirik vakili.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirgan ijodkorlar ijodini o`rgangan, badiiy matn bilan tanishib, uni tahlil qila olgan talabaga 22-25 ball qo`yiladi.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirgan ijodkorlar ijodini o`rgangan, badiiy matn bilan qisman tanishib, uni qisman tahlil qila olgan talabaga 18-21 ball qo`yiladi.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirgan ijodkorlar ijodini o`rgangan, badiiy matndan parcha o`qib, uni tahlil qila olmagan talabaga 13-17- ball qo`yiladi.

Yuqoridagi mavzularni o`qib, o`zlashtirmagan ijodkorlar ijodini o`rganmagan, badiiy matndan parcha o`qib, uni tahlil qila olmagan talabaga 0-12- ball qo`yiladi.

#### Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari

1. *Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari*
2. Mahmud Koshg`ariy
3. Yusuf Xos Hojib.
4. Ahmad yugnakiy
5. Ahmad yassaviy
6. XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot ravg`uziy
7. Xorazmiy
8. Sakkokiy
9. Atoiy-iste`dodli lirik shoir.
10. *Lutfiy*
11. Navoiy hayoti va ijodi
12. Navoiy lirikasi. Navoiyning badiiy mahorati.
13. **«Xamsa»**
14. **Bobur hayoti va ijodi. Bobur lirikasi.**
15. **«Boburnoma».**
16. **Mashrab**
17. **Uvaysiy. Nodira**
18. **Ogahiy**

#### **Baholash: =10 ball**

9 dan 10 gacha – mavzularni o`qib o`rgangan, badiiy matn bilan tanishib va tahlil qilgan, parchalar yodlagan, qiyosiy fikr bildira olgan, tegishli xulosa chiqargan talabaga qo`yiladi.

7 dan 8 gacha – mavzularni o`qib o`rgangan, badiiy matn bilan tanishib va tahlil qilgan, parchalar yodlagan, nazariy savollarga to`liq javob bergan, ammo to`liq tahlil qila olmagan talabaga qo`yiladi.

5 dan 6 gacha – mavzularni o`qib o`rgangan, badiiy matn bilan tanishib va tahlil qilgan, parchalar yodlamagan, savollarga javob bergan, ammo mustaqil fikrlay olmagan talabaga qo`yiladi

0 dan 4 gacha – mavzularni o`qib o`rgangan, badiiy matn bilan tanishmagan va tahlil qilmagan, parchalar yodlamagan, savollarga qisman javob bergan, misollar keltira olmagan talabaga qo`yiladi

### **Izoh: yakuniy nazoratga faqat joriy va oraliq nazoratlardan o`tgan talabalar qo`yiladi**

**Yakuniy nazorat 1 marta og`zaki tarzda o`tkaziladi**. Unda talaba quyidagi yakuniy nazorat savollariga javob yozadi va o`quv jarayonidagi faoliyatini ham inobatga olib baholanadi.

#### **Yakuniy nazorat variantlaridan namunalar**

##### **1-variant**

1. Eng qadimgi og`zaki adabiyot yodgorliklarini aytib bering.
2. Maxmud Qoshg`ariyning hayoti va faoliyati haqida ma`lumot.
3. Yusuf Xos Xojib hayoti va faoliyatini o`rganish tarixi

##### **2-variant**

1. Arablar istilosi va uning oqibatlarini ayting.
2. «Devonu-lug`otit-turk» asarning yaratilishi va tuzilishi.
3. «Qutadg`u bilig» dostoni.

##### **3-variant**

1. Asotir va afsonalar.
2. «Devonu-lug`otit-turk» asarida turkiy tillar leksikasi va morfologiyasining izohlanishi.
3. «Qutadg`u bilig» dostonining yaratilish tarixi.

##### **4-variant**

1. Qaxramonlik eposi.
2. Maxmud Qoshg`ariyning turkiy tillar fonetik qonuniyatlarining kashfiyotchisi ekanligi.
3. «Qutadg`u bilig» dostonida didaktika.

##### **5-variant**

1. O`rta Osiyo eposlar vatani ekanligi.
2. «Devonu-lug`otit-turk» asarining tarixiy ahamiyati.
3. «Qutadg`u bilig» dostonidagi diniy-tasavvufiy fikrlar.

##### **6-variant**

1. Qadimgi qaxramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari haqida.
2. «Devonu-lug`otit-turk» asarining ilmiy ahamiyati.
3. «Qutadg`u bilig» dostonining syujeti va kompozision qurilishi.

##### **7-variant**

1. «Avesto» muqaddas kitob.
2. «Qutadg`u bilig» dostonidagi obrazlarning majoziy xarakteri.
3. Ahmad Yugnakiy o`zbek didaktik adabiyotining namoyondasi sifatida.

##### **8-variant**

1. «Avesto»ning adabiy, ilmiy, tarixiy ahamiyati.
2. O`zbek adabiyoti rivojida Yusuf Xos Xojib dostonining tutgan o`rni va ahamiyati.
3. «Hibat-ul-haqoyiq» asaridagi ijtimoiy falsafiy va ahloqiy masalalar.

##### **9-variant**

1. O`rxun-Enasoy yodgorliklari.
2. «Qutadg`u bilig» va halq og`zaki ijodi.
3. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o`rganish tarixi.

### 10-variant

1. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining kashf qilinishi haqidagi ma`lumotlar.
2. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o`rganish tarixi.
3. Ahmad Yassaviy- turkiy adabiyotning yirik vakili.

#### **Baholash: 30 ball**

26 dan 30 gacha – nazariy ma`lumotlarni to`liq bayon qila olgan, mustaqil fikr bildirgan , asarlarni tahlil qilgan talabaga qo`yiladi.

21 dan 25 gacha – nazariy ma`lumotlarni bayon qila olgan, mustaqil fikr bildirgan, to`la tahlil qila olmagan talabaga qo`yiladi.

17 dan 20 gacha – nazariy ma`lumotlarni qisman bayon qila olgan, mustaqil fikr bildirgan, savollardan ma`lum bir qismiga javob bergan talabaga qo`yiladi.

0 dan 16gacha – nazariy ma`lumotlar haqida tushunchasi bo`lgan, ammo bayon qila olmagan talabaga qo`yiladi.

**Izoh: Fanlardan o`tkaziladigan yakuniy nazorat ishiga faqat 55% dan yuqori ball to`plagan talabalar qo`yiladi.**

#### **O`qitishda ta'limning kompyuter axborotlrshtirish va boshqa zamonaviy texnologiyalarning qo`llanishi**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, “O`zbek filologiyasi” faniga oid darslik va o`quv qo`llanmalari, dissertatsiya va monografiyalar, internet ma`lumotlari, jumladan, literatura.uz , islom.uz kabi saytlaridagi ma`lumotlar dasturning informatsion-metodik ta`minotini tashkil etadi.

Dasturdagi mavzularni o`tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o`quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonviy zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Bumerang”, “Fikrlar hujumi”, “Tarozi” texnologiyasining “Munozarali dars”, “Debat” metodlari, shuningdek “O`zbek filologiyasi” faniga oid slaytlar, korgazmalardan foydalanish, didaktik o`yin usullarini qo`llash nazarda tutiladi.

Fanni o`rganish quyidagi an'anaviy va ilg`or ta'lim berish usullarini qo`llangan holatda amalga oshiriladi: tezkor-sirov-test sirovlari, dasturiy ta'lim "davra sushbatlari"ni qo`llash, ishchanlik o`yinlari, kollokviumlar, muammoli o`qitish, o`qitishda texnik vositalardan foydalanish va boshqalar qo`llaniladi.

#### **Adabiyotlar ro`yxati:**

##### **Asosiy:**

1. N.M.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi, T., 1965 yil
2. O`zbek adabiyoti tarixi., 2-kitob , III., 1978 yil
3. O`zbek adabiyoti tarixi., 5 jildlik , I-jild., 1971 yil

##### **Qo`shimcha adabiyotlar:**

1. Nasriddin Burxonuddin Rabg`uziy. «Qissasi Rabg`uziy». 1-II kitoblar T., 1990 yil
2. Jalilov B. Meros va ixlos. Andijon, 1995 yil
3. Rayimjonova D. «Muhabbatnoma» va «Latofatnoma» asarlarining qiyosiy taxlili. Andijon. 1992 yil.
4. Atoiy. Tanlangan asarlar, T., 1958 yil
5. Hayot vasfi., T., 1988 yil
6. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995 yil



- 7.Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T. , 1960 yil
- 8.Rustamov E. O`zbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M:, 1963 yil
9. Lutfiy. Devon., T. 1965 yil
- 10.Erkinov s. Lutfiy, T. 1965 yil
- 11.Xayitmetov N. Navoiy lirikasi, T., 1961 yil
- 12.Isaqov Ye. Navoiy poetikasi. T., 1983 yil
- 13.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati., T., 1979 yil
- 14.Akramov B. Fasohat mulkining sohibqiron. T. 1991 yil
- 15.Valixonov O. G`azal nafasati. T. , 1972 yil
- 16.Valixo`jaev B. O`zbek epik poeziyasi tarixidan. T 1974
- 17.Jalolov T . «Xamsa» talqinlari. T., 1968.
- 18.Erkinov S. Navoiyning «Farhod va Shirin» va uning qiyosiy tahlili.T .1971.
- 19.Qayumov.A. « Xayrat –ul- abror»tahlili.T.1972.
- 20.Qayumov A. «Farhod va Shirin» sirlari. T 1978.
- 21.Qayumov A. « Ishq vodiysi chechaklari.T.1985.
22. Qayumov A. « Saddi Iskandariy». T .1975.
- 23.«Boburnoma» T, 1960
- 24.Nazarova X. Bobur asarlari uchun qisqacha lug`at. T., 1972

## **II BO`LIM**

- **“O‘zbek filologiyasi” FANIDAN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI**
- **“O‘zbek filologiyasi” FANIDAN MA’RUZA, AMALIY VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARIDA O‘QISH TEXNOLOGIYASI**

## **“O‘zbek filologiyasi” fani bo‘yicha ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari**

Ta’lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo‘nalishning o‘ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e’tibor berish orqali namoyon bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqqan xolda, “O‘zbek filologiyasi” kursining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

**Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi.** O‘z mohiyatiga ko‘ra bu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda o‘quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uning ruxiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

• **Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam qilishi zarur. Jarayonning mantiqiyliigi, undagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

• **Amaliy yondashuv.** Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta’lim jarayonini yo‘naltirish, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo‘yadi.

• **Dialogik yondashuv.** Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi sub’ektlarning psixologik birligi va o‘zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi kuchayadi.

• **Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub’ektlar munosabatida o‘qituvchi va o‘quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini aniqlashni ko‘zda tutadi.

• **Muammoli yondashuv.** Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish orqali o‘quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob’ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik, tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo‘llash ta’minlanadi.

• **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya’ni o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqoridagi konseptual yondashuv va “O‘zbek filologiyasi” fanining tarkibi, mazmuni, o‘quv axborot xajmidan kelib chiqqan xolda o‘qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi:

• **O‘qitish usullari va texnikasi :** muloqot, muammoli usul, o‘rgatuvchi o‘yinlar, «aqliy xujum», insert, «birgalikda o‘rganamiz», pinbord, ma’ruza (kirish ma’ruzasi, vizual ma’ruza, tematik, ma’ruza-konfrknsiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharxlovchi, yakuniy ma’ruzalar).

• **O‘qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o‘zaro hamkorlikka asoslangan.

• **O‘qitish vositalari:** odatdagi o‘qitish vositalari(darslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti)dan tashkari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

• **O‘zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o‘qitishning diagnostikasi(tashxisi).

• **Boshkarishning usul va vositalari.** O‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashkari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

• **Monitoring va baholash.** O‘quv mashg‘uloti va butun kurs davomida o‘qitish natijalarini kuzatib borish, o‘quvchi faoliyatini har bir mashg‘ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

**Ma’ruza mashg‘ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:**

№	Ma'ruza shakllari	O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning urni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharxini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2	Ma'ruza-axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilishi va tushuntirish.
3	Sharxlovchi ma'ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bulimlarning konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4	Muammoli ma'ruza	Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi.  Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uning yechimini topishni tashkil qilish, Hozirgi zamon qarashlarini tahlil qilish.

5	Vizual ma'ruza	<p>Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va kiska sharxlar berishga karatilgan.</p> <p>Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.</p>
6	Binar(ikki kishilik) ma'ruza	<p>Bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyandasining, o'qituvchi-talabaning dialogidan iborat.</p> <p>Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.</p>
7	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	<p>Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi.</p> <p>Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga o'rgatish.</p>
8	Ma'ruza-konferensiya	<p>Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi(5-10 minut) dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalariga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi.</p> <p>Pedagogik vazifasi: Yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.</p>
9	Maslahat ma'ruza	<p>Turli senariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki aloxida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi; 2)</p>

		<p>«savol-javob-diskussiya»- izlanishga imkon beradi.</p> <p>Pedagogik vazifasi: Yangi o‘quv ma’lumotni o‘zlashtirishga qaratilgan.</p>
--	--	---

## 1. “O‘zbek filologiyasi” fanining dolzarbligi va ahamiyati .

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim bo‘g‘inlarida “Ona tili” va “**O‘zbek filologiyasi**” fanlarining o‘qitish maqsadi, usuli va mazmuni tamoman yangilangan va yangi maqsadlarga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 343-qarori bilan Oliy ta’lim DTS lari Asosiy qoidalari tasdiqlandi; yo‘nalish va mutaxassislik DTS lari ma’qullandi. Shuning uchun oldimizda turgan muhim vazifalardan biri oliy ta’limning bakalavriat bo‘g‘inida o‘zbek filologiyasi bo‘yicha tayanch oliy ma’lumot berish uchun “O‘zbek adabiyoti” kursining maqsad, usul va mazmunini yangilash, mukammallashtirish, bosqichlararo uzluksizlik va davomiylikni ta’minlashdir. Ushbu qo‘llanma mana shu vazifaga xizmat qilmog‘i lozim.

“**O‘zbek filologiyasi**” fani bo‘lajak mutaxassisni **O‘zbek filologiyasi** me’yorlari, qonuniyatlari bilan qurollantiradi. Adabiyotshunosligimizda shakllangan zotiy tahlil usuli ona tilimizning ichki imkoniyatlarini ochib beradi va har bir til hodisasi umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va xususiylik (yakkalik), hodisa, voqelik, oqibat (YaHVO) dialektikasi nuqtai nazaridan tahlil etilishi kerakligini uqtiradi. Shuning uchun bu bosqichda “**O‘zbek filologiyasi**” UMIS va YAHOVO (lison-me’yor-nutq) hodisalarining izchil farqlanishi va dialektik birligiga tayanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi isloxlarning asosini shakllantiruvchi qator me’yoriy xujjatlar qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda. Bular asosida «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlar alohida o‘rin tutadi. Bu qonunlardan kelib chiqadigan vazifa ta’lim dasturlari mazmunining yuqori sifatiga erishish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdir.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar dars berishning interfaol usullarini nazarda tutadi. Bular munozara darslari, ishbilarmon uyinlar, muammoli holatlarni yechish va xokazolardir. Ushbu usullar talabalarning ijodiy faolligini oshirishda, muammoni hal qilishning eng maqbul yo‘llarini topishda yordam beradi. Shuningdek, filologiya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr tayyorlash davlat ta’lim standartini amalga oshirishda amaliy vosita hisoblanadi.

Davlat ta’lim standartida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga quyidagi talablar qo‘yilgan.

### **Bakalavr:**

- dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlar tizimiga ega bo‘lishi, gumanitar va sotsial-iqtisodiy fanlarning asosini, davlatning hozirgi kundagi siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammo va xodisalarni mustaqil tahlil kila olishga kodir bo‘lishi;

- mamlakatimiz tarixini bilishi, milliy goya va umuminsoniy kadriyatlar masalalari bo‘yicha uz nuqtai-nazarini ilmiy asoslash, milliy mustaqillik goyasi asosida faol xayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan jaoayon va xodisalar to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, ulardan xayotda va kasbiy faoliyatida ilmiy asoslangan xolda foydalana olishi;

- insonning insonga, jamiyatga, atrof-muxitga nisbatan bulgan munosabatini boshkarishning xukukiy va axlokiiy me’yorlarini bilish, kasbiy ish jarayonida ularni xisobga ola bilish;

- axborotni tuplash, saklash, kayta ishlash va uni qo‘llash usullarini bilishi, uzining kasbiy ish tajribasiga asoslangan xulosalar chikarishi;

- mustaqil ravishda Yangi bilimlarni uzlashtirishi, uz malakasini oshirishi va mexnatini ilmga asoslangan xolda tashkillashtirishi;
- soglom xayot kechirish tarzining muximligi to'g'risida ilmiy tushunchalarga va asoslarga, jismoniy rivojlanish borasidagi bilim va malakalarga ega bo'lishi;
- kadrlar malakasini oshirish va kayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishi kerak.

Til o'qituvchisi doimo uz pedagogik maxoratini oshirib, uni san'at darajasiga yetkazib borishi kerak. Uz fikrini tushunarli, kurgazmali ifodalay bilish, jaxon va mamlakatimiz ijtimoiy-iktisodiy xayotidagi voqealarga uz munosabatini bildirishi, ta'lim berishga ijodiy yondashuvni rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchining ijodiy yondashuvi talaba tomonidan Hozirgi adabiy jarayonni urganishga ijodiy yondashuvining bevosita shartidir.

Odatdagi ma'ruza darslarining an'anaviy tarzda, ilgor pedagogik usullarsiz olib borilishi talabadan faollik talab kilmaydi. Darsni uzlashtirish ham osonday tuyuladi, fanga nisbatan kizikish uygonmaydi. Muammoli holatlarning yaratilishi, aniq misollar yordamida iktisodiy masalalarning yechilishi, talabani fanga kiziktirish, uning faolligini oshirib, kengrok fikrlashga, maqsadga karab intilishga, kerakli bilim va kunikvalar xosil qilishga yordam beradi.

Mamlakatimiz kelajagi bulgan yoshlarning halkaro andozalarga mos keluvchi yukori ta'lim darajasini ta'minlash, bu vazifani sifatli, samarali, tushunarli amalga oshirish Hozirgi adabiy jarayon fanining asosiy uslubiy vazifasi xisoblanadi. Uni amalga oshirish o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni zarur qilib qo'yadi.

#### **O'zbek filologiyasi fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti**

T\r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar				
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Labora toriya	seminar
11.	Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari	4	2	-		2
12.	<i>Islomgacha bo'lgan davr adabiyoti</i>	4	2	2		-
13.	Islom ta'siri ostida yaratilgan adabiyot	4	2	-		2
14.	XIV-XVI asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot	4	2	2		-
15.	Navoiy hayoti va ijodi Navoiy lirikasi. «Xamsa»	4	2	-		2
16.	<b>Bobur hayoti va ijodi</b> Bobur lirikasi. «Boburnoma».	4	2	2		-
17.	XVI-XVII asr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari	4	2	2		-

18.	Qo`qon adabiy muhiti	4	2	-		2
19.	Xiva adabiy muhiti	4	2	2		-
20.	Buxoro xonligida adabiy hayot	2	1	-		1
	<b>Jami:</b>	<b>38</b>	<b>19</b>	<b>10</b>		<b>9</b>



	Mavzular	Annotatsiya
	Qadimgi yozma yodgorliklarda badiiylik.	Mavzuga alohida to‘xtalib, yozma yodgorliklarning tarixiyligi, ahamiyati va yodgorliklardan parchalar keltirib, ularda badiiylik turlari aniqlanadi va tahlil qilinadi.
2-bosqich. Asosiy (60 min).	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob utkazadi.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shoir Navoiy lirikasi o'zbek lirik merosining cho'qqisi ekani.</li> <li>2. Navoiy lirikasining mavzulari.Timsollar tizimi.</li> <li>3. Navoiy lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari janr hususiyatlari.</li> <li>4. O'zbek lirik ijodiyotiga shoir Navoiy tomonidan kiritilgan yangiliklar.</li> <li>5. Navoiy lirikasida she'riy san'atlar.</li> </ol> <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Shoir Navoiy lirikasi o'zbek lirik merosining cho'qqisi ekani. Navoiy lirikasining mavzulari.Timsollar tizimi.Navoiy lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari janr hususiyatlari.O'zbek lirik ijodiyotiga shoir Navoiy tomonidan kiritilgan yangiliklar.Navoiy lirikasida she'riy san'atlari haqida haqida ma'lumot beradi.</p> <p>6. 2.3. Navoiy lirikasida she'riy san'atlar: O'zbek lirik ijodiyotiga shoir Navoiy tomonidan kiritilgan yangiliklar to'g'risidagi taqdimotni namoyish etadi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.</p>	<p>2.1.Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi. Navbat Bilan bir-birlarini takrorlamay atamalarni aytadi. Javob beradi vat ugri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muxokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. eslab koladi, yozadi.Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: « Navoiy » So'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

**1-ma'ruza mashg'uloti uchun vizual materiallar****1-ilova**

Navoiy

86

Lirik asarlari:

Epik asarlari:

5-mavzu	«Xamsa»
---------	---------

### 5.1 Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi. 2. Navoiy «Xamsa» si 3. Dostonda odob-ahloq masalalari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi Navoiy «Xamsa» si Dostonda odob-ahloq masalalari.
Pedagogik vazifalar: Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi.Navoiy «Xamsa» si dostonda odob-ahloq masalalari.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi. Dostonda odob-ahloq masalalari Navoiy «Xamsa» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati tushuntiradi;

O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, sinkveyn, blits-so'rov, klaster, konseptual jadval.
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan Jihozlangan auditoriya

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>o'qituvchining</b>	<b>Talabani</b>
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. 1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi. 1.2. E'tibor beradilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni va ma'ruza oxirida yechiladigan masalalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlari ma'lum qilinadi.	2.1 Anqlik kiritadilar. Savollar beradi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1. Quyidagi savolni o'rtaga tashlaydi: Aytingchi, Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi. Navoiy «Xamsa» si Dostonda odob-ahloq masalalarideganda nimani tushunasiz? -Obraz nima? Ana shu savol bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun «Xamsa»ga oid chizmani namoyish qiladi. 3.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi.	3.1.Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va tugri javobni eshitadi. 3.2. Sxema va jadvallar mazmunini muxokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga yakun yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi. 4.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun savollarni beradi: - Sharq adabiyatida «Xamsa»chilik an`anasining boshlanishi. - «Xamsa»chilik an`anasi tushunchasi. - Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy xamsalaridagi dostonlar. - «Xayrat-ul abror» dostonining nomlanishi kompozitsiyasi. - «Xayrat-ul abror» dostonidagi falsafiy ijtimoiy ahloqiy va odob masalalari. - «Farxod va Shirin» dostoni syujeti, timsollar tizimi. - Layli-Majmun» dostoni syujeti, timsollar tizimi. - Layli-Majmun» dostonining o`ziga xos xususiyatlari.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.



	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Layli-Majmun» dostonidagi tush epizodi.Uning mohiyati.</li> <li>- Saddiy Iskandariy dostonida Aleksandr Makedonskiy va Iskandar timsoli.</li> <li>- Saddiy Iskandariy dostoni syujeti, timsollar tizimi.</li> <li>- Saddiy Iskandariy dostonining g`oyaviy yo`nalishlari. Badiiy hususiyatlari.</li> </ul>	
--	---	--

**“ XAMSA” mavzusining mazmuni va mohiyati.**

**REJA**

1. Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi.
2. Navoiy «Xamsa» si
3. Dostonda odob-ahloq masalalari.

Jahon epik ijodiyotida Gomer, Firdavsiy kabi shoirlar yaratgan asarlar mashhurdir. Ular qatorida «Xamsa» dostonlari ham o`z o`rniga egadir. «Xamsa» so`zi arabcha so`z bo`lib «Beshlik» degan ma'noni beradi.

Nizomiy Ganjaviy 30 yil davomida besh doston yaratdi.

1. «Maxzan-ul asror» («Sirlar xazinasi»).
2. «Xisrav va Shirin».
3. «Layli vaMajnun».
4. «Xaft paykar» («Etti go`zal»).
5. «Iskandarnoma».

Bu dostonlarni ko`chirgan kotib uni bir muqovaga joylab «Xamsa» deb atagan. Shundan boshlab shoirlar bu asarlarga o`xshagan dostonlar yozishga kirishganlar. Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'analari maydonga keladi.

Ko`pchilik shoirlar bu an'anaga dosh bera olmadilar. Bunday shoirlar sarasiga Mavlono Kotibiy, Ashraf, Ali Oxiy, Suhayliy, Abdullo Xotifiy kabi shoirlarni kiritish mumkin.

Ilmiy adabiyotda xamsanavislar deyilganda Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, A.Jomiy, Navoiy nomlari sanaladi.

Xisrav Dehlaviy «Matla' ul-anvor» («Nurlar boshlanmasi»), «Shirin va Xisrav», «Majnun va Layli», «Xasht bexisht» («Sakkiz jannat»), «Oyinai Iskandar» («Iskandarning oynasi») nomli dostonlar yozdi.

Bizningcha, xamsanavislar qatoriga A.Jomiyni qo`shish mumkin emas. Sababi shundaki, Jomiyda dostonlarida an'ana buzilgan. U «Tuxfat ul-axror» («Xur kishilar tuhfasini»). «Sabhat ul-abror» («Kishilar tasbehi»), «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Xiradnomai Iskandar» («Iskandarning donishmandlik kitobi») nomli dostonlar yozib, unga «Silsilat ul-zahhob» («Oltin zanjir», «Salomon va Absol») dostonlarini qo`shib, yetti dostonini jamlab, «Xaft avrang» («Etti qaroqchi yulduz») degan nom bergan.

Navoiy «Xamsa»si 1483-1485 yillarda yozildi. U yigitlik chog`lari aytgan faxriyasini amalda isbot etdi. «Xamsa»ning aynan shu yillari yozilishi sababi shundaki, bu yillarda shoir saroy ishlaridan bezib uyda o`tirgan edi. Ikkinchidan esa 1483 yilda Jomiy «Xamsa» yoza boshlagan edi.

Dostonning ikki yilda yozilishi esa quyidagicha kechgan. Shoir umri davomida «Xamsa» yozishi tayyorgarlik ko`rdi. Bu ikki yil shoir xayolida tayyor bo`lgan satrlarini qog`ozga tushirish uchun kerak bo`ldi.

Navoiy «Xamsa» yozishga ketgan vaqtini ikki yil emas olti deb beradi.

Yig`ishtirsa bo`lmas bori olti oy  
Ki bo`lding bu ra'noga suranamoy.

Navoiy «Xamsa» yozishga kirishar ekan salaflardan madad soʻraydi, ularga ehtirom bilan munosabatda boʻladi. Ularni alohida boblarda madx etadi:

Yoʻllasa bu yoʻlda Nizomiy yoʻlum,  
Qoʻllasa Xisrav ila Jomiy qoʻlum.

Shu bilan birga Navoiy salaflari oʻrni bilan tanqidiy munosabatda boʻladi. Xususan, Xisrav va Bahrom xarakterlari talqiniga jiddiy eʼtiroz bildiradi.

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh  
Sarosar boʻldilar Xisravga maddoh.

Yoki Nizomiyga munosabat bildirib:

Oллоh, oллоh, ne ganji oʻlgan bu?  
Sar-basar elga ranj oʻlgay bu?

Navoiyning «Xamsa» haqidagi faxriyasini eshitgan Xusayn Boyqaro shunday degan ekan: «..shoirona laf va moyai xottom gazof. (qalamning behuda valdirashi)» Navoiy «Xamasa»sini oʻqib chiqqach uni oʻziga pir sanadi va shunday baho beradi:

Erur soʻz mulkining kishvaristoni,  
Kayu kishvariston Xusravnishoni.  
Dema Xusrav nishonikim qahramone,  
Erur gar chin demang sohibqirone.

Navoiyning «Xamsa»si salaflar dostonlari bilan mushtarak xususiyatlarga ega boʻlish bilan birga oʻziga xos xususiyatlarga ham egadir. Avvalo, u turkiy tilda bitildi. Har bir doston oʻziga xos xususiyatlar bilan diqqatga loyiqdir.

Doston oʻqilishini osonlashtirish uchun (uning jami 5 ming 230 misradan iborat) nasriy variantlar yaratila boshladi. Inqilobgacha Umar Boqiy «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarining nasriy variantlarini yaratdi. S.Ayniy, Gʻ.Gʻulom, A.Haytmetov, I.Maxsum kabi ijodkorlar tomonidan bugun barcha dostonlar nasriy variantga ega boʻldi.

#### ***Adabiyotlar.***

1. T.Jalolov «Xamsa» talqinlari, T., 1968 y
2. N.Mallaev. Oʻzbek adabiyoti tarixi. T., 1965 y
3. Oʻzbek adabiyoti tarixi. V jildlik, II jild, 1972 y

#### ***Takrorlash uchun savollar:***

1. «Xamsa»chilik an'anasi haqida nimalar bilasiz?
2. Navoiy «Xamsa»si xususida ma'lumot bering .
3. Dostonda odob-ahloq masalalariga misollar keltiring.

6- mavzu.

**Bobur hayoti va ijodi .Bobur lirikasi. «Boburnoma».**

### 6.1 Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot ma'ruza, birgalikda o'qish usuli va grafik organayzeridan foydalangan holda.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixa 2. Boburning hayot yo'li 3. Boburning ijod yo'li
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixa Boburning hayot yo'li. Boburning ijod yo'li haqidagi tasavvurni shakllantirish
Pedagogik vazifalar: Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixa Boburning hayot yo'li. Boburning ijod yo'li haqidagi tasavvurni shakllantirish	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: Bobur hayoti va ijodini o'rganish manbaalari. Bobur ijodining o'rganilish tarixi. Bobur ijodiga g'ayriilmiy qarashlar. Shoir Bobur taxallusi masalasi. Boburning hayot va ijod yo'li Boburning bizgacha yetib kelgan va yetib kelmagan asarlari haqida ma'lumot. Bobur va Andijon. Badiiy adabiyotda Bobur timsolining ishlanishi. Mustaqillik yillarida Bobur hayoti va ijodiga yangicha munosabatlar haqida fikr yuritadi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot ma'ruzasi, Insert, blits-so'rov, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, aniq holatlarni yechish.
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

#### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	Talabaning
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadi va yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi. Blits-so'rov o'tkazadi. 2.2. Muammoli savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: - Bobur hayoti va ijodini o'rganish manbaalari. - Bobur ijodining o'rganilish tarixi. - Bobur ijodiga g'ayriilmiy qarashlar.	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi. 2.2. Muammoga e'tiborni qaratadi va yozib oladilar. Sxema va jadvallar mazmunini muxokama qiladi.

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Shoir Bobur taxallusi masalasi.</li> <li>- Boburning hayot va ijod yo`li</li> <li>- Boburning bizgacha yetib kelgan va yetib kelmagan asarlari haqida ma`lumot.</li> <li>- Bobur va Andijon.</li> <li>- Badiiy adabiyotda Bobur timsolining ishlanishi.</li> <li>- Mustaqillik yillarida Bobur hayoti va ijodiga yangicha munosabatlar.</li> </ul> <p>Bu savollarga javob berish uchun avval Bobur hayoti va ijodi haqida ma`lumot beradi.</p>	Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi. O`quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi. 3.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun qo`shimcha adabiyotlar beradi.	3.1. Eshitadi, 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

### **Bobur hayoti va ijodi**

#### REJA

1. Bobur hayoti va ijodining o`rganilish tarixi
2. Boburning hayot yo`li
3. Boburning ijod yo`li

«Bori elga yaxshilik qilg`ili mundin yaxshi yo`q  
Kim deganlar daxr aro qoldi folondin yaxshiliq»

#### ***Bobur***

Xalqimiz tarixida salohiyatli shoh bo`lishi bilan birga ilmiy badiiy ijod bilan shug`ullangan, o`z davri madaniy hayotida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar ko`p ekaniga guvoh bo`lamiz.

Ammo sho`rolar davri ularning shoh ekaniga urg`u berib ular ijodini o`rganishga imkon bermay keldi. Istiqlool bunday ijodkorlar ijodini o`rganishga yo`l ochdi. Ulug`bek, Bobur, Xusayniy, Shayboniy, Feruz, Amiriy kabi ijodkorlar merosini o`rganishga vaqt yetdi. Bular ichida ijodining salmoqli va barkamolligi jihatidan Bobur ijodi alohida o`rin tutadi.

Bobur xassos shoir, haqgo`y tarixchi, teran adabiyotshunos, iqtidorli tilshunos, nozik ta`b musiqachi, mohir lashkarboshi sifatida tarixda qoldi. Bobur hayoti va ijodini o`rganishda undan meros bo`lib qolgan lirik devonlar, «Boburnoma», «Muxtasar», «Xatti Boburiy», «Mubbayyin», «Volidiya» kabi bizga yetib kelgan asarlar manba bo`lib xizmat qiladi. Uning bizga yetib kelmagan «Harb ishi», «Musiqqa ilmi», qofiya ilmiga bag`ishlangan risolalari haqida ma`lumotlar bor.

Boburning hayoti va ijodi Denisson, Ross, M.F.Kuprilizoda, A.N.Samaylovich, Fitrat, Bertels, Ya.G`ulom, A.Qayumov, S.Azimjonova, N.Mallaev, B.Valixo`jaev, I.V.Stebleva, H.Hasanov, S.Jamolov, S.Xasanov, H.Nazarova, H.Razzaqov. O.Valixonov, R.Shamsutdinov, S.Jalilov kabi olimlar tomonidan o`rganilgan.

Istiqlolgacha bo`lgan tadqiqotlar sho`ro siyosatiga mos tadqiqotlar edi. Istiqlool Bobur hayoti va ijodini haqqoniy o`rganishga yo`l ochdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yili 14 dekabrda Andijonda tug`ilgan. Boburshunoslikda uning tug`ilgan joyi haqida munozaralar mavjud. V.Zohidov «Boburnoma» asariga yozgan so`z boshisida Bobur Axsida tug`ilgan degan fikrni aytgan. Shundan buyon B.Valiho`jaev kabi olimlar Bobur tug`ilgan joyi Axsi deb ko`rsatganlar. N.Mallaev, S.Jalilov kabi olimlar Andijon deb aytdilar.

Bizningcha, Bobur tug`ilgan joyi Andijon deb qarash ma`quldir. Bobur «Boburnoma» da Andijonni 58 marta tilga olsa, Axsini esa 29 marta tilga olgan. Umarshayx Mirzo davrida Farg`ona viloyatining poytaxti Axsi va Andijon bo`lgan. Axsi viloyat chegarasi daryo bo`yidagi

shahar bo'lsa, Andijon viloyati ichida, Axsiga nisbatan issiq joydir. Boburning qish faslida tug'ilganini hisobga olsak Umarshayx oy-kuni yaqin Qutlug` Nigorxonimni Andijonda saqlashi mantiqan to'g'ridir.

Eng muhim shahodat Boburning o'z iqroridir. U g'azallarining birida o'zini Andijonlik deb aytadi:

Ne yerda bo'lsang, ey gul, andadir chun joni Boburning  
G`aribingga taraxxum aylagilkim, anda joniydir.

Bundan tashqari, Boburning Andijonni poytaxt qilishi, umrbod kindik qoni to'kilgan joy sog'inchi, ilinji bilan yashagani uning tug'ilgan joyi Andijon ekanini isbotlaydi.

Bobur shajarasi quydagicha: Temur, Mironshoh, Sulton Muhammad, Abu Said, Umarshayx, Bobur.

Zaxiriddin Muhammad shoirning ismi bo'lib, Bobur uning taxallusidir. Shoir taxallusi o'z she'rlarida, rus, tojik, turk adabiyotshunoslari tomonidan «Bobur» shaklida aytilib, yozilib kelishsa-da, o'zbek adabiyotshunosligida «Bobir» shaklida aytilar yozilar edi.

1983 yili adabiyotshunos A.Abug'ofurov «O'zbekiston madaniyati» gazetasida maqola e'lon qilib, shoir taxallusini «Bobur» shaklida aytish, yozish to'g'ri ekanini ko'rsatib berdi.

Qofiya bo'layotgan so'zlarga e'tibor berilsa «purdur». «tasavvur» so'zlari ikkinchi bo'g'inida «u» tovushi kelar ekan, qofiya ilmiga ko'ra birinchi misradagi qofiyada ham ikkinchi bo'g'inda «u» tovushini kelishi aniqdir. Demak, shoir taxallusi «Bobur» ekanini shoirning o'zi ham tasdiqlamoqda.

1494 yili Umarshayx kabutarxonasi bilan jarga qulab o'ladi 12 yanvarda Bobur taxtga o'tiradi. Shu davrda Umarshayxning akasi Samarqand xokimi Sulton Ahmad kuyovi Toshkent xokimi Maxmudxon bilan birga Andijonga hujum boshlaydi. Bobur bek otasi Bobo Aliquli, onasi Qutlug` Nigorxonim, amrlar yordamida xujumni bartaraf etadi.

Bobur 15 yoshida Samarqandni egallaydi. Ammo Samarqandda uzoq turolmadi. Andijonni qo'ldan ketgani haqida xabarlar keladi. Samarqand shahri ham ayanchli axvolda edi Bobur Andijonga qaytadi.

Shayboniy Samarqandni hiyla yo'li bilan egallaydi. Zuhrabegim voqeasi unga qo'l keladi. Samarqand ayonlari Boburga maktub yo'llab uni Samarqandga chorlaydilar. Bobur ozgina askar bilan to'satdan Samarqandga hujum qilib uni egallaydi.

Shayboniy Samarqandni 4 oy qamal qiladi. Og'ir ahvolda qolgan Bobur Shayboniy bilan sulh tuzib, Samarqandni tark etadi. Toshkent hokimi ko'magida Samarqandni qayta zabt etmoqchi bo'ladi. Ammo boshqa Temuriylar Boburni qo'llab-quvvatlamaydilar.

Andijonga ham kira olmagan Bobur Afg'onistonga yo'l oladi. U Qobulni egallab, hokimiyatni mustahkamlagach, Eron shohi Ismoil Safaviydan yordam olib, 3-marta Samarqandni egalaydi. Ammo Eroniylar qilgan qirg'in-barotlar xalq nafratiga uchraydi. Xalq Boburni qo'llab-quvvatlamaydi. Oqibat Shayboniylar Boburni yengadilar.

Bobur Andijon, Samarqanddan umid uzgach, Hindiston tomon yurish qiladi. Ibrohim Lo'di, Rano Sango qo'shinlarini yengib, Bobur Hindistonni zabt etadi. Afg'onu Hindni bag'riga olgan imperiya tashkil etadi. Yevropalik olimlar Bobur imperiyasini «Buyuk mo'g'ul imperiyasi» nomi bilan ataydilar. O'zbek olimlari esa bu atama noto'g'ri ekanini uqtirib, Boburning mo'g'ul emasligini ta'kidlaydilar.

### 6.1 Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza

Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Bobur lirikasining manbalari</li> <li>- Asarning yaratilishi va o'rganilish tarixi.</li> <li>- Asarda shaxslar, joylar tasviri.</li> <li>- «Boburnoma» an'analari.</li> </ul>
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Fan olamiga Boburning Hind, Parij, Tehron devonlari ma'lum: Hind devoni 38 varaqdan iborat bo'lib, she'rlar sarlavhalari oltin suvi bilan yozilgan. Fors va Urdu tilida bitilgan ash'orlar jamlangan. Bu devonni Boburning o'zi ko'rgan. Devon oxiriga 1528 yil 2 dekabr dushanba deb quyidagi baytni o'z dastxati bilan yozib qoldirgan manbalarni o'rganish.
Pedagogik vazifalar: Bobur lirikasining manbaalari. Bobur lirikasining o'rganilish tarixi.Nashrlari. Bobur lirikasining o'ziga xos hususiyatlari. Shoir Bobur lirikasining mavzulari. Timsollar tizimi. Shoir Bobur lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari. Janr hususiyatlari. Shoir Boburning badiyat haqidagi qarashlarihaqida ma'lumotlar berish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Bobur lirikasining manbaalari.</li> <li>- Bobur lirikasining o'rganilish tarixi.Nashrlari.</li> <li>- Bobur lirikasining o'ziga xos hususiyatlari.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasining mavzulari. Timsollar tizimi.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari. Janr hususiyatlari.</li> <li>- Shoir Boburning badiyat haqidagi qarashlari.</li> <li>- Boburning ma'lum she'riy san'at asosiga qurilgan g'azali.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasida she'riy san'at timsollari.</li> </ul>
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot, ma'ruza, hikoya.
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.
O'qitish shakli	kollektiv
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	Talabaniing
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon qilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi va javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min).	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Bobur lirikasining manbaalari.</li> <li>- Bobur lirikasining o'rganilish tarixi.Nashrlari.</li> <li>- Bobur lirikasining o'ziga xos hususiyatlari.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasining mavzulari. Timsollar tizimi.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari. Janr hususiyatlari.</li> </ul>	2.1.Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi. 2.2. Muammoga e'tiborni qaratadiar va yozib oladilar. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib,

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Shoir Boburning badiyat haqidagi qarashlari.</li> <li>- Boburning ma`lum she`riy san`at asosiga qurilgan g`azali.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasida she`riy san`at timsollari.</li> </ul> <p>2.2. Vizual materiallar yordamida mavzuni tushuntiradi.(materiallar quyida ilova qilinadi)</p>	asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi. O`quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun qo`shimcha adabiyotlar beradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi,</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

### 1-ilova

#### Ma`ruza yuzasidan muammoli savollar

<ul style="list-style-type: none"> <li>- Bobur lirikasining manbaalari.</li> <li>- Bobur lirikasining o`rganilish tarixi.Nashrlari.</li> <li>- Bobur lirikasining o`ziga xos hususiyatlari.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasining mavzulari. Timsollar tizimi.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasining g`oyaviy yo`nalishlari. Janr hususiyatlari.</li> <li>- Shoir Boburning badiyat haqidagi qarashlari.</li> <li>- Boburning ma`lum she`riy san`at asosiga qurilgan g`azali.</li> <li>- Shoir Bobur lirikasida she`riy san`at timsollari.</li> </ul>
---

<b>6- mavzu.</b>	<b>«Boburnoma».</b>
------------------	---------------------

#### 6.1 Ma`ruza mashg`ulotini o`qitish texnologiyasi

Vahti – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O`quv mashg`ulotining shakli	Axborot, vizual ma`ruza, “Insert”, “Venna” diagrammasi texnikasini qo`llagan holda.
Ma`ruza mashg`ulotining rejasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- «Boburnomaning» yaratilish va o`rganilish tarixi.</li> <li>- «Boburnoma» asarining tarjimalari va nashrlari haqida.</li> <li>- «Boburnoma» asarida joylar tasviri.</li> <li>- «Boburnoma» asarida tarixiy shaxslar tasviri.</li> </ul>
O`quv mashg`ulotining maqsadi	«Boburnomaning» yaratilish va o`rganilish tarixi.«Boburnoma» asarining tarjimalari va nashrlari haqida chuqurroq bilim berish.
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- «Boburnomaning» yaratilish va o`rganilish tarixi.</li> <li>- «Boburnoma» asarining tarjimalari va nashrlari haqida.</li> <li>- «Boburnoma» asarida joylar tasviri.</li> <li>- «Boburnoma» asarida tarixiy shaxslar tasviri.</li> </ul>	<p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talaba:</p> <p>«Boburnomaning» yaratilish va o`rganilish tarixi. «Boburnoma» asarining tarjimalari va nashrlari haqida.«Boburnoma» asarida joylar tasviri. «Boburnoma» asarida tarixiy shaxslar tasviri haqida ma`lumot beradi;</p>

O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali ma'ruza, insert, aqliy hujum, blits-so'rov, klaster.
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.
O'qitish shakli	kollektiv
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>o'qituvchining</b>	<b>Talabaning</b>
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Darsning avvalida talabalarga ma'ruzalar matni va o'quv topshiriqlarni tarqatadi (1-ilova). 1.1. Mashg'ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi.	1.1. Eshitadilar, ma'ruza matnini oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Juftliklarga ajralishlariga topshiriq beradi. Ma'ruza matni va uz nuqtai nazaridan «Boburnomaning» yaratilish va o'rganilish tarixi.«Boburnoma» asarining tarjimalari va nashrlari haqida.«Boburnoma» asarida joylar tasviri. «Boburnoma» asarida tarixiy shaxslar tasviri bo'yicha juftliklarda muhokama o'tkazish va savollarga javob berishni taklif qiladi. Blits-so'rov o'tkazadi.	2.1. Topshiriqlarni bajaradi, muammolarni juftlikda muhokama qiladi, savollarga javob beradi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1. Ma'ruza matnidan kelib chiqqan holda quyidagi savollarni o'ylab ko'rishni tavsiya etadi. 1. Shoirning taxalusi haqida gapiring. 2. Boburning hayot yo'li haqida nimalar bilasiz? 3. Boburning ijodi haqida gapiring. 4. Bobur haqidagi badiiy asarlar haqida ma'lumot bering. 5. Bobur lirikasi manbalari xususida ma'lumot bering. 6. «Boburnoma» asarining yaratilish tarixi qanday? 7. Asarning o'rganilish tarixi haqida nimalar bilasiz? 8. «Boburnoma»da joylar tasviri haqida ma'lumot bering. 9. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar tasviri qanday? 10. «Boburnoma» va zamonimiz haqida gapiring.	3.1. Ma'ruza matniga e'tiborini karatadi. O'ylaydi, javob beradi. 3.2. Misollar keltiradilar. 3.3. «Insert»jadvalini tuldiradilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi.  3.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun qo'shimcha adabiyotlar beradi.	3.1. Eshitadi, 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

**1-ilova**

**Blits-so'rov uchun savollar**



1. Shoirning taxalusi haqida gapiring.
2. Boburning hayot yo`li haqida nimalar bilasiz?
3. Boburning ijodi haqida gapiring.
4. Bobur haqidagi badiiy asarlar haqida ma'lumot bering.
5. Bobur lirikasi manbalari xususida ma'lumot bering.
6. «Boburnoma» asarining yaratilish tarixi qanday?
7. Asarning o`rganilish tarixi haqida nimalar bilasiz?
8. «Boburnoma»da joylar tasviri haqida ma'lumot bering.
9. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar tasviri qanday?
10. «Boburnoma» va zamonimiz haqida gapiring.

## 2-ilova

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o`qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o`qib-o`rganishda yordam beradi. Bunda ma`ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o`qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o`z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma`lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma`lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	v	+	-	?
1. Subhon				
2. Ro`zi mahshar				
3. Oshiq				
4. Ma'shuq				
5. G`arqob				
6. Subhon				
7. Ro`zi mahshar				

7- mavzu.

XVI-XVII asr adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari

### 7.1 Ma`ruza mashg`ulotini o`qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O`quv mashg`ulotining shakli	Ma`ruza - konferensiya.
Ma`ruza mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mashrab hayoti bilan aloqador ma'lumotlar.</li> <li>2. Mashrab shaxsi haqida</li> <li>3. Mashrab dunyoqarashidagi ziddiyatlar va ularga munosabatlar.</li> <li>4. Lirikasining g`oyaviy motivlari.</li> </ol>

O'quv mashg'ulotining maqsadi	Mashrab hayoti bilan aloqador ma'lumotlar. Mashrab shaxsi haqida Mashrab dunyoqarashidagi ziddiyatlar va ularga munosabatlar Lirikasining g'oyaviy motivlari haqida chuqurroq bilim berish.
Pedagogik vazifalar: Mashrab hayoti bilan aloqador ma'lumotlar. Mashrab shaxsi haqida Mashrab dunyoqarashidagi ziddiyatlar va ularga munosabatlar Lirikasining g'oyaviy motivlari haqida chuqurroq bilim berish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mashrab hayoti va ijodini o'rganish. Asarlarini nashr etish tarjima qilish tarixidan.</li> <li>- Mashrab shahsiyati va adabiy merosi.</li> <li>- Devonai Mashrab qissasining mundarijasi haqida fikr yuritadi.</li> </ul>
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza - konferensiya, muammoli ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.
O'qitish shakli	Frontal, individual, guruh bilan ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

#### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	Talabanning
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi va o'quv mashg'ulotidan ko'zlangan natijalarni e'lon qiladi. Mashg'ulot ma'ruza konferensiya-munozara tarzida o'tishini e'lon qiladi: 1) mazkur mashg'ulotda hal etiladigan ma'ruza mavzularini taklif etadi (1-ilova). 2) ularning o'quv fanini o'zlashtirishdagi ahamiyatini, shuningdek, bo'lajak mutaxassislikni egallashdagi muhimligini tushuntiradi. 3) ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar, jurnallarga yo'naltiradi. 4) barcha talabalarga ma'ruza matni bo'yicha ma'ruzachilarga savol tayyorlashlari aytiladi (2-ilova). 5) baholash mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova). 6) tayyorlangan referatlar bilan tanishtiradi. Zarur holatlarda savollar tuzadi.	1.1. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'radilar. Ma'ruzachilar prezentatsiya tayyorlashlari va referat bo'yicha reja tuzishlari mumkin. Baholash mezonlari bilan tanishadi. Ma'ruza qilishga tayyorgarlik ko'radi.
2-bosqich. Asosiy (60min).	2.1. Ma'ruza va axborotlar yuzasidan chiqishlarni tashkil etadi: -mavzu mazmunining yoritilishida mantiqiylikka e'tibor beradi; -bayon qilinayotgan materialni muhokama qilish zarurati tug'ilganda, ma'ruzachini to'xtatib,	2.1. Ishtirokchilar ma'ruzalarini o'qib eshittiradilar yoki og'zaki bayon qiladilar. 2.2. Ishtirokchilar kollektiv tarzda

	<p>kollektiv munozaraga imkon yaratadi.</p> <p>2.2. Ma'ruzaning kollektiv tarzidagi muhokamasini tashkil etadi. Boshlovchi bilan birga:</p> <p>-savollar beradi;</p> <p>-asosiy ko'rsatmalarni aniqlashtiradi;</p> <p>-dokladga yangiliklar, statistik materialga e'tibor qaratishni so'raydi.</p>	<p>mashg'ulotni muhokama qiladilar.</p> <p>2.3. Ekspertlar har bir mavzu bo'yicha munozara natijalarini baholaydi.</p> <p>2.4. Eng yaxshi doklad rag'bat sifatida universitet konferensiyasiga tavsiya etiladi.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy (10 min.)</p>	<p>3.1. Barcha ishtirokchilarning faoliyatini umumlashtirib, mashg'ulotni yakunlaydi.</p> <p>3.2. Ma'ruza – konferensiyadagi dokladchi, taqrizchi va opponetlarning faolligini baholaydi.</p> <p>3.3. Olingan bilim va ilmiy izlanish ko'nikmalarining kelajakdagi faoliyatda ahamiyatini ta'kidlaydi.</p> <p>3.4. Konferensiyada ishtirok etmagan talabalarga «Qo'shma gaplarni tasniflash muammolari» mavzusida esse yozishni topshiradi.</p>	<p>3.1. Ekspertlar: 1) ma'ruzachi, taqrizchi, opponetlarning tayyorgarligini belgilaydi; 2) baholash natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>3.2. Eshitadilar, aniqlik kiritadilar, yozadilar. Topshiriqni oladilar.</p>

#### 1-ilova.

#### Ma'ruza mashg'uloti doklidlari mavzulari.

1. Mashrab shahsiyati va adabiy merosi.
2. Devonai Mashrab qissasining mundariyasi.

#### 2-ilova

#### Xulosani shakllantirish uchun savollar

1. Mashrab hayoti va ijodini o'rganish.Asarlarini nashr etish tarjima qilish tarixidan.
2. Mashrab shahsiyati va adabiy merosi.
3. Devonai Mashrab qissasining mundariyasi.
4. Mashrab she'rlarini o'qing, ulardagi ziddiyatlarni, ularning sabablarini aniqlang.
3. Mashrab izdoshlari haqida gapiring.
4. Mashrabning badiiy mahorati haqida nimalar bilasiz?
5. Mashrabning falsafiy qarashlari haqida tushunchangiz.

#### 3-ilova

#### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash kursatkichlari va mezonlari (ballarda)				
<i>Ma'ruzaning mazmuni (2,5)</i>				
- mavzuga mos kelishi (1,5)				
- mantiqiylik, aniqlik ( 0,5)				
- xulosalarning kiskaligi (0,5)				
<i>Informatsion texnologiyalardan foydalanganligi (kurgazmalilik) – (0,9)</i>				
Reglament (0,6)				

Jami (4,0)				
	Taqrizchilar (FISH)			
<i>Ma'ruzaning tavsifi (3,0)</i>				
- ma'ruzaning kuchli tomonlarini aniqlash(1,2)				
- ma'ruzaning zaif tomonlarini aniqlash (1,2)				
<i>Reglament (0,6)</i>				
Jami (3,0)				
	Opponentlar, ishtirokchilar (FISH)			
<i>Savollar:</i>				
- har biri uchun (0,3)				
<i>Qo'shimcha</i>				
- har biri uchun (0,3)				
- mohiyati bo'yicha (0,3)				
Jami (3,0)				

### XVI-XVII asr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari

#### REJA

1. Mashrab hayoti bilan aloqador ma'lumotlar.
2. Mashrab shaxsi haqida
3. Mashrab dunyoqarashidagi ziddiyatlar va ularga munosabatlar.
4. Lirikasining g'oyaviy motivlari.

Shoir Mashrabning qaerda va qachon tug'ilganligi yaqin yillarga qadar aniq emas edi. Chunki mutaxassislar bu borada bir to'xtamga kelmagan edilar. Sharq xalqlari adabiyotida Mashrab taxallusi bilan ijod qilgan bir qator shoirlar bo'lgan. Isfaxonlik shoir Hakim Abdurazzoq Mashrab, u 1714 yilda vafot etgan (Hindistonda); XVII asrning oxirlarida Tabrizda vafot etgan. Mashrab taxallusi Mirhusayn; Dexlida o'tgan Mirinoya-tillo; XVIII asr boshlarida Eronda yashagan, Sherozda vafot etgan Mirzo Ashraf; Astrabodda hayot kechirayotgan XVII asrda yashagan, Hindistonda bo'lgan Mashrab; XI X asr o'rtalarida yashagan o'zbekistonlik Hofiz Ro'ziboy Mashrab va nihoyat, Bobarahim Mashrab, bularning hammasi deyarli XVII-XVIII asrlarda yashaganlar. Bu Mashrablarning ko'pchiligi fors-tojik tilida ijod qilganlar. Boborahim Mullavali o'g'li Mashrab esa asosan, o'zbek tilida, qisman tojik tilida ijod qilgan.

Uzoq yillar davomida Mashrabning qaerlik ekanligi haqidagi masala ham o'z yechimini topmasdan keldi. 80- yillarga qadar uni namanganlik, balki andijonlik deb kelindi. Sharqning o'ndan ortiq shoir va olimlari Mashrab ijodiyoti haqidagi o'z asarlarida fikr yuritganlar, o'ndan ortiq xattotlar uning asarlarini ko'chirganlar, bayozlar tuzganlar.

O'rta va oliy maktablar uchun chiqarilgan darsliklarda yaqin yillargacha (oliy maktablarniki hozir ham) noto'g'ri ma'lumotlar bilan band bo'lib keldi: shoirning tug'ilgan yili 1640 yildan to 1657 yilga qadar, tug'ilgan joyi esa goh Namangan, goh Andijon deb keldilar. Nihoyat 80-yillarning o'rtalarida uni Andijonlik emas, Namanganlik degan xulosa qilishlari uchun ayrim dalillar topildi. Ammo ba'zilar (menda ham) hamon bu ma'lumotlarga shubhalar bor. Chindan ham, Mashrabning she'rlarida Namangan nomi ko'p marta keltiriladi. Biroq ularning har biri alohida olinib tahlil qilinsa, shoirni Namanganlik deyishga uzil-kesil olib keluvchi dalil chiqmaydi. Ko'pgina misollardan eng kuchlisi:

Na malakman, na farishta, men ham inson naslidin,

Men tavalludi o'shal farzandi namangoniyman,

baytidir. Keltirilgan mazmuni beruvchi satr-ikkinchisi, ammo undan «Namangan farzandiman» degandan ko'ra ko'proq «Namangan farzandining bolasiman» degan mazmun kelib chiqayotganga o'xshaydi. Demak, M.Zokirov va boshqalarning Mashrab Andijonda tug'ilgan, onasi namanganlik bo'lgan degan taxminlari, Maleho Samarqandiyning Mashrabni Andijonga bog'lab aytganlari, 1992 yilda «Yozuvchi» nashriyoti chop etgan «Qissai Mashrab»ning 84-88 sahifalarida Mashrab onasini ko'rgani Namanganga emas, balki Andijonga yo'l olgani va kelgani haqidagi ma'lumotlarni yana ham sinchiklab o'rganib chiqish zarurati borgan o'xshaydi.

Shunday qilib, Mashrab hayoti va ijodining dastlabkilar qatorida o'rgangan Muxsin Zokirov bir qator manbalarga suyangan holda Mashrabni Andijonda tug'ilgan degan fikrga kelgan ekan. Bu borada akademik shoir G'.G'ulomning «Ikki Mashrab» maqolasida ham fikrlar mavjud.

Ammo keyinroq «Qissayi Mashrab»ning nusxalaridan birida shoirning Namanganlik ekani aniq va ravshan bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, Boborahim Mashrab 1640 yilda Namangan (yoki Andijonda) Mullavali yoki Valibobo oilasida tug'ilgan. Mahalliy maktabda savod chiqargan. Zehni o'tkir, ko'p o'qigan, o'z shaxsiy fikr va qarashlariga ega bo'lgan. Boshqa bolalardan ko'p o'qiganligi, bilganligi va devona fe'lligi bilan ajralib turgan.

Maktab tahsildan so'ng uni otasi Namangandagi Mulla Bozor Oxund qo'lga topshiradi. Boborahim o'z ustozidan ko'p bilimlarni o'rganadi. Ustozi uni mashhur Ofoqxo'ja eshon qo'lga ta'lim olish uchun yo'llaydi. Shoir Qashqarda bir necha yil bilim oladi, xizmat qiladi. O'zining yozishicha, nochor va aftoda kiyimlarda yuradi.

Eshonning ko'plab shogirdlari bilan birga, cho'rilari ham bo'lgan. Mashrab ulardan birini sevib qoladi. Bundan xabar topgan ustoz oshiq yigitni g'oyat qattiq jazolaydi-muxrni qizdirib turib, uning bo'ynidagi tomiriga bosadi, dargohidan quvlaydi.

Mashrabning keyingi hayoti oxiriga qadar darbadarlik, sarsonlik, jahongashtalikda qalandarona tarzda o'tadi. «Qissai Mashrab»da bu borada batafsil hikoya qilingan.

Shoir devona sifat fe'lini tashlamagan. Unga ixlos qo'yganlarning ustidan kulgan. Buning boisi munozarali. Hokim va beklarni mensimagan, so'fi va mullalarning kamchiliklarini ochib tashlagan, dunyo kezib, goh rindona, goh so'fiyona fikrlarni bildirgan. Ammo sovet davrida aytilganidek, ateist bo'lgan emas. U hamma vaqt xudoni yodda saqlagan, diliga uning mehrini jo qilgan. Shu bilan birga, real insonni, yorni ham sevgan.

Bizningcha, Mashrab boshqalarga o'xshamaydigan shaxs bo'lgan. Favqulotdda talant va xotira egalari bo'lmish ayrim odamlar borki, o'zlarining fe'l-atvorlari bilan boshqalardan farqlanib turadilar. Biz ularni meyordagi odam deb aytmaymiz. Mashrab ana shundaylar qatorida tura oladi. Unda Volf Messingga xos xususiyatlar ham bo'lgandir. (bu haqda dars davomida kengroq fikr bildiriladi.)

Mashrabda chinakam qalandarlik xususiyati mavjud bo'lgan. Uning boshiga tushgan kulfatlar ham bir odamni qalandar qilib qo'yishi uchun yetarlidir, extimol. Qolaversa, shoirning o'zi uchun qalandarlikni tanlaganligini quyidagi g'azalda ifoda etgan.

Murodinga yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l:  
Sitam ahlin quvay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Og'izdan dur ichay desang, sharobi ishq ichay desang,  
Yomonlardan qochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
Fasod axlin quvay desang, (ketiga) bir uray desang,  
Bu dargohda suray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
Riyozatsiz bo'lay desang, tanim ozod yuray desang,  
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
Razolat kuydiray desang, zalolat o'ldiray desang,  
Hammasin supiray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,  
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
Guharrezlik qilay desang, hammani kuldiray desang,  
Chu Mashrabdek bo'lay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Har bir bayt bir ozgina tahlil qiladigan bo'lsak, shoirning maqsadlarini aniq anglamay olsak, uning nima uchun qalandarona hayot kechirayotganligini tushuna olamiz.

Mashrab ijodiy merosi o'zining g'oyaviy motivlari bilan ziddiyatga to'la. Zotan, shoirning hayoti o'zi shunday shakllangan edi.

Real hayotiy voqealar ta'sirida shoir dunyoqarashi ham ziddiyatli qarashlar bilan bog'liq bo'ldi. Mashrab ulamolarning qalblari g'oyat pok bo'lishini, ularda zarracha ham riyokorlik

bo`lmasligini kutgan edi. Ammo o`zi ko`rgan va bilgan ba'zi bir rahnamolarning kirdikorlarini ko`rgach, ikkilanib qolgan, ularga nisbatan nafrat bilan qarashga majbur bo`lgan:

Osmon besar bo`lar aytsam alamlik, doston,  
Har kishiga ayta bilmam rahnamoning dardini.

Mashrab Ollohni sevgan, uni kuylagan, hamma vaqt uni qalbida saqlagan.

Shuningdek, qalbining bir chekkasida hayotidagi real shaxsga, yorga ham abadiy o`rin bergan. Bu ikki yor o`rtasida qolgan shoir g`oyat azoblangan. Uning azoblarining xaddi-chegarasi bo`lmagan.

Yor Mashrab, ishq o`tini qo`ydi jonim uzra kim,  
Chuk-chuk yetti ko`nglim otashpora chaqmoqim qani.

Mashrab ko`nglida ham bir umrga fikrlar kurashi ketgan bo`lishi kerak. U haqiqiy do`st va yordan ham, majoziy yordan ham kecha olmagan.

Ko`ngilda zarracha dunyoni mehri bo`lmayin menda,  
Seni deb ikki olamda kechib bezora Mashrabman.

Shoir ishqni g`oyat ulug`laydi. Bu borada u doim zohidlar bilan kelisha olmaydi.

Boshinga ming balo kelsa, tilarman vaslin, ey zohid,  
Tilim kessang tiyorish yo`q, degan: «Diydora» Mashrabman.

Mashrab asarlaridagi «Yor»ni hamma vaqt xudo deb tushunmaslik kerak. Aks holda gunohkorga aylanib qolish mumkin. Shuningdek, «yor» faqat mahbuba ham emas.

Ayo do`zax, meni kuydur, xaloyiq kuymasun hargiz,  
Tamug`din ishq o`ti pirzo`r, aning zuxrin yutub o`tgum.  
Na aylay obi kavsarni nigorim bo`lmasa soqiy,  
Xarobat ichra bordim, qatra may ondin tortib o`tgum.

Mashrab o`z gunohlarini ham biladi, savoblarini ham biladi. U qalandarona hayot kechirgani bilan xalq va jamiyat hayotini kuzatganligi, nochor, jabrdiyda kishilarga achinganligi birinchi baytidan ko`rinib turibdi. Ularning do`zaxda ham kuyishlarini shoir istamaydi, ularning o`rniga o`zi azob-uqubatlarga giriftor bo`lishga tayyor turadi. Qolaversa, do`zax o`tidan ham ishq o`ti kuchliroq ekanligini, shunga ham bardosh berganligini aytmoqchi.

Mashrab ishqiy lirikasining soddaligi, oddiygina badiiy tasvir vositalarining o`rni-o`rniga qo`yilishi bilan go`zaldir.

Malaksan, yo bashar, yo nuru g`ilmonsan, bilib bo`lmas,  
Bu lutfu bu nazokat birla sendin ayrilib bo`lmas.  
Yuzing misli qizil guldek, ko`ngul chun bulbuli shaydo,  
Bu gulni ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo`lmas.

Ko`rinib turibdiki, Mashrab satrlari o`zining shakli va mazmuni bilan yuz yillar davomida sayqal topib qiyomiga yetgan xalq qo`shiqlarini eslatadi.

Ishqning kuchi, oshiqning sadoqati va bardoshi mana bu misralarda ham ifodalangan.

Na qattiq kun edi jono visolingdin judo qilding,  
Mening ohim tutuning`a zamini osmon o`rtar...

Yor ta'rifi, portreti ham Mashrabda boshqalardan o`ziga xosligi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, Mashrab dilida xudoni saqlagani holda riyokor din homiylarini, zohidlarni yoqtirmasligini oshkor qiladi. U insof va diyonatni ibodatlarining eng yaxshisi deb biladi, hamisha uning qalbida odamlar, ayniqsa jabrdiyda kishilarga bo`lgan muhabbat ustunlik qildi.

Mashrab she'rlari aruzning hazaj, rajaz, ramal, hafif, muzore' va munsari baxrlaridagi xilma-xil vaznlarda yozilgan.

Uzoq yillar davomida Mashrabniki emas deb kelingan «Mabdai nur» nomli asar bugungi kunda Boborahim Mashrabniki ekanligi aniqlandi. Shuningdek, «Kimyo» ham aynan shu shoirning qalamiga mansub degan fikrlar aytilmoqda. Bu borada yana kengroq, yangiroq va asosliroq fikrlar aytilsa kerak.

#### *Adabiyotlar*

1. Mashrab. Tanlangan asarlar. T., 1958 y
2. Mashrab. Tanlangan asarlar. T., 1963 y

3. Mashrab. Mehribonim qaydasan. T., 1990 y
4. Zokirov M. Mashrab. T., 1966 y
5. Izzat Sulton. Asl Mashrab. Tanlangan asarlar. II tom, T., 1972

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Mashrab she'rlarini o`qing, ulardagi ziddiyatlarni, ularning sabablarini aniqlang.
2. Mashrab izdoshlari haqida gapiring.
3. Mashrabning badiiy mahorati haqida nimalar bilasiz?
4. Mashrabning falsafiy qarashlari haqida tushunchangiz.

<b>8- mavzu.</b>	<b>Qo`qon adabiy muhiti .Uvaysiy</b>
------------------	--------------------------------------

**18.1 Ma`ruza mashg`ulotini o`qitish texnologiyasi**

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O`quv mashg`ulotining shakli	Axborot vizual ma`ruza, aniq holatlarni yechish.
Ma`ruza mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shoiraning hayot yo`li</li> <li>2. Uvaysiyning chistonlari</li> <li>3. Uvaysiy dostonlari</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi	Talabalarga Shoiraning hayot yo`li, Uvaysiyning chistonlari ,Uvaysiy dostonlari,uning jodiy merosi haqida chuqurroq bilim berish.
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Uvaysiy hayoti va ijodi.</li> <li>- Uvaysiyning adabiy merosi.</li> <li>- Uvaysiy lirik shariyatining mavzusi, g`oyaviy yo`nalishi.</li> <li>- Uvaysiy talqinida ishq, insoniylik, odob va ahloq masalalari.</li> <li>- Shoira Uvaysiy lirikasida ijtimoiy hayot masalalarining yoritilishi.</li> <li>- Uvaysiy adabiy merosining o`zbek adabiyoti tarixida tutgan o`rni.</li> <li>- O`zbek adabiyoti va san`atida Uvaysiy obrazi.</li> </ul>	O`quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Uvaysiy hayoti va ijodi.</li> <li>- Uvaysiyning adabiy merosi.</li> <li>- Uvaysiy lirik shariyatining mavzusi, g`oyaviy yo`nalishi.</li> <li>- Uvaysiy talqinida ishq, insoniylik, odob va ahloq masalalari.</li> <li>- Shoira Uvaysiy lirikasida ijtimoiy hayot masalalarining yoritilishi.</li> <li>- Uvaysiy adabiy merosining o`zbek adabiyoti tarixida tutgan o`rni.</li> <li>- O`zbek adabiyoti va san`atida Uvaysiy obrazi.</li> </ul>
O`qitish uslubi va texnikasi	Ma`ruza, klaster, munozara, texnika: taqdimot, blits-so`rov, grafik organayzerlar.
O`qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.

O'qitish shakli	Frontal, individual, guruh bilan ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	Talabanning
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, maqsadi va rejasini ma'lum qiladi (1-ilova), mashg'ulotdan kutilayotgan o'quv natijalari bilan tanishtiradi. 1.2. Mashg'ulot davomida aniq holatlarni tahlil qilishga e'tibor qilishni eslatadi (talabalar qo'llarida o'tgan dars oxirida tarqatilgan ma'ruza matnlari mavjud).	1.1. Tinglaydi va yozadilar.
2-bosqich. Asosiy (60min.)	2.1. Avvalgi mavzuni esga solish va ma'ruza matnini o'qish natijasida nimalarni o'rganganligini aniqlash maqsadida blits-so'rov o'tkazadi. (2-ilova) Vizual materiallar asosida ma'ruza o'qiydi.	2.1. Eslaydi, savollarga javob beradi. Yozib boradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, umumiy xulosalarni shakllantiradi, faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Olingan bilimlarni ahamiyatini ochib beradi. 3.2. Faollik ko'rsatmagan talabalarga qo'shimcha vazifa beradi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqlarni yozib oladilar.

### 1-ilova. Qo`qon adabiy muhiti .

#### Ma'ruza rejasi

1. Shoiraning hayot yo`li
2. Uvaysiyning chistonlari
3. Uvaysiy dostonlari

Uvaysiy XVII asrning oxirlari va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoiralardan biridir. Umuman, sharq adabiyotida ayol ijodkorlar G`arbga qaraganda ko`pchilikni tashkil etadi.

Uvaysiy haqidagi ma'lumotlar 60 yillarning boshlarida Andijon pedagogika institutining olimlari tomonidan Marxamat tumanidan topilib, avval institut kutubxonasiga, so`ng Toshkentga yuborilgan. Ma'lumotlar shoiraning chevarasi Xoljonotindan olingan edi. Uvaysiyning nabirasi va chevarasi ham otincha, shoira bo`lganlar, chiroyli husnixat egasi bo`lgan. Bunday fazilatlar o`sha katta enalari Jaxonotin tufayli ekanligini Xoljonotin ta'kidlagan.

Shoira Marg`ilonda, keyinroq Qo`qonda va yana Marg`ilonda yashaganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Uning turmush o`rtog`i Hojixon bilan birgalikdagi hayoti uzoqqa bormaydi. Ajralish sababchisi yetishmovchilik bo`lsa kerak. Shoira o`g`li Muhammadni va qizi Quyoshxonni o`zi tarbiyalaydi. Farzandlari Majnun va Xokiy taxalluslari bilan she'rlar yozishgan. Muhammadning qachon vafot etganligi ma'lum emas, ba'zi bir taxminlar bor. Qizi Quyoshxon birinchi farzandini dunyoga keltirishda vafot etgan. Uvaysiy nabirasini 11-12 yoshlarga yetkazganida o`zi ham dunyodan ko`z yumdi.



Shoiradan bizga qadar kattagina she'rlar devoni yetib kelgan. Unda 296 ta g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba va dostonlar mavjud.

Shoira ma'lum muddat Qo'qonda, Nodira huzurida yashagan va go'zal g'azallar yaratgan. G'azallarning asosiy mavzusi mahabbatdir. Qahramonlari esa ma'shuqa, oshiq va raqiblardan iborat. Raqib obrazi ham shoir asarlarida ko'proq uchraydi. Ba'zan raqiblar umuman yomon odamlar ramzida ham namoyon bo'ladi, shoira ulardan faryod qiladi. Bu yomonlar, asosan, hukmdor shaxslar, ba'zan esa riyokor, xudbin din homiylaridir.

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog` o'ldi-dog` o'ldi,

Bu charxi bemuruvat ko'ngil dog` o'ldi-dog` o'ldi.

Sharqda badiiy ijod bilan shug'ullangan bir qancha ayollar borligini bilamiz. Mohlaroyim shularning eng ko'zga ko'rinarlisidir. Nodira shoira sifatida, davlat raxbari sifatida o'zbek ayollari ham erkaklardan qolishmasligini isbotlab ko'rsatgan shaxsdir.

## 2-ilova

### Blits-so'rov uchun savollar

- Uvaysiy hayoti va ijodi.
- Uvaysiyning adabiy merosi.
- Uvaysiy lirik shariatining mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi.
- Uvaysiy talqinida ishq, insoniylik, odob va ahloq masalalari.
- Shoira Uvaysiy lirikasida ijtimoiy hayot masalalarining yoritilishi.
- Uvaysiy adabiy merosining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni.
- O'zbek adabiyoti va san'atida Uvaysiy obrazi.

9- mavzu.	<b>Xiva adabiy muhiti Nodira</b>
<b>19.1 Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi</b>	
Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot vizual ma'ruza, aniq holatlarni yechish.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Nodiraning hayot yo'li haqida</li> <li>- Shoiraning devonlari, ularning nusxalari, hajmi</li> <li>- Ijodiy merosining janr xususiyatlari</li> </ul>
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Talabalarga Nodiraning hayot yo'li haqida Shoiraning devonlari, ularning nusxalari, hajmi Ijodiy merosining janr xususiyatlari haqida chuqurroq bilim berish.
Pedagogik vazifalar: Nodiraning hayot yo'li haqida Shoiraning devonlari, ularning nusxalari, hajmi Ijodiy merosining janr xususiyatlari, mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Nodiraning hayot yo'li haqida</li> <li>- Shoiraning devonlari, ularning nusxalari, hajmi</li> <li>- Ijodiy merosining janr xususiyatlari ahamiyati haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, klaster, munozara, texnika: taqdimot, blits-so'rov, grafik organayzerlar.

O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska.
O'qitish shakli	Frontal, individual, guruh bilan ishlash.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, umumiy xulosalar qiladi, talabalarni baholaydi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

1-ilova

#### Guruh bilan ishlash qoidalari

- Har bir guruh a'zosi:
- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
  - berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
  - o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
  - yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
  - guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
  - "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

2-ilova

#### Guruhlar uchun vazifalar

##### 1. Guruh.

Atoiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi manbaalar.

**2. Guruh.**

Atoiy ijodining o`rganilish tarixi.

**3. Guruh.**

Shoir Atoiyning taxallusi masalasi.

Atoiyning lirik merosi.

**Baholash ko`rsatkichlari (ballda)**

<b>Guru h</b>	Mavzuning yechimi	Tushuntirish (aniqlik, mantik)	Guruh faolligi (qo`shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baho
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1					
2					
3					
4					

3-ilova

**“Insert usuli”**

**Insert** - samarali o`qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o`qib-o`rganishda yordam beradi. Bunda ma`ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o`qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o`z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma`lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma`lumot zarur.

O`rta Osiyo hududida XVI-XVII asrlarda davom etgan feodal tarqoqlik, separatizm jarayoni XVIII asrda yanada kuchayib, mavjud ikki xonlik Buxoro va Xiva, uch xonlikka Buxoro, Xiva va Qo`qon xonligiga bo`linib ketdi.

Ammo xonliklar o`rtasidagi o`zaro kurashlar, bir xonlikning ikkinchi bir xonlik hududi hisobiga o`z chegarasini kengaytirishi XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida nihoyat darajada ko`payib ketib, mamlakat hayotiga zarar yetkazdi, xalqning boshiga yangi-yangi kulfatlar soldi.

Buxoro, Xiva va Qo`qonning XVIII asrdagi va XIX asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotini, bu o`lkalardagi tarixiy voqea- hodisalarini bayon etishga bag`ishlangan, fakt va materialga boyligi, uslubi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadigan asarlardan «Tarixi Muqimxoniy», «Ubaydullanoma», «Muntaxab-ut-tavorix», «Firdavs - ul - iqbol» kabi tarixiy asarlar yaratildi. Ularning yana bir qimmatli shundaki, ularda faqat tarixiy voqealarning bayoni berilib qolmasdan, madaniy-adabiy hayotga doir xilma-xil qimmatli ma`lumot va materiallar ham beriladi. Bu asarlar XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi madaniy hayotini, badiiy adabiyotini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida adabiyotshunoslik sohasida ba`zi ijobiy ishlar davom ettirildi. Xususan, tazkirachilik borasida Muhammad Amin bin Nurmuhammad Nasafiy tomonidan yozilgan «Mazhar ul-musannifin», Fazliy Namangoniy boshchiligida tuzilgan «Majmuai shiron», Qori Rahmatulloh Vozev tomonidan bitilgan «Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul asxob» asarlari maydonga keldi.

Ayniqsa, mana shu davrdagi mafkuraviy kurash badiiy adabiyotga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Ya`ni, ikki adabiyot oqimi paydo bo`ldi.

Bulardan biri bevosita reaksiyon - xukmron sinfnng manfaatlarini ko'zlovchi va ikkinchi, xalq manfaatlarini ifodalagan adabiyotlardir. Mana shu ikkinchi yo'nalish adabiyot namoyandalari taraqqiyparvar yo'nalishni tashkil qilib, ular o'z asarlarida xalq orzu-umidlari, maqsad-istaklarini ifoda etuvchi adiblar edilar.

Markaziy Osiyo xalqlarining XVIII- XIX asrlaridagi hayotiga nazar tashlansa, ularning hayoti va qashshoq bo'lishiga qaramay ijodiy faoliyati so'nib qolmaganligi e'tiborli holdir. Uning yuz minglab aqllardan tashkil topganligi va xalqning teran tafakkuri xalq kitoblarida, ularning og'zaki ijodida sezilib turadi. Shubhasiz, XIX asrning ikkinchi yarmi xalq ijodining katta maktabi bo'lib, Jassoq baxshi, Kichik Bo'ron, Qo'ldosh shoir, Suyar shoir, Xo'janazar baxshi, Jumanbulbul kabi mashhur xalq shoiri va baxshilari yetishib chiqdi.

O'rta Osiyoni kezib chiqqan vengriyalik sharqshunos X.Vamberi el ichida mashhur bo'lgan «Yusufbek va Ahmadbek», «Tohir va Zuhra» kabi xalq kitoblari - xalq romanlari haqida quyidagilarni yozgan edi: «O'zbekistonda bunday romanlar son-sanoqsiz darajada ko'p bo'lib, o'zbeklar, asosan, shu xildagi asarlarni g'oyat sevadilar. Bunday asarlarda o'zbeklarning milliy g'urur va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina manzaralarni topish mumkin.»

XVIII asrdagi va XIX asrning birinchi yarmidagi taraqqiyparvar adabiyotning o'sib, takomil topishida xalq og'zaki ijodining roli va ta'siri benihoya kattadir. Xalq og'zaki ijodi xorazmlik Nishotiy, Ravnaq, Munis, Ogaxiy; Qo'qondagi Gulxaniy, Maxmur, Ma'dan; Buxorodagi Sobir Sayqaliy, Mujrim Obid va boshqalarning asarlariga katta material bergan. Shu davrlarda muhim asarlar yaratgan Gulxaniy, Maxmur, Munis va Ogahiyilar ham o'z asarlarida, ularning tili va uslubi ustida ishlaganlarida xalq donishmandligining mevasi bo'lgan ajoyib naqllardan, ajdodlarning hikmatli so'zlaridan, obrazli iboralardan, xalq yumori va askiyalaridan ustalik bilan foydalanib, ifodalanayotgan poetik mazmunni chinakam badiiy sayqallashga erishganlar.

Bu davr adabiyotida xonlar va feodallarga laganbardorlik qiluvchi kotib va shoirlar oz emas edi. Ularning manzumalari, asosan, zolim, mutaassib, axloqsiz va xiyonatchi hukmdorlarga qaratilgani uchun ular xalqqa manzur bo'lmas edi.

Shu davrlarda hajv - satira va yumor ham ancha rivojlandi. Xalqchil shoirlar hukmronlarning ichki illatlarini, zodagonlarni rostgo'ylik bilan tanqid qilgani uchun ta'qib, quvg'in va jazoga uchrar edilar.

Shunday qilib, XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi adabiyotida bir-biriga qarama - qarshi ikki yo'nalish mavjud edi.

Feodal - klerikal adabiyot, garchi hukmronlik mavqeiga ega bo'lsa-da, g'oyaviy jihatdan reaksiyon, badiiy jihatdan shaklbozlik, radifgo'ylik, ofarinbozlik tarzidagi istiqbolsiz adabiyot edi. Xonlarning maddoh shoirlari ijodida o'z mohiyati bilan ikki xil taqlidchilik mavjud edi. Ularning biri shoirlarning o'tmish maddohlariga qilgan ko'r - ko'rona taqlidida ham, ularning o'zaro taqlidlarida ham amir, xonlar va boshqa feodallarning manfaatlarini ko'zda tutilar, ofarinbozlikdan nariga o'tilmas edi. Chunki saroy ahllarining talablari va ularning adabiyotidagi tushunchalar undan nariga o'tolmas edi. Bu o'rinda ularga diniy-xurofiy asarlar juda qo'l kelar, quyi tabaqalarni boshqarishda o'sha chala dindorlar va ularning tasavvuf haqidagi chala tushunchalari o'tkir qurol bo'lib xizmat qilardilar.

Taraqqiyparvar - demokratik adabiyot namoyandalari ijodida davr, zamon va sharoitga ko'ra, mahdudlikning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lishidan qat'iy nazar, hayot haqiqatini kuylash asosiy o'rinni egallardilar. Bu ijodkorlar asosan Gulxaniy, Maxmur, Munis, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy kabildilar edi. Bularning g'azallarida, qasida va qit'alarida, ruboiy va chistonlarida, zarbulmasal va dostonlarida xalq hayotiga achinish, uning orzu-umidlarini kuylash, pok insoniy ishq-muhabbat dardlariga sheriklanish, ilm-ma'rifatning ravnaqi, tinchlik va obodonchilik uchun kurash motivlari o'z ifodasini topgan. Hayotiylik bu shoirlar ijodining asosiy xususiyati bo'lgani uchun ular o'z g'azallari, dostonlarida o'z zamonasiga mos ravishda fikrlar aytdildilar, mehnat, ijod, yashash erkinligi orzulari bilan qalam tebratdildilar.

XVIII asarda va XIX asrning birinchi yarmida ko'pgina tarixiy asarlar va tazkiralar yaratilishi bilan birga, badiiy tarjima sohasida ham ancha ish qilindi. Fors-tojik tilida yaratilgan mashhur asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu sohada Sayid Husayn Xorazmiy, Munis, Xoziq, Ogahiy, Volidxoja, Siddiq va Xiromiyning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Munis va Xoziq XV asrda yaratilgan Mirxondning mashhur «Ravzat - us safo» asarini o'zbek tiliga tarjima qila boshlagan bo'lsalar, Ogahiy Sa'diyning «Guliston» asarini, XVII - XVIII asrlarda Hindistonda yashagan Muhammad Vorisiyning «Zubdat - ul hikoyat» asarini, Kaykovus bin Vushmagirning mashhur «Qobusnoma»sini, Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston»i kabi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi.

XVIII- XIX asrlarda faqat nasriy asarlar emas, balki she'riy asarlar, poemalar ham tarjima qilindi. Bu sohada Xoja Sayid Husayn tomonidan «Vomiy va Uzro», «Eron shohi Zahir Kirmoniy», Xiromiy tomonidan «Chor darvesh», « To'tinoma», Ogahiy tomonidan Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar», Xisrav Dehlaviyning «Hasht behisht», Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Absol», «Yusuf va Zulayho» kabi asarlarining tarjimalarini ta'kidlash lozim.

Turli uslub bilan amalga oshirilgan badiiy tarjimaning hammasida ham o'zbek xalqini qo'shni xalqlar adabiyotining eng yaxshi va mashhur namunalari bilan tanishtirish maqsadi ko'zda tutilgan edi. Bu davr tarjimachiligida katta yutuqlarga erishildi. Tarjimonlar asosan axloqiy-didaktik va ishqiy-romantik asarlarni tanlab tarjima qildilar. Bu o'rinda, shubhasiz, tarjimonning dunyoqarashi, o'sha zamondagi adabiy oqimlarga munosabati chuqur iz qoldiradi.

XVIII asr va XIX asrning boshlaridagi adabiyot o'z o'rnida yangi davr, yangi adabiy jarayonning debochasi sifatida tarixda iz qoldirgan. Chunki, mana shu taraqqiyparvar adabiyotgina bo'lajak demokratik adabiyotning paydo bo'lishiga yo'l ochib berdi. Davrlar o'zining tarix, falsafa, san'at va adabiyot sohalariga, davlatning butun madaniy hayotiga o'zining naqshini izlarini soladiki, bu naqshlar asrlar davomida o'z mavqeini saqlab turaveradi. Toki, kelajak avlodlar uning tub moxiyatini, uning o'z zamonasi va kelajak avlodlariga qoldirajak ma'naviyatini sarhisob qilgan holda baholayveradilar. Bu o'rinda XVIII asr va XIX birinchi yarmi o'tmish asrlar, ya'ni XVI- XVII asrlarga nisbatan ancha sermahsul va mazmundor davrlar hisoblanishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan manbalar fikrimizning isbotidir.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMLI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

# O`ZBEK ADABIYOTI

**fanidan ma'ruza matnlari**



**Andijon**

“O`zbek filologiyasi” kursidan tayyorlangan ma'ruza matnlari Andijon davlat universiteti  
«O`zbek adabiyoti» kafedrasining \_\_\_\_\_sonli yig`ilishida tasdiqlangan.

*Tuzuvchilar:* *f.f.d. S.Mirzaeva, f.f.n. D.Abdullaeva*

*Taqrizchi:* *f.f.n. B.Jalilov*

## ***KIRISH***

Ma'lumki, har bir xalqning o'ziga xos betakror tarixi bor. Bu tarix shunchaki kechmish, xunuk voqea-xodisalardangina iborat emas, balki shu kechmish, shu voqea- xodisalar barobarida shunga mos ravishda bunyod etilgan madaniyat, san'at va adabiyotdan ham iboratdir. Shuning uchun har bir xalq yaratgan madaniyat, san'at va adabiyot shu xalqning nomi bilan ataladi. Demak, o'zbek adabiyoti tarixi fani o'zbek xalqining uzoq yillar, asrlar davomida yaratgan adabiyotini o'z ichiga oladi. Fan sifatida badiiy adabiyotni, uning tarixiy taraqqiyotini o'rganadi va o'rgatadi. Adabiyot — xalqning orzu-umidlari, intilishlari, bir so'z bilan aytganda, estetik ideallarini ifodalovchi vosita sifatida maydonga keldi. Har xil tur va janrlarda taraqqiy topib bordi. Lirik va epos-o'tmish o'zbek adabiyotining asosiy ko'rinishini tashkil etadi. G'azal, ruboiy, muxammas va boshqa lirik janrlar, tarixiy va memuar asarlar, shuningdek, tarjima asarlar shu adabiyotning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan adabiyot va uning o'ziga xos taraqqiyotida to'plangan bilimlar yig'indisi fanning predmeti, bu bilim va tajribalarni kelajak avlodlarga yetkazish, o'rgatish fanning vazifasini belgilaydi.

Tarixiy taraqqiyot hech qachon bir xilda tekis va ravon kechgan emas, doimo ko'rinishi, shakli, mazmuni o'zgarib, har o'zgarganda yangi xususiyatlar kasb etib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti bir xilda bo'lmaganidek, adabiyotning taraqqiyoti ham bir-biridan farq qilib turuvchi davrlarga bo'linadi:

- 1.Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. UIII-X-XII asrlar adabiyoti.
3. XIII-XIU asrning birinchi yarmi adabiyoti.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII - XVIII hamda XIX asrning birinchi yarmi adabiyoti.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari adabiyoti.
7. Milliy uyg'onish davri adabiyoti .

## *ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR. (2 soat ma'ruza)*

### REJA

1. Qadimgi turkiy xalqlar - o`zbek xalqining ajdodlari sifatida.
2. O`rta Osiyo qadimiy madaniyat o`choqlaridan biri sifatida.
3. Qadimgi og`zaki adabiyot: mif va afsonalar
4. Qahramonlik eposlari.
5. Qadimgi adabiy yodgorliklarning tarixiy, ilmiy va adabiy ahamiyati.

O`rta Osiyo, xususan, o`zbek xalqining o`tmish tarixi haqida turli tuman ziddiyatli fikrlar aytib kelingan bo`lsa-da, Prezident I.Karimovning tarixchi olimlar bilan uchrashuvi va olimlar zimmasiga qo`yilgan vazifalar ana shu chalkashliklarga chek qo`yish, xalqimiz tarixini, davlatchilik tarixini birlamchi manbalar asosida o`rganishdan iborat bo`lib qolmoqda.

Zero, xalqimiz, qadimgi O`rta Osiyoning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, o`ziga xos betakror jihatlari haqida bir qator manbalarda yetarlicha ma'lumotlar uchraydi. Turli xildagi yozuvlar, osori-atiqalar, "Avesto", "Bexistun", O`rxun-Enasoy kabi yozma yodgorliklarda, Beruniy, Narshaxiy kabi tarixchilarning bir qator asarlarida, shuningdek, Grek, Xitoy, Hind, Arman tarixchilarining asarlarida ham ko`plab ma'lumotlar mavjuddir.

Xalqimizning tarixiy taqdiri, hayot tarzi, qarashlari, ilm va madaniyati haqida zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" ko`plab ma'lumotlar beradi.

Qadimgi Grek tarixchisi Gerodotning "Tarix" nomli kitobida O`rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari —ibtidoiy jamiyat sharoitida yashaganligi va asosan, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullanganligi aytilsa, Strabonning "Geografiya", "Harbiy hiylalar" kabi asarlarida juda qadim zamonlardan O`rta Osiyo territoriyasida xilma-xil qaysar, yovvoyi, va urushqoq qabilalar yashaganligi va ular o`zaro munosabatlarida halollik, mardlik, vatanparvarlik, va odillikni har narsadan afzal bilganliklarini qayd etadilar, "To`maris", "Shiroq", "Amorg va Sparetra" kabi bir qator tarixiy afsonalarning mazmun-mohiyati ma'lum ma'noda bu fikrlarni tasdiqlaydi.

Hozirda fanga ma'lum bo`lishicha, ana shunday O`rta Osiyo xalqlarining geografik joylashish o`rni Baqtriya, Xorazm, So`g`diyona, Marg`iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi qismi, Zarafshon vohalari va boshqa joylarni o`z ichiga olgan. Bu yerlarda Xorazmiy, Sug`diy, Sak, Massaget kabi qabilalar, Chigil, Yag`mo, Tuxsi, O`g`uz, Tangut kabi elatlar istiqomat qilganlarki, bular hozirgi o`zbek xalqining ajdodlari ekanligi shubhasizdir. Olib borilgan arxeologik qazilmalar va qidiruv ishlari so`ngida topilgan Ko`hitang yozuvlari, Ilonsoy (Samarqand), Xojikent (Tosh), Teshikbosh (Farg) deb ataluvchi joylardan topilgan yozuvli suratlar, turli xil asbob-anjomlar, uy-ro`zg`or buyumlari, kumush va tilla tangalar ana shu xalqlarning madaniyati yuksak bo`lganligidan darak berib turadi.

O`rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrlarga oid ayrim og`zaki ijod namunalari ham yuqorida zikr etilgan manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Ular badiiyatimiz ibtidosi bo`lgan miflar, afsonalar, qahramonlik eposlari hamda lirik she'r va qo`shiqlardir. Miflar - insonlarda ongli munosabatlar shakllanishining avvalidir. Ularda inson va tabiat o`rtasidagi kurashdan iborat mazmun o`z ifodasini topgan. Tabiat hodisalarini yaxshi va yomon kuchlarga ajratish, o`zlariga xomiy kuch sifatida xudo va ma'budlarni kashf etish, anemizim va totemizm, turli xildagi kultlar mifologik tafakkurni xarakterlaydi. Ularning ayrim elementlari ertak va afsonalar bag`rida hozirga qadar saqlangan. Afsonalar - mazmun-mohiyatida esa biz inson tafakkuri bilan bog`liq jiddiy bir ulg`ayishni kuzatamiz. Afsonalar syujetida xudo va ma'budlarga qaramlikdan bir qadar qutilgan, o`z kuch-qudratiga ishongan yengilmas qahramonlar faoliyatini kuzatamiz. Ular o`zlaridan yuzlab marta katta va bahaybat bo`lgan dev, ajdar va boshqa kuchlar ustidan g`alaba qozona oladi. "Elikbek", "Siyovush", "Rustam" haqidagi afsonalar shular jumlasidandir.

Qahramonlik eposi - mazmun mohiyatiga ko`ra mif va afsonalardan jiddiy farq qiladi. Bu farq qahramonlik eposiga mansub asarlar mazmunining konkret tarixiy voqea-hodisalar bilan



bog`liqligida ko`rish mumkin. Ularda mard, dovyurak, vatanparvar, or-nomusli qahramonlar siymosi yaratilgan. Bular endi allaqanday dev ajdarlarga qarshi emas, el-yurt daxlsizligiga, vatan mustaqilligiga, qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi o`zi kabi inson qiyofasidagi yovuzlarga qarshi turadilar. "To`maris", "Shiroq", "Zarina va Strangey", "Zariadr va Odatida", "Amorg va Sparetra" ana shunday mazmundagi qahramonlik eposi namunalari.

XI asr tilshunos olimi M.Qoshg`ariyning "Devoni lug`atit turk" asari orqali XI asr va bu asrga nisbatan ham besh-olti asr qadimiyroq bo`lgan turli xil mavzu va mazmundagi she'r va qo`shiqlar yetib kelganki, bular ajdodlarimiz hayot tarzi, tuyg`u-kechinmalari, orzu-intilishlarini ifodalovchi she'rlardir.

Xulosa qilib aytganda, mif, afsona, qahramonlik eposi, lirik she'r va qo`shiqlardan iborat eng qadimgi adabiy yodgorliklar xalqimiz ma'naviy tarixini o`rganishda qimmatlidir.

#### **Adabiyotlar:**

1. N.M.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob.-T. 1969 y.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik. 1-tom.-T. 1977y.
3. Y.Jumaboev. "O`rta Osiyo etikasi tarixiy ocherklari".-T., "O`zbekiston" nashriyoti. 1980 y.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. O`zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot bosqichlarini gapirib bering.
2. Eng qadimgi madaniyat va san'at nimalarda ifodalangan?
3. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar nimalardan iborat.
4. Eng qadimgi miflar va mifologik tafakkur nimalarda ko`rinadi. Mifologik tafakkur nima?
5. Qadimgi afsonalar, ularning mohiyati, qahramonlik dostonlari haqida gapiring. Qahramonlik eposining o`ziga xos xususiyatlari.

#### **Izohli lug`at:**

1. Axura Mazda — donishmand buyuk tangri.
2. Gavamarta — Kayumars
3. Yima - Jamshid.
4. Angromanyu — Axriman, yovuzlik timsoli.

### **"AVESTO" ZARDUSHTIYLIK DININING MUQADDAS MANBASI SIFATIDA (2 soat ma'ruza)**

#### **REJA**

1. "Avesto" - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.
2. Zardusht va zardushtiylikning paydo bo`lishi, o`rganilishi.
3. Zardushtiylik g`oyalarining o`z davri uchun muhim bo`lgan jihatlari.
4. "Avesto"ning tarixiy, ilmiy va adabiy qimmatini.

"Avesto" kitobi O`rta Osiyo va Eron xalqlarining eng qadimgi mushtarak yozma yodgorligi bo`lib, zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Bu ta'limotning ilk kurtaklari eramizdan oldingi IX asrda paydo bo`lib, VIII asrda uzil- kesil shakllandi.

"Avesto" xususida ko`plab ilmiy risolalar, qissa va romanlar yaratilgan. Bu asarlar yaqin XIII asr davomida Movarounnahr, Xuroson, Eron, qisman Kavkaz xalqlarining yakkaxudolik e'tiqodi bo`lgan zardushtiylik tarixi, mohiyatini aniqlash, tadqiq etishda katta ahamiyatga egadir.

G`arbiy Yevropa va rus sharqshunoslari qatori zardushtiylikning muqaddas kitobini sharhlash, keng xalq ommasiga yetkazishda Y.Jumaev, M.Qodirov, N.Mallaev, M.Ishoqov, H.Homidovlar ancha ishlar qilgan va qilmoqdalar.

Qilingan tadqiqot ishlaridan ma'lum bo`lishicha, zardushtiylikni yuzaga keltirgan shaxs ko`hna Xorazmdagi Spitama qavmidan bo`lgan Zardusht ismli zot bo`lgan. U 623 yilda tavallud topib o`z davrining donishmandi Barzin Kuras degan kishi qo`lida 7 yoshdan 15 yoshgacha

ijtimoiy bilimlar, tabiatshunoslik, kalomi bade' va notiqlik ilmlaridan saboq oladi. 16 yoshida beliga "Mardlik kamari" ni bog'laydi. Atrofdagi yuz berayotgan voqealar, xunrezliklar Zardusht qalbini iztirobga soladi. Norozilik namoyishini uyushtirishga undaydi. Namoyish kuch bilan bostirilgach, Zardusht odamlar orasini tashlab Sablon tog'iga chiqib ketadi. 20 yil uzlatda – yolg'izlikda yashaydi. Taxminan 39 yoshlarida yana qavmiga qaytib yagona tangri - Yazdoni pok haqidagi qarashlarini yoya boshlaydi. Tez orada katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Biroq Turon shohi Arjasp tomonidan quvg'in ostiga olinadi. Eronga borib Gushstap hurmatini qozonadi. U yerlarda ham o'z g'oyalari keng tarqatishga erishadi. 534 yilda Brotarvaxsh tomonidan o'ldiriladi. O'limidan keyin ham uning g'oyalari uzoq asrlar saqlanib qoladi, kitob holida jamlanadi.

"Avesto" dastlab ko'chirilganda 12 ming qoramol terisida 21 nask - kitobdan iborat bo'lgan. Biroq O'rta Osiyo va Eronni zabt etgan A.Makedonskiy tomonidan aksariyat qismi yo'q qilingan. "Avesto"ning bizga qadar Vendidot, Vispared, Yasna, Yasht deb nomlanuvchi to'rt kitobigina saqlanib qolgan. Shuningdek, "Avesto" ning mundarijasini ko'rsatuvchi "Xurdo Avesto" hamda qisman sharhiga bag'ishlangan "Zend Avesto" kitoblari ham saqlanib qolgan.

"Avesto"ning g'oyaviy muhimligi turli nizolar, behuda qurbonliklar, sanoqsiz yo'qotishlarga sababchi bo'layotgan ko'pxodolilikka chek qo'yish, odamlar orasida eng ezgu g'oyalari yakka tangri Yazdoni pok nomi bilan yoyilishida, barcha odamlarni-bir maqsad tomon yo'llashda yaqqol ko'rinadi.

"Avesto" da Zardushtning uqtirishicha, dunyo umuman 12 ming yil davom etib keladi. Har narsaga qodir Yazdon (Mazda) shunday belgilab qo'ygan.

-Birinci 3000 yil davomida ruhiy dunyo paydo bo'lgan. So'ngra Angra Manyu yuzaga keladi. U ruhni dunyo bilan tinch-totuv yashashni xohlamaydi. Axura Mazdaning barcha ezgu ishlariga xalal beradi. Ular o'rtasida kurash boshlanib, 900 yil davom etadi. Axura Mazda g'olib chiqadi, Angra Manyu qorong'ulikka haydaladi.

-Ikkinchi 3000 yilda Axura Mazda moddiy borliqni barpo etadi. Osmon, yer, suv, o'simliklar, hayvonot dunyosi yuzaga keladi. Nihoyat odam yaratiladi. Shu paytlarda Angra Manyu yovuz devlarni- o'z yordamchilarini tayyorlaydi.

-Uchinchi 3000 yillikda Ahriman Axura Mazda yaratgan dunyo ustiga hujum qilib keladi. Birinchi inson Kayumarsni o'ldiradi. Uning urug'idan borliq qayta unib chiqadi. Kurash davom etadi, ezgulik g'olib chiqadi va yovuz kuchlarni yer ostiga haydaydi.

-To'rtinchi 3000 yillik Zardusht tug'ilishidan boshlanadi. O'z e'tiqodini targ'ib etadi.

"Avesto" da bayon etilgan zardusht g'oyalari ham dunyoda yaxshilik va yovuzlik kuchlari borligi va ular o'rtasida muttasil kurash borishini, ezgulik kuchlariga Axura Mazda, yovuzlik kuchlariga Ahriman boshchilik qilib turishini aytib, odamlarni Axura Mazda- ezgulik tarafida turib, unga ko'makdosh bo'lishga undash bilan boshlaydi. Axura Mazdaning oltita eng yaqin yordamchilari bor. Ular:

Voxu-Manax, - ezgu fikr - (poda va chorvani)

Asha Vahishta - yuksak haqiqat (olovni)

Xisatra Varog - munosib qudrat, hokimiyat (ma'danni)

Sienta Armati – muqaddas itoat (erni)

Harvatat - salomatlik - (suvni)

Ameretat - mangulik - (o'simliklar dunyosini)

Ularning har biri konkret vazifalarni bajarishi aytiladi. Barcha yovuz kuchlarning sardori Angra Manyu. U osmonni toraytiradi, kishilarning ko'ngligi g'ashlik va xafalik soladi, barcha makr-xiyla, ayyorlik uning hunaridir. Uning eng yaqin yordamchilari devlar bo'lib, bular ichida 6 tasi alohida ajralib turadi:

Axa Mana - yovuz fikr

Taurva-so'lish,

Zarik - o'lim,

Ayshma-g`azab,qahr,urush

Araska -hasad, ' '

Uda - ezmalik, shallaqilik.

-Bu devlarning yordamchilari esa durjlardir. Ular g`azabnok ayol qiyofasidadirlar.

-Yana devsimon parilardir. Ular go`zal ayol qiyofasida bo`lib, kishilarni avraydilar, Axura Mazdadan qaytaradilar.

Demak ko`rinadiki, Axura Mazda Angra Manyu va atrofida qilarga doimo qarshi kurashib kelgan ekan. Bu bundan keyin ham davom etadi. Shuning uchun Axura insonning, inson Axura Mazdaning ko`makchisi bo`lishi kerak.

Inson qanday qilib Axura Mazdaga yordam qila olishi mumkin?

Bunda, ya'ni Axura Mazdaga ko`maklashish, barcha yovuz kuchlarga qarshi turishda asosiy vosita mehnatdir. Inson Axura Mazda tomonida ekanligini, unga e'tiqodi va sadoqatini, eng avvalo, o`z mehnati (dehqonchilik qilish, chorvani urchitish) bilan ko`rsatish mumkin va lozim.

Masalan: " Don ekan kishi taqvodorlik urug`ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini namoyish etadi va olg`a suradi, u imonni oziqlantirib turadi. . . (Yasna 32)

Buni bajarish 10 ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish - demak yerdagi yovuzlikni yo`qotishdir, chunki, "don" yetilganda devlarni ter bosadi, un chiqqanda devlar sarosimaga tusha boshlaydi, non yopilganda ular zo`r berib dod soladilar. (Yasna 32 )

Ko`rinadiki, mehnat asosiy mezon qilib olinmoqda. Chunki, Oliy mavjudot sifatida faqat insongina mehnat qilish, ya'ni moddiy noz-ne'matlarni yaratish va yetishtirish imkoniyatiga ega.

Bordiyu, u ana shu qobiliyatini yuzaga chiqarmasa, unda u insonlik mohiyatidan mahrum bo`ldi. Yolg`onchilik va yovuzlik kuchlariga ma'qul tushib yovvoyiga aylanadi.

Zardusht g`oyalarining eng ulug` (progressiv) jihati dunyoviy ishlarga faol munosabatda bo`lishga undashida yaqqol ko`rinadi.

Uy-joy qurish, o`t-olov, chorva, xotin-bola-chaqalarga ega bo`lishga, ekin-tikin va daraxt ekishga, yerlarni sug`orishga, mayda va yirik mol boqishga va hakazolarga da'vat etadi.

Dunyoda qanday joy eng sevimli joy, degan savolga Axura Mazda bunday javob beradi:

"Taqvodor kishi o`t olovi, sut-qatig`i, oilasi, yaxshi chorvasi bo`lgan joy-chindan ham eng yaxshi joydir" (Yasna 2)

O`shanda bunday uyda (joyda) "chorva mo`l, noz-ne'mat mo`l, yem-xashak mo`l, kuchuklar mo`l, bolalar mo`l, xilma-xil ro`zgor buyumlari mo`l bo`ladi" . (Yasna 3)

Ko`rinadiki, shu kabi o`nlab misollarda "Avesto" ezigulik g`oyasi bilan sug`orilgan nodir manbadir.

"Avesto" ayni bir paytda o`z davri ilmlarini ifoda etuvchi qomus hamdir. Unda tarix, jug`rofiya, tibbiyot, adabiyot, ekologik va boshqa sohalarga doir ko`plab ma'lumotlar keltiriladi.

Masalan, dunyodagi barcha tog`larning nomlari, O`rta Osiyo va Erondagi daryolar va ularning o`zanlari nomlari aytiladi. Mingdan ortiq dorivor o`simliklar va dorilar, jarrohlik yo`li bilan davolangan o`n bir xil kasallik usullari va hokazo.

Bularning barchasini hisobga olganda, "Avesto" o`tmishi ilm-fan va madaniyatimizni o`rganishdagi eng qimmatli manba hisoblanadi.

#### ***Adabiyotlar:***

- 1.O`zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 1-tom.- T.: 1977 y.
- 2.N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob.- T.: 1969 y.
3. H.Homidiy. "Ko`hna sharq darg`alari" "Sharq". 1999 y.
- 4.Ye.Berezikov. "Zardusht tug`ilgan diyor" "Yoshlik" jurnali. 1991 y. 8 son.
5. Avesto. Yasht kitobi. (M.Ishoqov tarj.) –T., Sharq, 2001 y.

#### ***Takrorlash uchun savollar***

- 1."Avesto" kitobi kimlar tomonidan o`rganilgan?
2. "Avesto" ning asosiy mohiyati nimalardan iborat?
3. Zardusht kim?
- 4."Avesto" ning asosiy mohiyati nimadan iborat?

### *Izohli lug`at:*

1. Spitama, Spitamon - Zardushtning laqabi.
2. Ardvisaura Anaxita - yaxshilik va suv tangrisi.
3. Yazdon - Tangri.
4. Xum - ilohiy qudratga molik ichimlik.
6. Barsman - duo paytida koxin ishlatadigan xivichlar.
7. Otashkada - zardushtiylarning ibodatxonasi.

### **MAHMUD QOSHG`ARIY. (2 soat ma'ruza)**

#### REJA

1. M. Qoshg`ariyning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar.
2. "Devonu lug`atit turk" asari. Asarning o`rganilishi, tuzilishi.
3. Asarning adabiyotga aloqador jihatlari.
4. Devondan o`rin olgan she'riy parchalar, munozaralar hamda maqol va hikmatli so`zlarning mohiyati.
5. "Devonu lug`atit turk" ning ilmiy adabiy ahamiyati.

Mahmud Qoshg`ariyning hayoti va faoliyatiga doir to`liq ma'lumotga ega emasmiz. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda ota-bobolari Koshg`arlik bo`lib, XI asrda Bolasog`unda tavallud topadi. Dastlab Qoshg`arda, so`ngra Samarqand, Buxoro, Marv, Bag`dod kabi markaziy shaharlarda tahsil ko`rganidan aytish mumkinki, u yoshligidan til va adabiyot ilmiga alohida qiziqish bilan qaragan. Keyinchalik u Xitoydan tortib O`rta yer dengizigacha bo`lgan hududdagi mamlakatlarni kezib, uzoq yillar davomida turkiy xalqlar tarixi, tili, og`zaki va yozma adabiyoti, urf-odatlarini, yashash tarzi, madaniyatini sinchiklab o`rganadi. Bunda u ayniqsa, turkiy so`zlarni to`plash, turkiy til va lahjalarni bir-biridan farqlash, ularni tartibga solishga harakat qiladi.

"Men turklar, turkmanlar, o`g`uzlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shahar, qishloq, va .ovullarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarini to`pladim, turli xil so`z xususiyatlarini o`rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillarni har bir kichik farqlarini aniqlash uchun ham qildim. Ularni har tomonlama bir asosda tartibga soldim. (D.L.T. 1-jild. T. 1960 i. 44 bet.).

Hozirgi zamon ilmida M. Qoshg`ariy XI asrning tilshunos olimi sifatida mashhurdir. Aytilganidek, say'-harakatlari so`ngida u turkiy tillar tadqiqiga bag`ishlangan "Javohir un-nahv fi lug`otit turk" (Turkiy tillarning sintaksis qoidalari) hamda "Devoni lug`otit turk" (Turkiy so`zlar devoni) nomlari bilan ataluvchi ikkita asar yaratadi. Bu asarning birinchisi yetib kelmagan yo aniqlangan emas.

"Devoni lug`otit turk" asarini olim 1074-1076 yillarda tugallab, xalifa Abulqosim Abdulloh bin Muxammad al-Muktadoga tuhfa etadi. Bu asarning 1276-77 yillarda Muhammad bin Abu Bakr Damashqiy degan kishi tomonidan ko`chirilgan bir qo`lyozmasi Istanbuldan topiladi. 1939-41 yillarda hozirgi turk tilida nashr etiladi. O`zbekistonda asarning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri A. Fitratdir. S. Mutallibov asarni o`zbek tiliga ag`darib, 1960-63 yillarda nashr ettiradi.

Asar "muqaddima" va (devon) lug`at qismlaridai iborat bo`lib, so`zlar arab tili grafikasi asosida tartib bilan joylashtiriladi. "Muqaddima"da Qoshg`ariy turkiy tillik xalqlarning nomlarini birma-bir keltiradi. Ular: bajnak, qipchoq, o`g`uz, yamak, boshqird, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirg`iz, chigil, tuxsi, yag`mo, ig`roq jaru, jamul, uyg`ur, tangut, tabg`och xalqlaridir. Shuningdek, devonda ana shu turkiy xalqlar yashagan joylarni ko`rsatuvchi doira shaklidagi xarita ham keltiriladi.

Asarning "lug`at" qismida esa ana shu xalqlarning tillari o`rtasidagi o`xshash va farqli jihatlari ko`rsatiladi, mukammal izohi beriladi. Asarda 6 mingdan ortiq turkiy so`zlarga atroflicha

izoh beriladi. Bu juda katta qamrovdur. Shuning uchun ham “Devoni lug`atit turk” turkiy tilshunoslikning eng nodir yodgorligi hisoblanadi.

“Devoni lug`otit turk” faqat tilshunoslik asari bo`lib qolmay adabiyot - badiiyat ilmi uchun ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ya'ni olim so`zlarni to`g`ri va chiroyli izohlash uchun 300 ga yaqin she'riy parchalar va ko`plab maqol va hikmatli so`zlarni keltiradi. Masalan: “Ulug`” so`zini “har narsaning ulug`i, kattasi” deb izohlar ekan, buning isboti uchun quyidagi she'rni keltiradi:

Ulug`luq bo`lsa sen ezgu qilin,  
Bo`lgil kishi Beglar ketin yaxshi ulan.

Mazmuni: Daraja yoki martaba topsang xulqingni chiroyli qil; amirlar oldida yaxshilik yetkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul qiluvchi bo`l.

“Ko`b” so`zining izohi uchun esa “Ko`b sukutga qush qo`nar; Ko`rkli kishiga so`z kelar, degan maqolni keltiradi. Bu: Shoxlari ko`p daraxtga qush qo`nar, yaxshi kishiga so`z (maqto) keladi” degan mazmundadir.

Devondagi bu kabi maqollar va she'rlar turli-tuman ma'noda bo`lib, ularda real hayot lavhalari, hamda xalq ma'naviy qarashlarining muhim jihatlari o`z ifodasini topgan. Masalan:

Boqmas budun sovuq so`z,  
Yudqi yuzi sapanqa.  
Qazg`an ulich tuzunluk,  
Qalsun yeaving yarinqa.  
Boqmas jahon sovuq so`z,  
Shilkim, yuzsiz baxilga,  
Yoqimli bo`l, xushxulq bo`l,  
Qolsin noming ko`p yilga.

Bu she'rda pand-nasihat mazmuni ifodalangan bo`lsa;

Urgan aning bilikin,  
Kunda angar baru,  
Qutquluqni tapingin,  
Qo`zni quvaz naru.  
O`rgan uning bilimin,  
Borgil o`shal sari.  
Qutlug` ishga bo`ysingin,  
Kibrni quvgin nari.

Bunda ilmlidan ilm o`rganib, kibru havodan yiroq bo`lib, yaxshi ishlar qilishga undash mazmuni ifodalangan.

Quyidagi she'rda esa kechinma, tuyg`u va ular bilan bog`liq, ruhiy holat o`z ifodasini topadi.

Uzuk mani kuchayur,  
Tun-kun turub yiglayu,  
Ko`rdi ko`zum tavraqin,  
Yurti qolib ag`layu.  
Sevgim mening kuchayur,  
Kecha-kunduz yig`layman.  
Ko`rdi ko`zim ketganin,  
Yurtda yolg`iz qolmayman.

Umuman olganda, devondan mehnat, mavsum, marosim, qahramonlik mazmunidagi qator she'rlar, “Qut bilgisi bilik” (Baxt belgisi-ilm). “Ardam bashi til” (Odobning boshi til). “Quruq qashiq og`iz yarmas”, (Quruq qoshiq og`izga yoqmas) kabi ko`plab maqollar borki, ular XI asr va ungacha bo`lgan davrlarga mansub bo`lgan badiiyat namunalari.

Shuningdek, devonda nisbatan kattaroq hajm va kengroq mazmunga ega bo`lgan tabiat hodisalari, urushlar tasviri, alplar vafotiga bag`ishlangan she'r va rivoyatlar ham o`rin olgan.

“Qish va Yoz munozarasi”, “Alp Er To`nga marsiyasi”, “Iskandar” haqida hikoyatlar shular jumladandir.

Xulosa qilib aytganda, “Devoni lug`otit turk” turkiy xalqlarning islom istilosigacha bo`lgan davrlari hayoti, tili, badiiyati, xususan, she'riy janrlari, shakli, tasvir vositalari haqida tasavvurlar beruvchi adabiy yodgorlik ham hisoblanishi bilan qimmatlidir.

#### **Adabiyotlar:**

1. M. Qoshg`ariy. “Devoni lug`atit turk”- T., 1960-61. 1963 y. Tarjima va noshir. S. Mutallibov.
2. A. Hayitmetov. Adabiy merosimiz ufqlari. O`qituvchi. -T. 1997 y. 76- 78 betlar.
3. N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob.- T. 1960y
4. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 1-jild. 1977 y.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Mahmud Qoshg`ariy kim?
2. “Devoni lug`otit turk” xarakteriga ko`ra qanday asar hisoblanadi?
3. Asarda qanday turkiy qabilalar tilga olinadi?
4. “Devoni lug`otit turk” ning adabiyotga aloqadorligi nimalarda ko`rinadi?
5. Asardagi she'riy parchalar qanday mazmun-mohiyatga ega?

#### **Lug`at:**

1. Qutun -qoshi, huzuri, oldi.
2. Qushdg - bu o`rinda noma, xabar ma'nosida.
3. Mingloh – Sharqiy Turkistondagi bir qavm.
4. Munozara – og`zaki ijoddan yozma adabiyotga o`tgan janr.

### **YUSUF XOS XOJIB (2 soat ma'ruza)**

#### **REJA**

1. Yusuf Xos Xojib haqida ma'lumot.
2. “Qutadg`u bilig” asarining yaratilishi, o`rganilishi va o`ziga xos xususiyatlari.
3. Asarning qisqacha mazmuni, obrazlar tizimi, ularda ifodalangan ramziylik,
4. Asarda adibning falsafiy dunyoqarashining o`ziga xos ifoda etilishi.
5. Yusuf Xos Xojibning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Asarda ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalarining o`ziga xos talqini.
6. “Qutadg`u bilig”ning ma'rifiy va badiiy ahamiyati.

X-XP asrlar o`zbek mumtoz adabiyotining mashhur vakillaridan biri Yusuf Xos Xojibdir. Adibning hayoti va faoliyati haqida hech bir tarixiy yoki adabiy manbalarda ma'lumotlar uchragan emas. Adibning o`z asari “Qutadg`u bilik”da ayrim qayd etilgan o`rinlar mavjud, xolos. Asardan ma'lum bo`lishicha, adib taxminan 1019 yillar atrofida “Quz urdu”, ya'ni Bolosog`unda tavallud topadi (asarda 462 (1069) yil yozib tugatganligi, bu vaqtda 50 yoshda ekanligi qayd etiladi). Adibdan bizgacha yagona “Qutadg`u bilig” asari yetib kelgan:

Yil altmish eki erdi, to`rt yuz bila,  
Bu so`z so`zladim man tugub jan sura  
Tugal o`n sakiz ayda aydim bu so`z,  
Udurdum, adirdim, so`z evdim tera.

Ko`rinadiki, asar yuqorida aytilganidek, 18 oyda 462 yili yozib tugallanadi va adib unga “Qutadg`u bilig” deb nom beradi.

Asarda dastlab basmala (unvon), so`ngra esa nasriy muqaddima keladi. Unda hamd, na't aytiladi hamda asarning qimmat, nomlanishi, xonga tortiq qilinishi, taqdirlanishi, asarda 4 simvolik qahramon o`rtasida savol-javoblar bo`lib o`tishi haqida aytiladi. So`ng yana 77 baytdan iborat she'riy muqaddima keltiriladi. Bundan keyin esa tilning foyda zarari, bilimning manfaati

va hokazolar haqida fikrlar bayon etiladi. Shundan so`ng asosiy voqealar bayoniga o`tiladi. Muqaddimada bayon etilgan:

Quz-urdu ulkasi aslida eli,  
Tub-asli nasabdan so`z ochdi tili.  
Tugilgan elidin chiqib borgani,  
Kitobni jam etib tugal kilgani.  
Barisin bitibdir yetkazib nizom,  
Bu Qoshg`ar elinda qo`shilmish tamom.  
(Barini bitibdir ne esa kalom,  
Bu Qoshg`ar elinda tugadi, tamom).

Ushbu misralardan adibning vatani Quz-urdu (Bolosog`un) ekanligi ma`lum bo`ladi hamda adib asarini yaratish uchun yurtidan chiqib boshqa joylarga safar qilgani, ko`plab madaniy-adabiy manbalarni o`rgangani va Qoshg`arga kelib asarni yozib tugatganini anglash mumkin.

Shuningdek, muqaddimada adib:

Bug`roxon vaqtida yozildi ayon,  
Yana xon tilicha etilgan bayon.  
Bu yanglig` kitobni kim aytgan azal,  
Keyin ham kim aytar bu qadar go`zal,

-deya faxr bilan so`zlaydiki, bunda adib haqli ekaniga asar bilan bog`liq to`rt muhim jihatni asos qilib keltirish mumkin:

“Qutadg`u bilig`ga qadar yaratilgan asarlarning barchasi arab va forsiyda yaratilgan bo`lib, bu asar turkiyda yaratilgan birinchi eng yirik adabiy asar edi. Asarning tez orada topgan shuhratida ham ko`rish mumkin:

Chiniylar “Adab ul- mulk” deb atar,  
Mochinlar “Anis ul- mamolik” deyar.  
Bu Mashriq elining donishmandlari,  
“Ziynat ul- umaro” deyishdi bari.  
Eronlik “Shohnoma” dedi belgilik,  
Turonlik nom qo`ydi “Qutadg`u bilig`”.

Asar Tabg`ach Bug`roxon tomonidan munosib taqdirlanib, muallifga shuhrat keltirganida ko`rinadi:

Molik huzurida o`qidi uni,  
Tabg`ach Qora Bug`ra-xonlarning xoni.  
Og`irladi ortiq adib xizmatin,  
In`om berdi qalam haqqi-hurmati.  
“Xos Hojib” unvonin loyiq bildi u,  
O`ziga eng yaqin odam qildi u.

Davlatni idora qilish qonun-qoidalarini, mulk tutishning siru asrorlarini, ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyatdagi o`rni, har bir tabaqaning axloqiy normalarini ko`rsatib, belgilab beruvchi, davr talabiga nihoyatda mos bir asar ekanida ko`rish mumkin.

Adib asarini 4 narsa asosida ko`radi yoxud asarda aytilgan keng qamrovli fikr-qarashlarini shu 4 narsada mujassam etib tasvirlaydi. Bular:

Biri to`g`rilikka tayanch adolat,  
Biri davlat erur, u qutli g`oyat.  
Uchinchi-ulug`lik aql va zako,  
To`rtinchi-qanoat erur bebaho.

Bu kabi bir qator ko`rinishlar asarni o`ziga xos betakror xususiyatlarga ega ekanligini ko`rsatadi.

“Qutadg`u bilig`” asarini hozirda uch qo`lyozma nusxasi mavjud bo`lib, uyg`ur yozuvida ko`chirilgan bir nusxasi Venada, arab yozuvida ko`chirilgan bir nusxasi Qohirada va yana bir nusxasi Toshkentda saqlanadi. Asar yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari G`arbiy Yevropa

sharqshunoslari, rus sharqshunoslari va o'zbek olimlari (Fitrat, S.Mutalliboev, A.Abdurahmonov, N.Mallaev, B.To'xliev) tomonidan amalga oshirilgan. "Qutadg'u bilig" 1971 yilda Qayum Karimov tomonidan hozirgi tilga o'girilib nashr etilgan. 1990 yilda B.To'xliev tomonidan ancha soddaroq holda ham nashr qilingan. Qisqacha mazmuni:

Asarda adib yuqorida aytilgan 4 asosni bayon qilish yoxud ta'rif-tavsif etish yo'ldan bormaydi, balki ularni 4 inson qiyofasida tasvirlaydi va ularni har birini alohida nomlar bilan ataydi:

1. Adolat-Kuntug'di-shoh-quyosh.
2. Davlat-Oyto'ldi-vazir-oyga. I
3. Aql-O'gdulmish-vazir o'g'li-charog'onlik.
4. Qanoat-O'zg'urmish-vazir qarindoshi-sergaklik.

Asosiy voqealar shu 4 obraz o'rtasidagi savol-javoblardan iborat bo'lib, bir qator eng asosiy masalalar ana shu jarayonda yoritib beriladi. Ana shu obrazlar o'rtasidagi munosabatlar mazmunining uyg'unligidan bosh masala, g'oya, asarning "Qutadg'u bilig" deb nomlangani sababi kelib chiqadi.

Barcha asarlarda bo'lgani singari "Qutadg'u bilig"da ham adibning munosabatlari, bir butun falsafiy qarashlari ziddiyatlarga to'la bir ko'rinishda butun asar davomida ko'zga tashlanadi. Adib o'z davrining kishisi sifatida Islom dini qarashlari, islom axloqini yoqlaydi. Buni biz asarda adib bayon qilgan odob-axloqda doir fikrlarini Islom axloqiga to'la mos kelishida ham ko'rishimiz mumkin:

Yomon desa bo'lmas bu dunyo molin,  
Esa, bersa xalqqa, yoritsa yuzin.  
Xudoni toat birla topmas quli,  
O'zing zo'rla keng dunyoni qilma tor,  
Toatla unutm zakovatni sen.

Xos Xojib falsafasiga ko'ra hayot, umr barcha ezguliklar uchun asosiy moyadir (onasidir), shuning uchun ham u juda aziz va qimmatli beqiyosdir. Amal, mansab, davlat, boylik inson umrini zoe, behuda kechishiga sabab bo'luvchi bebaqo va bevafo narsalardir.

Xos Hojib o'z qarashlarida tasavvuf ta'limoti ilgari surgan fikr-qarashlar doirasidan anchayin uzoqlab ketolmaydi, ayni paytda barchasini ma'qullamaydi ham. Masalan: so'fiylarda Xudo tabiatdan holi alohida xolatda mavjud emas, ya'ni Olam Haq xusni jamolining tajallisidan iborat. Olamdagi barcha narsalarda Haqdan nishon bor deyiladi,

Hisoblashga mansub emas birliging,  
Jami narsaga yetgay erkliging.  
Yarattan jami narsasiga nishon,  
Yaratgan nishoni aniq begumon.

Misralardan ko'rinadiki, insonning o'zi yakka holda mavjud bo'lishi mumkin emas, demak, uzlatga chekinish, yolg'izlanib yashash behuda ish. Aksincha, inson olam, odamlar bilan birgalikda bo'lishi, yashashi, Olamni bilishga intilishi lozim. Zero olamni bilish Haqni bilishning o'zidirki, Odamga bunday imkoniyat berilgan:

Olam xalqi qishloq shaharni qo'yib

Turib toqqa chiqsa og'ir yuk chekib.  
Buzilgan olam, barcha olgay urug',  
Odam bolasidan kesilgay urug'.

Adibning qarashlarida dunyoga ma'naviy munosabat ustun darajada ko'rinadi. Qizig'i shundaki, adib olamda yuz berayotgan voqea-hodisalar, qarashlar, o'z davrida mavjud o'zgarishlarning hech birini tamoman inkor etmaydi, ayni paytda ulardan birini ajratib olib, yoqlab ham chiqmaydi.

Go'yoki nimalar sodir bo'layotgan bo'lsa, shunday bo'lishi kerak.



Asardan adib qarashlarini umumlashtirib oladigan bo`lsak, adib barcha munosabatlarning asosiy mezoni ilm-ma'rifat deb olganining guvohi bo`lamiz.

Eng avvalo insonning insonligi, podshohning adolati, raiyatning osoyishtaligi, mulkning farovonligi barcha-barchasi ilm tufaylidir:

Yana bir hikmat bor: Xazrati odam,-  
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.  
...Bilim bilan kishi judo hayvondin,  
Buyukroq nima bor, kishini ayt andin.  
...Bilimni buyuk bil o`quvni ulug`,  
Shu ikkov ulug`lar kishini to`liq.  
...O`quv qayda bo`lsa, ulug`lik bo`lar,  
Bilim kimda bo`lsa, buyuklik bo`lar.  
...Bolam tutsin desang donolik yo`lin,  
Kichiklikdan tegiz bilimga qo`lin.

Asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar yuksak darajada ifoda topadi. "Qutadg`u bilig" ni aql va hikmat darsligi deb ham atashadi.

Ilova.

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,  
Olamga ochildi guzallik yo`li.  
Bo`z yer iporlandi qoru muz ketib,  
Bezanadi olam chiroy ko`rsatib.

Quyosh qaytdi yana kelib o`rniga,  
Baliq quyrug`idan Qo`zi burniga.  
Chinnigul didini yoyarkan sabo,  
Butun dunyo to`ldi iporga go`yo.

G`oz-o`rdak-jami qush havoda  
Shodon, O`yinga berildi quvonib chunon.  
Ko`kish turna ko`kda navosin chalar,  
Tuya karvonidek tizilar, chopar.

Birovi qo`nar, ko`r, birovi uchar,  
Birovi chopar, ko`r, biri suv ichar.  
Qo`shiq aytdi go`zal kaklik tog`ora,  
Qizil og`zi qondek, qoshi qop-qora.

Quloqda chalinar qora zog`sozi,  
Go`yo nido solgan qizdek ovozi.  
Chechaklar oralab yurarkan bulbul,  
Olamni qushadi shirin bir gul-gul.

Chechaklar ustida o`ynar ohular,  
Bug`ular bo`ylashar, nozik oh urar.  
Qovoq osar osmon, ko`z yoshi to`kar,  
Chechaklar-chi, quvnoq, kulib yuz ochar.

Falakda charx urib olam qushlari,  
Biri keldi Rumdan, Xinddan aksari.  
Chiroyga ko`milgan ko`katlar o`zi,  
Yashilga belangan bu yerning yuzi.

Ba'zisi hididan berar dilga jon,  
Ularning rangila munavvar jahon.  
Sharqdan ko`tarildi olovdek yolin.  
Yuzin ochdi olam misoli kelin.

O`rlab keldi bu dam marjon shodasi,  
Oq dur bo`ldi olam yuzi barchasi.  
Yuzini yashirdi yerga rum qizi,  
Olam rangi bo`ldi zangilar yuzi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. Yusuf Xos Hojib va uning faoliyati haqida qaysi manbalarda qanday ma'lumotlar ma'lum?
2. "Qutadg`u bilig" nima degani? Nega adib asarini shu nom bilan atagan?
3. Asar muqaddimasida asarning yaratilishi badiiyati bilan bog`liq qanday fikrlar aytiladi?
4. Asar mazmun mohiyatiga nimalarni asos qilib oladi?
5. Asarda adibning falsafiy qarashlari.
6. Asarda adibning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

***Lug`at:***

1. Bolosog`un-hozirgi To`qmoq shahri o`rnidagi qadimiy shahar.
3. Xonsalor-dasturxonchi.
4. O`kush-ko`p.
5. So`kinj-taxqir, haqorat.

***AHMAD YUGNAKIY (2 soat ma'ruza)***

**REJA**

1. Adibning hayoti haqidagi ma'lumotlar.
2. "Hibatul-haqoyiq" asarining yaratilishi va o`rganilishi
3. Asarda o`rta qo`yilgan asosiy masalalar.
4. Asarning ilmiy va ma'rifiy ahamiyati.

Turkiy adabiyotning mashhur vakillaridan biri, adab ilmining bilimdoni adib Ahmad Yugnakiydir. Adibning shaxsiyati, hayoti va faoliyati haqida batafsil ma'lumotlarga ega emasmiz. "Hibatul-haqoyiq" asarida muallif va asarni ko`chirgan kotiblar tomonidan keltirilgan ayrim qaydlargina mavjud xolos. Xususan adib asarida:

Adib Ahmad atim, adab, pand so`zim,  
So`zim munda qolur, borur bu o`zim,-

deya o`z nomini zikr etsa, "Hibatul-haqoyiq"ning qo`lyozmalariga turli shaxslar tomonidan yozilgan (Arslonxo`ja Tarxon)

Otasi ati Mahmudi Yugnakiy,  
Adib Ahmad o`g`li, yo`q ul hech shaki,  
Adibning yeri ati Yugnak erur,  
Safolik ajib yer, ko`ngullar erur,  
Adiblar adibi fozillar boshi,  
Guhartin so`z aytmish, andin so`z boshi.

kabi qaydlarga duch kelamiz. Bulardan ma'lum bo`ladiki, adibning oti Ahmad, otasining oti Mahmud, tug`ilgan joyi Yugnak shahri bo`lgan, biroq Yugnak shahrini qaerda bo`lganligini aniq aytish qiyin. Yugnakiyini o`rgangan olimlardan. Bertels Farg`ona vodiysida, Bartold esa Samarqand atrofida bo`lgan deb belgilaydi.

Tarixiy manbalarda, jumladan, Ibn Xevakl va Arat Raxmatiy asarlarida "Agnok" yozilib Samarqand atrofida bo'lganligi qayd etiladi. Adibning shaxsiyatiga doir ayrim qaydlar bor. Asar qo'lyozmalaridan birida "tug'a ko'rmas edi adibning ko'zi", -deya aytilsa, Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida adib nomini hurmat bilan zikr etib "Haq subhonaxu taolo agarchi zohir ko'zin yopuq qilgandur, ammo ko'ngul ko'zin bag'oyat yoruq qilgondur" deydi.

U Bag'dod atrofida maskan tutib, uzoq masofalarni piyoda kezib mashhur shayxlar, allomalardan shariat va tariqat sabog'ini, hadis va tafsirdan ta'lim olgan, va'zu nasihatda usta bo'lib, "aksar turk ulusida xikmat va nuktalari shoe" bo'lib, she'rlari xalq orasida og'izdan-og'izga ko'chib yurgan.

Adibning bizgacha meros sifatida yagona asari saqlanib qolgan. Bu asar asrimiz boshlarida Turkiyadagi "As-Sufiya" masjidi kugubxonasidan Najib Osim degan olim tomonidan topiladi. Shu olim bu asarni o'rganish, tarjima etish, va dastlabki nashrini amalga oshiradi. Najib Osim asoslagan qo'lyozma 884 (1480) yilda Abdurazzoq Baxshiy tomonidan ko'chirilgan nusxasi bo'lgan. Hozirda «Hibatul haqoyiq»ning 5 qo'lyozma nusxasi ma'lum, ular arab, bittasi uyg'ur yozuvida ko'chirilgan Istanbul va Berlin kutubxonasida saqlanadi.

O'zbek olimlaridan Oybek, S.Mutallibov, N.Mallaev, K.Mahmudovlar tadqiqot ishlari olib borganlar, darslik va xrestomatiyaga kiritganlar, jumladan, K.Mahmudov 1974 yilda "Hibatul haqoyiq" ning teksti va hozirgi tilga ag'darilgan variantini kitob holida nashr ettirgan 1982 yilda nashr etilgan "Ahmad Yugnakiyning "Hibatul – haqoyiq" asari haqida" nomli kitobi ham bor. "Xibatul- haqoyiq" pandnoma xarakteridagi asar bo'lib, 235 baytdan iboratdir. Adibning "Tuzatdim bu o'n turt bob ichra so'zum" deb qayd etishiga qaraganda, dastlab 14 bob qilib joylashtirilgan. Biroq, ayrim boblarning sarlavhalarining tushirib qoldirilishi bilan boblar soni qisqarib, 11 bob holiga kelgan, hozirda 11 bobdan iborat deb qaraladi.

Asar an'anaviy ko'rinishda, ya'ni "muqaddima" va asosiy qismlardan iborat bo'lib, dastlabki 4 bobida "hamd", "na't", "Dod Sipohsalorbek madhi" va asarning yozilishi tarixi haqida so'z boradi. Bundan keyingi boblar asarning asosiy qismini tashkil etadi deyish mumkin. Jumladan, 5-bobda (40-62) adib bilimning foydasi va johillikning zarari hakida qimmatli fikrlar bayon etadi:

Biliktin ayurman so'zimga ula,  
Biliklikka, yo do'st, o'zingni ula.  
Baholik dinor ul biliklik kishi  
Bu johil biliksiz bahosiz bishi  
Biliklik biliksiz kachon teng bo'lur?  
Biliklik tishi-er, joxil er-tishi.

6-bobda esa bilim va odobning belgisi sifatida til va uni tiya bilish haqida so'zlanadi:

Eshitgil biliklik neku tep ayur,  
Adablar boshi til kuzatmak turur.  
Tiling bekta tutgil, tishing sinmasun,  
Qali chiqsa bekta tishingni siyuur.

7-bobda dunyoning foniyligi, o'zgarib turishi haqida hikmatli so'z so'zlaydi:

Bu ochun robot ul tushub kuchkulik,  
Robotqa tushukli tushar kuchkulik.  
O'ng orqish uzadi qo'pub yo'l tutib,  
O'ngi ko'pmish orqish necha kuchkulik.  
Bu ochun ko'r erga kurumlik toshi,  
Valekin ichinda xazor noxushi.  
Boqib tosh bezakin ko'rub sen bunga,  
Ko'ngil bog'lamoq bil xatolar boshi.

8-bobda saxiylik va baxillik haqida so'zlanadi:

Bu budun tulusiaxi er turur,  
Axilik sharaf, joh jamol ortturur,  
Sevumlik tisang kishilar aro,

Axi bo'l, axillik seni sevdurur.

To'qqizinchi, o'ninchi boblarda tavoze'likning manfaati, kibru havo va hirsning zarari haqida so'z boradi. So'ngra o'z fikrlarini xulosalaydi.

Ko'rinadiki, Yugnakiy o'z asarida aniq bir voqea, hodisa yoki sarguzashtni hikoya qilmaydi, u odob axloq, ilm-ma'rifatga doir fikrlarni, masalalarni personajlarsiz izchil bayon etib boradi. Bu o'git va pandlarni bayon etishda turlicha tashbeh, metafora, tazod, so'z o'yinlari kabi badiiy tasvir vositalari unumli qo'llanganini ko'ramiz.

Dostondagi hamma she'rlar "Mutaqoribi musammani maqsur" formasiga mos keladi. G'azal va masnaviy ko'rinishida yoziladi.

Dostonda bayon etilgan fikrlar hayot sinovlaridan o'tgan, inson hayotini abadiyatga daxldor bo'lishini ta'minlovchi, asqotuvchi fikrlardir, asarning ma'rifiy ahamiyati ham shunda ko'rinadi.

#### ***Adabiyotlar:***

1. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T. 1976 y.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik. 1-tom, 1977 y.
3. A.Yugnakiy. Hibatul haqoyiq. T., 1981 y.
4. Mahmudov K.A Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asari haqida. T., Fan. T., 1982 i.
5. Navoiyning nigohi tushgan. T., 1986.
6. Xo'janova G. "Hibat ul-haqoyiq" poetikasi. ND. Avtoref.- T., 2001 y.

#### ***Takrorlash uchun savollar:***

1. A A. Yugnakiy hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Yugnakiy haqida qaysi shoirlar o'z asarlarida ta'rif beradi?
3. "Hibat ul haqoyiq" asari qanday asar?
4. "Hibatul haqoyiq" qo'lyozmalari qaerda saqlanadi?
5. Asarda qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan?

#### ***Lug'at:***

1. Ula-quloq, sol.
2. Bishi-sariq chaqa.
3. Tishi-ayol.
4. Eran-mard.

### **AHMAD YASSAVIY** **(2 soat ma'ruza)**

#### **REJA**

1. Yassaviyning hayoti va faoliyati.
2. "Devoni xikmat" to'plamining yaratilishi va o'rganilishi.
3. "Devoni hikmat"ning janr tabiati, o'ziga xos xususiyatlari.
4. Yassaviy hikmatlarida inson va uning ma'naviy qiyofasiga munosabat, johillik va nodonlik, ishq va oshiqlik, dunyo va uning bir bugun mohiyati haqidagi fikrlar.
5. Yassaviy xikmatlarining ma'rifiy ahamiyati.

Turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakillaridan biri, umr bo'yi xudo yo'lida fidoiylik bilan xizmat qilgan, inson qadrini e'zozlagan zotlardan biri Ahmad Yassaviydir.

Yassaviy XI asrning o'rtalarida Sayramda o'z davrining mashhur shayxlaridan Ibrohim ota oilasida tavallud topadi. Go'dakligida onasidan, 7 yoshlarida otadan yetim qolib, bobosi Arslonbob qo'lida tarbiyalanadi. U dastlab Arslonbob qo'lida, so'ng Buxoroga borib Yusuf

Xamadoniydan saboq oladi. Yusuf Xamadoniy vafotidan so`ng bir necha muddat uning ishini davom ettiradi. So`ngra o`z yurtiga qaytib o`z mustaqil faoliyatini boshlaydi. Xikmatlar bitadi, atrofiga muridlar to`playdi. "Yassaviya" tariqatiga asos soladi.

Yassaviydan bizgacha turkiy adabiyotning nodir yodgorliklaridan biri bo`lgan "Devoni xikmat" asari yetib kelgan. Ammo uni qachon va kim tomonidan tuzilganligi noma'lum. "Devon"ning eng qadimgi qo`lyozmalari XVII asrga mansub bo`lib, ular saqlanmoqda. Qozon va Toshkentda bir necha marotaba qayta nashr etilgan. Yassaviyning qo`lyozma va toshbosmadagi "Devoni xikmat"larini chuqur tekshirgan turkiyalik olim Kamol Eraslon 1983 yilda Anqarada "Devoni xikmatdan sochmalar" kitobini chop ettiradi. Shu asosda bizda ham I.Haqqulov 1991 yil "Devoni xikmat" va "Xikmatlar" nomi bilan nashr ettiradi.

Ahmad Yassaviy o`z yurtiga qaytib mustaqil faoliyatini boshlagan dastlabki yillardayoq o`z dunyoqarashini xalq orasida kengroq yoyish maqsadida turkiy xalq qo`shiqlariga yaqin she'rlar ijod qila boshlagan. O`z she'rlarida u insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo`lida fidoiylik, e'tiqodda sobitlik, halollik va poklikni targ`ib etadi. Bu targ`ibotida shoir "Qur'on" oyatlari va hadislariga asoslanadi. Shu boisdan ham xikmatlar bir qarashda oyat va hadislar bilan birdek tuyuladi. Boshqacha aytganda, muvofiq keladi. Lekin bu Yassaviy hikmatlarida "oyat va hadislar mazmunini tug`ridan-to`g`ri o`zlashtirgan" degan fikrni bermasligi kerak.

Mening xikmatlarim koni hadisur,  
Kishi bo`y eltmasa bilgil habisdur.  
Mening xikmatlarim farmoni subxon,  
O`qub uqsang hama ma'niyi Qur'on.  
Mening xikmatlarim olamda sulton.  
Qilur bir lahzada cho`lni guliston.  
Mening hikmatlarim shavqi muhabbat,  
Kuzini yoshida qilgay tahorat.

Qolaversa, Yassaviy o`z g`oyaviy-axloqiy, falsafiy maqsadlari yo`lida ulardan ijodiy foydalangan deyish mumkin.

Savol tug`iladi, xo`sh Yassaviyning g`oyaviy maqsadi nimadan iborat edi..? Shu paytga qadar Yassaviy va uning "Xikmat"lari haqida turli xil qovushmaydigan fikrlarning aytilishiga qaramasdan, bugunda shu narsa yaxshi ma'lumki, Yassaviy tarixda nom qoldirish, avliyo sifatida shon-shuhratga ega bo`lish, boylik orttirish maqsadida tariqati va hikmatlarini yaratgan emas, bunday fikrni tasavvurga keltirishning o`zi shubhasiz xato, uning tili bilan aytganda nodonlikning o`zidir. Yassaviyning maslagidan ham, hikmatlaridan ham ko`zlagan maqsadi bitta edi, u ham bo`lsa, barcha mavjudotlar ichida eng mukammal qilib yaratilgan inson va jamiyatni bir so`z bilan aytganda bashariyatni mukammal ko`rish orzusi edi. Yassaviyning ta'biricha, bu mukammallik eng avvalo nafsni o`ldirish va Haqni sevish tomoniga qilinadigan harakatdan boshlanadi

Na onoda rahm qoldi na otoda,  
Og`a-ini bir-biriga mojaroda,  
Musulmonlar da'vo qilur, ichar boda,  
Mastlik bilan qarindoshdan tondi ko`ring.

Bularning barchasi nafs tufaylidir. Nafs kishi ko`zini parda bo`lib to`sib qo`yadi, tug`rilikdan adashtiradi.

Nafs yo`liga kirgan kishi rasvo bo`lur,  
Yuldan ozib, toyib-to`zib gumroh bo`lur.

Shuning uchun ham Yassaviy pandu-nasihatlarida nafsqa qarshi kurashni bosh masala qilib qo`yadi, unga qarshi isyon ko`taradi.

Xudovando, meni solgil o`z yo`lingga,  
Nafs ilgida xorib, ado bo`ldim mano.  
Fiqu fujur to`lib-toshib, haddan oshti.

G`arqob bo`lib isyon ichra qoldim ma'no.

Anglamoq kerakki, Yassaviyning bu isyoni ruhiy isyondir. Nafsdan qutulishning yagona chorasi esa Haqqa oshiqlik ehtiyojdir.

Nodonlikda haq amrini bilolmadim,

Har ne qilsang oshiq qilgil parvardigor.

Yassaviy hikmatlarida oshiqlikni yolg`on oshiq va chin oshiqqa bo`lib ko`rsatadi. Ishq savdosi-og`ir savdo. Uning qiyinchiliklariga bardosh berish o`ta mashaqqat. Ishq bu- darddir.

Ishq balosi boshga tushsa nolon q`ilur,

Aqling olib, behush qilib hayron qilur...

Ishq odamda bedorlikni paydo etib, e'tiqod-imon mustahkamligini ta'minlaydi, nodonlikdan saqlaydi. Natijada insonda o`z-o`ziga murosasiz bo`lish ehtiyojini hosil etadi.

Murosasiz bo`lish-o`zini doimo nazorat ostida tutmoq, o`z-o`ziga hisob berib turmoq, xato ishlarini takrorlamaslik va bular ortidan keladigan har qanday kiyinchilikka bardosh bermoqlikdan iboratdir. Ana shu jarayonda inson o`z-o`zini anglab boradi, g`ofillik va nodonlikdan qutila boradi. Yassaviy xikmatlari ana shunday oliy haqiqat, ulug` ma'rifatdan saboq beradi.

#### ***Adabiyotlar:***

1. A.Yassaviy, "Devoni xikmat" T., AS,1991 y.
2. I.Xaqqulov. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1991 y.
3. I.Xaqqulov. Abadiyat farzandlari. T.: 1990 y.
4. A.Yassaviy. Xikmatlar. T.: 1991 y. 5.N.Komilov. "Tasavvuf". T.: 1991 y.

#### ***Takrorlash uchun savollar.***

1. A.Yassaviy hayoti va ijodi haqida nima bilasiz?
2. A.Yassaviy o`z ijodida asosan nimalarga tayanadi?
3. A.Yassaviy she'riyatida qanday fazilatlar ulug`lanadi?

#### ***Lug`at:***

1. Subhon - Olloh, tangri.
2. Cho`bin ot - tobut.
3. Ro`zi mahshar - qiyomat .
4. Oshiq - ollohni sevgan odam.
5. Ma'shuq - Olloh
6. G`arqob - suvga cho`kkan, soyada qolgan.

### ***XIV-XVI ASRLARDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOT***

#### ***(2 soat ma'ruza)***

#### **REJA**

1. O`rta Osiyoda Mo`g`il hukmronligining yemirilishi, Temur imperiyasining maydonga kelishi.
2. Amur Temur faoliyati haqida.
3. Temur imperiyasining yemirilishi, Shayboniylar dinastiyasi hukmronligining boshlanishi.

Ikki daryo o`rtasiga joylashgan yurtimiz qadimda «Mavorounnaxr» deb atalgan. Bu so`z arabcha so`z bo`lib «daryo orti» degan ma'noni ifoda etsa-da, «ikki daryo orasi» degan ma'no bilan shuhrat topgan. Bu daryolar Amu va Sir daryolari bo`lib, ular Sayxun va Jayxun, O`g`uz, Inja kabi nomlar bilan mashxur bo`lgan.

Yurtimizning sun'iy sug`orishga asoslangan yerlari serunim bo`lib, yer usti boyliklari bilan chet el bosqinchilarining diqqatini tortib kelgan. Ular Doro, Kir, Iskandar, Qutayba, Chingizxon, Kaufman, Skobelov, Frunze kabilar timsollarida yurtimizni talaganlar. Shoir yozganidek:

O`tdilar sho`rlik boshingdan o`ynatib shamshirlarni,  
Necha hoon, necha sulton, necha ming xon, o`zbeгим.

Erksevar xalqimiz hech qachon bosqinchilarga bosh egmagan. Shiroq, To`maris, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Madaminbek bo`lib, ularga qarshi beomon kurashganlar. Shoir aytganidek:

Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading,  
Sen Muqani, sarbador sen, erksevar xon o`zbekim.

Ana shunday bosqinchilardan biri XII asrda Chingizxon tomonidan amalga oshirilgan bo`lib, uning avlodlari xukmronligi XIV asrga qadar davom etdi. XIV asrining 60-yillariga kelib, mo`g`ul ichida sarbadorlar qo`zg`oloni alohida ajrab turadi.

Bu harakat mo`g`ul hukmronligi ildiziga bolta urdi. Muhammad Alining «Sarbadorlar» dostonlarida bu xarakat yaxshi tasvirlagan.

Ana shunday sharoitda tarix maydoniga Amir Temur kirib keldi. Istiqlol yillarigacha Amir Temur faoliyati yetarli o`rganilmadi, unga salbiy baho berildi. Ivan Grozniy, Pyotr I singari rus podshohlari ulug`langan holda butun jahon tan olgan Amir Temurga bir yoqlama munosabatda bo`lindi.

Istiqlol sharofati tufayli Amir Temurga odilona baho berildi. Uning 660 yilligi munosabati bilan juda ko`p ishlar amalga oshirildi.

U barlos urug`idan bo`lib, 1336 yili Kesh shahrida tug`ilgan. Otasi Amir Tarag`ay bo`lib, onasi Takina xotun deb yuritilar edi.

Temur tug`ma qobiliyati tufayli sarbozlikda Husaynning lashkarboshisi darajasiga yetdi. Husaynni ham o`rtadan olib tashlab, mo`g`ullarga qarshi kurasha oladigan hukmdorga aylandi.

Temurning To`xtamish ustidan g`alabasi O`rta Osiyoningina emas, Rossiyani ham mo`g`ul zulmidan ozod etdi. Temur Xorazm, Kavkaz orti yurtlarini, Eron, Hindni zabt etib imperiya tashkil etdi.

Bu imperiya davrida ilm-fan o`sdi, yurt obod bo`ldi. Temur barpo etgan Oqsaroy, Registon, Shohi Zinda kabi imoratlar hanuz o`zbek xalqining iftihori bo`lib turibdi.

Temurning Turkiya sultoni Yeldirim Boyazid ustidan qozongan g`alabasi Yevropani Turkiya zulmidan ozod etdi.

Frantsiyada Temur haykali poyiga «Evropa haloskoriga» deb yozilgan. Potsdam shahridagi Temur aks ettirilgan sur`atlar Yevropaning Temurga ehtiromi nishonasidir. Istiqlolgacha badiiy adabiyotda Temur siymosi noto`g`ri aks ettirilgan. S.Borodinning «Samarqand osmonidagi yulduzlar» tragediyasida Temur timsoli bir tomonlama aks ettirildi.

Fitrat 1918 yili «Temur sag`anasi» nomli drama yozib Temur siymosini to`g`ri aks ettirdi. Oybek ham Amir Temur haqida doston yozgan bo`lsa-da, uni nashr ettirishga jur`at etmagan.

Istiqloldan so`ng jahongir haqida behisob asarlar yuzaga keldi. Bular ichida A.Oripov, O.Yoqubov, T.Mirzo, M.Jalil dramalari, B.Ahmedov romanlari singari asarlarni ko`rsatish mumkin.

Istiqlol g`oyalari asosida A.Temur faoliyati haqida quyidagilarni alohida ta`kidlash zarur. 1941 yil 21 iyun kuni jahongir xilxonasi ochildi, Temur bosh suyagi Leningradga olib ketildi. Gerasimov bizga taqdim etgan jahongir rasmi mutlaqo noto`g`ri talqinda edi. Ilgari da`vo qilingan Temurning savodsizligi mutlaqo noto`g`ri bo`lib, Navoiyning uqtirishicha, nazm va nasrda «andoq ho`p mahol va mavqeda» o`qigan. Undan «Temur tuzuklari», «Tarjimai hol» singari asarlari meros bo`lib qolgan.

Temur ulkan binolar, bog`lar barpo etib, yurt tinchligini ta`minlagan. Ilm-fan, hunarmandchilik taraqqiyotiga keng yo`l ochgan.

Temur 1405 yili O`ror shahrida vafot etgan. Garchand Temur Pirmuhammad Jahongirni taxt vorisi qilib tayinlagan bo`lsa-da, taxt uchun beomon janglar boshlanib ketdi. 1409 yili Shohruh g`alaba qildi. U Xuroson taxtiga o`tirib, Samarqand taxtiga 15 yashar o`g`li Ulug`bekni o`tkazdi.

Bulardan tashqari, Temur shuhratini davom ettirishga Abulqosim Bobur, Abu Sayid, Husayn Boyqaro singari shohlar katta ishlar qildilar. Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning yirik madaniyat markaziga aylandi.

Husayn Boyqaro hukmronligining so`ngi yillari ichki nizolar kuchayib mamlakat inqirozga yuz tutgan edi. Xurosonga Shayboniy qo`shinlari ko`z tika boshladi. Temuriylar ichida Bobur Shayboniyga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Boshqa Temuriylar uni qo`llamagani sababli Bobur yengiladi. Shayboniyga qarshi qo`shinlar yig`ayotgan vaqtda Husayn Boyqaro vafot etadi. Oqibat, Shayboniyxon Temuriylar dinastiyasini yiqitib, O`rta Osiyoda o`z hukmronligini o`rnatadi.

Demak, XIV-XVI asr ijtimoiy hayoti Chingiz hukmronligining yemirilishi, Temur imperiyasining yuzaga kelishi, parchalanishi, Shayboniy dinastiyasi hukmronligi bilan izohlanadi. Temur imperiyasi davrida yurt tinchligi, ijtimoiy hayot taraqqiyoti boshqa sohalarda bo`lgan ko`tarilishlarni yuzaga keltirgani sababli badiiy adabiyot taraqqiyotiga ham keng yo`l ochdiki, Otoi, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur singari zabardast ijodkorlar mana shu davr mahsulidir.

### ***Adabiyotlar***

1. N.M.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. T., 1969.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 jildlik. 1-jild, 1977.
3. Ya.G`ulomov, Alisher Navoiy davrini o`rganish haqida (ulug` o`zbek shoiri) T., 1948 y
4. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T., 1994 y
5. Sh.Karimov, R.Shamsutdinov. Vatan tarixi. Andijon, 1995 y
6. Sh.Karimov, R.Shamsutdinov. Sohibqiron Amir Temur va saltanati, Andijon, 1995 y
7. Andijonda sohibqironni xotirlab. Andijon, 1996 y

### ***Takrorlash uchun savollar:***

1. Temuriylar imperiyasining maydonga kelishi haqida ma'lumot bering.
2. Amir Temur faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Amur Temur haqidagi badiiy asarlarni bilasizmi?
4. Temuriylar imperiyasining yemirilishi haqida gapiring.

### **RABG`UZIY (2 soat ma'ruza)**

#### **REJA**

1. Rabg`uziy hayotiga doir ma'lumot.
2. "Qissasi Rabg`uziy" asari.
3. Asarning xarakteri, tuzilishi, g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.
4. Asardan o`rin olgan hikoyatlar, ularning o`rni, mazmun-mohiyati.
5. Asarning ahamiyati.

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida yashab ijod etgan ulug`lardan biri Nosiriddin Burxoniddin Rabg`uziydir. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba o`z asari "Qissasi Rabg`uziy"dir.

Bu kitobni tuzgan, toat yo`lida tizgan, ma'siyat yobonini kezgan, oz ozuqluq, ko`p yozug`luq Robot o`g`uzning qozisi Burxoniddin o`g`li Nosuriddin". Demak, muallif Xorazmning Roboti o`g`uz degan joyidan bo`lib, u yerda qozilik qilgan. Rabg`uziy taxallusi shu joy nomidan olingan. Shuningdek, asarda muallif ushbu asarini hukmdor beklardan "Nosiriddin To`qbug`a" degan kishining talabiga muvofiq yaratganini ham aytadi.

Bu yerda shu narsa ko`zga tashlanadiki, To`qbug`a bu vazifani topshirishda Rabg`uziyning bilim quvvati, yozuvchilik mahorati, tajribalari yetarli ekaniga ishonchi bo`lgan. Qolaversa, muntazam izchillikda bayon qilingan tarixiy va afsonaviy voqealar, asarga kiritilgan turkiy she'rlar, arab tilidan qilingan tarjimalar Rabg`uziy iste'dodini isbotlaydi.



“Qissasi Rabg`uziy” asari hijriy 709 (1309-1310) yillar atrofida yaratiladi. Muallif asariga asos qilib Qur'onda mavjud bir qator voqealardan, Abu Isxoq Nishopuriyning “Qissasul anbiyo” va boshqa islomga oid manbalardan foydalanadi.

“Qissasi Rabg`uziy” xarakteriga ko`ra o`ziga xos diniy mohiyatga ega. Asar an'anaviy hamd, na't bilan boshlanadi. So`ngra yozilish sabablari, o`zi haqida xabar beruvchi qisqa so`z boshi keladi. Asardan hammasi bo`lib 72 ta qissa o`rin olgan.

Asar garchi payg`ambarlar haqida bo`lsa-da, muallifning e'tiroficha, insonlar mavjud bo`lmasdan avval ham mavjudlik bo`lgani uchun voqealarni ana shu ilk mavjudlik voqealaridan boshlaydi. Ya'ni avvalgi qissa yer, ko`k, mavjudotlar, jin, dev, parilar hukmronligi, so`ngra insonning yaratilishiga ehtiyoj tug`ilishi voqealaridan boshlanadi. Bu voqealar konkret ilmiy xarakterga ega bo`lmasa-da, lekin olam va odamning avvali haqida ma'lum tasavvurlar beradi.

Qolgan qissalar payg`ambarlar va payg`ambarlashtirilgan shaxslar to`g`risidadir. Rabg`uziy har bir qissaning boshlanishida payg`ambar haqida qisqacha ma'lumot so`ngra izohlovchi she'r, so`ng nasrda qissaning asosiy mazmunini beradi. Bu mazmun ham yaxlit voqealar bayonidan iborat bo`lmay, shu voqealar bilan bog`liq bir necha naql va hikoyatlardan ham iboratdir.

Masalan, Idris payg`ambar to`g`risida izoh va she'r keltiriladi. So`ngra nasrda uning o`ziga xos xislatlari aytiladi. Qissadan ma'lum bo`lishicha, Idris payg`ambar ilmu hikmatda, podshohlikda, payg`ambarlikda uchinchidir. U nima narsa bo`lsa, tikib kiyishni bilgan, shamshir, pichoq kabi asboblarni yasagan, osmonda yashagan, jannatda tirik yurgan, yetmish ikki tilni bilgan, dinga da'vat qilib, turli rasm-rusumlarni o`rgatgan. Xudo uning sidqidildan qilgan toat-ibodatlarini, ishlarini nazarda tutib, o`lib qayta tirilishiga, osmonga chiqib sayr qilishiga, do`zax va jannatda aylanib, jannatda qolishiga izn beradi.

Asarda boshqa payg`ambarlar haqida ham shu usulda voqea-hodisalar bayon qilinadi, rang-barang hikoyatlar keltiriladi.

E'tiborlisi shundaki, qissalar va ular bilan bog`liq hikoyatlar maqsadli muayyan bir g`oyaga bo`ysundirilgan holatda bayon qilinadi. Masalan, Bir kuni Sulaymon Boyqushdan so`radi, nima uchun doim vayronalik yerni xohlaysan, nega xalq orasida yurmaysan. Boyqush aytdiki, odam farzandlari bir-biriga qiladigan zulmidan qo`rqaman. Demak, bunda zulm qoralanadi. Dovud payg`ambar hikoyatida halollik, halol mehnatni ulug`lash g`oyasini ko`ramiz. Bunday g`oyaviylik asardagi barcha hikoyatlar uchun xosdir. Ko`rinadiki, Rabg`uziy qissa va hikoyatlarini insonlar ezguligi uchun xizmat qilishga qaratgan.

Asardan o`rin olgan hikoyatlarning ko`pchiligi real hayot hodisalarini izohlashga qaratilgan. Masalan: Insonga jon ato etilishidan oldin uning tanasi tirnoqlar kabi silliq edi, jon baxsh etilgach, yumshab, hozirgi xolatga keldi, avvalidan nishona sifatida tirnoqlar saqlab qolindi. Qarg`alardan biri yerni cho`qilab, o`lgan sherigini ko`mishdan yerga ko`mish odati rusum bo`ldi.

Shuningdek, arining g`o`ng`illashi, qaldirg`ochning odamlar orasida bo`lishi, ilonning qurbaqaga o`chligi va hokazolar hayotiy hodisalar bo`lib, izohlovchi hikoyatlardir. Ana shu o`rinda asarga xos eng muhim xususiyat rivoya va hayotiy an'analar tutashtiriladi.

Qissa va rivoyatlar Rabg`uziyning nasrdagi katta mahoratini ko`rsatsa, asardan o`rin olgan g`azal va she'rlarda tabiat ko`rki, qahramonlarning ruhiy holatlarini yorituvchi she'rlar uning nazmdagi mahoratini ko`rsatadi.

Bizningcha, “Qissasi Rabg`uziy”ga diniy xarakterdagi bir asar sifatidagina qaramaslik kerak. Chunki, asarda diniy ruhga nisbatan inson hayoti, kelajagi va real borliq bilan bog`liq dunyoviy ruh ustun darajadadir. Asar tom ma'nodagi ilhom manbaiga aylanishi mumkin bo`lgan nodir yodgorlikdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. N.M.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. T., 1969.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 jildlik. 1-jild, 1977.
3. Rabg`uziy. Qissasi Rabg`uziy. “Yozuvchi”, 1-2-kitob, T., 1990-91.

4. Fozilov E. Rabg`uziy va uning "Qissasi Rabg`uziy" asari. 1-kitob. T., 1990.
5. X.Rasul. Go`zallik va olijanoblik qissasi, "Mangu buloqlar", T., 1986.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. Rabg`uziy hayoti va faoliyati haqida nimalar bilasiz?
2. "Qissasi Rabg`uziy" qanday xarakterdagi asar hisoblanadi?
3. "Qissasi Rabg`uziy" asaridagi qissa va hikoyatlarning mazmun- mohiyati nimalarda ifoda etiladi?
4. Asarda urf-odat va rasm-rusumlarga aloqador qanday tushunchalar bor?

***Lug`at:***

1. Roboti O`g`uz-Xorazm vohasidagi tarixiy joy nomi.

**HAYDAR XORAZMIY**  
(2 soat ma'ruza)

REJA

1. H.Xorazmiyning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar.
2. Ijodiy merosi.
3. "Mahzan ul-asror" dostoni. Dostonning yaratilishi, mohiyati.
4. Dostondagi "Sulaymonshoh", "Savdogar va bo`z to`quvchi kampir" hikoyatlari tahlili.
5. "Gul va Navro`z" dostonining yaratilishi va o`rganilish tarixi.
6. Dostonning syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, ularning g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.
7. Dostonda ishq-muhabbatning o`ziga xos badiiy talqini.
8. H.Xorazmiy merosining ahamiyati.

XIV asr oxiri XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan ijod sohiblaridan biri Haydar Xorazmiydir. Shoirning hayoti va faoliyatiga doir juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. Aniqrog`i Navoiyning "Majolis un nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush - shuaro", shuningdek, yaqinda aniqlangan Shayx Ahmad Toroziyning "Funun ul balog`a" tazkiralarda ba'zi bir ma'lumotlar beriladi. Navoiy Xorazmiyni Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiylar qatorida "xush tab" shoir sifatida tilga oladi. Aytadiki, Sulton Iskandar Temurning nabiralaridan biri bo`lib, H.Xorazmiy uning saroyida turkigo`y shoirlardan biri edi, deydi. Sulton Iskandarning ham bir tuyug`ini keltiradi:

To`lin oyga nisbat ettim yorumi,  
Ul xijolatdin kam o`ldi yorumi,  
Tor mo`yungni zakotini men beray,  
Yo Misrni, Yo Halabni, yo Rumi.

"Fuzalo va shuaro din Mavlono Haydar erdikim, turkiy va forsiyda go`zal va diqqatga sazovor she`rlari bor va Shayx Nizomiyning "Mahzan ul-asror"iga javob bitib, uni amirzoda Iskandar nomiga aytgan", deb ma'lumot beradi. "Tazkirat ush shuaro" sida Davlatshoh Samarqandiy.

Shoirning "Mahzan ul asror"ida ham ayrim qaydlar mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Mavlono Haydar asli Xorazmlik bo`lib, qachonlardir fors viloyatiga kelgan, bir qancha muddat Sherozda Sulton Iskandar saroyida xizmatda bo`lgan. Taxminan 1409-1414 yillar oralig`ida Sultonga bag`ishlab "Maxzan ul asror" asarini hamda "Gul va Navro`z" dostonlarini yaratgan.

Shoir bu dostonini Nizomiy "Xamsa" sining birinchi dostoniga asoslanib, unga javob tariqasida yaratadi. Shoir Nizomiydan ilhom, madad oladi, uning tafakkuri va san'atidan bahramand bo'ladi:

Menki pishurdim bu laziz oshni,  
Shayx Nizomiydan olib choshni,  
Shayx Nizomiy damidin jon topib.  
Ma'nisidin yarloqu burhon topib.

Garchi shoir Nizomiydan andoza olgan bo'lsa-da Nizomiy dostonining takroriga yo'l qo'ymaydi. Nizomiy dostoni falsafiy-ta'limiy doston bo'lib, 39 bob, shundan 18 bob muqaddima, 20 maqolat, 20 hikoyat va xotimadan iboratdir.

Xorazmiy dostoni ham shu mazmundagi doston bo'lib, 639 baytdan iborat. Nizomiy asari kompozitsiyasida avval maqolot (nazariy fikrlar) so'ngra shu maqolotlardagi fikrlarni mustahkamlovchi hikoyatlar keltiriladi. Bu borada Xorazmiy boshqacharoq yo'l tutadi, yani u avval hikoya, undan so'ng esa kelib chiqadigan fikrlarni umumlashtiruvchi xulosa (maqolat) keltiradi.

"Sulaymonshoh" hikoyatida o'tmish va bugun, bugun va erta, insoniy hushyorlik, "Savdogar va bo'z to'quvchi ayol" hikoyatida pastkashlik va dunyoparastlikni qoralashdan iborat fikrlar aytiladi. Shuningdek, g'aflat va sabrsizlik ("Yoqub va Yusuf" hikoyasidan) rostlik, halollik, sahovat (Xotamtoy hikoyati), inson hayotini e'zozlash (Sulaymon bilan Osaf hikoyati) kabi umuminsoniy fikrlar talqin etiladi.

Shoir asarida badiyatga ham alohida e'tibor bilan qarab-tanosub, tashbeh, majoz, e'tiroz, istiora, ig'roq, g'uluvv kabilardan o'z falsafiy-ta'limiy qarashlari bayonida mohirona foydalanadi:

Ulkim, anga mo'jizalik so'z kerak,  
Yo ko'rub anglagudek ko'z kerak,  
So'z bila ham bo'lsa ne bo'lg'oy edi,  
Mendin ochun so'z bila to'lg'oy edi.

Bu doston adabiyotimiz tarixi, xususan, XIV asr adabiyotining eng yetuk va nodir asarlaridan biridir. Yaqin kunlarga qadar bu asarni adabiyotshunosligimizda Mavlono Lutfiyga nisbat berib kelinardi. Professor Ergash Umarov tomonidan aniqlangan XIV asr Ulug'bek zamonida yashab ijod etgan Shayx Ahmad Toroziyning "Funun-ul balog'a" asaridan ma'lum bo'lishicha, "Gul va Navro'z" Haydar Xorazmiy qalamiga mansubligi oydinlashadi. Bobur ham "Muxtasar" asarida bu dostonni Haydar Xorazmiyga tegishliligini qayd etadi.

Bugungi kunda bu dostonning o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. Doston Sharq dostonchiligi uchun xos muqaddima bilan boshlandi. Dostonda shoirmi ushbu asarni yozishga da'vat etgan Sulton Iskandarga bag'ishlangan alohida bob ham bor.

"Gul va Navro'z"da dostonning markaziy qahramonlari Navro'z bilan Gulning sevgi sarguzashtlari orqali O'rta Osiyo va Xurosonning o'sha davr uchun muhim bo'lgan markazlashgan davlat qurish g'oyasini ilgari suradi, urushlar qoralanadi. Dostonda Navro'z bilan Gul yuksak qahramonlar sifatida gavdalantiriladi.

"Gul va Navro'z" dostoni badiiy jihatdan nihoyatda pishiq va puxta yaratilgan dostondir. Dostonda tabiiy borliq majoz usulida insonlar dunyosiga ko'chadi. Natijada dostonda olam va odam birligidan iborat ulug'vorlik paydo etiladi.

Dostonda voqealar ishq deb atalmish tushuncha asosiga quriladi. Shu tushuncha qahramonlarni bir-biriga bog'laydi, voqealar so'ngida yagona fikrga duchor etadi. Shuning uchun ham "Gul va Navro'z" dostoni adabiyotimizdagi eng nodir dostonlardan biri sifatida qadrlanadi.

Ko'rinadiki, Haydar Xorazmiy ikki yetuk dostoni, ularda ifoda topgan ahloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan ma'naviy merosimizga ulkan hissa qo'shgan ijodkordir.

### ***Adabiyotlar:***

1. N.Mallaev "O`zbek adabiyoti tarixi" 1-kitob, T., 1969 y.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. Ak. Nashr 5 jildlik. 1 tom, T., 1977 y.
3. N.Abdullaev. H.Xorazmiy va uning "Mahzanul asror" dostoni. "Fan".T.,1976 y.
4. Lutfiy "Sensan sevarim" G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T.,1977 y.
5. A.Hayitmetov "Adabiy merosimiz ufqlari". O`qituvchi. T., 1997 y.

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Haydar Xorazmiyning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlarning manbalarini ayting.
2. Haydar Xorazmiyning "Mahzan ul asror" dostonining o`ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Dostondagi "Sulaymonshoh" hikoyatining mohiyati nimadan iborat? "Gul va Navro`z" dostonining nechta qo`lyozmasi mavjud?

### ***Lug`at:***

1. Ajuz-ujiza, kampir;
2. Ajam-arab bo`lmagan yurtlar;
3. O`kush -ko`p;
4. Savsan- bu yerda majoziy obraz.

### ***SAKKOKIY. (2 soat ma'ruza)***

#### **REJA**

1. Sakkokiy hayoti va ijodiy merosi.
2. Sakkokiy she'riyatining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari, mazmun-mohiyati.
3. Oshiq, yor, raqib obrazlari qiyofasi.
4. Sakkokiy qasidalarida tarixiy shaxslar qiyofasi, ularga munosabat masalasi.
5. "Ulug`bek madhi" qasidasining ma'rifiy ahamiyati.

Sakkokiy hayoti va faoliyati haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Bu shoir haqida Alisher Navoiyning "Majolisun nafois" asarida va Yaqiniyning "O`q va yoy" munozarasi asarida ayrim ma'lumotlar saqlanadi. Sakkokiy XV asrda Samarqqandda yashab ijod etgan. Sakkokiyning asli ismi noma'lum, Sakkokiy uning taxallusi bo`lib "sakkok" pichoqchi so`zidan olingan. Sakkokiyning nomi Ulug`bek bilan bog`liq bo`lib, u hukmronlik qilgan yillarda uning homiyligi ostida yashaydi, unga atab bir nechta qasidalar yaratadi.

Sakkokiy devonining bir nechta to`liq bo`lmagan qo`lyozma nusxalari yetib kelgan. Devon g`azallar hamda qasidalaridan iboratdir. Sakkokiy devonining ham asosiy janri g`azallardir. Shoir g`azallarida dunyoviy-samimiy sevgini kuylaydi, ulug`laydi. Uning g`azallarida ham uch obraz: oshiq yor va raqib obrazlari talqin qilinadi. Oshiq ishqda samimiydir. Orzuli-umidlidir. Shoir ana shu umidlar, orzular yo`lidagi oshiqning kechinmalarini tasvirlaydi. Oshiq avvalda ishq yo`li dushvorliklarini his etmagan, bu yo`lga tushgach esa uning jabru-jafolaridan aziyat chekkan bir «jon»dir.

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson ko`rub,

Oxiri o`z jonining ishini dushvor ayladi.

Lekin oshiq bu qiyinchilikdan chekinmaydi, balki, Farhod Shirin ishqida "ko`hkan" bo`lsa, u "jonkan" bo`lishni orzu qiladi. Shuning uchun ham u yoridin nuqsonlardan soqit bo`lib vafo taraf bo`lishini istaydi.

Bilursenkim kechar dunyoi foni,  
Qulungga qilmagil javru jafoni.  
Base ko`p va'dalar qilding bording,  
Kel emdi va'daga qilgil vafoni.  
Yor odatdagidek go`zal, biroq purjafodir.  
Turrang ko`ngul shahrinda ko`b oshibu g`avg`o qunqorib,  
Jon mulkini g`orat qilur har lahza zulfing lashkari.

Bosqinchi lashkar mamlakat mulkini talasa, yorning "zulf lashkari" jon mulkini talaydi, bosqinchi lashkarlar mamlakat shahrinda g`avg`o chiqarsa, turra (kokili) ko`ngul shahrinda g`avg`o chiqaradi. Raqib oshiq va yor o`rtasiga rahna soladi, oshiqning nazdida u yorni vafo yo`lidan chalg`itadi. Go`yoki raqib jarangli soz changning ovozi orasiga tushib qolgan karnayga o`xshaydi.

Tangriliq bulg`oy raqibni majlisingdin qoblasang,  
Xay erur xud odamiy sak birla bo`lsa oshno,  
Sen bukundin so`ng hukm qil, o`z maqomin saqlasun,  
Ne qilar changu chig`ona orasida karranoy.

Chang bilan karnayni qo`shib chiroyli kuy chiqarib bo`lmaganidek, vafoli bo`lmoq uchun o`rtaga (itni) raqibni qo`yib yovlashib bo`lmaydi. Sakkokiy o`ziga xos chiroyli usullarni yaratadi.

#### ***O`xsh.***

1. Movaraunnahr ichra qoldi, chunki ikki yonima,  
Ko`zlarimning biri Sayhun, biri Jayhun ayladi.
2. Sabo zulfingni tog`itti magar, xoli xayolimda:  
Yozildi ajdar bo`ldi, uroldi Ahriman bo`ldi.
3. Og`zing ko`zungga pistau bodom o`zini tutsa teng,  
Og`zini sindur pistoning, yor o`rtadin bodomni.
4. Gar hajring o`ti jonu jigarga yoqa keldi,  
Jonimga ne xush sharbati vaslin yoqa keldi,  
Hajr o`ti nega majruh etib buzdi jigarni.  
Vasling bu shifo malhami ne xush yoqa keldi.  
Devona bikin tishlab emas yugra yuruda,  
Jon pora qilur xolda elimga yoqa keldi.

#### ***Qasidalari:***

1. Ulug`bekka-4ta.
  2. Xalil Sultonga-1ta.
  3. Xoja Muhammad Porsoga-1ta.
  4. Asrlon Xoja Tarxonga-4ta qasida bitadi.
- Bular ichida Ulug`bekka atalgan qasidasi alohida o`rin tutadi.

#### ***Adabiyotlar***

1. N.M.Mallaev. "O`zbek adabiyot tarixi". 1 kitob. 1976 yil.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 1 -jild. 1977 yil.
3. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T.: 1960 yil.
4. Navoiyning nigohi tushgan. T.: 1988 yil.

#### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Sakkokiy hayoti va faoliyati haqida nima bilasiz?
2. Navoiy qaysi asarida Sakkokiyni tilga oladi?
3. Sakkokiy merosining janr xususiyatlari ?
4. Sakkokiy nega qasidanavis shoir sifatida tilga olinadi?
5. Sakkokiy va Ulug`bek.

### *Lug`at*

Sakkokiy-shoirning taxallusi bo`lib "pichoqchi", "kosib" ma'nosini anglatadi.  
Ko`hkan-Farhodning laqabi.  
Jonkan-jon fido.  
Turro-kokil.  
G`orat-bosib olmoq  
Salotin-sultonlar.  
Tog`utti-to`zg`itdi.

### *ATOIY.* *(2 soat ma'ruza)*

#### REJA

1. Atoiy hayoti va ijodiy merosi.
2. Atoiy she'riyatining xarakter xususiyatlari, g`oyaviy-falsafiy mazmun mohiyati,
3. Atoiy she'riyatida badiiy mahorat.
4. Shoir she'riyatining ma'rifiy ahamiyati.

Atoiy XV asrning birinchi yarmida yashagan iste'dodli lirik shoirdir. Atoiyning to`la nomi, tug`ilgan va vafot etgan yillari aniqlangan emas. Shoirning hayoti va faoliyati haqidagi ayrim ma'lumotlar o`z devoni va Navoiyning ayrim asarlarida saqlanib qolgan. Navoiy "Majolis un-nafois" asarida quyidagicha ma'lumot beradi: "Mavlono Atoiy Balxda bo`lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandir, darvishvash va xushxulq munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O`z zamonida she'ri atrok (turkiy t. so`zlovchi) ko`b shuhrat tutti. Bu matla' aningdurkim:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o`lturur,  
G`oyati nozuklukidin suv bila yutsa bo`lur.

Qofiyasida aybg`inasi bor. Ammo Mavlono ko`b turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyojig`a muqayyad emas erdi. Qabri Balx navohisidadur". Mazkur baytning qofiyasi ohangi jihatidan mos kelganga o`xshasa-da mumtoz arab-fors qofiya nazariyasi nazaridan talabga javob bermaydi. Ya'ni bo`lur (ra'viy L) va o`lturur (R) so`zlarida qofiyaning asosi - mos kelmaydi.

Atoiy, ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo`ladiki, tilga olingan Ismoil ota A.Yassaviyning Ibrohim ota nomli inisining o`g`lidir. Yassaviydan keyin uning yo`lini davom ettiruvchilardan biri bo`lgan. Ko`rinadiki, Atoiy o`z davrining darvishvash-ya'ni yaxshilik va ezgulikni odat qilgan xushxloq va ayni paytda o`z davri ilmlarini egallagan, muntazam ijod bilan shug`ullangan fozil kishi bo`lgan.

Atoiydan bizgacha, uning she'rlarini, aniqrog`i 260 g`azalini o`zida mujassamlagan yagona qo`lyozma nusxasi yetib kelgan. Atoiy g`azallarining soni bundan ko`p bo`lishi va u lirikaning boshqa janrlarida ham ko`plab she'rlar yozgan bo`lishi mumkin, lekin bizgacha ular yetib kelmagan yoki hali aniqlanmagan.

Atoiy g`azallari qisqa, sodda, ravon, jo`shqin va nafis misralardir. Avvalo, shu narsani doimo yodda saqlash kerakki, har qanday shoirning g`azallari, she'rlari uning qanday odam bo`lganligini, bilimi, dunyoqarashi, fikrlashi qanday bo`lganligini belgilaydi. Jumladan, Atoiy ham mana shu sodda, ravon va jo`shqin misralarida o`zining butun borlig`ini namoyon etadi.

Atoiy asarlarida dunyoviylik ko`rinarli darajada turadi. Mana shu dunyoviylikni ko`plab adabiyotlarda qayd etilganidek, faqat "dunyoviy sevgi" deb qabul qilsak, bu bir tomonlama qarash bo`lib qoladi. Shuning uchun dunyoviy sevgi emas balki, dunyoviylik deb olgan ma'qulroq. Chunki, bu dunyoviylik ikki yunalishni o`zida tutashtiradi.

Birinchi - Olloh bilan bog`liq bo`lgan fikr, qarashlarni ifodalovchi yo`nalish.

Ikkinchi - Yor bilan bog`liq bo`lgan dunyoviy sevgi, sof muhabbatni ifodalovchi yo`nalish.

Birinchi yunalishda Ollah bilan bog`liq fikru qarashlar ifodalanar ekan, buni qanday qilib dunyoviylik deb ataymiz.

Bu dunyoviylik shu ma`nodaki, Ollah tomonidan bandasiga belgilab berilgan qonun-qoidalar, eng avvalo, bu dunyo uchundir. Bandasi bu shar`iy qonun-qoidalarga bu dunyoda amal qilmog`i lozim. Qolaversa, bandasi ibodatini do`zax azoblaridan qo`rqanidan yoki jannatning ajoyibotlariga erishmoq uchun qilmasligi kerak. Bularning barchasini bandasi bu dunyoda yaratgan Ollah uchun qilmog`i uni hech qachon yoddan chiqarmasdan nomini zikr etib turmog`i kerak. Kishi butun borlig`i bilan Ollahning sevimli bandasiga aylanmog`i kerak. Oxiratda joyi do`zax bo`ladimi, jannatmi Ollahning o`zi belgilaydi. Misol:

Zohido, huru qusur kavsaru to`bi sango,

Bizga dilbar vaslidur dunyovu uqbodin murod.

Yor bilan bog`liq real dunyoviy sevgini ham shoir ravon misralarda kuylaydi. Shoir o`z sevgi lirikasida uch asosiy obraz-oshiq, yor va raqib obrazlarini yaratadi (bu mumtoz adabiyotda deyarli barcha shoirlar she`riyatiga xos xususiyatdir). Ayni paytda shoir sof va samimiy dunyoviy sevgini tabiat ko`rki, yaxshi fazilatlar (mehr-muruvvat) bilan birgalikda uyg`unlikda tasavvur qiladi va shunday uyg`unlikda ta`rif va tavsif qiladi. Misol:

Kel, ey dilbar, ki bo`ston vaqti bo`ldi,  
Gul ochildi, guliston vaqti bo`ldi.  
Qilay nola boqib guldek yuzingga,  
Chu bulbullarga afg`on vaqti bo`ldi.  
O`qub gul baxtini majlisda har dam,  
Bo`lub sarxush gulafshon vaqti bo`ldi,

Mug`anniylarga bulbul bikin zor,  
Hazonon navhi ilhon vaqti bo`ldi.  
Budamkim, gul qilur bulbulga altof,  
Atoiyga ham ehson vakti bo`ldi.

Atoiy yaratgan oshiq tavsifda beqiyosdir. Agar uni yoriga nisbatan olganimizda bu oshiq, eng avvalo, samimiydir. Ya`ni u visolning zar yoki zo`rlilik bilan bo`lishini istamaydi. Boshqacha qilib aytganda, zar yohud zo`rlilik bilan erishilgan visolni ishq-muhabbat tufayli deb hisoblamaydi.

Oshiq ermas ul mahvash, kim istar zar birla vasl,

Oshiq uldur, kim visoling naqdin istar zoridin.

Chunki, oshiqning fikricha, samimiy ishqning qarshisida shoh ham gado ham teng.

Gadomen vaslingga, ne chora aylay,

Ki, sultonlar bu ish bechorasidur.

Oshiqning samimiyligining yana bir jihati uning vafosida, sadoqatida aniq ko`rinadi. Barcha mumtoz adabiyot shoirlarining asarlarida bo`lgani singari Oshiq nihoyatda samimiy va sadoqatlidir. Yor esa purjafo va marhamatsizdir. Shuni alohida aytish kerakki, g`azallarda raqib obrazi garchi tilga olinsa-da, u faoliyatda tasvirlanmaydi. Faqat oshiqning kechinmalari orqaligina ko`zga tashlanadi. Oshiq yorga qanchalik tashnalik bilan intilsa, yor undan o`zini olib qochaveradi. Bu xolat oshiqning hayolida yori o`zga bir kishiga iltifot ko`rsatayotganligi sababli undan o`zini olib qochayotgandek bo`lib tuyuladi. Ana shu tuyg`u raqib obrazi bo`lib ko`zga tashlanadi.

Yo ishq balosi menga, yo jabri zamona

Yo yor jafosi menga, yo g`ussai ag`yor.

Zoxid obrazi raqib obrazidan farq qiladi. Oshiqning yorga qarab intilishi yo`lida raqib obrazi tursa, Ollohga nisbatan intilishida zohid obrazi turadi.

"Yor g`amin tark et, Atoiy-dersan, ey noseh, vale,  
Tark etarmu odame hargiz qadimiy hamdamin.  
Say' etar zohid meni jannatning eski bog`ina,  
Men borurmenmu yuzungdek navbahorimdan yiroq.

1.San'atkorlik mahorati:

Atoiy g`azal janrining ustoz san'atkoridir. Uning g`azallarining aksariyati 7 baytli. "Ul sanamkim", "Jamoling vasfina" "Bu xusni mulkki" kabi voqeaband g`azallar ham bor. Atoiyning 260 g`azalidan 109 tasi "ramali musammani maqsur" vaznida yaratilgan. Atoiy o`z g`azallarida radiflarni mahorat bilan qo`llaydi.

Ey orazi shamsu qamarim, netti, ne bo`ldi!

V-ey tishlari durru guharim, netti, ne bo`ldi!

Atoiy o`z g`azallarida she'riy san'atga xos usullardan unumli foydalandi.

1. O`xshatish:

Kirpiging novaklaridin soqlonur ko`nglum, vale,  
Bir otib, yozmas nishonin ikki ayyoring ko`rub.

2. Kinoya:

Yig`lab yuzungizdan olayin zulf niqobin,  
Gul yaxshi ochilmas kechalar yog`masa yomg`ir.

3. X.Ta'lil:

Binafsha qilsa zulfing birla da'vo,  
Egildi bo`yni yeldin, ko`p yodi koj.

4. Mubolag`a:

Qilni ikki yormishu qilmish azalda bir qalam,  
Belingiz tasvirini qilgonda naqqoshing, begim.

5. Taj. orifona:

Yorab ul orazmudur, yo lola arar ustina,  
Yo shaqoyiq bargidir sarvi sanubar ustina.

Shoir she'rlaridagi yor obrazi, boshqacha qilib aytganda, oshiq samimiyat bilan muhabbat izhor qilayotgan butun borlig`ini unga baxshida etayotgan yor obrazi ham borki, oshiqning fikricha, bu yor dunyou uqboda tengsizdir. Bu yorning husnu latofati oshiq uchun shunchalarki, jannat va u yerdagi huru parilarning husn saroyi bu yorning qarshisida hech narsa emas. Shuning uchun ham oshiq uni huru parilardan ustun qo`yadi:

Ko`rarmen bog`i jannat mevasidin,  
Yanoqing norini yuz qatla behroq.

Jannatda juda chiroyli va tik o`sadigan tubo daraxtlar bo`larmish. Lekin bu yor shunchalar yetilgan, qaddi qomati kelishganki, jannatdagi o`sha daraxtdan-da zebo va ko`rklidir.

Tubi yig`ochi eski yig`ochdur tuman illik,  
O`xshotman oni, kim senga, na'bar yetilibsen.

Demak, bu yorning shaklu shamoli, husnu-jamoli hurrlaridan, qaddi-qomati jannatiy tubo daraxtlardanda zeboroq ekan, bu yor jannatga borib qolsa nima bo`lardi?

Uchmohta yuz qatla qiyomat bo`lur erdi,  
Tubida agar bo`lsa, bu qomat bila raftor.



Aslida esa o`sha hurlar jannatga tasodifiy borib qolgan emaslar, balki husnu jamolda, qaddi qomatda aql-idrokda oshiqning yoriga tenglasholmagach, uyalganlaridan jannatga qochib kirganlar.

Husn ichra qusurin bilibon to dami mahshar,  
Yoshundi yuzuning latofatidin jannat aro hur.

Shuning uchun ham Oshiq:

Atoiyga behishti jovidondir,  
Sevar yori bila bir lahza diydor  
Kel ey sanam, ki bo`ldi yana navbahoru iyd,  
Kim xushturur kishiga visolu nigoru iyd.  
Bir lahza olib niqob yuzungdin quyosh bikin  
Jam' ayla anjumanda gulu lolazoru iyd.  
Kel, beniqob chiqqil uyingdin tom ustina,  
Ahli zamona xo`blarini bir uyoldur.

Oshiqning oshiqligi yor husnu-jamoli-gagina ekanda? Aksincha,

Vafosiz dilrabodin tengri bezor,  
Agar husn ichra jannat huri bo`lsa.

Ayrim g`azallarida shoir tuyuqlarga xos so`z o`yinini mahorat bilan qo`llaydi:

Desangkim, "jon sipar qilgil Atoyim",  
Turubman ushmundoq o`ldur ot oyim.

Atoiy she'riyatida arab yozuvi imkoniyatlaridan foydalanib yaratilgan ajoyib lavhalarni uchratamiz:

Jimi zulfing, nun qoshing qasdi jon aylab edi,  
Boqi bulsun, lutf etib kirdi alif qadding aro.

Jon so`zini yasaydi.

Mim og`zi bila zulfi qaddi lom alifdin,  
Ey, voy, netay, xasta ko`ngil qoldi alamga.

-alam so`zini yasaydi.

Gar o`qur xonanda majlisda Atoiy she'rini  
Zuhra chang qo`bsar, qilur shamsu qamar za'qu charoh.

Shoir haqli ravishda faxr-la aytganidek, she'riyati mukammal, shavqqa to`la dilbar she'riyatdir.

### ***Adabiyotlar***

- 1.N.M.Mallaev. O`zb.adab.tarixi. 1 kitob. T.: 1976 y.
- 2.O`zb.adab.tarixi. 5 jildlik. 1-tom. T.: 1977 y.
- 3.Atoiy. Tanlangan asarlar. O`z. dav. nashr.T.: 1958-59 y.
- 4.Navoiyning nigohi tushgan. T.: 1998 y.
- 5.S.Rafiddinov. "Majoz va haqiqat" T.: 1999 y.

### ***Takrorlash uchun savollar***

- 1.Atoiy hayoti haqida nima bilasiz?
- 2 Atoiyning ijodiy merosi nimalardan iborat?
- 3.Atoiy g`azallarining mazmun mohiyati qanday?
- 4.Atoiy g`azallaridagi oshiq va yor qiyofasini izohlang?
- 5.Atoiy g`azallaridan yod ayting?

### ***Lug`at***

- 1.Zohid-taqvodor;
- 2.Uqbo-oxirat;
- 3.Afg`on-fig`on;

4. Mug`anniy-chalguvchi;
5. Gulafshon-gul sochuvchi;
6. Behroq-yaxshiroq, afzalroq

**LUTFIY.**  
(2 soat ma'ruza)

REJA

1. Lutfiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar.
2. Ijodiy merosi.
3. Shoir she'riyatining janr ko`rinishlari hamda g`oyaviy-falsafiy xususiyatlari.
4. Lutfiy she'riyatida badiiy mahorat.
5. Lutfiy merosining ma'rifiy ahamiyati.

Adabiyotimizda turkiy she'riyatning eng zabardast vakili Mavlono Lutfiydir. Hazrat Navoiy Lutfiyni "Malikul kalom" (so`z podshosi) nomi bilan atab, uni Sharq adabiyotining Sa'diy, Xofiz kabi ulkan namoyandalari qatoriga qo`yadi. O`zining "Majolis un-nafois" "Nasoyim ul-muhabbat", "Xoloti Said Hasan Ardasher" kabi bir qator asarlarida qayta-qayta hurmat bilan tilga oladi. Lutfiyni 99 yil umr ko`rganini aytadi. D.Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Xondamirning "Makorim ul-axloq" va boshqa bir qator manbalarda shoirning hayoti, fe'l-atvori haqida ma'lumotlar uchraydi. Ana shu qaydlarga ko`ra shoir 1366 yillarda Hirot yaqinidagi Dehikanor degan joyda tavallud topadi.

Avval maktab, so`ngra madrasa sabog`ini oladi. Shuningdek, Shahobiddin Xiyoboniydan tasavvuf sabog`ini olganligi ham aytiladi va 1465 yillarda olamdan o`tadilar.

Aytib o`tish joizki, yaqinda topilgan Shayx Ahmad Toroziyning "Funun ul-balog`a" asarida Lutfiy fardlaridan misol keltirar ekan, uni "Lutfiy Shoshiy- Toshkentlik deb tilga olganini A.Hayitmetov xabar qiladi.

Manbalarning guvohlik berishicha Lutfiy 20 dan ortiq asar yaratgan. Jumladan "Zafarnoma" deb nomlanuvchi doston, (qo`l yozmada qolib ketgan) hamda "Mashhun ul-haqoyiq" asarlari tilga olinsada, hech biri bizgacha yetib kelmagan.

Lutfiy ijodiy merosi sifatida g`azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, fardlardan iborat "Devon"i saqlanib qolgan. Navoiy "Manoqibi Pahlavon Muhammad" asarida Lutfiyning dunyoqarashi va shunga muvofiq g`oya va obrazlar dunyosi haqida fikr yuritganda uni "zohir ahli shuaro" deb ataydi. Lutfiy she'riyat orqali o`z ona tili va shunga muvofiq san'atkorlik imkoniyatlari va o`z tafakkur olamini keng miqyosda namoyon etgan shoirdir.

Eng avvalo shoir inson va tabiatni muqaddas mavjudot sifatida talqin qiladi. Odamlarning muqim o`rnashib olgan muqaddas maskan "ka'ba" aslida insonning o`zida, va'da etilgan jannat farog`ati shu hayotning o`zida. Qachonki, aql va is'tedod unga rahnamolik qilsa, uni cheklangan doira, qonun-qoidalar girdobidan olib chiqsa, olam sirlaridan voqif etsa.

Burq'ani ko`tar, tengri uchun, el seni ko`rsun,

Bu husnu malohat yana qaysi kun uchundir.

Baytda insonlarga odatda xos bo`lgan, o`zaro munosabatlarda ishlatuvchi botiniy va zohiriy olam qiyofasi ifoda topgan. Demak, inson hali komillikdan yiroqda.

Keldim eshikka, orzum yuzingdur, ko`rguz chiqib,

Kelginki, Lutfiy xojati uchmoq emas, diydor erur.

Anglashiladiki, shoirning istagi diydor, ya'ni komil insonni ko`rish boshqacha aytganda, insonni barcha harakatlari jannat ilinjida emas, komillik ilinjida bo`lmog`i kerak. Inson o`zida jannatga hojatmandlikni emas, diydori komillikka hojatmandlikni his etishi kerak.

Muxtasar qilib aytganda, Lutfiy g`azallari markazida turuvchi lirik qahramon-komil inson, uning orzusi diydori komillikdir. U oldin kishiga xos fikr va hayol egasi sifatida boy ruhiy olam bilan yashaydi.

Jafou ishva fan ilmi ichra,  
Ko`zung shogirdidur davroni aflok.

Lutfiy o`z g`azallarida turlicha qarash, kayfiyat, ruhiy xolatlarni namoyon etishda betakror nafis obrazlar kashf etadi. Hayotiy detallar vositasida orginal tashbeh, iyhom, tazod, tajnis, tashxis, tajohul, laf va nashr, radiflar yaratib poetik obrazlar bilan she'riyat husnini benihoya boyitadi.

Lutfiy she'riyatida ruboiy, qita, tuyuqlar ham alohida o`rin tutadi.

Ey ko`ngul, bu yo`lda ne g`amdur senga,  
Kim, xayoli yor bayramdur senga, ;  
Sevdun o`z hadingdin ortiq yorni,  
Gar seni kuydursalar kamdur senga?  
Garchi qurutmas ko`zumning yoshini,  
Haq uzun qilsun ul oyning yoshini,  
Yig`lama ko`p, bu vujudning ishq o`ti,  
Ne qurug`in kuygusi ne yoshini.

Lutfiyning barcha janrlardagi she'rlari uchun muhim bir xususiyat xalq maqol va iboralarini misralarga mahorat bilan singdirib yuborilishida ham ko`rinadi. Bu kabi betakror xususiyatlar, soddalik va ravonlik har bir davr kishisi uchun tushunarli ekanligi shoir she'riyatining xalqchiligini ta'minlab kelmoqda.

#### *Adabiyotlar*

1. N.M.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.: 1976 y.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 jildlik. 1tom. T.: 1977 y.
3. Lutfiy. Sensan sevarim. T.: 1987 y.
4. S.Erkinov. Lutfiy hayoti va ijodi. Fan. T.: 1965 y.
5. Rasulov X. Lutfiyning voqeaband va yakpora g`azallari xususida. "O`zbek tili va adabiyoti" 1981 y. 1-son.

#### *Takrorlash uchun savollar*

1. Lutfiy xaqida nima bilasiz?
  2. Lutfiy merosida yetakchi janrlar qaysilar?
  3. Lutfiy g`azallarining mazmun mohiyati haqida nima bilasiz?
  4. Lutfiyning san'atkorlik mahorati?
- Lutfiy g`azallaridan yod ayting?

### **NAVOIY HAYOTI VA IJODI**

(2 soat ma'ruza)

#### **REJA**

1. Alisher Navoiy hayot yo`li.
2. Navoiy ijodiy merosi.
3. Navoiy merosining o`rganilishi.

Mir Nizomiddin Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirotida temuriylar xonadoni amirlaridan bo`lgan G`iyosiddin kichkina oilasida tavallud topdi. Onasi Qobul amirlaridan shayx Abdusaid Changning qizi bo`lgan. Amir Temurning o`g`li Umarshayx bilan Alisherning bobosi

ko`kaldosh bo`lganlar. Alisher 4 yoshida maktabga bora boshladi. Bo`lajak podsho Husayn Boyqaro bilan birga o`qidi va u bilan umrbod do`stlashdi. Hirotidagi toj-taxt uchun kurashlar avj olganligi sababli Alisherlar oilasi 1447 yilda Iroqqa ko`chib ketadi. Yo`lda u tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Ikki-uch yildan so`ng oila yana Hirotga qaytib keladi. G`iyosiddin kichkina saroyda xizmat qila boshlaydi. 1456 yili Alisher Mashhadga o`qishga ketadi. Navoiy Mashhadga Sayyid Hasan Ardasher va Kamol Turbatiy kabi shoirlar bilan tanishadi. Abul Qosim vafot etgach, Abu Said Mirzo taxtga o`tiradi, Alisherni saroyga ishga oladi.

Navoiy 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Bu tanishuv buyuk do`stlikka aylanadi va umrbod davom etadi.

Navoiy 1466 yilda Samarqandga o`qishga ketadi. Shoir Bobur ta'biri bilan aytganda, Abusaid Mirzo Navoiyni Hirotidan "ixroj" (surgun) qiladi. Bu yerda u Fazlulloh Abullays, Aloyi Shoshiylardan ta'lim oldi.

1469 yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtini egalladi. Navoiy Hirotga qaytdi va bu muvaffaqiyatni qutlab do`stiga bag`ishlangan "Hiloliya" qasidasini yozdi. Navoiy saroyda avval muhrdor, so`ng amir vazifasiga tayinlandi. Navoiyga "Amiri kabir" unvoni beriladi.

Bir necha muddat Astrobodda hokim bo`lib turadi, so`ng Hirotga qaytadi. Alisher Navoiy 1501 yil 3 yanvarda vafot etadi. Butun mamlakatda motam e`lon qilinadi. Ko`plab shoirlar Navoiy vafoti munosabati bilan marsiyalar, ta'rixlar yaratdilar.

Alisher Navoiy "g`azal mulkinging sutoni", mumtoz adabiyot taraqqiyotini yuqori pog`onaga ko`targan epik shoir, tarixchi, adabiyotshunos va tilshunos olim bo`libgina qolmay dinshunos, davlat arbobi sifatida ham faoliyat ko`rsatgan.

#### ***Lirik asarlari:***

1. "Hazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") – 1491-1498 y.  
"G`aroyibus-sig`ar" ("Bolalik g`aroyibotlari")  
"Navodirush-shabob" ("Yigitlik nodirliklari")  
"Badoe' ul-vasat" ("O`rta yosh go`zalliklari")  
"Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari")  
16 she'riy janrdagi asarlarni qamrab olgan.  
"Devoni Foni" (1491-1498) fors-tojik tilidagi lirik kulliyot. 12 mingdan ortiq she'riy satrlarni o`z ichiga olgan.

#### ***Epik asarlari:***

- "Xamsa" -1483-1485 yillar.  
"Hayrat ul abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi")-1483 y.  
"Farhod va Shirin" -1484 y.  
"Layli va Majnun" - 1484 y.  
"Sab'ai sayyyor" - ("Etti sayyora) –1485 y.  
"Saddi Iskandariy" -("Iskandar devori")- 1485 y.  
"Lison ut-tayr" ("Qush tili") 1499 y.  
"Mahbul ul-qulub" ("Ko`ngillarning sevgani")- 1500 y.

#### ***Adabiyotshunoslikka oid asarlari:***

- "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar") – 1491 y.  
"Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o`lchovi") – 1492 y.dan so`ng.  
"Risolai muammo" ("Mufradot")- 1491 y.  
("Munshaot")- ("Maktublar")- tax. 1498-1499 yillar  
"Nasoyim ul-muhabbat" -("Muhabbat shabadalari")- 1496 y.

#### ***Tilshunoslikka oid asari:***

1. "Muhokamat ul-lug`atayn" ("Ikki til muhokamasi") –1498-1499 yillar.

#### ***Tarixiy asarlari:***

- "Tarixi muluki Ajam" ("Eron shohlarining tarixi")-1488 y.  
"Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg`ambarlar va hukmdorlar tarixi") - 1485-1495 y.

#### ***Memuar-biografik asarlar:***

1. “Xamsatul-mutahayyirin” - (“Besh hayrat”)-1494 y.
2. “Xoloti Sayyid Hasan Ardasher” - 1490-1492 y.
- “Holoti Pahlavon Muhammad” - 1496 y.

***Dinshunoslikka oid asarlar:***

1. “Vaqfiya” - 1481 y.
2. “Sirojul muslimin” - (“Musulmonlarning quyoshi”)- 1488 y.
3. “Nazmul javohir” - (“She'riy javohirlar”)- 1485 y.

Alisher Navoiyning o`z e'tirofiga ko`ra, u yana uch asarni yozmoqchi bo`lgan, lekin yozishga ulgurmagan. Bu asarlar:

1. Shoirning o`z muhabbati haqidagi asar. “Lison ut-tayr” asarida ma'lumot beradi.
2. “Yusuf va Zulayho” dostoni. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida aytib o`tadi.
3. Sulton Husayn Boyqaroga bag`ishlangan asar. “Tarixi muluki Ajam” asarida bayon qiladi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o`rgangan g`arb sharqshunoslari Katrmer, I.Beryozin, M.Nikitskiy, M.Belin, E.Braun, E.Bloshe, Ch.Riyo, A.Vamberi, Pave de Kurteyl, N.Ilminskiy, V.Bartoldlarning maqola va tadqiqotlari yuzaga kelgan. O`zbek tadqiqotchilaridan H.Zarif, H.Olimjon, M.Shayxzoda, O.Usmonov, V.Abdullaev, H.Sulaymon, S.G`anieva, A.Hayitmetov, A.Abdug`afurov, E.Rustamov, B.Valixo`jaev, H.Yoqubov, Yo.Ishoqov, A.Qayumov, R.Majidiy, H.Rasulov va boshqalarning ishlari ommalashtirildi.

Alisher Navoiy she'riyatining mavzu ko`lami keng, janrlari rang-barang. Shoir lirikasining yetakchi mavzusi ishq, markaziy o`rinda inson va uning qalbi, ma'naviy olami masalasi turadi. Navoiy she'rlarida haqiqiy va majoziy ishq bir-biriga zid tasvirlanmaydi. Balki Haq taolo yaratgan insonni sevish Haqni sevish bilan barobardir.

Majozdin chu haqiqatga yo`l topar oshiq,  
Qilur majozni nafy ulki behaqiqat erur.

Inson hayotining mazmuni to`g`risida, o`tkinchi umr davomida kim elu yurtga yaxshilik qilsa, uning nomi abadiy qoladi, degan fikrni aytadi:

Bu gulshan ichraki yo`qtur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.

Navoiyning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarida ham Komil inson g`oyasi turadi. Farhod, Majnun timsollarida ishqqa sadoqat namoyon bo`lsa, Iskandar, Bahrom timsollarida adolatli shoh orzusi singdirilganini kuzatamiz.

Alisher Navoiy tilshunos sifatida “Muhokamat ul-lug`atayn” asarini yaratib, M.Qoshg`ariy boshlagan qiyosiy tipologiya sohasini taraqqiy ettirdi. Ilmiy til arab tili, adabiy til fors-tojik tili hukmron bo`lgan vaqtda Navoiy fors-tojik va turkiy tilni qiyoslab, turkiy til imkoniyatlarining kengligini isbotlab berdi.

Adabiyotshunoslik sohasida yaratilgan asarlaridan “Majolis un-nafois” tazkirasida Navoiy 459 shoir haqida ma'lumot beradi.

“Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlari orqali tarixiy voqealarning xronikasini ancha sistemaga soldi, tarixchilarning asarlaridagi noaniqliklar, chigallik va qarama-qarshiliklarni aniqlab ularni bartaraf qilishga intildi.

Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida Husayn Boyqaroga davlatni mustahkamlashda yordam berdi. Obodonchilik va turli madaniy ishlarga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, ariq va hovuzlar qazildi, bog`lar barpo qilindi, masjid va maqbaralar qurildi. Xalqni turli soliqlardan yengillashtirishga harakat qildi. Ilm-fan ahllariga homiylik qildi, yetim-esirlar, musofirlarga in'om-ehson ko`rsatdi.

Navoiy davlatni boshqarishda adolatli bo`lish g`oyasini ilgari surar ekan, uning o`zi bu borada barchaga o`rnak edi. Davlat boshlig`i adolatli, ilmi, el-yurtga g`amxo`r bo`lishi kerak:

Bo`ldi raiyat galavu sen shubon  
Ul shajari musmiru sen bog`bon.  
Qo`yni sho`bon asramasa oyu yil,

Och bo`ri to`masidur bori bil.  
Bo`rini dog`i galadin dur qil,  
Suv beribon bog`ni ma'mur qil.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ijodi va faoliyati xalq, vatanga xizmat qilish, insoniyat va ma'rifatga umrni fido etish g`oyasini targ`ib etadi. Navoiy merosi Komil inson shaxsini shakllantirishda hamma davr uchun barhayot manbadir.

***Adabiyotlar:***

1. A.Abdug`afurov Buyuk beshlik saboqlari.-T., AS, 1995 y.
2. A.Abdug`afurov. Qalb qa'ridagi qadriyatlar.- T., O`qituvchi, 1998 y.
3. A.Hayitmetov. Adabiy merosimiz ufqlari.-T., O`qituvchi, 1997 y.
4. I.Haqqulov. Zanjirband sher qoshida.-T., Yulduzcha, 1989 y.
5. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik.– T., Fan, 1987-2002 y.y.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. Alisher Navoiyning hayot yo`lini gapirib bering.
2. Alisher Navoiy lirikasidagi obrazlar (yor, oshiq, raqib)ga tavsif bering.
3. Alisher Navoiyning epik asarlari haqida ma'lumot bering.
4. Navoiyning ilmiy asarlari haqida axborot bering.

**NAVOIY LIRIKASI. NAVOIYNING BADIY MAHORATI**

(2 soat ma'ruza)

**REJA**

5. Navoiy lirikasining manbalari.
6. Navoiy lirikasining janr xususiyatlari.
7. Navoiyning badiiyat haqidagi qarashlari.
8. Navoiy badiiy mahoratining keyingi davr adabiyotiga ta'siri.

Navoiy 7-8 yoshidan boshlab she'r yozgan bo`lsa, umri oxirigacha qalamni qo`ldan qo`ymadi. Ulkan lirik meros qoldirgan. Navoiyshunoslik shoirning ilk she'rini aniqlagan emas. Shoirning o`z etiroficha bolalik chog`lari Sayid Xasan Ardisher uyida:

Furqatingda zafaron uzra to`karmen lolalar  
Lolalar ermaski bag`rimdin erur pargolalar.

matlali g`azalini o`qigan. Lutfiyga o`qilgan mashhur g`azali ham dastlabki ijod namunalari dandir.

Navoiy 16-17 yoshida Xirotning mashhur shoiri sifatida nom qozondi. Ammo devon tuzishga shoshilmadi. Uning ilk devonini Sulton Ali Mashhadiy boshliq muxlislar tuzdilar. (1465)

Shoir o`zi tuzgan birinchi devon – «Badoe ul-bidoya» («Go`zallik ibtidosi») 1470-1476 yillarda tuzildi. Navoiyning ikkinchi devoni – «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklari») 1476-1483 yillarda tuzildi.

Navoiyning turkiy tildagi ash'orlari 1481-1488 yillarda tuzilgan. «Xazoyin-ul maoniy» («Ma'nolar xazinasi»)ga jamlangan. Bu devon Jomiy maslahatiga ko`ra inson umri fasllariga moslab to`rt kitobdan iborat qilib yaratilgan.

1. «G`aroyib us-sig`ar» («Bolalik qiziqliklari»)

2. «Navodir ush-shabbob» («Yigitlik nodirliklari»)
3. «Badoe ul-vasat» («O`rta yoshlik go`zaliklari»)
4. «Favaoyid ul-kibar» («Keksalik foydaliklari»)

Shoir she'rlarini devonlarga bo`lishda mavzu asosida ish ko`rgan. Navoiyning tojik tilidagi she'rlari «Devoni Foni» devoniga jamlangan. Shoir turkiy tilda 45 ming, fors-tojik tilida 12 ming misra ash'or meros bo`lib qolgan. Navoiy devonlariga kirmagan she'rlar bu sanoqqa qo`shilsa, undan 60 ming misradan ziyod lirik asarlar qolgan.

Devonda lirik turning 16 janr namunalari uchraydi. G`azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkiband, maasnaviy, qasida, soqiynoma, qit'a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard.

Navoiy lirikani janri jihatdan boyitish bilan birga mavzu, g`oya, timsollar tizimi badiiyat borasida ham yuksakka ko`tardi.

Shoir lirik merosining mavzulari Qur'on va hadislar bilan zich bog`liqdir. Shu bilan birga dunyoviy masalalar: sevgi, adolat, ezgulik, yaxshilik, yomonlikdan, qabohatdan qochish, el dardi bilan yashash singari mavzulardan iboratdir.

Istiqlol davrigacha Navoiy lirikasining ilohiyot bilan bog`liq nuqtalari haqida so`z bormadi. Shunday satrlar esa boshqacha sharxlanadi.

Navoiy adabiyotshunos sifatida o`z estetik qarashlariga ega ijodkor edi. U badiiyat haqida ma'lum nazariy fikrlarni aytgan, o`z lirikasida uning amaliy isbotini bergan edi.

Shoir ijodkorning xalq oldidagi «ta'b nazm» insonlar oldidagi ma'suliyatini chuqur his qilgan edi.

Oyni yorug` charxni demak baland  
Ta'bi ba land elga emas dilpisand.

Navoiy shakl va mazmun munosabatini to`g`ri tushungan edi.

Nazmda ham asl anga ma'ni durur  
Bo`lsun aning sur'ati har ne durur.

Badiiyat mazmuni zavqbxash ifodasiga xizmat etajagini to`g`ri uqtirgan edi. Shoirning so`zga munosabati uning o`rinli ishlatish masalasi uning diqqat markazida bo`lgan edi.

Shoirning badiiy mahorati keyingi davr adabiyoti vakillari ijodi uchun o`rnak, namuna vazifasini bajarib kelmoqda. Ayrim misollarni ko`raylik. Shoir ijodida yor labidagi xol haqida ko`plab misralar uchraydi. Ayniqsa yor labi ustidagi xol vasitasida zavqbxash satrlar yaratgan.

Nuqtai xoling nechun shirin labing ustidadur  
Nuqta chun ostini bo`lur har qayda kim yozilsa lab.

Sifatlash, kitobat san'atlari vositasida go`zal satrlar yuzaga kelgan.

Xuddi shu holat Furqat ijodida ham ko`rinadi. Furqat Navoiy aytgan fikrni dialog shakliga solib unga yumor tuyg`usini omuxta qilgan.

Nuqtai lab ustida bejodur desam aydi kulib,  
Saxf qilmish kotibi qudrat magar tahririda.

Kitobat san'atining bunday zavqbxash jilosini E.Vohidov ijodida ham ko`ramiz.

Nuqtadek bir holi bormish g`uncha labning ustida  
Ul bir oshkor emishu ul biri pinhon emish.

#### *Adabiyotlar*

1. N.Mellaev. O`zbek adabiyoti tarixi. T., 1965 y
2. O`zbek adabiyoti tarixi. V jildlik, II jild, 1972 y
3. Yo. Isqoqov. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. T., 1965 y
4. O.Nosirov. O`zbek adabiyotida g`azal. T., 1972 y
5. A.Xaytmetov. Navoiy lirikasi, T., 1961 y
6. Ma'nolar xazinasiga bir nazar. Andijon, 1992 y

***Takrorlash uchun savollar:***

1. Navoiy lirikasi manbalari haqida ma'lumot bering.
2. Shoir lirikasining janr xususiyatlari haqida gapiring.
3. Shoir lirikasi timsollar tizimi xususida to'xtal.
4. Shoir lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari qanday?
5. Navoiyning badiiyat haqidagi qarashlarini gapiring.

**XAMSA**

(2 soat ma'ruza)

**REJA**

1. Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'anasi.
2. Navoiy «Xamsa» si
3. Dostonda odob-ahloq masalalari.

Jahon epik ijodiyotida Gomer, Firdavsiy kabi shoirlar yaratgan asarlar mashhurdir. Ular qatorida «Xamsa» dostonlari ham o'z o'rniga egadir. «Xamsa» so'zi arabcha so'z bo'lib «Beshlik» degan ma'noni beradi.

Nizomiy Ganjaviy 30 yil davomida besh doston yaratdi.

1. «Maxzan-ul asror» («Sirlar xazinasi»).
2. «Xisrav va Shirin».
3. «Layli vaMajnun».
4. «Xaft paykar» («Etti go'zal»).
5. «Iskandarnoma».

Bu dostonlarni ko'chirgan kotib uni bir muqovaga joylab «Xamsa» deb atagan. Shundan boshlab shoirlar bu asarlarga o'xshagan dostonlar yozishga kirishganlar. Sharq adabiyotida «Xamsa» chilik an'analari maydonga keladi.

Ko'pchilik shoirlar bu an'anaga dosh bera olmadilar. Bunday shoirlar sarasiga Mavlono Kotibiy, Ashraf, Ali Oxiy, Suhayliy, Abdullo Xotifiy kabi shoirlarni kiritish mumkin.

Ilmiy adabiyotda xamsanavislar deyilganda Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, A.Jomiy, Navoiy nomlari sanaladi.

Xisrav Dehlaviy «Matla' ul-anvor» («Nurlar boshlanmasi»), «Shirin va Xisrav», «Majnun va Layli», «Xasht bexisht» («Sakkiz jannat»), «Oyinai Iskandar» («Iskandarning oynasi») nomli dostonlar yozdi.

Bizningcha, xamsanavislar qatoriga A.Jomiy qo'shish mumkin emas. Sababi shundaki, Jomiyda dostonlarida an'ana buzilgan. U «Tuxfat ul-axror» («Xur kishilar tuhfasini»). «Sabhat ul-abror» («Kishilar tasbehi»), «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Xiradnomai Iskandar» («Iskandarning donishmandlik kitobi») nomli dostonlar yozib, unga «Silsilat ul-zahhob» («Oltin zanjir», «Salomon va Absol») dostonlarini qo'shib, yetti dostonini jamlab, «Xaft avrang» («Etti qaroqchi yulduz») degan nom bergan.

Navoiy «Xamsa»si 1483-1485 yillarda yozildi. U yigitlik chog'lari aytgan faxriyasini amalda isbot etdi. «Xamsa»ning aynan shu yillari yozilishi sababi shundaki, bu yillarda shoir saroy ishlaridan bezib uyda o'tirgan edi. Ikkinchidan esa 1483 yilda Jomiy «Xamsa» yoza boshlagan edi.

Dostonning ikki yilda yozilishi esa quyidagicha kechgan. Shoir umri davomida «Xamsa» yozishi tayyorgarlik ko'rdi. Bu ikki yil shoir xayolida tayyor bo'lgan satrlarini qog'ozga tushirish uchun kerak bo'ldi.

Navoiy «Xamsa» yozishga ketgan vaqtini ikki yil emas olti deb beradi.

Yig'ishtirsa bo'lmas bori olti oy  
Ki bo'lding bu ra'noga suranamoy.



Navoiy «Xamsa» yozishga kirishar ekan salaflardan madad soʻraydi, ularga ehtirom bilan munosabatda boʻladi. Ularni alohida boblarda madx etadi:

Yoʻllasa bu yoʻlda Nizomiy yoʻlum,  
Qoʻllasa Xisrav ila Jomiy qoʻlum.

Shu bilan birga Navoiy salaflari oʻrni bilan tanqidiy munosabatda boʻladi. Xususan, Xisrav va Bahrom xarakterlari talqiniga jiddiy eʼtiroz bildiradi.

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh  
Sarosar boʻldilar Xisravga maddoh.

Yoki Nizomiyga munosabat bildirib:

Oллоh, olloh, ne ganji oʻlgan bu?  
Sar-basar elga ranj oʻlgay bu?

Navoiyning «Xamsa» haqidagi faxriyasini eshitgan Xusayn Boyqaro shunday degan ekan: «..shoirona laf va moyai xottom gazof. (qalamning behuda valdirashi)» Navoiy «Xamasa»sini oʻqib chiqqach uni oʻziga pir sanadi va shunday baho beradi:

Erur soʻz mulkining kishvaristoni,  
Kayu kishvariston Xusravnishoni.  
Dema Xusrav nishonikim qahramone,  
Erur gar chin demang sohibqirone.

Navoiyning «Xamsa»si salaflar dostonlari bilan mushtarak xususiyatlarga ega boʻlish bilan birga oʻziga xos xususiyatlarga ham egadir. Avvalo, u turkiy tilda bitildi. Har bir doston oʻziga xos xususiyatlar bilan diqqatga loyiqdir.

Doston oʻqilishini osonlashtirish uchun (uning jami 5 ming 230 misradan iborat) nasriy variantlar yaratila boshladi. Inqilobgacha Umar Boqiy «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarining nasriy variantlarini yaratdi. S.Ayniy, Gʻ.Gʻulom, A.Haytimetov, I.Maxsum kabi ijodkorlar tomonidan bugun barcha dostonlar nasriy variantga ega boʻldi.

#### ***Adabiyotlar.***

1. T.Jalolov «Xamsa» talqinlari, T., 1968 y
2. N.Mallaev. Oʻzbek adabiyoti tarixi. T., 1965 y
3. Oʻzbek adabiyoti tarixi. V jildlik, II jild, 1972 y

#### ***Takrorlash uchun savollar:***

1. «Xamsa»chilik an'anasi haqida nimalar bilasiz?
2. Navoiy «Xamsa»si xususida ma'lumot bering .
3. Dostonda odob-ahloq masalalariga misollar keltiring.

### **BOBUR HAYOTI VA IJODI. «BOBURNOMA»**

(2 soat ma'ruza)

#### **REJA**

1. Bobur hayoti va ijodining oʻrganilish tarixa
2. Boburning hayot yoʻli
3. Boburning ijod yoʻli
4. Bobur lirikasining manbalari

5. Asarning yaratilishi va o`rganilish tarixi.
6. Asarda shaxslar, joylar tasviri.
7. «Boburnoma» an'analari.

«Bori elga yaxshilik qilg`ili mundin yaxshi yo`q  
Kim deganlar daxr aro qoldi folondin yaxshiliq»

**Bobur**

Xalqimiz tarixida salohiyatli shoh bo`lishi bilan birga ilmiy badiiy ijod bilan shug`ullangan, o`z davri madaniy hayotida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar ko`p ekaniga guvoh bo`lamiz.

Ammo sho`rolar davri ularning shoh ekaniga urg`u berib ular ijodini o`rganishga imkon bermay keldi. Istiqlol bunday ijodkorlar ijodini o`rganishga yo`l ochdi. Ulug`bek, Bobur, Xusayniy, Shayboniy, Feruz, Amiriy kabi ijodkorlar merosini o`rganishga vaqt yetdi. Bular ichida ijodining salmoqli va barkamolligi jihatidan Bobur ijodi alohida o`rin tutadi.

Bobur xassos shoir, haqgo`y tarixchi, teran adabiyotshunos, iqtidorli tilshunos, nozik ta`b musiqachi, mohir lashkarboshi sifatida tarixda qoldi. Bobur hayoti va ijodini o`rganishda undan meros bo`lib qolgan lirik devonlar, «Boburnoma», «Muxtasar», «Xatti Boburiy», «Mubbayyin», «Volidiya» kabi bizga yetib kelgan asarlar manba bo`lib xizmat qiladi. Uning bizga yetib kelmagan «Harb ishi», «Musiqqa ilmi», qofiya ilmiga bag`ishlangan risolalari haqida ma`lumotlar bor.

Boburning hayoti va ijodi Denisson, Ross, M.F.Kuprilizoda, A.N.Samaylovich, Fitrat, Bertels, Ya.G`ulom, A.Qayumov, S.Azimjonova, N.Mallaev, B.Valixo`jaev, I.V.Stebleva, H.Hasanov, S.Jamolov, S.Xasanov, H.Nazarova, H.Razzaqov. O.Valixonov, R.Shamsutdinov, S.Jalilov kabi olimlar tomonidan o`rganilgan.

Istiqlolgacha bo`lgan tadqiqotlar sho`ro siyosatiga mos tadqiqotlar edi. Istiqlol Bobur hayoti va ijodini haqqoniy o`rganishga yo`l ochdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yili 14 dekabrda Andijonda tug`ilgan. Boburshunoslikda uning tug`ilgan joyi haqida munozaralar mavjud. V.Zohidov «Boburnoma» asariga yozgan so`z boshisida Bobur Axsida tug`ilgan degan fikrni aytgan. Shundan buyon B.Valiho`jaev kabi olimlar Bobur tug`ilgan joyi Axi deb ko`rsatganlar. N.Mallaev, S.Jalilov kabi olimlar Andijon deb aytdilar.

Bizningcha, Bobur tug`ilgan joyi Andijon deb qarash ma`quldir. Bobur «Boburnoma» da Andijonni 58 marta tilga olsa, Axsini esa 29 marta tilga olgan. Umarshayx Mirzo davrida Farg`ona viloyatining poytaxti Axi va Andijon bo`lgan. Axi viloyat chegarasi daryo bo`yidagi shahar bo`lsa, Andijon viloyati ichida, Axsiga nisbatan issiq joydir. Boburning qish faslida tug`ilganini hisobga olsak Umarshayx oy-kuni yaqin Qutlug` Nigorxonimni Andijonda saqlashi mantiqan to`g`ridir.

Eng muhim shahodat Boburning o`z iqrorigidir. U g`azallarining birida o`zini Andijonlik deb aytadi:

Ne yerda bo`lsang, ey gul, andadir chun joni Boburning  
G`aribingga taraxxum aylagilkim, anda joniydir.

Bundan tashqari, Boburning Andijonni poytaxt qilishi, umrbod kindik qoni to`kilgan joy sog`inchi, ilinji bilan yashagani uning tug`ilgan joyi Andijon ekanini isbotlaydi.

Bobur shajarasi quydagicha: Temur, Mironshoh, Sulton Muhammad, Abu Said, Umarshayx, Bobur.

Zaxiriddin Muhammad shoirning ismi bo`lib, Bobur uning taxallusidir. Shoir taxallusi o`z she`rlarida, rus, tojik, turk adabiyotshunoslari tomonidan «Bobur» shaklida aytilib, yozilib kelishsa-da, o`zbek adabiyotshunosligida «Bobir» shaklida aytilar yozilar edi.

1983 yili adabiyotshunos A.Abug`ofurov «O`zbekiston madaniyati» gazetasida maqola e`lon qilib, shoir taxallusini «Bobur» shaklida aytish, yozish to`g`ri ekanini ko`rsatib berdi.

Qofiya bo`layotgan so`zlarga e`tibor berilsa «purdur». «tasavvur» so`zlari ikkinchi bo`g`inida «u» tovushi kelar ekan, qofiya ilmiga ko`ra birinchi misradagi qofiyada ham ikkinchi bo`g`inda «u» tovushini kelishi aniqdir. Demak, shoir taxallusi «Bobur» ekanini shoirning o`zi ham tasdiqlamoqda.

1494 yili Umarshayx kabutarxonasi bilan jarga qulab o`ladi 12 yanvarda Bobur taxtga o`tiradi. Shu davrda Umarshayxning akasi Samarqand xokimi Sulton Ahmad kuyovi Toshkent xokimi Maxmudxon bilan birga Andijonga hujum boshlaydi. Bobur bek otasi Bobo Aliquli, onasi Qutlug` Nigorxonim, amrlar yordamida xujumni bartaraf etadi.

Bobur 15 yoshida Samarqandni egallaydi. Ammo Samarqandda uzoq turolmadi. Andijonni qo`ldan ketgani haqida xabarlar keladi. Samarqand shahri ham ayancli axvolda edi Bobur Andijonga qaytadi.

Shayboniy Samarqandni hiyla yo`li bilan egallaydi. Zuhrabegim voqeasi unga qo`l keladi. Samarqand ayonlari Boburga maktub yo`llab uni Samarqandga chorlaydilar. Bobur ozgina askar bilan to`satdan Samarqandga hujum qilib uni egallaydi.

Shayboniy Samarqandni 4 oy qamal qiladi. Og`ir ahvolda qolgan Bobur Shayboniy bilan sulh tuzib, Samarqandni tark etadi. Toshkent hokimi ko`magida Samarqandni qayta zabt etmoqchi bo`ladi. Ammo boshqa Temuriylar Boburni qo`llab-quvvatlamaydilar.

Andijonga ham kira olmagan Bobur Afg`onistonga yo`l oladi. U Qobulni egallab, hokimiyatni mustahkamlagach, Eron shohi Ismoil Safaviydan yordam olib, 3-marta Samarqandni egalaydi. Ammo Eroniyalar qilgan qirg`in-barotlar xalq nafratiga uchraydi. Xalq Boburni qo`llab-quvvatlamaydi. Oqibat Shayboniyalar Boburni yengadilar.

Bobur Andijon, Samarqanddan umid uzgach, Hindiston tomon yurish qiladi. Ibrohim Lo`di, Rano Sango qo`shinlarini yengib, Bobur Hindistonni zabt etadi. Afg`onu Hindni bag`riga olgan imperiya tashkil etadi. Yevropalik olimlar Bobur imperiyasini «Buyuk mo`g`ul imperiyasi» nomi bilan ataydilar. O`zbek olimlari esa bu atama noto`g`ri ekanini uqtirib, Boburning mo`g`ul emasligini ta`kidlaydilar.

Evropa olimlari «Boburnoma»da Bobur o`z shajarasini Chingiz avlodiga bog`lab ham ko`rsatgan o`rnini asos qilib oladilar. Temur Chingizxon avlodidan uylangani sabab Temuriylar xoniga Chingiz avlodi qoni quyilgan. Bobur o`z shajarasini Chingizxondan boshlab o`zini 16-avlod ekanini uqtirgan.

Bobur shajarasini birinchi keltirgan shajarani asos qilib, uning imperiyasini «Buyuk Bobur imperiyasi» deb atash ma`quldir. Bobur Qobulda, Hindistonda katta bunyodkorlik ishlarini olib bordi. Yurtni obod qildi. 1530 yili 26 dekabrda Agra shahrida vafot etdi.

Boburning rasmiy xotinlari: Oysha begim, Mohim begim, Ma`suda begim, Gulruh begim, Dildor begimlardir. Bobur haqidagi ilmiy-badiiy asarlarda Bobur harami haqida ma`lumotlar oz uchraydi. Hatto P.Qodirovning «Bobur» romanida Bobur haram ushlamagan degan fikr berilgan.

Uning farzandlari manbalarda 4 o`g`il, 3 qiz deb berilgan. N.A.Muhitdinov uzoq yillar davomida Hindistonda elchi vazifasida ishlab, Boburiylar tarixi bilan qiziqqan. U «Guliston» jurnalida e`lon qilgan maqolasida Bobur farzandlari 18 ta bo`lib uning 16 tasi Qobulda tug`ilganini qayd etadi.

«Boburnoma» Bobur ijodiy yo`lini o`rganishdagi muhim manbadir. Boburning ilk she`ri 1499 yilda yozilgan bo`lib, uning ishqiy sarguzashtlari bilan bog`liqdir.

Hech nas chun man xarobu oshiqu rasvo mabod,  
Hech mahbuba chu tu beraxmu beparvo mabod.

Bobur o`z ijodini fors tilida boshlagan bo`lsa-da, u yana turkiy, urdu tillarida ham ijod etdi. Undan lirik devonlar, «Boburnoma», «Xatti Boburiy», «Muxtasar», «Mubayyin», «Volidiya» kabi asarlar meros bo`lib qoldi. Uning «Xarbiy ishi», «Musiqqa ilmi» va qofiya ilmiga bag`ishlangan risolalari yetib kelmagan. Adabiyot va san`at turlarida Bobur siymosi

yaratilmoqda P.Qodirovning «Bobur» romani, «Yulduzli tunlar» ramani, H.Sultonovning «Saodat sohili» qissasi va turkum hikoyalari Z.Muhitdinov, M.Holidovlarning «Zahiriddin Muhammad Bobur» nomli dramalari yaratildi.

Bobur haqida videofilm yaratilib unda Bobur siymosini M.Abduqunduzov yaratgan. Bobur nomida xalqaro jamg'arma tashkil qilindi, ular tashabbusi bilan «Bobur bog'i» yaratilib, u yerga Boburning ramziy qabri, haykali qo'yildi. Andijon markazida Boburning ot ustida o'tirgan haykali, Ark ichida esa yana bir haykali mavjuddir.

Fan olamiga Boburning Hind, Parij, Tehron devonlari ma'lum: Hind devoni 38 varaqdan iborat bo'lib, she'rlar sarlavhalari oltin suvi bilan yozilgan. Fors va Urdu tilida bitilgan ash'orlar jamlangan. Bu devonni Boburning o'zi ko'rgan. Devon oxiriga 1528 yil 2 dekabr dushanba deb quyidagi baytni o'z dastxati bilan yozib qoldirgan.

Har vaqtgi ko'rsang, mening so'zimni  
So'zumni o'qib sog'ingaysan mening o'zimni.

Devon 1910 yili sharqshunos Denisson Ross tomonidan kashf etilgan.

Parij devonida 89 ta g'azal, 77 ruboiy, 50 masnaviy, jami 200 dan ortiq she'rlar jamlangan. Eski o'zbek tilida yozilgan, Boburning Andijon, Samarqandda bo'lgan davridagi ijodi bu devondan joy olgan.

Texron kutubxonasida ham Bobur lirik devoni borligi haqida ma'lumot bo'lsa-da, u devon o'rganilgan emas. Bulardan tashqari «Boburnoma» va boshqa asarlarda ham lirik asarlar uchraydi.

Boburning lirik devonini o'rganib chiqqanimizda unda o'ttizdan ortiq she'riy san'atlar ishlatilganligini guvohi bo'lamiz. Bilamizki, Sharq adabiyotida san'atlar saksondan ortiqdir. Bobur lirik devonlarining mukammal nusxalari hali topilmagani, nashr qilinmaganini hisobga olsak barcha she'riy san'atlar Bobur devonida uchramasligini tushunib yetamiz.

Boburdan qolgan meros ichida «Boburnoma» alohida ahamiyatga molik asardir. Bobur o'z hayot yo'lini 1494 yildan boshlab, 1529 yilgacha bo'lgan davrini yilma-yil izchillik bilan yoritib bergan. Asarda 910-924, 927-931 yillar jami 16 yillik voqealar yo'q. Ular varag'ini yilma-yil bayon etgan Bobur 16 yillik voqealarini yozmasligi mumkin emas edi. Suronli yillar voqealarini to'liq yetib kelishiga imkon bermagandir.

Aftidan, Bobur kundalik daftar tutib, eng muhim voqealarni qayd etib yurgan. Hindistonda ularni qayta ishlab «Boburnoma» shakliga solgan.

Asarning 10 dan ortiq qo'lyozmalari yetib kelgan XVII-XVIII asrlarda ko'chirilgan nusxalar Leningrad Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchestr, London, Edinburg kabi shaharlarda saqlanadi.

Qo'lyozmalarda asar nomi «Boburiya», «Voqeanoma», «Tuzuni Boburiy», «Voqeoti Boburiy», «Boburnoma» kabi nomlangan.

Boburning o'zi asarni «Voqeanoma» deb atagan. «Boburnoma»da shunday ruboiy bor:

Bu olam ajab alamlar ko'rdum,  
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim.  
Har kim bu «Vaqoe» ni o'qir bilgaykim,  
Ne ranju ne mehnatu ne g'am ko'rdim.

«Boburnoma» asari fanning turli sohalariga keng ma'lumot beruvchi asardir. Bu asar, eng avvalo, badiiy asar sifatida, o'zbek nasrining go'zal namunasi sifatida qaralmog'i zarurdir. «Boburnoma» epik turning memuar janriga mansub asardir.

Kompozitsion puxtalik, o'tkir syujet, kuchli xarakterlar, badiiy bo'yoqlarning serjilo ekani kitobxonni o'ziga jalb etadi. Syujet yo'nalishidagi voqea ichiga kiritish, voqeani qiziq joyda to'xtatib, boshqa voqealar tafsilotlarini berish, syujet tariqqiyotini puxta dalillash singari fazilatlar ibratlidir.

«Boburnoma» tarixiy faktlar asosida badiiy syujet yaratishning ibratli namunasidir. Asarda bir dunyo timsollar berilgan bo`lib, muallif ularning ko`plarini xarakter darajasiga olib chiqib mukammal tasvirlagan.

Umarshayx, Xusayn Boyqaro, Navoiy, Shayboniyxon singari xarakterlar kitobxonda katta qiziqish uyg`otadi. Asarning bosh qahramoni Boburning o`zidir. Uning go`zal xakteri asarda to`la qonli o`z ifodasini topgan.

«Boburnoma»da biror voqea haqida so`z borar ekan, avvalo voqea kechadigan joy haqida atroflicha chuqur ma'lumotlar beriladi. Joyning jo`g`rofiy o`rni, o`simliklar va hayvonlar dunyosi, iqlimi, odamlarining yashash tarzi singari masalalar izchil yoritilgan. Asar bilan tanishar ekanmiz, Andijon, Samarqand, Qobul, Agra singari shaharlarning XVI asrdagi holati haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo`lamiz. Masalan, Andijon shahri ta'rifi bilan tanishamiz, O`sh shahri bilan orasi 16 chaqirim ekani, havosininng «ufunati» boriligi, kuzda bezgak ko`p ekani, shaharga 9 tarnov suv kirishi deqonlari poliz boshida qovun sotmasligi, ov qushlari semiz bo`lishi kabi ma'lumotlar olamiz.

Joy haqida ma'lumotlardan so`ng voqea ishtirokchilari haqida ma'lumot beriladi. Bunda o`sha shaxsning nasl-nasabi, fe'l-atvori, shakl-shamoyili, axli ayoli, o`g`il-qizlari, nasaf va urushlari singari ma'lumotlar beriladi.

Bu o`rinda shuni ta'kidlash kerakki, Bobur tarixiy voqealar tasvirida xolis bo`lishga xarakat qiladi. Otasi haqida bor ma'lumotlarni berar ekan, uning kabutarga ishqivozligi, goh-goh chog`ir majlis qilishi, hatto qimor o`ynashini ham to`g`ri yozadi. «Boburnoma»da aksar o`rinlarda Bobur xolis tursa-da, ba'zan xolislikdan chekingan o`rinlar ham yo`q emas. Gap Bobur shaxsiga, uning taxtiga daxldor masalalarda bu hol ko`zga tashlanadi.

Masalan, Abu Sayid tomonidan Navoiyning Samarqandga surgun qilishini yozar ekan, buning sabablarini oshkora aytmaydi: «Bilmam, ne jarima bilandirkim Abu Sayid Mirzo Alisherni Xiridin Samarqandga ijroji qiladi».

Yoki Samarqandni Shayboniyga topshirib chiqishni yozganda, onasi Xonzodabegimni Shayboniyga xotinlikka berib chiqqanini yozmaydi.

«Boburnoma» Mirxondning «Ravzat us-safo», Xondamirning «Xabib us-siyar», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarlariga qiyos qilinsa, tarixiy faktlarning mo`lligi, xolislik, voqealarni yilma-yil izchillik bilan berilishi, tilining soddaligi, muqaddimaning yo`qligi kabi fazilatlar bilan ajralib turadi.

«Boburnoma» asari o`z davri haqida ma'lumot beruvchi asar bo`lishi bilan birga, keyingi davr adabiyoti taraqqiyotiga ham katta hissa qo`shib kelmoqda. Shu asar ta'sirida Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», A.Bahodirxonning «Shajarayi turk», «Shajarai tarokima» asarlari yaratildi. P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romani, dramasi, Z.Muhitdinov, M.Hamidovlarning «Zahiriddin Muhammad Bobur» dramalari yaratilishida ham «Boburnoma»ning o`rni kattadir.

### *Adabiyotlar*

1. Bobur «Boburnoma», -T., 1960 y
2. N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. -T., 1965 y
3. O`zbek adabiyoti tarixi. V jildlik, II jild, 1972 y
4. H.Hasanov. Zahiriddin Muhammad Bobur. -T., 1966 y
5. S.Jalilov. Bobur va Andijon. T., 1995 y
6. B.Jalilov. Boburning ijod qirralari. Andijon, 1992 y
7. R.Shamsutdinov. Boburiylar sulolasi, Andijon, 1993 y
8. Bobur. Tanlangan asarlar. -T.,
9. B.Jalilov. «Boburnoma» –Bobur lirikasini o`rganishdagi muxim manba. «Sharq xalqlari madaniy merosining noyob dundonasi» kitobida, Andijon, 1990 y
10. N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. -T., 1965 y
11. O`zbek adabiyoti tarixi. V jildlik, II jild, 1972 y
12. Bobur «Boburnoma», T., 1960 y
13. X.Nazarov. Bobur asarlari uchun qisqacha lug`at. -T., 1972 y.

14. S.Jamolov. «Boburnoma»ning badiiy qimmatini haqida. -T., 1961 y

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Shoirning taxalusi haqida gapiring.
2. Boburning hayot yo`li haqida nimalar bilasiz?
3. Boburning ijodi haqida gapiring.
4. Bobur haqidagi badiiy asarlar haqida ma'lumot bering.
5. Bobur lirikasi manbalari xususida ma'lumot bering.
6. «Boburnoma» asarining yaratilish tarixi qanday?
7. Asarning o`rganilish tarixi haqida nimalar bilasiz?
8. «Boburnoma»da joylar tasviri haqida ma'lumot bering.
9. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar tasviri qanday?
10. «Boburnoma» va zamonimiz haqida gapiring.

**MASHRAB**  
(2 soat ma'ruza)

**REJA**

1. Mashrab hayoti bilan aloqador ma'lumotlar.
2. Mashrab shaxsi haqida
3. Mashrab dunyoqarashidagi ziddiyatlar va ularga munosabatlar.
4. Lirikasining g`oyaviy motivlari.

Shoir Mashrabning qaerda va qachon tug`ilganligi yaqin yillarga qadar aniq emas edi. Chunki mutaxassislar bu borada bir to`xtamga kelmagan edilar. Sharq xalqlari adabiyotida Mashrab taxalusi bilan ijod qilgan bir qator shoirlar bo`lgan. Isfaxonlik shoir Hakim Abdurazzoq Mashrab, u 1714 yilda vafot etgan (Hindistonda); XVII asrning oxirlarida Tabrizda vafot etgan. Mashrab taxalusi Mirhusayn; Daxlida o`tgan Mirinoya-tillo; XVIII asr boshlarida Eronda yashagan, Sherozda vafot etgan Mirzo Ashraf; Astrabodda hayot kechirayotgan XVII asrda yashagan, Hindistonda bo`lgan Mashrab; XI X asr o`rtalarida yashagan o`zbekistonlik Hofiz Ro`ziboy Mashrab va nihoyat, Bobarahim Mashrab, bularning hammasi deyarli XVII-XVIII asrlarda yashaganlar. Bu Mashrablarning ko`pchiligi fors-tojik tilida ijod qilganlar. Boborahim Mullavali o`g`li Mashrab esa asosan, o`zbek tilida, qisman tojik tilida ijod qilgan.

Uzoq yillar davomida Mashrabning qaerlik ekanligi haqidagi masala ham o`z yechimini topmasdan keldi. 80- yillarga qadar uni namanganlik, balki andijonlik deb kelindi. Sharqning o`ndan ortiq shoir va olimlari Mashrab ijodiyoti haqidagi o`z asarlarida fikr yuritganlar, o`ndan ortiq xattotlar uning asarlarini ko`chirganlar, bayozlar tuzganlar.

O`rta va oliy maktablar uchun chiqarilgan darsliklarda yaqin yillargacha (oliy maktablarniki hozir ham) noto`g`ri ma'lumotlar bilan band bo`lib keldi: shoirning tug`ilgan yili 1640 yildan to 1657 yilga qadar, tug`ilgan joyi esa goh Namangan, goh Andijon deb keldilar. Nihoyat 80-yillarning o`rtalarida uni Andijonlik emas, Namanganlik degan xulosa qilishlari uchun ayrim dalillar topildi. Ammo ba'zilar (menda ham) hamon bu ma'lumotlarga shubhalar bor. Chindan ham, Mashrabning she'rlarida Namangan nomi ko`p marta keltiriladi. Biroq ularning har biri alohida olinib tahlil qilinsa, shoirni Namanganlik deyishga uzil-kesil olib keluvchi dalil chiqmaydi. Ko`pgina misollardan eng kuchlisi:

Na malakman, na farishta, men ham inson naslidin,  
Men tavalludi o`shal farzandi namangoniymen,-

baytidir. Keltirilgan mazmuni beruvchi satr-ikkinchisi, ammo undan «Namangan farzandiman» degandan ko`ra ko`proq «Namangan farzandining bolasiman» degan mazmun kelib chiqayotganga o`xshaydi. Demak, M.Zokirov va boshqalarning Mashrab Andijonda tug`ilgan,

onasi namanganlik bo`lgan degan taxminlari, Maleho Samarqandiyning Mashrabni Andijonga bog`lab aytganlari, 1992 yilda «Yozuvchi» nashriyoti chop etgan «Qissai Mashrab»ning 84-88 sahifalarida Mashrab onasini ko`rgani Namanganga emas, balki Andijonga yo`l olgani va kelgani haqidagi ma'lumotlarni yana ham sinchiklab o`rganib chiqish zarurati borgan o`xshaydi.

Shunday qilib, Mashrab hayoti va ijodining dastlabkilar qatorida o`rgangan Muhsin Zokirov bir qator manbalarga suyanan holda Mashrabni Andijonda tug`ilgan degan fikrga kelgan ekan. Bu borada akademik shoir G`.G`ulomning «Ikki Mashrab» maqolasida ham fikrlar mavjud.

Ammo keyinroq «Qissai Mashrab»ning nusxalaridan birida shoirning Namanganlik ekani aniq va ravshan bo`lganligi ma'lum bo`ldi. Shunday qilib, Boborahim Mashrab 1640 yilda Namangan (yoki Andijonda) Mullavali yoki Valibobo oilasida tug`ilgan. Mahalliy maktabda savod chiqargan. Zehni o`tkir, ko`p o`qigan, o`z shaxsiy fikr va qarashlariga ega bo`lgan. Boshqa bolalardan ko`p o`qiganligi, bilganligi va devona fe`lligi bilan ajralib turgan.

Maktab tahsildan so`ng uni otasi Namangandagi Mulla Bozor Oxund qo`liga topshiradi. Boborahim o`z ustozidan ko`p bilimlarni o`rganadi. Ustozi uni mashhur Ofoqxo`ja eshon qo`liga ta`lim olish uchun yo`llaydi. Shoir Qashqarda bir necha yil bilim oladi, xizmat qiladi. O`zining yozishicha, nochor va aftoda kiyimlarda yuradi.

Eshonning ko`plab shogirdlari bilan birga, cho`rilari ham bo`lgan. Mashrab ulardan birini sevib qoladi. Bundan xabar topgan ustoz oshiq yigitni g`oyat qattiq jazolaydi-muxrni qizdirib turib, uning bo`ynidagi tomiriga bosadi, dargohidan quvlaydi.

Mashrabning keyingi hayoti oxiriga qadar darbadarlik, sarsonlik, jahongashtalikda qalandarona tarzda o`tadi. «Qissai Mashrab»da bu borada batafsil hikoya qilingan.

Shoir devona sifat fe'lini tashlamagan. Unga ixlos qo`yganlarning ustidan kulgan. Buning boisi munozarali. Hokim va beklarni mensimagan, so`fi va mullalarning kamchiliklarini ochib tashlagan, dunyo kezib, goh rindona, goh so`fiyona fikrlarni bildirgan. Ammo sovet davrida aytilganidek, ateist bo`lgan emas. U hamma vaqt xudoni yodda saqlagan, diliga uning mehrini jo qilgan. Shu bilan birga, real insonni, yorni ham sevgan.

Bizningcha, Mashrab boshqalarga o`xshamaydigan shaxs bo`lgan. Favqulotdda talant va xotira egalari bo`lmish ayrim odamlar borki, o`zlarining fe'l-atvorlari bilan boshqalardan farqlanib turadilar. Biz ularni meyordagi odam deb aytmaymiz. Mashrab ana shundaylar qatorida tura oladi. Unda Volf Messingga xos xususiyatlar ham bo`lgandir. (bu haqda dars davomida kengroq fikr bildiriladi.)

Mashrabda chinakam qalandarlik xususiyati mavjud bo`lgan. Uning boshiga tushgan kulfatlar ham bir odamni qalandar qilib qo`yishi uchun yetarlidir, extimol. Qolaversa, shoirning o`zi uchun qalandarlikni tanlaganligini quyidagi g`azalda ifoda etgan.

Murodinga yetay desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l:  
Sitam ahlin quvay desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l,  
Og`izdan dur ichay desang, sharobi ishq ichay desang,  
Yomonlardan qochay desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l.  
Fasod axlin quvay desang, (ketiga) bir uray desang,  
Bu dargohda suray desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l.  
Riyozatsiz bo`lay desang, tanim ozod yuray desang,  
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l.  
Razolat kuydiray desang, zalolat o`ldiray desang,  
Hammasin supiray desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l,  
Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,  
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l.  
Guharrezlik qilay desang, hammani kuldiray desang,  
Chu Mashrabdek bo`lay desang, qalandar bo`l, qalandar bo`l.

Har bir bayt bir ozgina tahlil qiladigan bo`lsak, shoirning maqsadlarini aniq anglamay olsak, uning nima uchun qalandarona hayot kechirayotganligini tushuna olamiz.

Mashrab ijodiy merosi o`zining g`oyaviy motivlari bilan ziddiyatga to`la. Zotan, shoirning hayoti o`zi shunday shakllangan edi.

Real hayotiy voqealar ta'sirida shoir dunyoqarashi ham ziddiyatli qarashlar bilan bog`liq bo`ldi. Mashrab ulamolarning qalblari g`oyat pok bo`lishini, ularda zarracha ham riyokorlik bo`lmasligini kutgan edi. Ammo o`zi ko`rgan va bilgan ba'zi bir rahnamolarning kirdikorlarini ko`rgach, ikkilanib qolgan, ularga nisbatan nafrat bilan qarashga majbur bo`lgan:

Osmon besar bo`lar aytsam alamlik, doston,  
Har kishiga ayta bilmam rahnamoning dardini.

Mashrab Oллоhni sevgan, uni kuylagan, hamma vaqt uni qalbida saqlagan.

Shuningdek, qalbining bir chekkasida hayotidagi real shaxsga, yorga ham abadiy o`rin bergan. Bu ikki yor o`rtasida qolgan shoir g`oyat azoblangan. Uning azoblarining xaddi-chegarasi bo`lmagan.

Yor Mashrab, ishq o`tini qo`ydi jonim uzra kim,  
Chuk-chuk yetti ko`nglim otashpora chaqmoqim qani.

Mashrab ko`nglida ham bir umrga fikrlar kurashi ketgan bo`lishi kerak. U haqiqiy do`st va yordan ham, majoziy yordan ham kecha olmagan.

Ko`ngilda zarracha dunyoni mehri bo`lmayin menda,  
Seni deb ikki olamda kechib bezora Mashrabman.

Shoir ishqni g`oyat ulug`laydi. Bu borada u doim zohidlar bilan kelisha olmaydi.

Boshinga ming balo kelsa, tilarman vaslin, ey zohid,  
Tilim kessang tiyorish yo`q, degan: «Diydora» Mashrabman.

Mashrab asarlaridagi «Yor»ni hamma vaqt xudo deb tushunmaslik kerak. Aks holda gunohkorga aylanib qolish mumkin. Shuningdek, «yor» faqat mahbuba ham emas.

Ayo do`zax, meni kuydur, xaloyiq kuymasun hargiz,  
Tamug`din ishq o`ti pirzo`r, aning zuxrin yutub o`tgum.  
Na aylay obi kavsarni nigorim bo`lmasa soqiy,  
Xarobat ichra bordim, qatra may ondin tortib o`tgum.

Mashrab o`z gunohlarini ham biladi, savoblarini ham biladi. U qalandarona hayot kechirgani bilan xalq va jamiyat hayotini kuzatganligi, nochor, jabrdiyda kishilarga achinganligi birinchi baytidan ko`rinib turibdi. Ularning do`zaxda ham kuyishlarini shoir istamaydi, ularning o`rniga o`zi azob-uqubatlarga giriftor bo`lishga tayyor turadi. Qolaversa, do`zax o`tidan ham ishq o`ti kuchliroq ekanligini, shunga ham bardosh berganligini aytmoqchi.

Mashrab ishqiy lirikasining soddaligi, oddiygina badiiy tasvir vositalarining o`rni-o`rniga qo`yilishi bilan go`zaldir.

Malaksan, yo bashar, yo nuru g`ilmonsan, bilib bo`lmas,  
Bu lutfu bu nazokat birla sendin ayrilib bo`lmas.  
Yuzing misli qizil guldek, ko`ngul chun bulbuli shaydo,  
Bu gulni ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo`lmas.

Ko`rinib turibdiki, Mashrab satrlari o`zining shakli va mazmuni bilan yuz yillar davomida sayqal topib qiyomiga yetgan xalq qo`shiqlarini eslatadi.

Ishqning kuchi, oshiqning sadoqati va bardoshi mana bu misralarda ham ifodalangan.



Na qattiq kun edi jono visolingdin judo qilding,  
Mening ohim tutuning`a zamini osmon o`rtar...

Yor ta'rifi, portreti ham Mashrabda boshqalardan o`ziga xosligi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, Mashrab dilida xudoni saqlagani holda riyokor din homiylarini, zohidlarni yoqtirmasligini oshkor qiladi. U insof va diyonatni ibodatlarning eng yaxshisi deb biladi, hamisha uning qalbida odamlar, ayniqsa jabrdiyda kishilarga bo`lgan muhabbat ustunlik qildi.

Mashrab she'rlari aruzning hazaj, rajaz, ramal, hafif, muzore' va munsari baxrlaridagi xilma-xil vaznlarda yozilgan.

Uzoq yillar davomida Mashrabniki emas deb kelingan «Mabdai nur» nomli asar bugungi kunda Boborahim Mashrabniki ekanligi aniqlandi. Shuningdek, «Kimyo» ham aynan shu shoirning qalamiga mansub degan fikrlar aytilmoqda. Bu borada yana kengroq, yangiroq va asosliroq fikrlar aytilsa kerak.

#### *Adabiyotlar*

1. Mashrab. Tanlangan asarlar. T., 1958 y
2. Mashrab. Tanlangan asarlar. T., 1963 y
3. Mashrab. Mehribonim qaydasan. T., 1990 y
4. Zokirov M. Mashrab. T., 1966 y
5. Izzat Sulton. Asl Mashrab. Tanlangan asarlar. II tom, T., 1972

#### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Mashrab she'rlarini o`qing, ulardagi ziddiyatlarni, ularning sabablarini aniqlang.
2. Mashrab izdoshlari haqida gapiring.
3. Mashrabning badiiy mahorati haqida nimalar bilasiz?
4. Mashrabning falsafiy qarashlari haqida tushunchangiz.

#### **UVAYSIY, NODIRA**

(2 soat ma'ruza)

#### **REJA**

1. Shoiraning hayot yo`li
2. Uvaysiyning chistonlari
3. Uvaysiy dostonlari
4. Nodiraning hayot yo`li haqida
5. Shoiraning devonlari, ularning nusxalari, hajmi
6. Ijodiy merosining janr xususiyatlari

Uvaysiy XVII asrning oxirlari va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoiralardan biridir. Umuman, sharq adabiyotida ayol ijodkorlar G`arbga qaraganda ko`pchilikni tashkil etadi.

Uvaysiy haqidagi ma'lumotlar 60 yillarning boshlarida Andijon pedagogika institutining olimlari tomonidan Marxamat tumanidan topilib, avval istitut kutubxonasiga, so`ng Toshkentga yuborilgan. Ma'lumotlar shoiraning chevarasi Xoljonotindan olingan edi. Uvaysiyning nabirasi va chevarasi ham otincha, shoira bo`lganlar, chiroyli husnixat egasi bo`lgan. Bunday fazilatlar o`sha katta enalari Jaxonotin tufayli ekanligini Xoljonotin ta'kidlagan.

Shoira Marg`ilonda, keyinroq Qo`qonda va yana Marg`ilonda yashaganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Uning turmush o`rtog`i Hojixon bilan birgalikdagi hayoti uzoqqa bormaydi. Ajralish sababchisi yetishmovchilik bo`lsa kerak. Shoira o`g`li Muhammadni va qizi Quyoshxonni o`zi tarbiyalaydi. Farzandlari Majnun va Xokiy taxalluslari bilan she'rlar yozishgan. Muhammadning qachon vafot etganligi ma'lum emas, ba'zi bir taxminlar bor. Qizi Quyoshxon birinchi farzandini dunyoga keltirishda vafot etgan. Uvaysiy nabirasini 11-12 yoshlarga yetkazganida o`zi ham dunyodan ko`z yumdi.

Shoiradan bizga qadar kattagina she'rlar devoni yetib kelgan. Unda 296 ta g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba va dostonlar mavjud.

Shoira ma'lum muddat Qo`qonda, Nodira huzurida yashagan va go`zal g`azallar yaratgan. G`azallarning asosiy mavzusi mahabbatdir. Qahramonlari esa ma'shuqa, oshiq va raqiblardan iborat. Raqib obrazi ham shoir asarlarida ko`proq uchraydi. Ba'zan raqiblar umuman yomon odamlar ramzida ham namoyon bo`ladi, shoira ulardan faryod qiladi. Bu yomonlar, asosan, hukmdor shaxslar, ba'zan esa riyokor, xudbin din homiylaridir.

Zamona kulfatidin bu ko`ngul dog` o`ldi-dog` o`ldi,  
Bu charxi bemuruvat ko`ngil dog` o`ldi-dog` o`ldi.

Sharqda badiiy ijod bilan shug`ullangan bir qancha ayollar borligini bilamiz. Mohlaroyim shularning eng ko`zga ko`rinarlisidir. Nodira shoira sifatida, davlat raxbari sifatida o`zbek ayollari ham erkaklardan qolishmasligini isbotlab ko`rsatgan shaxsdir.

Uning tug`ilgan yili juda ham aniq emas. Ammo ayrim tarixiy fikrlardan kelib chiqib, shoira 1792 yilda tug`ilgan deyishimiz mumkin. Uning otasi Rahmonquliy Andijon hokimi bo`lib, Qo`qon xoni Olimxonga qarindosh edi. Ular o`rtasida doimiy bordi-keldilar bo`lgan. Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim voyaga yetganini ko`rgan Olimxon ukasi Umarxonga uni olib bermoqchi bo`ladi va sovchi yuboradi. Ma'lumotlarga ko`ra, Rahmonqulibiy qizini Marg`ilonga jo`natgisi kelmagan. Ammo sovchilar bir necha marta va katta savg`alar bilan kelavergach, ko`nishga majbur bo`ladi. Shunday qilib, Mohlaroyim 1808 yilda Andijondan Marg`ilonga kelin bo`lib boradi. Chunki Umarxon bu vaqtda Marg`ilon xokimi edi.

Beklarning fitnasi tufayli Olimxon o`ldirilgach, Umarxon Qo`qon taxtiga o`tiradi. Nodira ham malika bo`lib Qo`qonga keladi. Mohlaroyim kichikligidayoq adabiyotni ko`p mutolla qilgan, she'rlarga ko`ngil qo`ygan edi. Umarxonda ham aynan mana shunday xissiyot borligi, ular o`rtasida mustahkam do`stlik, muhabbat uyg`onishiga sabab bo`ladi. Ular bir-birlarini she'riy mashqlarini ko`rishar, bir-birlariga maslahat berishar edilar.

Afsuski, bu ikki ijodkor uzoq vaqt birga yashab ijod qila olmadilar. Umarxon vafot etganida shoira 30 yoshlarda edi. Bu vaqtda shoira sifatida tanilib, Komila va Nodira taxallusida ijod qilayotgan shoira ikki o`g`lini tarbiyalab voyaga yetkazish bilan birga davlat ishlarini nazorat qilib bordi. Umarxon tirikligida insof va adolat, insonparvarlik va xalqparvarlik bobida unga qanday maslahatlar bergan bo`lsa, o`zi ularga amal qildi, otasining o`rniga taxtga o`tirgan Muhammadalixonga yo`l-yo`riqlar ko`rsatdi.

Nodiraning adabiy merosi son va salmog`i, mazmun va g`oyasi bilan adabiyotimiz tarixida muxim o`rin egallaydi.

Dastlab shoiraning to`la bo`lmagan bir devoni ma'lum edi xolos. Unda shoiraning 109 g`azali «d» xarfigacha joylashtirilgan bo`lib, 81 tasi o`zbek tilida edi. She'rlar Nodira taxallusi bilan bitilgan edi. Devonning muqaddimasida shoira o`zinging Komila taxallusi bo`lganligini aytadi. Amma devonda Komila taxallusli she'rlar uchramagan edi. Amma keyingi Fazliy she'rlar to`plangan qo`lyozmaning oxirgi varaqlarida shoiraning Komila taxallusi bilan yaratilgan 19 ta she'ri topilgan. Ularning 8 tasi tojik tilida edi.

1962 yilda Namanganda Nodiraning o`g`li Musallamxon otasining kutubxonasidan Nodiraning yana bir o`zbekcha qo`lyozma devoni topildi. Devonga shoiraning 180 ta she'ri jamlangan. Ularning 136 tasi o`zbek tilida, 44 tasi tojik tilida edi. Komila taxallusi bo`lib yozilgan ikki g`azali ham bor edi. Ayrim g`azallar avvalgi devonda ham uchrar edi.

Nodira lirikasining asosiy qismi muhabbat mavzusida yaratilgan. Mana shu qismning katta bo`lagini esa hijron lirikasi tashkil etadi. Shoira o`z asarlarida yori Umarxonning portretini, xarakterini yaratib bergan. Eng muximi, vafo va sadoqatning yorqin namunasi sifatida Nodira timsoli yaratilgan. Quyidagi baytlar Nodira lirikasi haqida to`laroq tasavvurga ega bo`lishimizni ta'minlaydi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et.  
Rohat tilasang, ishq binosini panoh et,

Osuda erur soyalar devori muhabbat.

Insonparvarlik g'oyalari Nodira ijodiy merosining eng salmoqli g'oyalariidan biridir. Chunki insonparvarlik shoironing yodida hamma vaqt turgan, uni hech qachon tark etmagan fikridir. Shoira Umarxonni farzandlarini hamma vaqt insonparvarlikka undab turgan.

Nodiraning butun ijodiy faoliyati davomida uzluksiz davom etgan va takomillashib borgan g'oyalardan biri insonparvarlik va adolat g'oyasidir. Qalbi insonparvarlik g'oyalari bilan to'lgan shoira shoh Umarxonga juda katta savob olishning eng qulay yo'lini ko'rsatib turadi. Ka'bani ziyorat qilishdan tashqari, uni ta'mir etish ulkan savob bo'lsa, xuddi o'shanda darajadagi savobga xon o'z poytaxtidan chiqmasdan ham erishish mumkin:

Gar esa Ka'ba ta'miri muroding,

Ko'ngil vayronasini ayla obod.

Bunday tizimdagi baytlarni shoira asarlaridan ko'plab topish mumkin.

### ***Adabiyotlar***

1. Uvaysiy. Devon. T., 1963 y
2. O'zbek shoirlari. T., 1959 y
3. Ibragimov E. Uvaysiy. T., 1963 y
1. Nodira. Devon. «Fan» nashriyoti T., 1963 y
2. Nodira. Devon. Dushenbe. 1967 y
3. Qodirova M. Nodira, 5 jildlik, 4 jild T., 1978 y
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 4 jild T., 1978y
5. Jo'raxonov A va boshqalar. Nodira abadiyati. Andijon 1993 y

### ***Takrorlash uchun savollar:***

1. Uvaysiy hayoti haqida gapiring.
2. Uvaysiy chistonlarini bilasizmi?
3. Uvaysiyning epik asarlari.
4. Nodira she'rlarida insonparvarlik g'oyalarning ifodalanishiga misollar keltiring
5. Nodira lirikasining janr xususiyatlari qanday?

### **OGAHIY**

(2 soat ma'ruza)

### **REJA**

1. Shoirning hayot yo'li.
2. Merosining o'rganilishi.
3. Ogahiy devoni: janr va tematik xususiyatlari.
4. Ogahiy lirikasining yetakchi obrazlari.

Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biridir. U ko'p qirrali ijodkor bo'lib, tarixiy asarlar yaratgan, tarjimalar ham qilgan. Lirik merosining salmog'i ham Navoiydan keyingi o'rinda turadi.

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809 yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'idagi miroblar oilasida tug'ildi. Kichikligidayoq otasi vafot etganligi sababli amakisi shoir Munisning qo'lida tarbiya oldi. Demak, biz uni qanday muxitda ulg'ayib borganligini tasavvur qila olamiz. Munis tarbiyasini olgan bola uning o'ziga o'xshab shoir va olim bo'lib yetishadi.

Munisga o'xshab miroblik faoliyatida ham hamma vaqt adolat tomonida turadi. Saroyga yaqin edi. Ayniqsa Munisning vafotidan so'ng uning o'rniga miroblik vazifasiga ko'tarilgach, mamlakatning barcha ariq va daryolarida suzib yuradigan kemalargacha barcha bosh mirobga bo'sunar edi.

Ammo, shunga qaramasdan u g'oyat kamtar, kamsuqum, qanoatli, ta'magirlikni bilmaydigan, hammaga yaxshilik istaydigan kishi edi. Negaki, Ogahiy chinakam shoir edi. U hamma narsa-hodisalarga, odamlarga shoirning ko'zi bilan qarar edi. Hammaning g'ami tashvishlarini birinchilar qatori o'ziniki qilib olar, ular bilan teng qayg'urar edi.

Ogahiy fors-tojik tilini mukammal bilar edi. Sharq durdonalarini o'zi o'qiy olgan. Yurtdoshlarini, butun o'zbeklarni o'shanday asarlaridan baxramand qilish uchun 19 ta asarni fors-tojik tilidan o'zbek tilida tarjima qildi.

Ogahiy 1839 yilda «Firdavs-ul-iqbol» voqealarini Muhammad Rahimhon I hukmronligining oxirigacha tugatib, 1844 yilda «Riyozud-davla» tarixiy voqeanomasi, 1846 yilda, «Zubdat ut-tavorix», keyinchalik Muhammad Amin davri voqealarini bayon etuvchi «Jome ul-voqeati sultoni» asarini yozdi. 1857 yilda xastalanib qoldi. Shu xastalik bahonasida bosh miroblik vazifasidan ozod qilishlarini so'raydi. Chunki Ogahiy saroy amaldorlari bilan u yerdagi nohaqliklar bilan kelisha olmaydi.

Ogahiyning she'riy merosi 20 ming misra atrofidadir. XIX asrning ikkinchi yarmida Xorazmda tuzilgan bayozlarning deyarli hammasida Ogahiy she'rlari uchraydi. Ogahiy o'z she'rlarini yig'ib, ikkita to'plam tuzganligi ham ma'lum. Ulardan biri shoir madrasalarda o'qib yurganida tuzilgan bo'lib, «Bayozi mutafarriqai forsiy» deb atalgan. Unga Sharqning taniqli shoirlari asarlaridan keyin o'z asarlarini ham kiritgan. To'plamda Ogahiyning 15ta g'azali, 2 muxammasi bor. Ikkinchi Ogahiyning «Ta'viz-ul-oshiqin» devonidir. Bu devonning 4 qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, ular Toshkent va Sankt- Peterburg shaharlarida saqlanadilar. Bulardan tashqari Xivada litografiya usuli bilan ko'p nusxada bosilib chiqqan.

Sharq she'riyatida murakkab usullarining san'atkorlik sirlarini mukammal egallagan Ogahiy o'z ijodida o'zining imkoniyatlaridan mukammal foydalanadi. Uning lirik merosida g'azal, muxammas, murabba, musaddas, masnaviy, shuningdek, fard, tuyuq, qit'a, ruboiy, muammo singarilarning favqulodda san'atkorona yaratilgan namunalari ko'plab uchraydi. Ogahiy faxriya tarzida bir necha o'rinlarda mana bunday baytlar ham yaratgan edi.

Ogahiy she'rin o'qi, gar xushdil o'lmoq istasang,  
Kim tarab mazmunidir jonparvar ash'oringa xos.

yoki

Ogahiy, dilso'z nazmingni eshitsa ahli oshq,  
Bo'yniga ta'vizdek aylar ash'oringni band.

Ogahiyning olti jilddan iborat asarlari chop etilgan bo'lib, uning 1 va 2 jildlari lirik she'rlardan iborat.

Ogahiy o'zidan oldingi shoirlardan ko'p o'rganadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy she'riyatidan ko'p bahra oldi, o'rgandi, shu boisdan tan olib mana bu baytni yozgan edi.

Ogahiy, kim topg'ay erdi so'zi nazmingdin navo,  
Bahra gar yo'qdir Navoiyning havosindin sanga.

Ogahiy tarixchi va tarjimon sifatida maqtovga sazovor bo'lgudek darajadagi faoliyat ko'rsata oldi. Yuqorida aytilganlardan tashqari, Said Muhammadxon davriga tegishli «Gulshani davlat», Muhammad Rahimxon davri haqidagi «Iqboli davlat» asarlarini yaratdi.

O'zi tarjima qilgan asarlari haqida shunday yozadi:

«Faqirning turk tili bilan tarjima qilgan kitoblari «Ravzat us-safo»ning ikkinchi daftaridan chaxor yori uzom voqeasi va uchunchi daftari va «Nodiranoma» va «Zafarnoma» va «Zubdat ul-hikoyat» va «Miftoh ut-tolibin» va «Axloqi Muxsiniy», Vosifiy va «Nasixatnomai Kaykovus» va «Salomanu Absoli», «Jomiy va Ravzat us-safoi» Vosifiyning birinchi daftari va «Daloil ul-Muqimxoniy» va «Taboqati Akbarshohiy» va «Xaft paykari Nizomiy» va «Xasht bihisht»i Xisraviy va «Yusuf Zulayxo»i Jomiy kim manzum bo'ldi va «Shohi gado»i Xiloliykim manzum bo'ldi»

Ogahiy tarixiy va badiiy asarlarni tanlab tarjima qilganligi ko'rinib turibdi. Ayniqsa, Sa'diy «Guliston»i, Jomiyning «Bahoriston»i sof didaktik asarlar bo'lib, aynan shuning uchun ham Ogahiy ularni tarjima qildi.

### *Adabiyotlar*

1. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik, 1-6 jild. T.,1971-80 y
2. Ogahiy. Ta'vizul oshiqin. T., 1960 y
3. Abdullaev V. O`zbek adabiyoti tarixi, 2-kitob. 1980 y
4. Zohidov V. O`zbek adabiyoti taridan. T., 1961 y
5. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., 1963 y
6. Munirov K. Ogahiy. T., 1959 y
7. Jo`raxonov A Insonparvarlik –o`zbek adabiyotining yetakchisi g`oyasi.  
Andijon. 1987 y

### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Ogahiy hayoti haqida gapiring.
2. Ogahiy devonlari, ularning tarkibini bilasizmi?
3. Ogahiyning badiiy mahorati qanday?
4. Ogahiy lirikasining tematik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

**«O‘ZBEK FILOLOGIYASI»**

**FANIDAN**

**USLUBIY QO‘LLANMA**

***ANDIJON***

## I. KIRISH. O‘ZBEK ADABIYOTI FAN SIFATIDA.

1. Badiiy adabiyot - borliqni o‘ziga xos tarzda bilish vositasi.
2. Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik fani.
3. O‘zbek adabiyoti fani va uning maqsadi, vazifalari.
4. O‘zbek adabiyotini o‘rganishda milliy tarixni bilish zarurligi.

O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan keyin, barcha sohalarda bo‘lgani kabi adabiyot sohasida ham uni birgina millat adabiyoti deb emas, balki davlat adabiyoti, ya‘ni jahon hamjamiyatida o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘lgan davlat adabiyoti deb qarash, o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib qoldi. Chunki, adabiyot millat madaniyati va ma‘naviyatidan davlat ma‘naviyatiga, uning madaniy mezoniga aylandi. Shu sababdan o‘zbek adabiyoti ma‘lum sohalarda turkiy xalqlar adabiyotining ajralmas bir qismi va ma‘lum darajada boshlang‘ich nuqtasi, bolalik chog‘i deb o‘rganish kerak bo‘lib qoldi. Buning ilmiy asoslari sifatida Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylarning boy meroslarini keltirish mumkin. Har bir xalqning o‘z tarixi, madaniyati, san‘ati va adabiyoti bor. Shunga ko‘ra adabiyot - shu adabiyotning yaratilishiga asos bo‘lgan xalq nomi bilan ataladi. O‘zbek xalqi qadimiy, boy madaniyatga ega bo‘lgan xalqlardan biridir. U jahon ilm-fani, san‘ati va adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi, buyuk olimlarni, san‘atkorlarni, yozuvchilarni yetishtirdi.

O‘zbek xalqi ma‘naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o‘zbek adabiyotidir. Bu adabiyot tarixi qadim zamonlardan boshlab hozirgi kunga qadar yaratgan badiiy merosini o‘z ichiga oladi. O‘zbek adabiyoti xilma-xil tur va janrlardagi badiiy asarlarni qamrab oladi. Katta janrlardan hisoblangan lirika, epos o‘tmish o‘zbek adabiyotining asosiy turlaridir. G‘azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, masal, hikoya va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlar hisoblanadi, shu bilan birga roman, qissa, publitsistika kabi janrlarning ham shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamdir.

O‘tmish adabiyoti badiiy asarlar bilan birga yirik memuar va tarixiy asarlarni ham o‘z ichiga oladi. «Boburnoma», «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», «Firdavsul iqbol» va boshqalar shular jumlasidandir.

«Alpomish», «Kuntug‘mish», «Tohir va Zuhra», «Bo‘z o‘g‘lon» kabi xalq kitoblari ham o‘zbek xalqi boy va buyuk og‘zaki ijodining mahsulidir.

Tarjima adabiyoti ham rivojlangan bir sohani tashkil etadi. O‘zbek xalqi asrlar davomida bir qancha xalqlar bilan - Markaziy Osiyo, Qozog‘iston, Kavkaz, Rusiya, Yunoniston, Eron, Hindiston, Arabiston va boshqa o‘lkalarning xalqlari bilan yaqindan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘ldi.

Adabiyot tarixi xalq tarixining ajralmas bir qismidir, badiiy adabiyotning taraqqiyoti jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Biroq, ayrim vaqtlarda san‘at va adabiyot jamiyatning umumiy taraqqiyotidan ilgari ketishi yoki orqada qolishi ham mumkin. Buning yorqin misoli sifatida «O‘zbek adabiyoti» kursi davomida yanada chuqurroq o‘rganiladigan X-XII asrlardagi rivojlanish va, aksincha, XX o‘rtalaridagi hayotni boshqacha talqin qilishlarni keltirish mumkin.

O‘zbek adabiyoti tarixi va uning rivojlanish jarayonida hali o‘rganilmagan va kam o‘rganilgan yodgorliklar, masalalar oz emasligi ma‘lum. Ayniqsa, arab va mo‘g‘ul istilochilari davrlarida juda ko‘p madaniyat yodgorliklari va adabiyot asarlari yo‘qotib yuborildi. Bu holat ayrim etaplar, masalan VIII-IX va XIII asrlar adabiyotining to‘la manzarasini yoritish, ularni keng tasavvur qilish imkonini cheklab qo‘yadi. Shunga qaramasdan o‘zbek adabiyoti tarixini quyidagi taraqqiyot bosqichlariga bo‘lish mumkin:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

2. IX-XII asrlar adabiyoti.
3. XIII - XIV asrlar adabiyoti.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.
7. XX asr va mustaqillik davri adabiyoti.

O'tmishdagi madaniyat, san'at va adabiyotning shunday buyuk yodgorliklari borki, ular bir qancha davr va avlodlarga manzur bo'lib kelmoqda. Ana shunday yodgorliklar qatoriga va ularning shoh o'rinlariga X-XII asrlardagi Sharq Uyg'onish davri yodgorliklari, XIV asr badiiyati, XVII-XIX asrlardagi tasavvuf va hajviyotlarni keltirishimiz mumkin. O'tmish madaniyati, san'ati va adabiyotining eng yaxshi namunalari katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu namunalar kishilardagi eng yaxshi fazilatlarini takomillashtirishga, insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stlik, halollik, qahramonlik, mehnatsevarlik kabi xususiyatlarni mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Davrning ilg'or qarashlari bilan sug'orilgan, xalqchilik, va yuksak iste'dod bilan yaratilgan o'tmish madaniyati, san'ati va adabiyoti yodgorliklarigina mana shunday qimmatga ega.

O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish uchun o'sha davr adiblarining ijodini aniq tarixiy sharoitdan kelib chiqib to'g'ri o'rganish, yoritish va baholash zarur. Shu taqdirdagina ularning faoliyatidagi ziddiyatlarning sabablarini ochish va izohlash mumkin. Chunki, ma'lum bir tarixiy sharoitda taraqqiyparvar hisoblangan qarash va g'oya boshqa bir tarixiy sharoitga kelib o'z mohiyatini o'zgartirishi, hatto aks mohiyat yoki tushunchalarni anglatib qolishi ham mumkin. Yuqorida aytilganidek, o'rganilayotgan davr tarozusi bilan qarash, o'sha o'lchovlar me'yori bilan tortish kerak bo'ladiki, bu mezon barcha davrlar uchun ularni baholash, ular ustidan teran fikrlash va hukm chiqarishga olib keladi.

Adabiyoti taraqqiy topgan xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, hamma mamlakatlar va xalqlar tomonidan keng miqyosida qabul qilinadi. «Keling, Alisher Navoiydek shoir bo'lgani uchun quvonaylik. Bizga shunday shoirni armug'on qilgan xalqiga katta rahmatlar aytaylik, - degan edi akademik N. I. Konrad. -Navoiyni faqat o'rganmasdan, tadqiq etmasdan, o'qib ham yuraylik. Faqat o'qibgina qolmasdan, uning haqida o'ylab ham yuraylik».

O'zbekiston tarixi, geografiyasi, undagi tabiiy boyliklardan yoki undagi fanning taraqqiyotidan ma'lumot beruvchi asarlar butun jahon o'quvchilarining ma'lum qisminigina qiziqtirishi mumkin. Ammo Navoiy, Ogahiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek kabi adiblar yaratgan badiiyat namunalari turli mintaqalarda yashovchi o'quvchilarda qiziqish tug'dira oladi. Shuning uchun ham o'zbek adabiyoti asarlarining dunyo bo'ylab kezishi, yer yuzining barcha mintaqalarida o'z o'quvchilari bo'lishi o'zbek xalqining faxridir.

#### ADABIYOTLAR:

1. Karimov I., «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Sharq» matbaa nashriyot konserni, T-1998 yil.
2. Mallaev N., O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1965 y. 5-28-betlar.
3. Istoriya Uzbekskey literatury, v 2 tomox, tom I, izd. «Fan», T-1987 g. Str. 7-19.
4. Литературный энциклопедический словарь, M-1987 g. Str. 452-453.
5. Izzat Sulton., Adabiyot nazariyasi, T-1986 y. 5-14-betlar.

#### ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR

#### REJA:

1. Eng qadimgi davr o'zbek adabiyotining O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti bilan bog'liq holda o'rganilishi.
2. Xalq og'zaki ijodi – milliy adabiyotimizning ilk namunasi.



3. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos qonuniyatlari.
4. Asotir va afsonalar xalq adabiyotining eng qadimgi turi sifatida.
5. Qadimgi xalq adabiyotining kelajak avlodga yetib kelishiga xizmat qilgan manbalar.
6. Eng qadimgi yozma yodgorliklar: «Avesto», «O‘rxun-Enasoy» bitiklari, «Ta’birnoma», «Irq bitigi» kabilarning milliy adabiyotimiz shakllanishidagi ahamiyati.
7. Turli manbalar orqali yetib kelgan qahramonlik eposlari va ertaklarning milliy-badiiy tafakkurimizdagi o‘rni.

Qadimgi O‘rta Osiyoning tarixi va madaniyati haqida grek, xitoy, hind va arman tarixchilarining kitoblarida, Avesto, Bexustun, Bundaxishn, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari kabi turli manbaalarda, Beruniy, Forobiy, Narshaxiy va boshqa olimlar hamda tarixchilarning asarlarida ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu manbaalardan keng foydalanish, ularni ilmiy asoslash natijasida xalqimizning moddiy va ma’naviy madaniyat boyliklarini qidirib topish, ularni tekshirish va o‘rganish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib, qadimgi O‘rta Osiyo madaniyati tobora kengroq va to‘laroq yoritib borilmoqda. Hozirgi paytga kelib, qadimgi O‘rta Osiyoning ijtimoiy taraqqiyoti, xo‘jalik hayoti va antik madaniyati kabi masalalar ancha oydinlashib qoldi. O‘rta Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimiy beshiklaridan biridir. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalaridagi O‘rta Osiyoning iqtisodiy-geografik va etnografik kartalari Baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg‘ona) va boshqa joylarni o‘z ichiga oladi. Bu joylarda massagetlar, xorazmiylar, so‘g‘dlar, saklar, parfyanlar va boshqa qabila va elatlar yashaganlar.

**Til va yozuv.** Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda O‘rta Osiyo aholisining ko‘pchilik qismi eron tillari guruhiga kiruvchi shevalarda gaplashganlar. Grek tarixchisi Strabon Baqtriya, Sug‘diyona, Eron va Midiya aholisining tili biri-biriga o‘xshaganini qayd qilgani kabi, Xitoy sayyohi Si-Ma Syan (eramizdan avvalgi II-I asrlar) ham Davan (Farg‘ona)dan to Parfiyagacha bo‘lgan hududda yashagan qabila va xalqlarning tillari bir-biriga o‘xshash va tushunarli ekanligini ta’kidlaydi. Eron tillari guruhiga kiruvchi lahjalar Grek-Baqtriya davlati hukmronligi davrida va O‘rta Osiyo ahamoniylar tomonidan istilo qilingan davrda ham saqlanib qoladi va rivojlanib boradi. Ammo saroyda davlat tili sifatida mahalliy tillar emas, balki grek tili qo‘llanilar edi.

O‘rta Osiyo hududida turkiy tillar guruhlarining keng qo‘llanilishi bu yerlarga hunnlarning ko‘chib kela boshlashi bilan bog‘liqdir. Yozma manbaalarda O‘rta Osiyo chegaralarida hunnlarning paydo bo‘lishi birinchi marta eramizdan avvalgi ikkinchi asrda eslatib o‘tiladi. Hunnlar eramizdan avvalgi II-I asrlarda Yettisuvga va Sirdaryo bo‘yidagi cho‘llarga ko‘chib kelib, mahalliy xalq va qabilalar bilan aralashib keta boshlaydilar. Shu davrdan boshlab O‘rta Osiyoda turkiy tillar guruhi keng tarqala boshlaydi va turk xoqonligi davlati davrida Shimoliy Enasoydan tortib Mo‘g‘ulistoniga qadar bo‘lgan yerlarda asosiy tillardan biri bo‘lib qoladi

**Iqtisodiy-madaniy aloqalar.** O‘rta Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardan boshlab turli o‘lka va xalqlar bilan: Ural, Sibir va Volgabo‘yi, Xitoy, Gretsiya, Eron, Suriya, Mesopotamiya, Vavilon, Misr va boshqa o‘lkalar bilan iqtisodiy - madaniy aloqada bo‘lgan. Shu bilan birga G‘arb va Sharqning savdo-sotiq, madaniy aloqalarida bir markaziy chorraha sifatida ham katta ahamiyatga ega O‘rta Osiyo bilan Greksiya o‘rtasidagi aloqalar qadimdan boshlangan, ayniqsa, Ellin madaniyatining o‘zaro bir-birlariga ta’siri asrlar davomida aks etib kelgan Hindiston o‘rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar ham juda boy va qadim zamonlarga borib qadaladi. Masalan, Hindistondagi Taksila va Madura qadimgi yodgorliklarida, Sharqiy Yevropa qadimgi yodgorliklarida bo‘lgani kabi, Kushon imperiyasi ( I-IV asrlar ) madaniyatining izi ravshan ko‘rinadi. Ajoyib hind eposi «Panchatantra» ( «Besh kitob» ) juda qadim zamonlardanoq Eron va O‘rta Osiyo xalqlari orasida mashhur bo‘lib, g‘oyat nom taratgan edi. Keyinroq esa bu asar O‘rta Osiyoda «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo‘ldi. Hozirgi paytda qayta tiklanayotgan «Ipak yo‘li» eramizdan avvalgi II asrda ochilgan Xitoy yo‘lidir. Bu yo‘l o‘z-o‘zidan ko‘rinib

turibdiki, O'rtasiyo orqali o'tgan bo'lib, uning rivojlanishida ham yurtimiz markaziy o'rin egallagan va chorraha vazifasini bajargan. Xitoy O'rtasiyodan paxtachilik, tokchilik, vinochilik, shisha quyish ishlarini o'rgangan bo'lsa, O'rtasiyo xalqlari Xitoydan ipakchilik, qog'oz ishlash kabilarni o'rganganlar **Og'zaki adabiyot yodgorliklari.** Tabiiyki, badiiy so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ancha ilgari og'zaki ijod shaklida paydo bo'ladi hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. O'rtasiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlarga oid ayrim og'zaki adabiy yodgorliklari ba'zi bir manbalar orqali bizga qadar saqlanib qolgan. Antik tarixchilardan Gerodot, Kteziy, Polien, Xores Mitilenskiylar; o'rtasiyo tarixchilaridan Hamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy, Saolibiy, Bal'amiy kabilarning asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan ma'lumotlar bor. «Avesto», Bexustun yodgorliklarida, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan namunalar o'rin olgan.

Asotir va afsonalar ham O'rtasiyo xalqlari ijodida katta o'ringa ega. Bu turdagi ijod mahsuli yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashlarga bag'ishlangan bo'lib, Mitra, Anaxita, Qayumars, Jamshid, Gershasp, Elikbek va boshqa obrazlarda mujassamlantirilgan. Shuningdek, O'rtasiyo xalqlari ijodida qahramonlik eposlari katta va muhim o'rin tutadi. Bu janr asarlari ba'zi aniq tarixiy voqealarga bag'ishlangan bo'lib, chet el bosqinchilariga qarshi kurashlar vatanparvarlik ruhida sug'orilgandir. Bunday eposlardan eng mashhur va aniq manbalarga asoslangani «To'maris» va «Shiroq»lardir. Eramizdan avvalgi VI asrda ahamoniylar shohi Kir O'rtasiyoga bostirib kiradi. To'maris boshchiligidagi massaget qabilalari unga qarshi kurashadi. Kir 529 yilda o'ldiriladi. Shu voqealar «To'maris» tarixiy-qahramonlik eposining mazmunini tashkil etadi. Bu voqea mazmuni grek tarixchisi Gerodot(484-425)ning «Tarix» kitobida hikoya qilinadi. «Shiroq» eposining mazmuni grek tarixchisi Polien(eramizdan avvalgi II asr)ning «Harbiy hiylalar» kitobida keltirilgan. «Zarina va Striangiya» qissasining mazmuni sitsiliyalik tarixchi Diodor ( eramizdan avvalgi I asr)ning «Kutubxona» asarida tarixchi Kteziy (430-354) kitobidagi bayon asosida hikoya qilib qoldirilgan. «Zariadr va Odatida» qissasi ham tarixchi Xores Mitilenskiy (eramizdan avvalgi IV asr) asari orqali yetib kelgan. «Rustam» haqidagi dastlabki asarlar so'g'dlarda paydo bo'lgan. Avvaliga devlar, jinlar bilan yovuzlik va yomonlikka qarshi kurashgan pahlavon sifatida ilohiylashtirilgan Rustam obrazi, keyinchalik takomillashib, hayotlashib, endi devlarga emas, bosqinchilarga, zolim shohlarga qarshi kurashadi, xalqning osoyishtaligi, baxt-saodatini ta'minlaydi. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida bosh qahramon Rustam obrazidir.

Siyovush («Avesto»da Siyovarshan deb atalgan) mifologik xudo sifatida tasvirlangan. Bu tasvirlar «Shohnoma»da ham, Beruniyning asarlarida ham, ayniqsa, X asr tarixchisi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ham xalq og'zaki ijodi namunalari kabi hikoya qilinadi. Ammo Narshaxiyning aytishicha, afsonaviy Siyovush Buxoro yaqinida ko'milgan degan ma'lumotlar bor. «Avesto» zardushtiylik (zaroastrizm) dinining muqaddas kitobi. Shu bilan birga u uzoq asrlar tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniyati, tili, yozuvi va xalq og'zaki ijodining manbai sifatida qadimgi O'rtasiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa mamlakatlarning o'tmishini o'rganishda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan xazinadir.

Ma'lumotlarga qaraganda, «Avesto» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri - VI asrning boshlarida yaratilgan. Uning muqaddas kitob sifatida to'la shakllanishi esa eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bizga qadar saqlanib qolgan nusxasi 1324 yilda ko'chirilgan bo'lib, u Kopengagenda saqlanadi. «Avesto»ning vujudga kelgan joyi munozaralidir. Bu munozaralarning biri: zardushtiylik Midiyadan boshlangan deb hisoblovchi «G'arbiy» nazariya bo'lsa, ikkinchisi: u dastlab O'rtasiyoda paydo bo'lgan degan «Sharqiy» nazariyadir. Zardushtiylikning asoschisi Zardusht – Zaratushtaning tug'ilgan mamlakati ta'rifida «Avesto»da bunday deyilgan: « U shunday mamlakatki, u yerda son-sanoqsiz qo'shinlarga bahodirlar sardorlik va yo'l boshchilik qiladi, o'tloqlar va suvga serob baland tog'lar chorvachilik uchun zarur bo'lgan barcha narsani yetkazib berib turadi. U yerda sersuv chuqur ko'llar bor, kema qatnaydigan keng daryolar o'zlarining to'lqinli suvlarini shiddat bilan Iskat (assuriycha

«Ishkuzan»-Skifiya), Pourut (Qobul daryosi vodiysi), Mour (Marv), Xareva (Ariya), Gav (So'g'ddagi bir viloyat), So'g'da (So'g'd), Xvayrizm (Xorazm) mamlakatlari ekan» Bizgacha yetib kelgan «Avesto» nusxalari ikki variantdir. Birinchi variant faqat «Avesto»ning o'z ichiga oladi. Ikkinchi varianti esa pahlaviy tilidagi sharhli tarjimani ham o'z ichiga olib, u kitoblarga, boblarga, paragraflarga ajratilgan. Shu ikkinchi variant bo'yicha «Avesto» quyidagilardan iborat:

1. Vendidod 22 bobdan iborat bo'lib, asosan Axura Mazda bilan Zaratushraning savol-javobi yozilgan. Boblar turli yomon ruhlarni, devlarni yengish voqealarini, gunohlardan pok bo'lish qoidalarini va qisman mifologik elementlarni o'z ichiga oladi.
2. Visparad. 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.
3. Yasna. 72 bobdan iborat bo'lib, qurbonlik chiqarish marosimida aytiladigan qo'shiqlarni, xudolar madhiyasini va boshqa diniy marosimlarga xos rasm-rusumlarni o'z ichiga oladi. 17 bobi gotlar-gimmlar deb ataladi. Bu boblar «Avesto»ning eng qadimgi qismlari hisoblanadi
4. YaShT. Zardushtiylik xudolari va ma'budalariga aytilgan 22 qo'shiqdan iborat. Yashtda mifologik elementlar «Avesto»ning boshqa qismlariga qaraganda ko'proqdir.
5. Kichik Avesto. (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). Quyosh, Oy, Ardivisura, Varxran va boshqa xudo hamda ma'budalar sharafiga aytilgan qo'shiqlar.

**O'rxun-Enasoy» yodgorliklari.** Bundan ko'p asrlar muqaddam Enasoy daryosi bo'ylarida noma'lum yozuvlarga ega toshlar topilgan. Ular to'g'risida Remezev, Iogann Stralenberg, Messersmidt kabi tadqiqotchilar xabar berganlar. XIX asrning birinchi yarmida Grigoriy Spasskiy bu yozuvlar to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni yig'ib «Sibirskiy vestnik» jurnalida e'lon qilgan.

1889 yili N.M.Yadrinsev O'rxun ( Mo'g'ulistonning Kosho-Saydam vodiysidan o'tib, Selenga daryosiga, Selenga esa Baykal (Boyko'l) ga quyiladi ) daryosi qirg'oqlarida ham shunday yozuvlar bitilgan toshlarni topgan. Bu yozuvlar yonida xitoy tilidagi bayoni ham bo'lib, undan bu toshlarning o'rnatilgan vaqti 732 yil ekanligi aniqlangan. Bu yozuvlar topilgan joy nomlari bilan «O'rxun-Enasoy» va ba'zan runiy yozuvda bo'lgani uchun «Turk-runiy yozuvlari» atamallari bilan nomlana boshlangan.

Qadimiy turkiy yozuvlarning kalitini topgan va ularni birinchi bo'lib o'qigan olim daniyalik professor V.Tomsendir. Shu asosda rus olimlari V.V.Radlov, S.Ye.Malov, V.Steblevalar turk-runiy yozuvidagi yodgorliklarni rus tiliga tarjima qildilar. Bu yozuvlar asosidagi tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishda akademik V.A.Bartold va L.N.Gumilevlarning xizmatlari katta. V.Bartoldning «O'rta Osiyo turkiy xalqlari tarixidan o'n ikki leksiya», «Turk-mo'g'ul xalqlari tarixi» (Moskva, 1968 yil), L.Gumilevning «Qadimiy turklar» (Moskva, 1967 yil), V.Steblevaning «VI-VIII asr turklar pozitsiyasi» (Moskva, 1965 yil) kabi asarlari muhim ahamiyatga egadir.

VI asr o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyoda turk xoqonlarining hokimiyati hukm surgan edi. Bu xoqonlikning chegaralari g'arbda Vizantiya, janubda Eron, Hindiston, sharqda Xitoygacha borib yetar edi. Dastlab Tyurkyurt davlati deb atalgan bu davlatning tarkibiga Azov dengizidan tortib to Uzoq Sharqqacha bo'lgan yerlar kirgan bo'lib, u siyosiy jihatdan bir necha mahalliy hokimiyatlarning uyushmasi sifatida qaror topgan edi.

604 yili bu davlat ikki qismga – Sharqiy va G'arbiy xoqonlikka ajraldi. 745 yilga kelib esa Turk xoqonligi barham topdi.

O'zbek xalqining qadimiy madaniyati ildizlari o'tmish davrlarning eng chuqur qatlamlari sari boradi. Ko'hna O'rta Osiyo yerlarida ne-ne xalqlar, ne-ne madaniyatlar yuzaga kelmadi. Bu madaniyatlar barpo bo'lib, yuksalib, yemirilib o'tdilar. Ammo har biri xalq tarixida o'zining ma'lum izini qoldirdi, kelgusi taraqqiyotga zamin hozirladi va hissa qo'shdi.

#### A D A B I Y O T L A R:

1. Mallaev N., O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1965 yil. 29-85-betlar.
2. Istorii Uzbekskoy literatury, v 2-x tomax, tom I, izd. «Fan», T-1987 g. Str. 23-52.

3. Qayumov A., Qadimiyat obidalari, G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti T-1972 yil.
4. Istoriya narodov Uzbekistana, izd. «Fan», T-1992 g. Str. 3-17.
5. Fazyllov E. I., «S. Ye. Malov-issledovatel istorii tyurkskix yazykov», jurnal «Sovetskaya tyurkologiya», Baku-1975 g. Str. 60-68.

## IX-XII ASRLAR ADABIYOTI SHARQ UYG'ONISH DAVRI

### REJA:

1. Arab xalifaligi inqirozi va O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi
2. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davridagi O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.
3. Ilm-fanning rivojlanishi.
4. Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar kabi daholar davri.
5. Fors-tojik adabiyotining yuksalish davri. Ro'dakiy, Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy va boshqalar ijodi.
6. Jahon adabiyotining buyuk obidasi «Shohnoma»ning yaratilishi.
7. Tasavvuf ilmi. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniylarining adabiy meroslari.
8. Didaktik adabiyot. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiylarning mumtoz asarlari haqida.
9. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari va uning ilmiy ahamiyati

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyotida katta o'rin egallaydi. Bu davrda O'rta Osiyo jahon madaniyati taraqqiyotining markazlashgan o'choqlaridan biriga aylandi. O'rta Osiyo olimlari jahon

ilm-fanini o'z kashfiyotlari va o'lmas ilmiy asarlari bilan boyitdilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Shuningdek, arxitektura, tasviriy san'at, naqqoshlik, o'ymakorlik va musiqa kabi boshqa sohalarda ham benihoya katta yutuqlarga erishdilar.

VIII asr boshlarida O'rta Osiyoni arab istilochilari bosib olgan edi. Asrlar davomida yaratgan madaniy boyliklarni yakson qiladilar, mahalliy yozuvlarni yo'q qila boshlaydilar, davlat ishlarida va yozuvda arab tili va yozuvini qo'llaydilar. Beruniy arab lashkarining boshlig'i Qutayba haqida: «...Xorazm yozuvini bilgan, Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ular orasida bo'lgan olimlarning hammasini turli yo'llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo'q qilib yubordi», -deb yozgan edi. Mahalliy aholi, ayniqsa, qishloq aholisi uzoq vaqt islom dinini qabul qilmay, o'z diniy e'tiqodlarini davom ettirdilar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqalar o'z nomlarini saqlab qoldilar. Arab bosqinchilariga qarshi birin-ketin qo'zg'olonlar ko'tarildi: 722 yilda Divastich rahbarligidagi Samarqand va Panjakent, 750-751 yilda Sharik boshchiligidagi Buxoro, 755 yilda Sharqiy-Shimoliy Erona Sunbod, 776-784 yillarda Buxoro, Samarqand, Qashqadaryoda Muqanna rahbarligidagi qo'zg'olon va xalq harakatlari mahalliy aholining arablarga qarshi noroziligini bildirar edi.

Halifalardan imtiyoz olib, o'z siyosiy mavqeini mustahkamlayotgan mahalliy boyonlar xalq ozodlik harakatidan foydalanib arab halifaligini tugatishga, davlatni o'z qo'llariga olishga intildilar. Natijada sekin-asta arab halifaligi yemirilib, avval yirik va markazlashgan Somoniylar davlati, keyinroq esa Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar sulolasi vujudga kela boshladi.

O'rta Osiyo olimlari mahalliy xalqlarning arab bosqinchilari istilosiga qadar ilm-fanda erishgan yutuqlari an'analarini davom ettirib, rivojlantirdilar. Shuningdek, ular grek, hind, arab va boshqa xalqlarning ilmiy tajribalaridan ijodiy foydalanib, ular bilan hamkorlik ham qila boshladilar. Buxoro, Urganch, Marv, Balx, Bag'dod, Shom va boshqa shaharlar Sharq olimlari hamkorligining markaziga aylandi. Sharq mamlakatlarida arab tili ilm-fan sohasidagi halqaro tilga aylana boshladi.

Oʻrta Osiyo olimlaridan al-Xorazmiy, Forobiy, al-Fargʻoniy, Ibn Sino, Beruniy kabi bir qancha buyuk mutafakkirlar oʻrta asrning ulugʻ ensiklopedistlari boʻlib, ularning ilmiy faoliyati fanning turli sohalarini qamrab olgan edi. Bulardan tashqari tarixchi va adabiyotshunos Marvaziy Dinovariy «Kitob-maorif», Abusaid Gardiziy «Zaynul-axbor», Abulfazl Bayhaqiy dariy tilida 30 tomlik kitob yozgan, Narshaxiy «Buxoro tarixi», Zamahshariy, Qoshgʻariy kabi tilshunos va adabiyotshunos olimlar yetishib chiqdilar. Ular oʻz asarlarida fanning barcha sohalarida

ilgʻor gʻoyalarni ishlab chiqqan boʻlsalar, bu gʻoyalar asta-sekin Yevropaga oʻtib Uygʻonish davrini gʻoyaviy jihatdan tayyorlashda va oxir-oqibatda XVIII asr materializmini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

**Abunasr Forobiy.** IX asrning 70-yillarida (873 yil) Sirdaryo boʻyidagi Forob qishlogʻida tugʻildi. Bagʻdodda oʻqidi, arab, grek va bir necha tillarni mukammal oʻrgandi, falsafa, mantiq, astronomiya, matematika, tibbiyot, musiqa bilan shugʻullandi. «Sharq Arastusi» va Aristoteldan keyingi ikkinchi ustoz - «Muallim-as-soniy» nomlari bilan shuhrat qozondi. Aristotelning «Metafizika», «Fizika», «Meterologiya» kabi asarlariga sharhlar yozdi. Ptolemey, Aleksandr Afrozinskiy, Porfiriya va boshqalarning axloq, psixologiya, tabiatshunoslikka doir koʻp asarlarini sharhlab chiqdi va Platon, Galen kabi faylasuflar haqida qimmatli asarlar yaratdi. Shuningdek, «Falsafa manbalari», «Aql haqida risola», «Falsafani oʻrganishga qadar nimalarni bilish kerak», «Substansiya», «Davlat haqida risola», «Ajoyib shahar aholisining fikr-qarashlari ibtidosi haqida kitob» kabi qimmatli asarlar yozdi, oʻrta asr falsafasi rivojiga katta hissa qoʻshdi.

**Ibn Sino.** Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogʻida tugʻildi. X asr tarixchisi Abu Bakr Narshaxiy bu qishloqni taʼriflab: «Afshina katta bir shahar boʻlib, qalʼasi bor, bir necha qishloqlar unga qarashlidir. Odamlar u joyni tabarruk deyilar, haftaning muayyan bir kunida u yerda bozor boʻladi», degan. Ibn Sino 980 yilda shu yerda dunyoga kelgan. U mustaqil mutolaaga berildi, tibbiyot, falsafa, mantiq, fizika va boshqa fanlar bilan shugʻullanadi. «Kechqurunlari oldimga chiroqni qoʻyib olib, to uyqu bosguncha oʻqish va yozish bilan band boʻlar edim», degan edi Ibn Sino oʻz tarjimai holida. Amir Nuh ibn Mansur qattiq betob boʻlib qolganida uni davolab, oyoqqa turgizgani uchun Ibn Sinoga mamlakatning eng boy kutubxonasi boʻlgan saroy kutubxonasiga kirib foydalanishga ijozat beradi.

«Men koʻp xonalardan iborat kutubxonaga kirdim. Har bir xonada kitob sandiqlari, bir-birining ustiga taxlangan kitoblar bor edi. Men bu yerda shunday kitoblarni koʻrdimki, koʻpchilik xalq ularning nomlarini hatto eshitmagan ham edi. Oʻzim ham ularni bundan oldinlari koʻrmagan edim, keyin ham koʻrmadim. Oʻsha kitoblarni oʻqib, ulardan foydali fikrlarni egalladim, kitobni yozgan har bir kishining ilmiy darajasini aniqladim» deb xotirlaydi Ibn Sino. U Buxoroning eng bilimdon olimi, mohir tabibi boʻlib yetishdi. «Yoshim oʻn sakkizga borganida bor ilmlarning hammasini egallab boʻlgan edim», deb eslaydi. U Xorazm, Abevard, Jurjon, Mozandaron, Ray, Kazvin, Nishopur, Isfaxon, Hamadonda boʻladi. Umrining oxirgi yillarini Hamadon shahrida oʻtkazgan, 1037 yili oʻsha yerda vafot etadi. Ibn Sino 300 tacha asar yozgan: «Tib qonunlari» va «Kitob ash-shifo» uning eng yirik asaridir. U oʻz asarlarida zamonasining ilgʻor va ilmiy mulohazalarga boy gʻoyalarni yaratgan. Bu mulohazalarni uch guruhga ajratsa boʻladi: birinchisi - oʻzidan ilgari oʻtgan olimlarning, asosan, qadimgi yunon olimlarining ayrim toʻgʻri fikrlarini maʼqullash va Sharq olamiga tarqatishga doir mulohazalar; ikkinchisi - oʻzidan burun oʻtgan olimlarning ayrim notoʻgʻri fikrlarini tanqid qilish va oʻzining toʻgʻri fikrlarini olgʻa surishga doir; uchinchisi - oʻz kuzatishlari natijasida Oʻrta Osiyo, Xuroson, Eronda toʻplangan mahalliy tajribalar asosida tugʻilgan yangi fikrlar.

**Aburayhon Beruniy.** 973 yilning 4 sentabrida Xorazmning Kat shahri yaqinida tugʻildi. Beruniy ensiklopedist olim, zoʻr astronom, geolog, tarixchi, faylasuf, filolog va shoirdir. Muqanna haqidagi birinchi asaridan keyin 27 yoshida yaratgan «Oʻtmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar» asarida koʻp xalqlarning yil hisobi, taqvim, ilm-fan, urf-odati va boshqalar haqida juda qimmatli maʼlumot va faktlar beradi. Sharqshunoslarning eng soʻnggi hisobiga koʻra Beruniy asarlari quyidagicha taqsimlanadi: astronomiyaga oid asari - 70 ta; matematikaga oid - 20 ta; geografiya-geodeziyaga oid - 12 ta; kartografiyaga oid - 4 ta; iqlim va ob-havoga oid - 3

ta; falsafaga oid - 4 ta; fizikaga oid - 1 ta; dorishunoslikka oid - 2 ta; tarix, etnografiyaga oid - 15 ta; adabiyotga oid asari - 28 tadir.

Beruniy Sharq va G'arb olimlarining diqqat - e'tiborini o'ziga jalb eta oldi, uning ilmiy dahosi yuksak baholandi. Yevropa olimlaridan Zaxau, Rozen, Sarton, Karrado-Bon uni Leonardo da Vinchi bilan teng deb tan oldi.

Beruniy 1048 yilda G'aznada vafot etdi.

**Muhammad al-Xorazmiy.** VIII asrning ikkinchi yarmida Xorazmda tug'ilgan Abuja'far Muhammad ibn Muso-al-Xorazmiy o'rta asrning ulug' olimi, astronomi, matematigi va geografidir. U «Zij» astronomiya jadvali, «Hind raqamlari hisob-kitobi», «Al muxtasar fil-jabr val-muqobala», «Tenglama va qarshilantirish hisobi muxtasari», «Kitobu surat al-arz» («Er shakli haqida kitob») kabi mashhur asarlarni yaratdi, yer kurrasini turli iqlim va hududlarga bo'ldi, geografik kartalar tuzdi, bir necha ekspeditsiyalarda qatnashdi. Xorazmiyning «Hind raqamlari kitobi» XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan. Matematikaga oid ikkinchi kitobi «Al-muxtasar fil-jabr val-muqobala» matematikani yangi soha - tenglama bilan boyitdi. Keyinchalik shu asarning nomidan olingan so'z bilan matematikaning maxsus bir sohasi - al-jabr «algebra» ataldi.

Xorazmiy nisbasi (taxallusi) lotincha kitoblarda Algoritmus, Algorismus, Alxorismus, Alkauresmus, Alxoxaritus va hokazo shakllarda yozilib, yangi arifmetika - algoritm (algorizm) nomiga asos bo'ldi. Bu nomlar aslida «Xorazmiy»dan kelib chiqqanligin sharqshunos J. Reyno 1849 yildayoq aniqlab bergan edi.

**IX-XII asrlardagi fors-tojik adabiyoti** ham juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Tojik, eron, va ozarbayjon xalqlari vakillaridan Ro'dakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Robiya, Maxastixonim, Asadi Tusiy, Nosir Xisrav, Umar Hayyom, Rashidaddin Vatvot va Nizomiy Ganjaviy kabi ulkan so'z san'atkorlari yetishdi.

O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlari hamkorlikda shunday bir adabiyot yaratdilarki, u bashariyat badiiy fikr xazinasiga noyob durdonalar hadya eta oldi. Ming yillik tarixga ega bo'lgan bu adabiyot hozirgi kunda fors-tojik adabiyoti deb ataladi. Ammo bu adabiyotni yaratishda turkiy vakillar ham faollik ko'rsatishgan, buning natijasida ko'p shoir va faylasuflarning tilida qaytarilib turadigan: «Turkoni forsiygu baxshandagoni umrand», ya'ni «Forsiyda so'zlovchi (yozuvchi) turklar kishiga umr baxsh etuvchilardir», degan ibora paydo bo'lgan.

Darhaqiqat, turkiy xalqlar vakillaridan chiqqan Afzaliddin Hoqoniy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Hisrav Dehlaviy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Zebuniso kabilarning asarlari dillarga huzur baxsh etadi. Mushtarak madaniyat egalari shunday ajoyib adabiyotni totuv qo'shnichilik va hamkorlikda yaratganlarki, shuning uchun ham «ittifoq ila jahonni olsa bo'ladi» degan edi Hofiz Sheroziy.

Bu adabiyotning olamni zabt etgan jahonshumul shuhratga ega ekanligi, jahon adabiyoti shakllanishi va taraqqiyotida tutgan mavqei undagi yuksak insonparvarlik g'oyalari bilan belgilanadi.

**Ro'dakiy.** Fors-tojik adabiy tili va adabiyotining asoschisi, dunyo adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. U bolalik chog'larida Abulabbos Baxtiyor ismli sozandadan rud va chang chalishni o'rganib, xalq she'rlarini kuyga solib, mohirlik bilan ijro etadi. Arab tili va adabiyoti bilan shug'ullandi, she'rlar yozdi. Uning shuhrati Buxoroga yetib borishi bilan Somoniy hukmronlaridan Nasr II ibn Ahmad Ro'dakiyni saroy sozandasi va shoiriga aylantirish maqsadida chaqirib oladi. Saroy a'yonlariga munosabati o'zgarib boshlagan shoirning ko'zlariga nil tortishadi va uni xoru zorlikda yashashga majbur qilishadi. Ammo bu munosabatlar shoir irodasini yenga olmaydi. Uning she'rlari xalq she'rlari kabi ravon va ohangdorligicha yangrayveradi. Ro'dakiy hind masallaridan ijodiy foydalanib, «Kalila va Dimna» axloqiy-talimiy dostonini yaratadi. Afsuski, Gomer va Firdavsiy kabi sermahsul Ro'dakiyning faqat ayrim she'rlari hamda «Kalila va Dimna»ning bir necha baytlarigina saqlanib qolgan. Ro'dakiy 941 yilda o'z qishlog'ida vafot etadi.

**Abulqosim Firdavsiy.** 940 yilda Tabaron viloyatining Tus shahridan uzoq bo'lmagan Boj qishlog'ida dunyoga keldi. Firdavsiy arab va pahlaviy tillarini mukammal o'rganadi, O'rta Osiyo, Eron, Gretsiya, Hindiston, Arabiston olimlarining asarlarini o'rganib chiqadi.

Ro'dakiyning zamondoshi Daqiqiy she'riy «Shohnoma» yozishga kirishib, ming baytdan iborat Zardusht, Gushtasp, Arjasp dostonlarini yozishga ulguradi, xolos. Firdavsiy Daqiqiy boshlagan ishini davom ettirishga qaror qiladi va qariyb 20 yil - 994 yilda «Shohnoma»ni tugatadi. Somoniylarga taqdim etish niyatida bo'lgan Firdavsiy somoniylar sulolasi yemirilishi bilan asarni qayta ishlashga, ya'ni mustabid Sulton Mahmud G'aznaviyga moslashtirishga kirishadi va uni yana 10 yil mobaynida tahrir qiladi, ammo bu tahrir asarning tub mohiyatini o'zgartirmaydi. 30-35 yillik mehnatning natijasi bo'lgan «Shohnoma» - jahon adabiyotining eng yirik eposlaridan biri bo'lib qoldi. 60000 baytdan iborat adabiy durdona Sulton Mahmudga taqdim etiladi. Firdavsiyning vatanparvarlik va xalqchilik ruhida yozilgan bu qahramonlik eposi bosqinchi va johil Sulton Mahmudga ma'qul kelmaydi.

«Shohnoma» dagi ijobiy va salbiy obrazlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: mifologik obrazlar - Kayumars, Xushang, Taxmuras, Jamshid va boshqalar; afsonaviy qahramonlar - Som, Narimon, Zol, Rustam, Gev, Bijon va boshqalar; tarixiy personajlar - Mazdak, sosoniylar sulolasiga mansub Anushirvon, Bahrom Go'r, Hisrav Parvez va boshqa podshohlar. Firdavsiy o'zining «Shohnoma» asarida Mazdakka xayrixohlik bilan yondoshadi, Zakhokka qarshi xalq farzandi temirchi Kova obrazini yaratadi, Anushirvon adolatli shoh sifatida, Bahrom Go'r pahlavon, Xisrav Parvez shavkatli shoh va oshiq sifatida gavdalaniriladi. Bu dunyo adabiyotining noyob durdonasi hisoblangan «Shohnoma» o'z o'rnida keyingi paytlarda yaratilgan «Xamsa»chilikning asosi deb qaralsa xato bo'lmas. Chunki, uning keng qamrovli ta'sir doirasi hayotning barcha jabhalarini o'zida mujassam qilgan.

**G'iyosiddin Abdulfatih Umar Hayyom** 1040 yilda Nishopurda tug'ildi. Otasi Ibrohim haymaduz (chodirdo'z) bo'lgani uchun u Umar Hayyom nomi bilan shuhrat topgan.

Umar Hayyom 20 yoshlaridayoq birinchi ilmiy asari - «Mushkilot-ul-hisob» («Matematika shakllari») bilan mashhur bo'lgan edi. Keyinchalik u astronomiya, falsafa, matematika, musiqa va boshqa sohalarida qimmatli asarlar yaratdi. Hayyomning adabiy faoliyati ilmiy faoliyatiga jo'r va hamohangdir, u o'z ruboiylari bilan davrning atoqli gumanisti va ma'rifatparvari sifatida gavdalanadi. U inson va hayotni sharaflaydi, tarkidunyochilik va badbinlikka qarshi kurashadi, mutaassib shariat peshvolarini fosh qiladi. Hayyom ko'pgina ruboiylarida may haqida

kuylaydi. Biroq Hayyomdagi «may» hayotga muhabbat, shodlik va quvnoqlikning ramziy obrazidir. Umar Hayyom 1123 yilda Nishopurda vafot etadi.

**SHARQ UYG'ONISH DAVRI.** 711 yili islom dini bayrog'i ostida arablar Yevropa qit'asi - Ispaniyaga bostirib kirdilar va oz vaqt ichida yarim orolni deyarli to'liq zabt etdilar. 794 yili ispanlar uchun arabcha maktablar ochildi, IX asrda esa Yevropa qit'asida birinchi KORDOVA (Korduba) dorilfununini ham arablar tashkil etdilar, bu madaniyat va ma'rifatga erishish o'zidan-o'zi bo'lmaydi, albatta. Chunki arablar Ispaniyaning katta bir qismini bostirib olgandan keyingi eng hayrli ishlaridan biri yunon madaniyatiga taalluqli bo'lgan barcha kitoblarni arabchaga tarjima qildirdilar. Shunday qilib, qadimgi yunon falsafasi, fani, adabiyoti Sharq xalqlari madaniyatini larzaga keltirdi, uyg'otdi va so'ngra Yevropa xalqlari tarixida yangi bir davrni, taraqqiyot bosqichini belgilab berdi.

Arablar tomonidan tashkil qilingan maktab, dorilfunun va kutubxonalar Sharq va G'arb o'rtasida madaniy aloqalar o'rnatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Kordova halifasining kutubxonasida 400000 jild kitob saqlangan. Yevropaning ilmga intilgan ahli avval arab tilini o'rganib, keyinchalik o'sha maktab va kutubxonalarda shug'ullanganlar. Ular Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (Algoritmus), Abunabr Muhammad al-Forobiy (Farabus), Ibn Sino (Avitsenna), al-Farg'oniy (Alfraganus), Abu Ma'shar al-Balxiy (Albumasar), Ar-roziy (Razis), Ibn Ro'shd (Averroes) kabi Sharq olimi, faylasuflarining asarlari va ular orqali qadim yunon fani, falsafasi bilan tanishganlar va o'z navbatida o'z yurtlariga tarqatganlar.

Sharqning Yevropaga ta'siri faqat fan, falsafa sohasida bo'lmay, badiiy ijodda ham muhim o'rin egallagan. Provansal poeziyasi vazn jihatidan Ispaniyada rivoj topgan arab she'riyati, uning keng tarqalgan turlari muvashshah va zajalga juda yaqin turadi. Provansal she'riyatida poetik o'lchovlar nihoyat ko'p bo'lganidek (900ga yaqin), Ispaniyadagilarning ham turi ko'p bo'lgan (muvashshahniki 250 ga yaqin). Akademik I.Yu.Krachkovskiy o'zining «Ispaniyada arab poeziyasi» asarida provansal poeziyasi va «yangi yoqimli uslub»ga xos bo'lgan bu xususiyatni arab qabilalarida keng tarqalgan ishqi lirikaga bog'laydi.

Qadimgi yunon falsafasini o'zlashtirib, uni yanada yuqoriroq bosqichga ko'targan Sharq olimlari, faylasuflari tomonidan yaratilgan ta'limot bir tomondan Platon va Plotin idealizmini tanqid qilsa, Aristotelning materializmini kamolotga yetkazdi, bu bilan uning materializmi o'zining asl mohiyatini ko'rsatdi. Sharq faylasuflari ta'limotiga asoslanib ijod etgan Sigeriy de Brabant G'arb Uyg'onish davri materializmi va uning Yevropa fani poydevorini yaratdi

**Diniy-falsafiy oqimlar, didaktik va badiiy adabiyot.** Tasavvuf - diniy-falsafiy oqimdir. Uning ob'ektiv borliq va ilohiyot masalasida ikki xil ta'limoti: mistitsizm va panteizm ta'limoti bor. Mistik ta'limotga ko'ra, bu mavjud olamdan boshqa sirlar va g'ayri tabiiy kuchlar olami ham bor. Inson butun hayoti va kuch-quvvati, fikr-zikrini mana shu olamga g'arq bo'lishga, «al-haq»qa (xudoga) qovushib ketishga qaratmog'i lozim deyiladi. Bu ta'limot zohidlikni - tarkidunyochilikni vujudga keltiradi. Zohidlar dunyoni ikkiga: «foniy» («vaqtincha») va «boqiy» («abadiy») ga bo'lib, bu «foniy» dunyodan voz kechadilar. Masalan, Abubakr Shibliy degan bir zohid o'z ko'ziga tuz sepib ko'r bo'lgan.

Panteistik ta'limot borliqni ilohiylashtiradi. Bu ta'limotga ko'ra, butun olam mutlaq haqiqat - xudo («al-haq»)ning in'ikosidir, ya'ni zuhur etishdan iborat. Kishining «men»ligi «al-haq»ning ojiz bir zarrasidir, kishi o'lganidan keyingina bu ojizlikdan xalos bo'lib, asliga - «al-haq»qa qo'shilib ketadi, degan ta'limotga asoslanadilar.

Tasavvuf ilmining hali hozirga qadar mukammal bir yo'nalishga to'g'ri tushib olmaganligining natijasi o'laroq, har xil yo'nalish va guruhlar paydo bo'ladiki, bular «Vahhobiylik» yoki «Xizbut-tahrir» va boshqa shunga o'xshash oqimlar, kishilik jamiyatining sokin yo'nalishiga tahlika solib keladilar. Islom ruhoniylari, aniqrog'i, mana shu tasavvuf ilmining na mistik, na panteistik ta'limotlarining mohiyatini tushunib yetmaydigan din peshvolari mistik ta'limotga ham, shuningdek, panteistik ta'limotga ham qarshi chiqqanlar, chunki biror ta'limotni oxiriga yetkazish yoki uni mukammal tarzda o'rganish uchun ularning onglari ojizlik qilgan, shu sababli panteistik ta'limot tarafdorlaridan bo'lgan Shayx Boyazd Bistomiy (IX) Mansur Xalloyni vaxshiylarcha o'ldirdi.

Tasavvuf adabiyoti IX asrdayoq vujudga kela boshladi. XI-XII asrlarda uning Bobo Ko'hiy (1050 yilda vafot etgan), Abdulla Ansoriy (1002-1088), Abdulmajid Sanoiy (1150 yilda vafot etgan), Ahmad Yassaviy (1166 yilda vafot etgan), Sulaymon Boqirg'oniy (1186 yilda vafot etgan) kabi namoyondalari yetishib chiqdi.

Farididdin Attor (1151-1221) kabi tasavvufning yetuk namoyondalari bu ta'limotning falsafiy masalalarini targ'ib qiluvchi asarlar yaratdilar. Farididdin Attor «Mantiq-ut-tayr» nomli majoziy asarida inson xudoning soyasidir, u o'zligidan voz kechib, «vahdati vujud» (xudoga) qo'shilmog'i lozim, degan g'oyani ilgari suradi.

**Ahmad Yassaviy** tasavvuf adabiyotining yirik vakili, yassaviya (yoki jahriya) tariqatining asoschisidir. Yassaviya tariqati, garchi diniy ilmning falsafiy oqimi va asosi bo'lgan tasavvuf tariqasida kirib kelgan bo'lsa-da, u asosan xalq ommasini muhtojlik va huquqsizlikka ko'nikishga, hukmdorlarga quldek tobe va mute bo'lishga chaqirgan. Chunki, uning tariqatida hayotda nimaiki sodir bo'lsa, u Oллоhdan kelishi va shu asnoda inson hech bir o'zgarishsiz, uni shukronalar bilan qabul qilishi, sabr bilan nihoyasiga yetkazishi kerak, degan da'vatlar bor.

Ahmad Yassi (Turkiston)da ruhoni-shayx oilasida tug'ildi. Rivoyatlar Ahmadning otasi Ibrohimni uning otasi Mahmud, bobosi Iftixor va boshqalar orqali Muhammad (SAV) payg'ambarning qizi – Bibi Fotima nasliga bog'laydilar. Ahmad go'daklik chog'ida otasi o'lib Arslonbob degan eshonning qo'lida qoladi. Keyinchalik Buxoroga borib mashhur mutasavvuf



Yusuf Hamadoniydan tasavvuf ilmini o'rganadi va Yusuf Hamadoniyning o'limidan keyin uning o'rnida qolib halifalik qiladi, so'ngra yirik bir mutasavvuf sifatida Turkistonga qaytib, 1166 yilda o'sha yerda vafot etadi.

Yassaviyning «Devoni hikmat» asarining asl nusxalari saqlanib qolmagan, XV asrda ko'chirilgan to'rtta hikmatni hisobga olmaganda, qo'lyozmalarning eng qadimgilari XVII asrga mansubdir. Shunday bo'lsa-da, bu asar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Asardagi she'rlarning xilma-xil o'zgarishlarga uchraganiga qaramay, devonning g'oyaviy negizini asosan Yassaviy she'rlari tashkil etadi. Bu fikr Yassaviy nomi turli shaklda zikr etilgan she'rlarga taalluqli. Yassaviy she'rlarining tili va uslubi o'zgarib borgan bo'lsa ham, ularning g'oyasi, mazmuni saqlanib qolgan.
2. Devon Yassaviyning o'zi tomonidan emas, keyinroq uning muxlislari tomonidan tuzilgan bo'lishi kerak.
3. Hikmatlarning o'zgarib borganligini, ulardagi «Tuqqan yerim ul muborak Turkiston» kabi ko'pgina misralar ham ko'rsatadi. Chunki, ilgari Yassi deb nomlangan shahar, XV asrning oxirlaridan boshlab Turkiston deb yuritilgan.
4. «Ahmad» yoki «Ahmadiy» nomi bilan kelgan ko'pchilik she'rlarning aruz vaznida bo'lishi (Yassaviy hikmatlari asosan barmoq vaznidadir), ularning til va uslub jihatidan XV asr adabiyotiga yaqin turishi shuni ko'rsatadiki, devondagi «Ahmad», «Ahmadiy» shayx Kamoliddin Iqoniyning muridi shayx Said Ahmad (XV asr) bo'lishi mumkin.
5. Modomiki, Yassaviy hikmatlariga taqlid qilib yozilgan va mustaqil bitilgan she'rlar ko'payib borgan ekan, demak Yassaviy ta'siri, uning g'oyalari keng miqyosda tarqagan va shu asosda yassaviya-jahriya tariqatining bir necha asrlik adabiy yodgorligiga aylangan.

Yassaviya yoki jahriya tariqatining ta'limoti turli davr va joylarda Yassaviyning ko'plab shogirdlari va muxlislari tomonidan davom ettirildi. Sulaymon Boqirg'oniy, Bobo Mochin, Shamsiddin O'zgandiy, Xudoydod, Qul Nasimiy, Ubaydiy va boshqalar «Devoni hikmat» izidan borib, tasavvuf ilmining ma'lum yo'nalishini targ'ib qiluvchi asarlar yaratdilar.

Yassaviyning shogirdi va izdoshlaridan biri **Sulaymon Boqirg'oniy**dir (1186 yilda Xorazmning Boqirg'on qishlog'ida vafot etgan). Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota nomi bilan ham yuritilgan) «Boqirg'on kitobi» nomli to'plamning muallifi sifatida tanilgan va bu asaridan tashqari «Oxir zamon kitobi», «Bibi Maryam kitobi» kabi dostonlarni ham yaratgan.

Sulaymon Boqirg'oniyning asarlarining deyarli barchasi bizgacha turli o'zgarishlar bilan yetib kelgan, ayniqsa, «Boqirg'on kitobi»ning 1877 yil va undan keyingi Qozon bosmalari fikrimizning dalilidir.

**Yusuf Xos Hojib** XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manbaa uning «Qutadg'u bilig» asaridir. Muallif doston muqaddimasida yoshi ellikka yaqinlashganini ta'kidlaydi. Shu ma'lumotdan kelib chiqib biz uning tug'ilgan yilini XI asrning 20-yillarida, deb ayta olamiz. Yusuf Xos Hojibning vatani Bolasog'un XI-XII asrlarning yirik savdo-sotiq va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Bu shahar ikki marta qoraxoniylarning poytaxti ham bo'lgan. Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilik» («Saodatga eltuvchi bilim») dostonini Bolasog'unda yoza boshladi, uni Qashqarda yozib tugatdi va qoraxoniy hukmronlaridan bo'lgan Tavg'ach Bug'roxonga taqdim etdi. Bug'roxon doston muallifini taqdirlab, unga «Xos Hojib» (mukarram, eshik og'asi) unvonini berdi. «Qutadg'u bilik»ning uch qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bular «Vena» (yoki «Xirotda»), «Qohira», «Namangan» nusxalari deb yuritiladi. Uning birinchi nusxasi XIX asrning 20-yillarida Istanbulda topildi. Bu nusxa XV asrda Xirotda uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan, uni topgan olim Xammer Purgstall asarni Venadagi Qirollik kutubxonasiga topshiradi. Shuning uchun bu nusxa «Xirotda» yoki «Vena» nusxasi deb yuritiladi. Shuningdek, ikkinchi nusxasi Qohirada topilgan bo'lib, XV asrda arab yozuvida ko'chirilgan, (topilgan muddati 1897 yil). Uchinchi nusxasi ikkinchisi kabi arabcha yozuvida ko'chirilgan. Ammo bu nusxa boshqalarga qaraganda bir muncha mukammalroq va sharqshunos olim Ye.E.Bertelsning taxmincha, u XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida ko'chirilgan bo'lishi kerak.

Yusuf Xos Hojib bek va amaldorlar haqidagi fikr-mulohazalarini asardagi Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish, O'zg'urmishlar qiyofasida mujassamlashtirib, ularni o'z davrining saroy ahliga bir muncha namuna qilib ko'rsatishga intildi.

«Qutadg'u bilik» XI asrdagi O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistondagi turkiy xalqlar va qabilalar tilining, xususan, eski o'zbek tili va uyg'ur tillarining yodgorligidir. U «Devonu lug'otit turk»dagi qadimgi qo'shiqlar va, ayniqsa, «O'rxun-Enasoy» yodgorliklari tilidan ancha farq qiladi hamda turkiy tillarning adabiy til sifatida taraqqiy etish jarayonini

ko'rsatadi. Shu bilan birga bu doston XI asr qoraxoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot va madaniyatni o'rganishda ham qimmatli bir manbadir.

**Ahmad Yugnakiy** iste'dodli shoir va donishmand murabbiydir. Undan saqlanib qolgan yagona adabiy meros «Hibat-ul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») badiiy so'z san'ati va adabiy tilning juda qimmatli hamda nodir bir yodgorligidir. Yugnakiyning hayoti va faoliyati haqida asarning ayrim misralari va uning nusxalariga boshqalar tomonidan yozilgan qaydlar bir oz bo'lsa-da tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

«Hibat-ul-haqoyiq» didaktik doston bo'lib, bu uning badiiy xususiyatlari va uslubini belgilaydi. Bu asar ham «Qutadg'u bilik» singari aruzning mutaqorib bahrida (faulun faulun faulun faul) yaratilgan. Ahmad Yugnakiy «Hibat-ul-haqoyiq» dostoni bilan eski o'zbek va uyg'ur adabiy tili hamda adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Bu asar Navoiydek buyuk so'z san'atkori nazaridan chetda qolmagan. Navoiy «Nasoyim-ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») asarida «Hibat-ul-haqoyiq»dan parcha keltirib, shoirning ko'zi ojiz bo'lganini qayd qiladi. Shuningdek, bu dostonning Navoiyga tanish va manzur bo'lishi Ahmad Yugnakiyning o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin tutganini yana bir karra ta'kidlaydi. Doston Ahmad Yugnakiyning XII asrning donishmand ma'rifatparvari va ilm jarchisi sifatida gavdalandiradi.

**Mahmud Qoshg'ariy** XI asr boshlarida Balasog'unda (Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinida) tug'ildi. U turkiy xalqlarning tiliga, turli qabila va urug'larning urf-odatiga, og'zaki badiiy ijodiyotiga qiziqdi. Yuqori Chindan boshlab, Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilgan keng va katta masofani birma-bir kezib chiqdi. Bu haqda muallif bunday deydi: «... Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim... Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'izlar qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi».

Davrining eng iste'dodli va atoqli olimlaridan biri bo'lgan Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslikka doir ikki nodir asar - «Javohir-un-nahv fi lug'otit turk» («Turkiy tillarning nahv (sintaksis) durdonalari, qoidalari»), «Devoni lug'otit turk» («Turkiy tillar lug'ati») asarlarini yaratdi. Uning birinchi asari bizgacha yetib kelmagan yoki noma'lum bo'lib qolmoqda, ikkinchi asari esa XX asr boshlarida Istanbulda topilgan. Bu qo'lyozmani ko'chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiyning ma'lumotiga ko'ra, u asarni Mahmud Qoshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxasidan ko'chirib olgan.

«Devoni lug'otit turk»ning adabiy qimmatini benihoya katta. Unda uch yuzga yaqin she'riy parcha va juda ko'p maqol hamda hikmatli so'zlar bo'lib, muallif ulardan so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlashga bir ko'rgazma sifatida foydalanadi. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariy: «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajlalar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezatdim», deydi. Muallif Alp Er To'nga (Afrosiyob), Iskandar va boshqalar haqida xalq orasida mavjud bo'lgan ayrim afsona va rivoyatlarni ham bayon qiladi. Shu bilan birga ayrim adabiy janrlar haqida, vazn, istiora, o'xshatish va boshqa nazariy masalalar haqida ma'lumot beradi.

Devondagi ko'pgina adabiy parchalarda qabilalarning juda qadimgi patriarxal hayoti, ibtidoiy jamoa qoldiqlari, tabiat hodisalariga primitiv (jo'n va sodda) qarash ifodalanadi hamda ularda islom dini aqidalarining izi ko'rinmaydi, arabcha so'zlar ishlatilmaydi. Ayniqsa, xalq maqollarining mohiyatini yoritib, ularning ishlatilish o'rnini ham ko'rsatadi. Masalan: «Ikki bug'ra ichashur, o'tra ko'kagun yangilur - ikki er hayvon olishadi, orada ko'kagun (pashsha)

yengiladi. Bu maqol ikki amir urishib, orada kuchsizlar yanchiladilar, degan ma'noda ishlatiladi; yoki «O'sukmisha saqig' qamug' suv ko'rinur - chanqagan kishiga har bir sarob suv bo'lib ko'rinadi.» Bu maqol «muhtoj odam har narsadan o'z hojatining rivojini o'ylaydi» kabi har bir ishlatilgan maqolning sharhini keltirib, uning ijtimoiy hayotdagi ishlatilish me'yorini belgilab bergan.

«Devoni lug'otit turk» kitobi 1928 yili nemis sharqshunos olimi Brokelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, Leypsig shahrida nashr etildi. 1939 yilda esa Bosim Atalay tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda devonning hozirgi o'zbek tiliga tarjimasini yuzasidan professor S. Mutallibov ish olib bordi. Mashhur rus turkshunoslaridan V. Radlov, S. Malovlar ham bu sohada barakali ish qildilar.

#### A D A B I Y O T L A R:

21. Mallaev N., O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1965 y. 86-196-betlar.
22. Istoriya Uzbekskoy literatury 62 tomah, tom 1 izd-va «Fan», T-1987 g. Str. 55-101.
23. Abdullaev I., Poeziya na arabskom yazыke v Sredney Azii i Xorasane X - nachala XI v., izd. «Fan», T-1984 g., glava IV, str. 176-141.
24. Istoriya narodov Uzbekistana, izd. «Fan», T-1992 g., str. 99-123.
25. Xasanov X., Sayyoh olimlar, «O'zbekiston» nashriyoti, T-1981 y.
26. Omar Xayyam, Rubai, izd. Literatury i isskustva im. G.Gulyama, T-1980.
27. Forobiy, Risolalar, «Fan» nashriyoti, T-1975 y.
28. Yusuf Xos Hojib, «Qutadg'u bilig», «Yulduzcha» nashriyoti, T-1990 y.
29. Sulaymon Boqirg'oniy, «Boqirg'on kitobi», «Yozuvchi» nashriyoti, T-1991 y.
10. Injular ummoni, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T- 1988y.
30. Sulaymonova F.K. «Sharq madaniyati va Dante», «Adabiy meros» jurnali, 1977 yil №8, 91-bet.

### XIII-XIV ASRLAR ADABIYOTI

#### REJA:

1. Mo'g'ullar istilosi va ijtimoiy hayot.
2. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot.
3. Rabg'uziy. «Qissasi Rabg'uziy»da inson muammosining yoritilishi.
4. Sarbadorlar harakati.
5. Badiiy adabiyotda milliy ruhning kuchayishi. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Xorazmiylarning roli.

O'rta Osiyo xalqlarining XIII asrdan keyingi madaniyati, san'ati va adabiyoti ham ularning xo'jalik hayoti singari, Chingizxon istilosi va uning dahshatli oqibatlarini bilan bog'liq.

XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida ko'pgina viloyatlar Xorazmshohga rasmangina qaram bo'lib, saroy ahllari o'rtasida ittifoqlik yo'q edi. Bu ichki muholifatlarni hatto Xorazmshohning onasi Turkon Xotun ham qo'llab-quvvatlar edi. Asli xorazmlik bo'lgan Mahmud Yalavoch (Yalavoch-elchi) Chingiz tomonidan Xorazmshohga elchi bo'lib kelgan edi. Shuning uchun ham u Mahmud Yalavoch deb atalgan. U kabi josuslar orqali Xorazm davlatining ichki ahvolini va uning zaif tomonlarini yaxshi bilgan Chingizxonning O'rta Osiyoga bostirib kirishi uchun bahona bo'lgan bir voqea sodir bo'ladi: Chingizxonning Xorazmga yo'l olgan 450 kishilik savdo karvoni 1218 yilda O'tror shahrida talanadi, savdogarlar qirib tashlanadi. Shundan so'ng Chingizxon 1219 yilda Yettisuv viloyatini bosib olib, Movarounnahr va Xorazm chegaralariga bostirib kela boshlaydi.

Tarixchi Juvayniyning ma'lumotiga ko'ra, o'trorliklar 6 oy davomida shaharni o'z qo'llarida saqlab turadilar. Chingiz qo'shiniga qarshi uzoq va shiddatli jang qilgan xalq qahramoni Temur Malik boshchiligida

Xo'jand aholisi katta qahramonlik ko'rsatadi. Xorazmshohning valiahdi Jaloliddin Xuroson, Hind daryosi atrofi va boshqa joylarda Chingiz qo'shiniga qarshi mardona janglar olib boradi. Jaloliddin 1221 yilning oxirida Hind daryosi bo'yidagi janglarda yengiladi, oilasini dushman qo'lida qoldirishni istamay, onasi, xotini, boshqa yaqinlarini daryoga cho'ktirib yuboradi, o'zi esa Hind tuprog'iga o'tib ketadi. 1224 yilning boshiga qadar Hindistonda yashab, keyin esa Kavkaz ortiga o'tib, u yerda katta davlat qurmoqchi bo'ladi. 1231 yilda Qurdiston tog'larida halok bo'ladi.

Chingizxon istilosi O'rta Osiyo aholisini nihoyatda kamaytirib yubordi, ishchi kuchining katta qismini barbod qildi, ko'p kishilarning turli o'lkalarga boshpana izlab qochib ketishlariga sabab bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlari uzoq yillar davomida istilo va istibdodning og'ir va dog'li jarohatlarini tuzata olmadi.

O'zbek xalqi Chingiz istilosiga qarshi qahr-g'azabni ifodalovchi, bosqinchilarga qarshi kurashni ifodalovchi afsonalar, ertaklar yaratdi. Mana shunday asarlardan biri «Guldursun» afsonasidir. Afsonalarga qaraganda Guliston degan bir obod joy shu shaharning podshosi, oqil va donishmand yetakchisining yengiltak qizi Guldursun xiyonati evaziga xarobaga aylanadi, shuning uchun uning nomi xaroba ma'nosida ishlatilgan.

Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi xalq qahramonlik kurashi boshqa xalqlarning adabiyotida ham, jumladan, rus xalqining Shelkan (Cho'lxon) haqidagi g'azabli qo'shiqlarida, Serapion nasihatnomalari, «Evpatiy Kolovrat haqida qissa» va boshqa asarlarida ham ifodalangan. Jumladan, o'g'uz va qarluq-uyg'ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan bo'lgan «O'g'uznoma» ham qisman Chingiz istilosi davriga to'g'ri keladi. Chunki asar tilida mo'g'ul elementlari bor va dahshatli istilolar, urushlar tasvirlanadi.

Mo'g'ullar istilosi davrida Xindiston birmuncha osoyishta, obod va madaniyati yuksak o'lka edi. Shuning uchun O'rta Osiyoning ko'pgina olim va fuzalolari Hindistonga o'tib ketadilar. Masalan, buxorolik shoir Muhammad Avfiy, toshkentlik shoir Badriddin Chochiy, naxshablik (Qashqadaryo vohasi) Ziyo Naxshabiylar Hindistonda yashab ijod qiladilar. Shuningdek, shoirlardan Kamol Xo'jandiy, Nosir Buxoriylar ham Eronga borib, o'sha yerda turg'un bo'lib turib qolganlar.

**Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy** XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan. U Xorazmning Raboti o'g'uz degan joyidan bo'lgan. Uning hayotiga doir «Qissasi Rabg'uziy» asarining muqaddimasidagi «Bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqluq, ko'p yozug'luq Rabot qozisi Burhoniddin o'g'li Nosiriddin» degan so'zlardan bo'lak ma'lumot saqlanib qolmagan

«Qissasi Rabg'uziy» jami 72 qissadan tashkil topgan bo'lib, ularning aksariyati «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi diniy-afsonaviy syujetlar asosida yaratilgan. Muso, Nuh, Solih - payg'ambarlar, Xorut va Morut - farishtalar, Qobil va Hobil haqidagi hikoyalar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari hayot voqealaridan yoki turmush tajribasidan olib yozilgan ayrim hikoyalar ham bor.

Shuningdek, faylasuf shoir Pahlavon Mahmud, lirik shoir Badriddin Chochiylar ijodi ham XIII-XIV asrlar mahsuli sifatida, o'zbek adabiyotining shu davrdagi merosi sifatida o'rganiladi.

O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ullar istibdodiga qarshi ozodlik harakatlari tobora kengayib, keskin tus oladi. Nihoyat, «Sarbadorlar harakati» deb nomlangan katta xalq harakati boshlanadi. Bu harakatning jangovor ruhini «sarbador» («boshimizni dorga qo'yamiz») so'zining o'zi ham yaqqol ko'rsatib turar edi. Sarbadorlar G'arbiy Xurosonda poytaxti Sabzavor bo'lgan o'z davlatlarini vujudga keltiradilar va bu davlat 43 yil yashab, 1381 yilda Temur davlatiga qo'shib ketadi. Bu harakat taraqqiyparvar madaniyat, san'at va adabiyotda demokratik motivlarning rivojlanishiga samarali ta'sir etgan, badiiy adabiyot sohasida esa, sarbadorlarning Ibn-Yamin kabi iste'dodli shoirlari ham yetishgan edi.

**Xorazmiy** o'zbek dunyoviy adabiyotining ilk yirik namoyandalaridan biridir. Xorazmiy 1353 yilda Oltin O'rda Xoni Jonibekning Sirdaryo muzofotidagi amaldorlaridan biri Mahmudxo'jabek bilan tanishadi. Mahmudxo'ja ma'rifatli va qobiliyatli hukmdor va shoir bo'lib, u Xorazmiydan o'sha yili qish faslida shu yerda qolib, o'zbek tilida bir asar yaratishni iltimos qiladi. Mana shu iltimosga ko'ra Xorazmiy «Muhabbatnoma» asarini yaratadi. Bu asar Mahmudxo'ja ta'biri bilan baholaganda «muhabbat nardi»ni ko'plarga qaraganda ilg'orroq, ustalikroq va san'atkorona ravishda o'ynaganini bildiradi. «Muhabbatnoma» 1353-1354 yillarning qish faslida Sirdaryo atrofida yaratiladi. Xorazmiydan bizga qadar «Muhabbatnoma» va unga ilova qilingan «Hikoyat» asari yetib kelgan, xolos.

**Atoiy** XV asrning birinchi yarmida yetishgan iste'dodli lirik shoirdir. Atoiy haqidagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning «Majolis-un-nafois» va «Nasoyim-ul-muhabbat» asarlarida keltirilgan, ana shu ma'lumotlarga asoslangan holda uning kelib chiqishi va avlodlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Atoiy o'z davrining yetuk olim va fozillaridan biridir. Uning she'rlarida biz fanning turli sohalariga doir ma'lumotlarni, Iskandar, Jamshid va Kaykovus kabi o'nlab tarixiy nomlarni, turli geografik atamalarni, ko'pgina badiiy asarlar va Farhod, Shirin, Layli va Majnun, Vomiq va Uzro, Yusuf va Zulayho kabi qahramonlarning nomlarini uchratamiz. Bizga Atoiyning yagona qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, unda shoirning 260 g'azali mavjud. Atoiy g'azallarida dunyoviy sevgini kuylaydi, tabiat ko'rki va insoniy fazilatlarini ta'rif va tavsif qiladi, xalq og'zaki ijodi namunalariidan ijodiy foydalanadi va sodda, ravon, jo'shqin hamda nafis baytlar bitadi.

Lutfiyning bizga qadar saqlanib qolgan asarlari uning tarjimai holini to'la yoritish imkonini bermaydi. Barcha (Davlatshoh Samarqandiy, Navoiy, Xondamir, Abdulla Qobuliy, Shamsiddin Somiy, Vozihlarning tazkiralari) manbalarda ko'rsatilishicha, taxallusi Lutfiy bo'lgan bu atoqli so'z san'atkori 1366 yoki 67 yilda Xirot chekkasidagi Dehinakor degan joyda tug'ilgan va o'sha yerda yashab ijod etgan. Lutfiyi Hiri deb yuritiladi va sabzavorlik, nishopurlik, kashmirlik, mashhadlik va boshqa Lutfiylardan farq etib turadi. U 99 yil umr ko'rib, o'z qishlog'ida vafot etgan. Lutfiyning bizga qadar yetib kelgan adabiy merosi «Gul va Navro'z» dostoni va «Zafarnoma» asarlaridir. Bulardan tashqari uning fors-tojik tillarida yaratgan qator she'rlari bor. Lutfiy asarlarining turli davrlarda ko'chirilgan nusxalari uning naqadar nafis so'z ustasi ekanligidan dalolat beradi. Har bir tarixchi va tazkiranavis asarlarida unga nisbatan baho berilishi va ta'riflanishi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Shu bilan birga g'azallaridagi o'ynoqilik ham uning so'z ustasi ekanligini ko'rsatadi.

#### A D A B I Y O T L A R:

1. Mallaev N., O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1965 y. 197-398-betlar.
2. Istoriya Uzbekskoy literaturo', v 2-x tomax, tom I, izd. «Fan» T-1987 g. Str. 105-207.
3. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1994 y. 426-428-betlar.
4. Istoriya narodov Uzbekistana, izd. «Fan» T-1992 g. Tom I, str. 134-166.
5. Atoiy, Tanlangan asarlar, O'z davlat badiiy adabiyot nashriyoti, T-1958.
6. Mo'minov I., Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli, «Fan» nashriyoti, T-1968 y.

#### **NAVOIYNING ILMIIY-ADABIY MEROSI. NAVOIY DAVRI ADABIYOTI.**

1. Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.
2. Xattotlik, tasviriy san'at, musiqa.
4. Badiiy adabiyot, adabiy janrlar, adabiy aloqalar, tarjimalar, tazkiralalar.
5. Navoiy merosini o'rganishga doir.
6. Navoiyning davlat ishlaridagi mahorati.
7. Navoiy-tarixchi. «Tarixi mulki ajam», «Tarixi hukamo va anbiyo».
8. Navoiy-adabiyotshunos va eski o'zbek tilining ilmiy asoschisi sifatida. «Mezon-ul-avzon», «Majolis-un-nafois», «Muhokamatul-lug'atayn» va boshqalar.

9.Navoiyning badiiy va falsafiy asarlari. «Lison-ut-tayr», «Xazoyin- ul maoniy», «Xamsa» va boshqalar.

10.Boburning hayoti va ilmiy-adabiy merosi.

XIV asr oxiri - XV asrning boshlarida Temur saltanati sekin-asta yemirila boshlaydi. Buning sababi, asosan, o'zaro toj-taxt talashishlar bo'ladi. Temurning vafotidan keyin 1409 yilda taxtga Shohruh chiqadi. U Xurosonni o'ziga qoldirib, Movaraunnahrni o'g'li Ulug'bekka beradi. Agar xronologik tarzda mana shu davr voqealari qarab chiqiladigan bo'lsa, ular quyidagicha tasvirlanadi: 1447 yilda Shohruh vafot etadi, 1449 yilda Ulug'bek yovuzlarcha o'ldiriladi. Xuroson Abulqosim Boburga, Movaraunnahr Abusaid Mirzoga qoladi. Shunday bir sharoitda 1499 yilda Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniy (1451-1506) temuriylar sarhadlariga bostirib kira boshlaydi.

**Ulug'bek** nomi bilan shuhrat qozongan Tarag'ay 1394 yil 22 martda tug'ilgan. U temuriylarning odatiga ko'ra buvisi - Temurning katta xotini Saroymulxonim tarbiyasiga topshiriladi. Ulug'bekning otasi Shohruh mirzo katta va boy kutubxona tashkil etgan edi. Bu kutubxonada O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Gretsiya va boshqa mamlakatlarda yetishgan buyuk olimlarning nodir asarlari saqlanar edi. Zehnli Ulug'bek ko'p vaqt kitob mutolaasi bilan shug'ullanar, yulduzlar olamini o'rganishga qiziqar edi. Ulug'bek saroydagi safdosh olimlarning yordami bilan Samarqandda Obirahmat suvi yonidagi tepalikda 1424 yilda katta rasadxona - observatoriya quradi. Rasadxona Boburning ma'lumotiga ko'ra, uch qavatli, juda baland va muhtasham bino bo'lgan. Bu rasadxonadagi asosiy asbob - sekstant, o'z aniqligi bilan XV asr rasadxonalariidagi asboblardan ustun turar edi. Ulug'bek sayyoralar olami sirlarini aniqlab, 1018 yulduzning holatini o'rganib chiqadi, astronomiya fanini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'taradi. Shu mehnatlari mahsuli sifatida bir necha qimmatli asarlar yaratadi. Bu asarlar markazida «Zichi Ko'ragoniy» yoki «Zichi Ulug'bek» nomi bilan mashhur bo'lgan astronomik jadval turadi. Bu asar nazariy-kirish qism va to'rt katta bobdan iborat.

XIV-XVI asrlarda bir qancha iste'dodli san'atkorlar - nafis kitoblarning ijodkorlari: xattotlar (kalligraf), musavvirlar (rassom), lavvohlar (lavha chizuvchi), sahhoflar (muqovachi) yetishdi. Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Qilqalam, Halvoiy, Rafiqiy kabi xattotlar, Mirak Naqqosh, Behzod, Shoh Muzaffar kabi musavvirlar yetishib chiqdilar.

**Sulton Ali Mashhadiy** 1461 yilda Nizomiyning «Mahzan-ul-asror» dostonini, 1464 yilda Hofiz devonini va 1465|66 yillarda Navoiy devonini ko'chiradi. U, shuningdek, Fariddin Attor, Sa'diy Sheroziy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Husayn Boyqarolarning asarlarini ham ko'chirgan.

Bizgacha yetib kelgan tasviriy san'at yodgorliklari va turli yozma manbalar O'rta Osiyo tasviriy san'atining o'ziga xos uslubini, musavvirlar ijodiyotining fantastik mavhumlikdan hayotiylikka, realistik tasvirga tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi.

**Kamoliddin Behzod** 1455 yilga yaqin Xirotda tug'ildi. Ilm-fan, san'at va adabiyot ahllarining homiysi Alisher Navoiy iste'dodli yosh musavvirga alohida diqqat-e'tibor qaratadi, unga har tomonlama g'amxo'rlik qiladi. Behzod ishlagan bir qator suratlar - Abdullo Xotifiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon portretlari, Sa'diyning «Bo'ston» kitobi, Nizomiyning «Xamsa»siga ishlangan illyustratsiyalari va boshqalar bizga qadar yetib kelgan.

Musiqqa san'ati ahllarining faoliyati va ijodkorligi bilan vujudga kelgan duvozda maqom (o'n ikki maqom)i sababli X-XII asrlarda san'atimiz yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilgan edi. XIV-XVI asrlarda esa O'rta Osiyo xalqlarining musiqqa san'ati taraqqiyotida yana yangi va mahsuldor bosqich bo'ldi. Shu davrlarda juda ko'p musiqachilar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. Abduqodir Noyi, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Mavlono Qosim Rabboniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Hoja Yusuf Andijoniy, Ustod Shodiy, Mavlono Najmiddin Kavkabi va boshqalar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari Ulug'bek, Navoiy, Jomiy va Binoiy kabi shoirlar ham musiqqa sohasi bilan shug'ullanib, uning taraqqiyotiga ma'lum hissa qo'shadilar.

XIV asrdan XVII asrgacha bo'lgan davr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining yangi va juda sermahsul davridir. Bu davrda eski o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni asosan tugallandi, dunyoviy adabiyot hayotning yetakchi yo'nalishiga aylandi. Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobir, Muhammad Solih, Majlisiy, Hoja va nihoyat eski o'zbek adabiy tilining asoschisi, o'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi Alisher Navoiylar maydonga kelishdi.

Shu davr shoirlari ijodida lirik turning muxammas, ruboiy va qit'a janrlari keng uchraydi. Fors-tojik tilidagi muxammaslar ko'pincha Xofiz, Kamol Xo'jandiy, Xisrav Dehlaviy va Jomiy kabilarning g'azallariga bog'lab bitilsa, o'zbek tilidagi taxmislar Lutfiy, Husayniy (Husayn Boyqaro) va Navoiy g'azallariga bog'lab bitilar edi. Bu davrda o'zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyotining ajoyib janri bo'lgan tuyuq vujudga keldi. Shu bilan birga shoirlar musaddas, musamman, mustazod, tarji'band, tarkibband, qasida, marsiya, soqiynoma, lug'z (she'riy chiston) va boshqa janrlarda ham asarlar yaratdilar. Bu davrda keng tarqalgan janrlardan yana biri «muammo»dir. Bu janr juda murakkab bo'lib, uni bitish va yechish atroflicha bilimni, hozirjavoblikni va uzoq mashq qilishni talab qiladi. Shuningdek, ta'rix janri ham muammo kabi yashirin mazmunni o'z ichida namoyon qiladi, ammo ta'rix janrida shaxsning tavallud yoki vafot etgan sanalari abjad hisobi bilan aks ettiriladi.

Xalqlar o'rtasidagi adabiy aloqalarning o'sib mustahkamlanishida, ayniqsa, Navoiy boshliq Xirof adabiy maktabi katta rol o'ynadi. Xalqlar o'rtasidagi bu jarayon tarjima adabiyotini vujudga keltirdi. Nizomiyning «Mahzan-ul-asror», «Xisrav va Shirin», Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston» asarlari o'zbekchaga tarjima qilindi.

IX asrda vujudga kela boshlagan tazkirachilik o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini kechib o'tdi. Bizga qadar saqlanib qolgan eng qadimgi tazkiralardan biri XIII asrning birinchi yarmida Muhammad Avfiy tomonidan yaratilgan «Lubob-al-albob» («O'zaklarning o'zagi») tazkirasidir. Bu tazkira fors-tojik tilida ijod etgan IX-XII asr yozuvchilarining asarlarini o'z ichiga oladi. XV asr ham tazkirachilik taraqqiyotida alohida bir bosqich bo'ldi. Bu davrda buyuk ikki tazkira yaratildi: «Takirat-ush-shuaro» (Davlatshoh Samarqandiy) va «Majolis-un-nafois» (Alisher Navoiy). Shu bilan birga, tazkirachilikning taraqqiyosida Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asari ham katta ahamiyatga ega. Chunki, «Bahoriston»ning 7-ravzasi (bobi) tazkira shaklidir.

Shu davrlarda Samarqandda aniq fanlar taraqqiy etgan bo'lsa, Xurosonda ko'proq adabiyot va san'at rivojlandi. Ulug'bekning ukasi Boysung'ur Mirzo 17 yoshida otasi Shohruhning vaziri etib tayinlanadi. U Hirotda nafis kitob san'ati anjumanini tashkil etadi. Ayniqsa, temuriylar davrida she'riyat, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa rivoj topdi. XIII-XVII asrlarda vujudga kelgan madaniy hayot bevosita temuriylar hukmronligi davri bilan bog'liq holda o'rganiladi, chunki, shu davrdagi o'zaro ichki nizolar ham, davlatlararo urushlar ham mana shu sulola shaxsiyati bilan uzviy bog'liqdir. Demak, shu davrda paydo bo'lgan lirik asarlardan tortib tarixiy asarlargacha temuriylarning yutuq va kirdikorlarini yorituvchi kitoblardir. Ayniqsa, turkiy (eski o'zbek tili) tilning jozibador ohanglarini olamga taratgan Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy va Alisher Navoiylar mana shu temuriylar saltanatining u yoki bu davrlarida yashab ijod etgan va ular sha'n-sharafiga bag'ishlovlar bitishgan.

**Alisher Navoiy** yashagan davr bilan bizning zamon o'rtasida yarim ming yillik vaqt masofasigina emas, juda katta ijtimoiy ong masofasi, adabiy til, dunyoqarash, hayot tarzi masofalari bor.

Alisher Navoiyni anglash va his qilish – o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini, qalb ehtiyojlarini, o'zligini anglash va his etish demakdir. Badiiy ijod va mahorat borasida, umuminsoniy gumanistik g'oyalar tarannumida, shoir ruhiy olamining miqyosida, she'riy so'zning mo'jizaviy ta'sir qudratida va yana ko'p xislat va fazilatlarida she'riyatimiz hali Navoiy sari yuksalishiga intilmog'imiz kerak.

Navoiyning hayoti va faoliyatini o'rganishda uning asarlari birinchi manba bo'lib xizmat qiladi. Uning barcha asarlarida o'zining hayoti va faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlar bor. Bu

ma'lumotlar uning shaxsiy hayotidan boshlab ayrim asarlarining yozilish tarixi va ijodiy rejaları hamda davlat ishlaridagi faoliyatiga qadar qamrab olgan.

Uning hayoti va faoliyatini o'rganishda zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlar ham qimmatlidir. Bular Xondamirning «Makorim-ul-axloq», («Yaxshi hulqlar»), «Habib-us-siyar» («Suyukli xislatlar»), «Xulosat-ul-axbor» («Voqealarning xulosalari»), Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-shuaro» («Shoirilar tazkirası»), Boburning «Boburnoma» asarlari va Vosifiyning «Badoe-ul-vaqoe» («Go'zal voqealar») kitoblari va boshqalar. Shuningdek, Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Xiradnomai Iskandar» va «Bahoriston» kabi asarlarida ham Navoiy hayotiga oid muhim ma'lumot va ta'riflar berilgan.

Navoiy haqida o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning og'zaki ijodida ko'pgina ertak va hikoyalar yaratilgan, ularda xalq tushunchasidagi Navoiy obrazi yaratilgan bo'lib, uni doimo ulug' bir inson, donishmand va tadbirli davlat arbobi, iste'dodli olim, zakovatli shoir, xalq manfaatlarini himoya qilgan xalq farzandi, saxiy va mushfiq bir kishi sifatida tasavvur qilingan.

Navoiyning ko'pgina asarlari turli xalqlarning tiliga tarjima qilindi va yangi-yangi asarlar yaratilishiga asos bo'ldi. Masalan, Xristofor Armaniyning 1557 yilda italyan tilida Venetsiyada nashr etilgan «Sarandib shohi uch yosh o'g'lonining ziyorati» asarining ikkinchi qismida Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonidan Bahrom va Dilorom sarguzashti hikoya qilinadi. XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonini tarjima qilib, natijada o'zining «Etti go'zal» dostonini yaratadi. Shu asrning birinchi yarmida yashagan gruzin millatining yana bir vakili Nodar Persodaniodze: «Navoiy bu qissani («Sab'ai sayyor») chig'atoy (qadimgi o'zbek) tilida yozgan, biz shoirlikda biron kishini u bilan tenglashtirib tasavvur qila olamizmi?»- degan edi. Navoiy asarlarini tarjima qilish hozirgacha davom etib kelmoqda.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib Yevropada Navoiy asarlarining matnini ham, uning asarlariga yozilgan lug'atlar ham nashr etishga kirishildi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan xrestomatiyasiga Navoiyning ikki asarini: «Muhokamatul-lug'atayn» va «Tarixi mulki ajam»ni kiritdi. Undan keyin rus olimi I.N.Berezin «Turk xrestomatiyasi» kitobida Navoiy asarlaridan bir necha parchalar berdi. 1856 yilda M.Nikitskiy «Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati» mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yoqladi. U Xondamir, Davlatshoh va Som Mirzoning asarlaridan foydalanib, sharqshunoslikda birinchi bo'lib Navoiyning hayoti va faoliyatini to'laroq aks ettirgan asar yaratdi. 1861 yilda Istambuldagi «Osiyo jurnali»da Fransuz konsulxonasining tarjimoni M.Belening Navoiy hayoti va faoliyatiga doir maqolasi bosilib chiqadi. Nikitskiy va Belenlar Navoiy badiiyatini chuqur o'rgana olmay «Navoiy Xisrav Dehlaviy, Nizomiy va Jomiylarning tarjimonidir» degan xulosalarga keladilar.

Rus va G'arbiy Yevropa sharqshunoslari Nikitinskiy va Belenlardan keyin ham birmuncha ishlar olib bordilar. Fransuz tilshunoslaridan Pave de Kurteyl, Buva, rus olimlaridan V.V.Velyamin-Zernov, N.I.Ilminskiy, ingliz sharqshunosi E.Braunlar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishini 1941 yilda keng nishonlash maqsadida tayyorgarlik ko'ri-la boshlagan paytlarda Vatan urushi boshlanib ketadi. Rus sharqshunosi, professor Bertels o'zining «Navoiy» monografiyasida shunday eslaydi: «Men 1941 yilning dekabrda Navoiy ijodiga bag'ishlangan va dahshatli bombardirovka hamda artilleriya otishmalari ostida o'tgan yig'ilishda so'zga chiqqan edim. Garchi yig'ilish binoning yuqori qavatida o'tib, u yer havodan kelayotgan og'ir zarbalar bilan tebranib tursa ham, yig'ilish qatnashchilaridan biron kishi zalni tashlab chiqib ketmadi va yig'ilish oxiriga yetkazildi».

1941 yilda tayyorlangan «Alisher Navoiy» nomli maqolalar to'plami 1946 yilda bosilib chiqdi. A.K.Borovkov tahriri ostida chiqqan bu to'plam A.Yu.Yakubovskiyning «Navoiy davrining ijtimoiy va madaniy xususiyatlari», I.Yu.Krachkovskiyning «Arab adabiyotidagi «Layli va Majnun» qissasining ilk tarixi», Ye.E.Bertelsning «Navoiy va Nizomiy», A.K.Borovkovning «Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi», shuningdek, A.N.Boldirev, A.A.Semenov, A.M.Belinskiy va S.L.Volinning maqolalaridan iborat edi.

Yozuvchilar va san'atkorlar ham Navoiy yubileyini munosib tuhfarlar bilan kutib oldilar. Uyg'un bilan Izzat Sulton «Navoiy» dramasini yaratdilar, shu drama asosida «Navoiy»



kinossenariysi yozildi. Yozuvchi L.Bat «Hayot bo‘stoni» povestini, Vadetskiy «Oddiy inson» romanining birinchi kitobini yozdilar. Olim Xo‘jaev sahnada, Razzoq Hamroev ekranda zo‘r mahorat bilan Navoiy obrazini yaratdilar.

Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish sohasida juda katta ishlar qilindi va qilinmoqda. 1957 yildan boshlab har yili 9 fevralda Navoiyning tug‘ilgan kunini nishonlash maqsadida ilmiy-an‘anaviy konferensiya o‘tkazilib, Navoiy merosini o‘rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasalmoqda.

Ulug‘ san‘atkor, benazir donishmand Alisher Navoiy merosi – aqlu zakovat nuri bilan yo‘g‘rilgan jozibali xazina. Ne-ne zamonlardan beri dillarni va ellarni hayratga solib kelayotgan hazrat qalami sehrini tushunish, his etish oson emas, zero, bu tilakka yetishish uchun kishi muayyan bilim va malakaga ega bo‘lishi lozim.

Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xirotda shahrida tug‘ildi. Uning otasi G‘iyosiddin kichkina va bir necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin turgan amaldor aristokratlar, buvilari esa temuriy shahzodalarning enagalari bo‘lgan.

1447 yildan - Shohruh mirzo vafotidan keyin Navoiylar oilasi Iroqqa ko‘chib, Taft shahrida yashay boshlaydi. U yerda mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy turar edi. Yosh Alisher u bilan suhbatda bo‘ladi va buyuk tarixchining nazariga tushadi.

1452 yilda, o‘zaro taxt talashuvlar pasaygandan keyin, Alisherlar oilasi Hirotga qaytadi va oradan ko‘p vaqt o‘tmay uning otasi Abulqosim Bobur tomonidan Sabzavorga (Sarbadorlar harakatining poytaxti) hokim qilib tayinlanadi.

Hirotida qolgan Alisher o‘qishni davom ettiradi va shu yillarda Sa‘diyning «Guliston» va «Bo‘ston» kitoblarini, ayniqsa, Farididdin Attorning «Mantiq-ut-tayr» asarini qayta-qayta o‘qib chiqadi.

10-12 yoshlaridayoq badiiy zavqi va didi hamda ilk she‘rlari bilan elga tanilib, katta san‘atkor va olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilgan edi. Navoiyning zamondoshi tarixchi Xondamirning xabar berishicha, kunlardan birida Lutfiy Alisherdan yozgan yangi she‘rlaridan o‘qib berishni so‘ragan. Navoiy quyidagi g‘azalning matla‘isini o‘qigan:

Orazin yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh...

Bu g‘azaldan qattiq hayajonlangan Lutfiy: «Agar mumkin bo‘lsa edi, men o‘zinning forsiy va turkiy tillarda aytgan o‘n-o‘n ikki ming misralik she‘rlarimni shu bir g‘azalga almashar edim va bu bilan o‘zimni nihoyatda baxtiyor hisoblar edim», - degan.

1456-57 yillarda Navoiy Mashhadda Sayyid Xasan Ardasher va Kamol Turbatiy kabi o‘z davrining mashhur shoirlari bilan tanishadi. Sayyid Xasan Ardasher Navoiy iste‘dodiga yuqori baho beradi va uni badiiy ijod sohasidagi faoliyatini qunt bilan davom ettirishga undaydi. Navoiyning «Holoti Sayyid Xasan Ardasher» degan biografik-badiiy asari bu ma‘rifatparvar odam haqida yozilgan. Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi va ularning do‘stligi, shogird va ustoz munosabatlari ko‘p o‘tmasdan ikki ulug‘ shoir va mutafakkirning do‘stligi, hamkorligiga aylanadi.

Navoiyning tarjimai holiga taalluqli bo‘lgan hujjat va ma‘lumotlar juda ko‘p, yuqorida aytganimizdek, o‘zining qator asarlari va zamondoshlari qoldirgan ma‘lumot va yodnomalarida buni ko‘rish mumkin.

**«Xamsa».** «Xamsa»chilik Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida uzoq va murakkab tarixga ega bo‘lgan adabiy an‘anadir. «Xamsa»chilikka asos solgan mutafakkir shoir, ozarbayjon xalqining otashin kuychisi

Nizomiy Ganjaviydir. Uning hayoti va faoliyatidagi (1141-1203) buyuk badiiy mahorat faqat ozarbayjon adabiyotidagina emas, balki Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida ham yangi bob ochdi. Undan keyin «Xamsa» yaratish kuchli bir oqimga aylanib ketdi va bu janrda qator qalamkashlar o‘z kuchlarini sinab ko‘rdilar. Ammo «Xamsa» yaratish uchun besh doston yaratishning o‘zi bo‘lmaydi, xamsachilikning o‘z an‘analari bo‘lib, ularga to‘la rioya qilish va ularni amalda bajarish zarurati ham asosiy omillardan biri. Mana shu talablarga javob bera

oladigan darajada «Xamsa» yaratgan shoirlardan faqat uchtasigina Nizomiy bilan bellasha oldilar. Ular ulug' hind shoiri Xusrav Dehlaviy (1253-1325), tojik xalqining ulug' shoiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va Alisher Navoiydir.

XV asr o'zbek mumtoz adabiyoti oldiga bir qator katta mas'uliyatli vazifalar qo'ydi. Bu buyuk ishga faqat Navoiygina kirishdi va uni muvaffaqiyat bilan uddaladi. Navoiy ustoz so'z san'atkori sifatida shuhrat topgan Nizomiy va Dehlaviy bilan ijodiy bahslashdi, ularning an'alarini davom ettirdi, nihoyat uch yuz yillik tajribaga ega bo'lgan xamsachilik taraqqiyotida yangi va yirik adabiy hodisa yuzaga keltirdi. Bu buyuk obida katta bilim va yuksak badiiy didni, iste'dod va qobiliyatni talab etar edi. Shuning uchun ham Navoiy «Farhod va Shirin»da:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasiga panja urmoq...  
Kerak sher oldida ham sheri jangi  
Agar sher o'lmasa, bori palangi, - deydi.

Ikki yildan ziyodroq vaqt ichida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yaratdi. 1483-1485 yillar mobaynida yozilgan Navoiy «Xamsa» si avvalgi «Xamsa»lar bilan tenglashibgina qolmay, balki ulardan o'zib ham ketdi.

«Hayrat-ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») falsafiy-ta'limiy doston hisoblanib, Navoiy «Xamsa»mundarijasini tashkil qiladi. 7976 misradan tashkil topgan bu doston 64 bobdan iborat bo'lib, bulardan 21 bobi muqaddima, 40 bobi maqolat va masalalardan tuzilgan, shulardan 20 tasi maqolat bo'lsa, 20 tasi hikoya, masal, uch tasi esa xotimadir. Dostonning asosini maqolatlar tashkil etadi. Doston uch kompozitsiyaviy zanjir bilan bog'langan va ko'tarilgan masalalar ham uch turkumga ajratilgan, ular asosan: 1.Falsafiy masalalar; 2. Ijtimoiy - siyosiy masalalar; 3. Axloqiy-ta'limiy masalalardir.

Yuqorida aytganimizdek, dostonning asosini maqolatlar tashkil qiladi ular quyidagilar: birinchi maqolatda - imon, ikkinchisi - islom, uchinchisi - boshqaruv, to'rtinchisi - ikkiyuzlamachilik, beshinchisi - donolik, oltinchisi - xalq xizmati, yettinchisi - sabr, sakkizinchisi -koinot, to'qqizinchisi - ishq, o'ninchisi - haqiqat, adolat, o'n birinchisi -tabaqalar, o'n ikkinchi - o'n uchinchi maqolatlar - ogohlik, mehr-oqibat va boshqalar haqida.

Mumtoz adabiyotimizning tarixiy an'analari va odatlarini yuqori pog'onalariga ko'targan Navoiy «Xamsa» dostonida ham, ayniqsa, «Hayrat-ul-abror»da, aniqrog'i 21 bobdan iborat muqaddimada odatdagi hamd, munojot, na't, hayrat qismlarida «Xamsa»ning borki mundarijasini tuzib chiqqan edi. Mana shu mundarija yoki jo'nroq qilib aytilsa, reja keyingi dostonlarda bayon etiladi, o'sha mundarija badiiy talqinlar bilan yoritib beriladi.

«Hayrat-ul-abror»dagi falsafiy masalalarda Navoiyning fikricha ilohiyot - xudo butun borliqning yagona moyasi-substansiyasidir. Uni yaratishdan maqsad - o'sha borliqni bezash uchun insonni yaratgan, inson bilan borliqni ko'rkamlashtirgan va u - inson bilan olam go'zaldir, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Koniyu hayvoni, agar xud nabot  
Har biri bir gavhari oliy sifat.  
Borchasini garchi latif aylading  
Borchadin insonni latif aylading.

«Hayrat-ul-abror»dagi ijtimoiy-siyosiy masalalarga to'xtaladigan bo'linsa, unda odil shohlar haqida, ularning adolatli idora usuli va johillarni jazolash choralarini ta'riflar ekan, barcha adolat va razolatlar xalqning boshida ekanligini e'tirof etadi. Ayniqsa, johil hukmdorlar saroyi manzarasini quyidagicha ta'riflaydi:

Bazmlar muhayyo bo'lgan jannat bog'idek u qasrlarning ziynati nimadan vujudga kelgan? Pardalarning ipi elning jonidan, la'li va qizil bo'yog'i ulus qonidan, quyosh tusli naqshlar el moli bilan zarlangan, elning duru la'li bilan gavharlangan...

Shuningdek, axloqiy-ta'limiy masalalarda ham bir qator o'gitlar bilan bezatilgan misralar borki, ular bevosita o'quvchining dil to'ridan joy oladi. Bu o'rinda Hotami Toyi hikoyati o'mak tarzida keltirilgan. Navoiy rang-barang tavsifiy va epik obrazlar yaratadi, bularning hammasi

bosh qahramon – Navoiy obrazi, uning tafakkuri va his-tuyg‘ulari bilan bir katta badiiy manzarani namoyon etadi. Uning so‘z o‘yinlaridan birida:

Shoh ul emaskim, boshiga qo‘ydi toj,  
Shoh ani bilkim, yo‘q anga ehtiyoj...  
Shoh boshining sharafi toj emas,  
Angla ani shohki, muhtoj emas.  
Shoh agar ul bo‘lsaki, muhtojdur,  
Harf ila muhtoj ham tojdur.  
Shoh desang kimda ko‘rub tojni  
Shoh degil ul vajah ila muhtojni

Ya’ni, tojiga qarab kishini shoh deb hisoblama, agar toj bilangina kishi shoh bo‘lar ekan, u chog‘da ham shoh degin, chunki «muhtoj» so‘zida ham «toj» bor, degan fikrni bildiradi.

«Hayrat-ul-abror» aruzning sari’ bahrida (muftailun, muftailun foilun) yozilgan, masnaviy yo‘lida qofiyalangan.

«Farhod va Shirin» sevgi va vafo, do‘stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik va qahramonlik dostonidir. Navoiy xamsachilik an‘anasidan mustahkam o‘rin olgan «Xisrav va Shirin» o‘rniga yangi mazmun va g‘oyalari, obraz va xarakterlarning badiiy tajassumi bo‘lgan «Farhod va Shirin» dostonini yaratdi.

Xisrav mashhur sosoniy podshohlaridan bo‘lgan Anushirvonning nabirasi Xisrav Parvezdir. U 590 yilda taxtga chiqqan va 628 yilda o‘z o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan qatl etilgan. Shirin ham tarixiy shaxs bo‘lib, u Xisravning eng sevikli xotini bo‘lgan. Arman qizi yoki oromiylardan bo‘lgan go‘zal Shirin zodagonlar xonadonidan bo‘lmagani uchun Xisravga munosib emas, deyiladi. Tarixiy xronikalar va afsona hamda rivoyatlar yozma adabiyotda Xisrav va Shirin obrazlarining vujudga kelishiga ma’lum bir zamin edi. Yozma adabiyotda birinchi bor Abulqosim Firdavsiy Xisrav va Shirin obrazini qayta ishlaydi.

Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni o‘zidan avvalgi «Xamsa»larda aks ettirilgan Xisravlar bilan emas, davrning, inson faoliyatining xilma-xil masalalarini qamrab olgan yangi doston sifatida vujudga keldi.

Jamoliddin ko‘ringach farri shohi  
Bu fardin yorudi mah to ba mohi.  
Qo‘yub yuz himmatu iqbolu davlat  
Firoqu rashku hajru oh ila dard  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

53 bobdan iborat «Farhod va Shirin» dostoni o‘z o‘rnida dunyo adabiyotida yangi davrni boshlab berdi va o‘z mohiyati bilan betakror durdona bo‘lib qoldi.

«Layli va Majnun» dostoni, bu haqdagi afsona va rivoyatlar shuni ko‘rsatadiki, jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng g‘amgin qissalardan biridir, deyiladi «O‘zbek adabiyoti tarixi»da, ammo bu afsona va rivoyatlarga chuqurroq qaralsa, inson ongining tasavvuf sharbati bilan sug‘orilishining namunasi ekanligini ko‘ramiz.

Layli va Majnun haqida birinchi marta 1188 yilda ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yaratdi. Uning qalami bilan yaratilgan bu doston g‘oyaviy-badiiy yuksak, mukammal bir badiiy asar darajasiga ko‘tarildi, xamsachilikning an‘anaviy dostoni bo‘lib qoldi.

Navoiy «Layli va Majnun» dostonini yaratdi ekan:

Chu forsiy erdi nukta shavqi,  
Ozroq edi anda turk zavqi...  
Men turkona boshlabon rivoyat  
Qildim bu fasonani hikoyat,  
Kim shuhrati jahonga to‘lg‘ay,  
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay

deydi va bu borada birinchidan «afsona» va «mazmun»ga, ya’ni asarning qobig‘i va mag‘ziga, ichki mohiyati masalasiga, ikkinchidan, til masalasiga e’tibor qiladi.

Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni 38 bobdan iborat. Har bir bob saj' yo'li bilan yozilgan maxsus sarlavha bilan boshlanadi. Bu sarlavhalar bobning mazmunini bir kirish (prolog) sifatida bayon etishi bilan birga, badiiy jihatdan ham diqqatga sazovordir. Navoiyning bu dostoni, Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar dostonlari kabi, hazaji musaddasi axrabi maqzubi makfuf vaznida (maf'ulu mafoilan failun) yozilgan, masnaviy yo'lida qofiyalangan.

«Sab'ai sayyor» («Etti kezuvchi» - «Etti sayyora») ishqiyy-sarguzasht dostonidir. Doston Bahrom va Dilorom haqidagi qoliplovchi hikoya va shu hikoyaning kompozitsion silsilasiga bog'langan yetti mustaqil hikoyadan iborat.

Birinchi hikoya - shanba kuni - qora qasrda;

Ikkinchi hikoya - yakshanba kuni - sariq qasrda;

Uchinchi hikoya - dushanba kuni - yashil qasrda;

To'rtinchi hikoya - seshanba kuni - gulgun qasrda;

Beshinchi hikoya - chorshanba kuni - nilufar qasrda;

Oltinchi hikoya - payshanba kuni - sandal tusli qasrda;

Ettinchi hikoya - juma kuni - oq qasrda.

Bu dostonda Navoiy o'z ustozlari an'anasi izidan borib, qahramonlarni va undagi ayrim yo'nalishlarni o'zgartirmagan bo'lsa-da, asosiy g'oyaviy mazmunini o'zgartirgan, ya'ni bu o'zgarishlar kunlarda va musofirlarda, ularning iqlimlarida, sarguzashtlari va hikoyalaridagi ijtimoiy masalalarda edi.

«Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») qahramonlik epopeyasi Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yorqin bir ko'zgidir. Adolatli va ma'rifatparvar podsho boshchiligidagi markazlashgan davlat uchun kurash «Saddi Iskandariy»ning asosiy g'oyaviy mazmunidir. Navoiy o'z «Xamsa» sining avvalgi to'rt dostonida ijobiy va salbiy podsholar obrazini yaratarkan, «Saddi Iskandariy»da adolatli va ma'rifatparvar podshoning mukammal qiyofasini ko'rsatish, o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari va orzu-umidlarini badiiy mujassamlashtirish vazifasini o'z oldiga qo'yadi.

«Bu qalamga falakdin ofarinlar yog'ilsin! Chunki bu yoqimli naqshni o'sha qalam yaratdi va forsiy til egalari, forsha nazm durlarini tizuvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganda, boshqalarga so'z aytishga majol qolmasdi. Bu mo'jizakor nazm tarozisi qarshisida Nizomiy kimu Xisrav kim bo'ldi?!» (Abdurahmon Jomiy)

«Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojizturur». (Husayn Boyqaro)

«Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r ayubdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. ... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. ... Muncha binoyi hayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay». (Zahiriddin Muhammad Bobur)

«Bu ulug' amir dinu davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohidir». (Davlatshoh Samarqandiy)

**Boburning hayoti va ilmiy-adabiy merosi.** Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi. Uning otasi Umarshayx mirzo Farg'ona viloyatining hokimi edi. 1494 yilda Umarshayx Mirzo Andijonning g'arb tomonidagi Axi qo'rg'onida jar yoqasidagi kabutarxonalari bilan jarga qulab ketadi va halok bo'ladi.

Bobur shajarasi: Ota tomonidan: Bobur - Sulton Umarshayx Mirzo - Sulton Abusaid Mirzo - Sulton Muhammad Mirzo - Sulton Mironshoh - Amur Temur Ko'ragon. Ona tomonidan: Qutlug' Nigorxonim - Yunusxon - Vaysxon - Sher Alixon - Muhammad Xo'jaxon - Xizir Xo'jaxon - To'g'luq Temurxon - Eson Bug'axon - Dava Chiqon - Baraqxon - So'kach o'g'li - Qamg'or - Chig'atoy - Chingizxon.

Otasi vafot etganda Bobur endigina o'n bir yoshdan o'tgan edi. U Farg'ona viloyatining vorisi sifatida otasining o'rniga taxtga o'tiradi. Farg'onada hokimiyatni qo'lga olgan Bobur o'z hukmronligi doirasini kengaytirishga, Movarounnahrda yirik bir davlat vujudga keltirishga urinadi. Uning diqqatini eng avval bobosi Amur Temurning poytaxti Samarqand o'ziga jalb qiladi.

Bobur o'ziga tayinlangan bek atka va oqila onasi Qutlug' Nigorxonim rahbarligida qo'shinni qayta tuzadi, shahar va qo'rg'onlarni mustahkamlaydi, Andijonga hujum qilgan o'z tog'asi Sulton Ahmadning hujumini mohirlik bilan qaytarib, ularni chekinishga majbur qiladi. Qo'shini to'zgi Sulton Ahmad sulx tuzib, Samarqandga qaytishga majbur bo'ladi. Bu jang yosh Boburning birinchi va katta g'alabasi edi. Mana shu jangdan keyingina Boburdagi yagona va katta davlat tuzish, uni osoyishta tutish va farovon qilish niyati paydo bo'ladi.

Bobur Samarqandni 1498 yilda, 15 yoshida egallab oladi. Uning ixtiyoriga o'tgan bu ulkan shahar dunyoning eng boy va mashhur shaharlaridan edi. Temur davlatining markazi bo'lgan bu shaharning masjid va madrasalarini, saroy va maqbaralarini hayrat bilan kuzatgan Bobur

Samarqandning tarixda tutgan o'rni va o'sha davrdagi salohiyatini g'urur bilan ta'riflaydi.

Samarqandning ichki vaziyati Boburning kutganicha bo'lib chiqmadi. O'zaro ichki urushlar, haddan ziyod soliqlar shahar ahlini nihoyatda qashshoq ahvolga keltirgan edi. Buning ustiga Farg'onada qolgan ayrim beklar fitna va xiyonat yo'lga o'tgan edilar. Samarqandda atigi 100 kun hukmronlik qilgan Bobur Andijondan mahrum bo'lmaslik uchun qaytib kelayotganda, Xo'jandga yetganda Andijonni Jahongir Mirzo qo'lga o'tganini eshitadi. Bu orada Samarqandni Boburning amakivachchasi Sulton Ali Mirzo egallab olgan edi.

Shundan ikki yilga yaqin vaqt o'tgandan keyingina Bobur Andijonni qo'lga kiritdi, so'ngra u butun e'tiborini yangidan Samarqandga qaratib, qo'shin bilan Shahrisabzga yetganida Shayboniy ham Samarqandga yaqinlashib qolganini va Samarqand hokimi Sulton Ali mirzo tang ahvolda qolib Shayboniyga taslim bo'lganini eshitadi. Biroq, Shayboniyning bu yerga hokim tayinlab, o'zi urushni davom ettirayotgani sababli Bobur Samarqandni ortiqcha qarshiliksiz qo'lga kiritadi.

1501 yilning aprel oyida Shayboniy Samarqandni qamal qiladi, to'rt oy davom etgan qamal shaharni qiyin ahvolga keltiradi va Bobur uchun Samarqandda qolish xavfli bo'lib qoladi. Shayboniyning sulh sharti bahonasi bilan Bobur shaharni tashlab chiqib ketadi va Andijonga kirolmay O'ratepa, Mastchoh, Dahkat, Ohangaron, Piskentda bo'ladi va nihoyat mo'g'ul xonlaridan bo'lgan tog'asi, Toshkentning hokimi - Mahmudxonning oldiga boradi. Uzoq vaqtlar sarson-sargardon yurgan Bobur 1504 yilda 300 dan ziyodroq yigiti bilan Afg'onistonga qarab yuradi. Afg'onistonning katta qismini egallagan Bobur Shayboniyga qattiq zarba bergan Eron shohi Shox Ismoil yordam so'raydi va uning yordami bilan 1512 yilda Samarqandni qayta qo'lga kiritdi. Uning bu sa'i-harakatlari yuqorida aytilganidek, Movarounnahrda markazlashgan, farovon davlat tuzishdan iborat edi. Ammo, o'z kuchlarini yana mustahkamlab olgan Shayboniyxon, Bobur bilan hamkorlikda jang olib borayotgan Najmi soniyning xalqni parokanda qilganidan foydalanib, Samarqandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Bobur u yerning xo'jalik va madaniy hayotiga katta e'tibor berdi, mahalliy aholining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlariga erkinlik berdi va amaldorlarini izzat-hurmat qildi. Bularning barchasi Boburning shon-shuhratini oshiradi.

Bobur o'z davlatini janub tomonga kengaytirish, Hindistonni egallab olish harakatini boshlab yuboradi. 1525 yil 21 apreldagi Panipat, so'ngra Dehli janglari 1527 yilning 16 martida Boburning g'alabasi bilan tugaydi.

Bobur faqat yirik davlat arbobi va mohir lashkarboshigina emas, balki, buyuk shoir, adib, tarixchi va olim hamdir. «Boburnoma»ni ingliz tiliga tarjima qilgan Uilyam Erskin Boburni ta'riflar ekan, «Osiyodagi podshohlar ichida Boburga teng keladigan bironta ham podshoh topolmaymiz» deganda uni faqat davlat arbobi sifatida emas, uning fan va san'at, she'riyat va badiiyatga bo'lgan oshnoligini ham nazarda tutgan edi.

Boburning o'zbekcha devonining ikki qo'lyozmasi ma'lum. Bulardan biri Parijda, ikkinchisi Hindistonda saqlanadi. Professor A.Samoylovich shu ikki qo'lyozma nusxa va «Boburnoma»dagi she'rlar asosida 1917 yilda Petrogradga Boburning she'rlarini nashr ettirdi. Uning she'rlari 1931 yilda Istambuldagi «Milliy tatabbu'lar majmui»da ham bosildi.

Bobur lirikasi o'z hayotiyli, taraqqiyparvar fikrlar ifodalashi, badiiy soddaligi, jo'shqinligi va til boyligi bilan o'zbek dunyoviy adabiyotining taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shildi. Boburning eng yirik va eng ajoyib asari, uni butun dunyoga tanitgan, Yevropa sharqshunoslari, jumladan Xerman Vamberi tomonidan Yuriy Sezarning sharhlari kitobi qatoriga qo'yilgan asari «Boburnoma»dir.

Bobur she'rlari o'tmishdayoq Yevropa tillariga (ingliz, fransuz, nemis tillariga) tarjima qilingan. Chunki, 1857 yillardan keyin Hindistonning ingliz mustamlakasiga aylanishi natijasida, u yerdagi barcha madaniy, ilmiy, badiiy osori-atiqalar Angliyaga olib ketilgan edi.

Bobur devoni lirik turning turli xil janrlarida yozilgan she'rlarni: g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a, fard va boshqalarni o'z ichiga oladi. Unda biz oddiy g'azallardan tashqari g'azali musajja' (markaziy ruknlari qofiyadosh bo'lgan g'azal), qit'a g'azal (birinchi bayti-matla'-qofiyasiz bo'lgan g'azal), g'azali husni matla' (matla'dan keyingi baytning har ikkala misrasi matla'ga qofiyadosh bo'lgan g'azal), qo'shaloq vaznli va qo'shaloq qofiyali g'azal, taronai ruboiy (to'rtala misrasi qofiyalangan ruboiy), oddiy tuyuqdan tashqari qo'shaloq tajnisli tuyuq va boshqalarni ham kuzatishimiz mumkin. G'azal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlaridir.

Bobur hayot, muhabbat va shodlik kuychisidir. Bundan tashqari uning lirikasidagi vatan ishtiyoqi, g'ariblikning xasrat va nadomatli dardlari ham mana shu lirikada o'zining aksini bildirib turadi.

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,  
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati,  
deb boshlanuvchi sho'x g'azallar orasida:

Tole' yo'qi, jonimga balolig' bo'ldi,  
Har ishnikim ayladim xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim,  
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi

singari misralarda shohlikning-da ko'zga ko'rinmasligi, uning vatan oldida, insongarchilik oldida hech narsa emasligi va, ayniqsa, vatan ishq Hind podsholigidan ham ustun turishi ko'rinib turadi.

Bobur inqirozga yuz tutgan temuriylar davlatining shuhratini saqlab qolishga va mustahkamlashga, Markaziy Osiyoda markazlashgan yirik davlat vujudga keltirishga uzoq va qattiq kurash olib bordi. Biroq tarixiy sharoit bunga imkon bermagach, u Afg'onistonni, keyinchalik esa Hindistonni egallab oldi va katta imperiyani vujudga keltirdi. U asos solgan imperiya Afg'oniston va Hindistonning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi.

Bobur asos solgan davlat Hindistonning Angliya tomonidan bosib olinishiga qadar yashadi. Boburiylar sulolasi Hindistonning siyosiy hokimiyatini mustahkamlash, madaniyatini rivojlantirishda katta ijobiy rol o'ynadi.

Bobur insoniyat madaniy hayoti tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Uning faoliyati hamda merosini o'rganishda turli soha olimlari: tarixchilar, filologlar, o'lkashunoslar katta natijalarga erishdilar. Uning asarlari ko'p martalab nashr etildi, tadqiqotlar, ilmiy va ommabop asarlar yaratildi. Uning ijodini o'rganuvchi o'nlab olimlar yetishib chiqdi, bu borada ingliz sharqshunosi U.Erskinning xizmatlari katta. U Bobur va Boburiylar sulolasining Hindiston tarixi, uning davlat tuzumi hamda Hindiston yarim orolidagi madaniy hayotning shakllanishida tutgan o'rni haqida oqilona va odilona xulosalarni bayon qilgan beg'araz mutaxassislardan biridir.

**Boburnoma - qomusiy asar.** «Boburnoma» memuar, qomusiy to'plamdir. Bu tarixiy-badiiy asar 1494-1529 yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindistonda ro'y bergan voqealarni va ko'pida bevosita Boburning o'zi ham ishtirok etgan tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi.

«Boburnoma»ning o'ndan ziyod qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bobur hayotlik davridayoq ko'chirilgan ikki nusxa haqida ma'lumotlar bo'lsa-da, ularning qaerda saqlanayotganligi

ma'lum emas. «Boburnoma»ning XVII-XVIII asrlarda ko'chirilgan nusxalari Leningrad, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchester, London, Edinburg va boshqa joylarda saqlanmoqda.

«Boburnoma» 1857 yilda Qozonda turkshunos olim N.Ilminskiy tomonidan nashr etiladi. 1905 yilda ingliz olimasi A.Beverij xonim «Boburnoma»ning Haydarobodda topilgan qo'lyozmasining faksimilesini sinkografiyada nashr ettiradi.

1586 yilda fors tiliga tarjima qilingan nusxalari «Tuzuki Boburiy», «Voqeoti Boburiy» nomi bilan turli mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi. Jon Leyden va U.Erskinlar «Boburnoma»

ning o'zbekcha va forsha nusxalarini solishtirib, uni ingliz tiliga tarjima qilishgan, 1826 yilda Londonda nashr ettirishgan. Rus tilidagi tarjimalari M.Sale tomonidan olib borilgan va u ko'p marta nashr etilgan.

«Boburnoma» asari o'z qimmatini bilan eng nodir asar hisoblanadi. Unda XV asrning oxiridan XVI asrning 30-yillarigacha ro'y bergan tarixiy voqealar aks ettirilgan.

Asar 1494 yil voqeasi tasviri: Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning Farg'onaga hujumi, Umarshayx Mirzoning halok bo'lishi va 12 yoshga qadam qo'ygan Boburing taxtga chiqishi bayoni bilan boshlanadi. Unda tarixiy shaxslar, joylarning tabiati, hayvonot dunyosi va dov-daraxtlari haqida odilona va oqilona baho va tasvirlar beriladi.

Masalan, «Andijondurkim, vasatta voqe bo'libdur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur.... Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qdur.... To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabdurkim, bir yerdan ham chiqmas.... Eli turkdir, shahr va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qdur... Elning lafzi qalam bila rosttur. Aning uchunkim, Mir Alisher musannafoti bovujudkim nash'u namo topibdur, bu til biladur.»

Boburning hayot yo'li, harbiy yurishlari, madaniy merosi haqida ko'plab asarlar bitilib, u davlat arbobi, sarkarda, iste'dodli shoir, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon ekanligini isbotlab bermoqdalar. Shu bilan bir qatorda Boburning naqadar nozik zavq, nafis hissiyot, mustahkam va betakror xotira egasi ekanligi tahlil qilishga muhtoj sohadir.

«Boburnoma» asarini o'qir ekanmiz, uning qanchalik tarixiy qimmatga ekanligini baholashga aql ojizlik qiladi. Chunki, iloji boricha aniq sanalar, joy va odamlar, tabiat mo'jizalari - hayvonot va nabotot sirlari bitilganki, bu asarni bitishning o'zi uning katta sabr-toqat sohibi ekanligini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga e'tibor berilsa, asarda Bobur ruhi naqadar pok, zehni yuksak darjada ekanligi sezilib turadi.

Ma'lumki, Boburing umri jangu jadallarda o'tgan. 12 yoshida Andijonda taxtga o'tirib, toki Hindistonni to'la zabt etgunga qadar bosib o'tgan yo'lga nazar solinsa, bir so'z bilan, halovatsiz umr, deyish mumkin.

Shu behalovat umri davomida biz uning mislsiz aql-zakovat, nozik ta'b, betakror zavq va pokiza hissiyot egasi ekanligini sezib turamiz. «Bir qatla sanattim, o'ttiz ikki - o'ttiz uch nav g'ayri makarar lola chiqdi. Bir nav' lola bo'lurkim, andin qizil gul xidi kelur, lolai gulbo'y der eduk», bu ta'rif bilan Bobur jangohdagi sarkarda emas, lola saylidagi o'simlikshunos, gullar shaydosi, ulardan zavq olayotgan bir nozik ta'b shaxs namoyon bo'ladi.

Qobuldagi paytlarida daraxtlarga ta'rif berar ekan: «Balut yig'ochida yana bir ajib xosiyatdur; sabzgarlik shohlariga o't qo'ysalar g'arib sharfa bila kuyar. Oyog'idan boshigacha sharfa bila bir zamonda kuyar» deydi. Yonib turgan alanganing sharpasi-yu, uning hamma tomoni baravar kuyayotganini sinchiklab kuzatib turgan Bobur jangdan xorib kelgan, g'alaba yoki mag'lubiyat tashvishida o'tirgan sarkarda yoki davlat arbobi, shoh emas, o'z his-tuyg'ularini tabiat sirlari bilan yanada poklayotgan dilbar shaxsdir.

Agar «Samarqandning qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidida Laqlala derlar. Ul gumbazning o'rtasida yerga tepsalar, tamom gumbazdan laq-laq un kelur, g'arib amaldur, hech kim sirini bilmas» yoki «Yozlar derlarkim, naqqora va duxul uni bu qumdan kelur» voqealarini, ta'riflarni qiyoslansa, Boburing hatto joylarning sirli ovozlari ham e'tibor berganligini bilish mumkin.

«Boburnoma» asaridagi Hindiston ta'rifining o'zini qiyoslab o'rgangan chog'da ham bir necha ilmiy ishlarga asos bo'ladi. Bobur agar «Ning nahorga yetgach, o'ziga olmas nazarga keldi; giyohlar o'zgacha va yig'ochlar o'zgacha va vuhush o'zgacha va tuyulur o'zgacha, el va ulusining roh va rasmi o'zgacha; hayrate bo'ldi, filvoqe joyi hayrattur» deb butun hayratini namoyon etsa, xuddi shuningdek, «Boburnoma»ning o'zi ulkan bir kitobi hayrattur.

«Boburnoma» ensiklopedik asardir. Bobur ayrim nomlarning etimologiyasi haqida ham xabar beradi. Xo'jand bilan Konibodom orasidagi Xodarvesh dashti haqida so'z yuritar ekan, «derlarkim, bir necha darvesh bu badiyada tund yelga yo'liqib, bir-birini topa olmay, «Ho, darvesh, ho, darvesh» deya - deya halok bo'lubdirlar, andin beri bu badiyani «Hodavrvesh» derlar desa, Sirdaryo yoqasidagi daryoning torroq bir yeridan bir taka sakrab suvdan o'tgani uchun u yerni «Takasekirgan» deb ataganlari haqida gapiradi. Andijon atrofida o'sadigan bir o't buta-buta bo'lib o'sib chiqqani uchun uni butka o'ti deb ataganlarini aytadi va boshqa etimologik ma'lumotlar beradi.

«Osiyo tarixining sovuq ulug'vorligi o'rtasida, kun bo'yi yig'lab yurgan va bu yig'isi haqida birga o'ynab yurgan o'rtog'iga aytganidek, bizga hikoya qilib berayotgan podshohni uchratish dilimizga taskin beradi», - deb yozgan edi U. Erskin «Boburnoma»ni tarjima qilar ekan.

«Boburnoma» asari orqali Temuriylar sulolasining ma'lum bir katta qismini, ularning turmush tarzi va kechmish hayotini o'rganish mumkin. Bu o'z o'rnida hozirgi mustaqillik davri adabiyoti va tarixini yoritish borasida yanada mukammal va yanada ishonchli, badiiy manbaa hisoblanadi. Bu borada birinchilar qatori O'zbekiston Xalq yozuvchisi P.Qodirovning ikki romanini keltirish mumkin, Ular «Yulduzli tunlar» va «Avlodlar dovoni» bo'lib, Bobur va Boburiylar sulolasi tarixining badiiy ifodasidir.

Bobur adabiy tilda ishlatilmagan yoki undan mustaxkamroq o'rin olmagan juda ko'p so'zlarni adabiy tilga kiritadi. Va ulardan o'rinli foydalanadi. Ona tilning lug'at boyligiga hamda xalq maqollariga, ta'birlariga katta e'tibor beradi. Ifodaning ixchamligi, soddaligi va ravonligi «Boburnoma» tilining juda muhim xususiyatidir. Bobur oz so'z bilan keng fikrni bayon etishga, so'zlarni tanlab ishlatishga, sinonim, antonim va omonim so'zlardan keng foydalanishga erishadi.

«Boburnoma» asarining yana bir eng asosiy xususiyati shundaki, asarning oxiridagi voqealar, Xumoyun xastalik paytida Boburning o'z jonini sadqa qilishi inson e'tiqodi, butun borlig'i bilan biror narsaga astoydil bel bog'lasa, unga erishishi borasidagi ilohiy quvvatning belgisini bildiradi.

«Boburnoma» asari yana ko'p yillar mobaynida Yevropa va Osiyo halqlarining - qimmatli obidasi sifatida o'rganilishi, u haqda va uning ustida yana qator ilmiy ishlar olib borilishi kerakligi ayni haqiqatdir. Chunki Yevropa madaniyati va ilmi uchun Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyo halqlari turmush tarzini o'rganish manbai bo'lib xizmat qilsa, Osiyo xalqlari uchun esa, o'z tarixi, o'z madaniyati va san'ati haqida to'la ma'lumotlar beruvchi manbadir.

#### A D A B I Y O T L A R:

1. Mallaev N., O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1965, 399-470, 636-667-betlar.
2. 2.Istoriya Uzbekskoy literatury, v 2-x tomax, tom I, izd. «Fan» T-1987 g. Str. 276-328, 401-419.
- 3.Literaturnyy ensiklopedicheskiy slovar, M-1987 g. Str. 481.
- 4.O'zbek adabiyoti, darslik-majmua, 10-sinflar uchun, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1993 yil, 7-8-betlar.
6. Haqqulov I., Zanjirband she'r qoshida, «Yulduzcha», T-1989 y.
7. Alisher Navoiy, g'azallar, sharhlar, «Kamalak», T-1991 y.
8. Navoiy asarlari lug'ati, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T-1972 y.
9. Hayitmetov A., Navoiyxonlik suhbatlari, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1993 y.



10. Babur, T- 1982 g. v 2-x knigax, kniga I, str 3-6
11. Uilyam Erskin. G'ofurjon Sotimov tarjimasini. Bobur Hindistonda Cho'lon nashriyoti T- 1995 y.
12. Nuriddinov M. «Boburiylar sulolasi», «Fan» nashriyoti, T-1994 y.
13. «Boburnoma «Yulduzcha» nashriyoti , T - 1990 yil.
14. Tojiboev H. Ilohiy zehn sohibi, «Xolis» ijtimoiy-ommabop gazeta, 1991 yil, 14-bet

Andijon,

## **XVII- XIX ASRLAR O'ZBEK ADABIYOTI REJA:**

6. Tarixiy sharoit va madaniy hayot.
7. Tarixiy asarlar va tazkiralalar.
8. Badiiy adabiyot.
9. Xalq kitoblari.
10. Tasavvuf va diniy yo'nalishdagi adabiyotlar.
11. Xalq og'zaki ijodi va tarjimachilik.

O'rta Osiyo hududida XVI-XVII asrlarda davom etgan feodal tarqoqlik, separatizm jarayoni XVIII asrda yanada kuchayib, mavjud ikki xonlik Buxoro va Xiva, uch xonlikka Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligiga bo'linib ketdi.

Ammo xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurashlar, bir xonlikning ikkinchi bir xonlik hududi hisobiga o'z chegarasini kengaytirishi XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida nihoyat darajada ko'payib ketib, mamlakat hayotiga zarar yetkazdi, xalqning boshiga yangi-yangi kulfatlar soldi.

Buxoro, Xiva va Qo'qonning XVIII asrdagi va XIX asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotini, bu o'lkalardagi tarixiy voqea- hodisalarini bayon etishga bag'ishlangan, fakt va materialga boyligi, uslubi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadigan asarlardan «Tarixi Muqimxoniy», «Ubaydullanoma», «Muntaxab-ut-tavorix», «Firdavs - ul - iqbol» kabi tarixiy asarlar yaratildi. Ularning yana bir qimmatli shundaki, ularda faqat tarixiy voqealarning bayoni berilib qolmasdan, madaniy-adabiy hayotga doir xilma-xil qimmatli ma'lumot va materiallar ham beriladi. Bu asarlar XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi madaniy hayotini, badiiy adabiyotini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida adabiyotshunoslik sohasida ba'zi ijobiy ishlar davom ettirildi. Xususan, tazkirachilik borasida Muhammad Amin bin Nurmuhhammad Nasafiy tomonidan yozilgan «Mazxar ul-musannifin», Fazliy Namangoniy boshchiligida tuzilgan «Majmuai shoiron», Qori Rahmatulloh Vozeh tomonidan bitilgan «Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul asxob» asarlari maydonga keldi.

Ayniqsa, mana shu davrdagi mafkuraviy kurash badiiy adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ya'ni, ikki adabiyot oqimi paydo bo'ldi.

Bulardan biri bevosita reaksiya - xukmron sinfning manfaatlarini ko'zlovchi va ikkinchi, xalq manfaatlarini ifodalagan adabiyotlardir. Mana shu ikkinchi yo'nalish adabiyot namoyandalari taraqqiyparvar yo'nalishni tashkil qilib, ular o'z asarlarida xalq orzu-umidlari, maqsad-istaklarini ifoda etuvchi adiblar edilar.

Markaziy Osiyo xalqlarining XVIII- XIX asrlaridagi hayotiga nazar tashlansa, ularning hayoti va qashshoq bo'lishiga qaramay ijodiy faoliyati so'nib qolmaganligi e'tiborli holdir. Uning yuz minglab aqllardan tashkil topganligi va xalqning teran tafakkuri xalq kitoblarida, ularning og'zaki ijodida sezilib turadi. Shubhasiz, XIX asrning ikkinchi yarmi xalq ijodining katta maktabi bo'lib, Jassoq baxshi, Kichik Bo'ron, Qo'ldosh shoir, Suyar shoir, Xo'janazar baxshi, Jumanbulbul kabi mashhur xalq shoiri va baxshilari yetishib chiqdi.

O'rta Osiyoni kechib chiqqan vengriyalik sharqshunos X.Vamberi el ichida mashhur bo'lgan «Yusufbek va Ahmadbek», «Tohir va Zuhra» kabi xalq kitoblari - xalq romanlari haqida quyidagilarni yozgan edi: «O'zbekistonda bunday romanlar son-sanoqsiz darajada ko'p bo'lib,

o'zbeklar, asosan, shu xildagi asarlarni g'oyat sevadilar. Bunday asarlarda o'zbeklarning milliy g'urur va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina manzaralarni topish mumkin.»

XVIII asrdagi va XIX asrning birinchi yarmidagi taraqqiyparvar adabiyotning o'sib, takomil topishida xalq og'zaki ijodining roli va ta'siri benihoya kattadir. Xalq og'zaki ijodi xorazmlik Nishotiy, Ravnaq, Munis, Ogaxiy; Qo'qondagi Gulxaniy, Maxmur, Ma'dan; Buxorodagi Sobir Sayqaliy, Mujrim Obid va boshqalarning asarlariga katta material bergan. Shu davrlarda muhim asarlar yaratgan Gulxaniy, Maxmur, Munis va Ogahiy ham o'z asarlarida, ularning tili va uslubi ustida ishlaganlarida xalq donishmandligining mevasi bo'lgan ajoyib naqllardan, ajdodlarning hikmatli so'zlaridan, obrazli iboralardan, xalq yumori va askiyalaridan ustalik bilan foydalanib, ifodalanayotgan poetik mazmunni chinakam badiiy sayqallashga erishganlar.

Bu davr adabiyotida xonlar va feodallarga laganbardorlik qiluvchi kotib va shoirlar oz emas edi. Ularning manzumalari, asosan, zolim, mutaassib, axloqsiz va xiyonatchi hukmdorlarga qaratilgani uchun ular xalqqa manzur bo'lmas edi.

Shu davrlarda hajv - satira va yumor ham ancha rivojlandi. Xalqchil shoirlar hukmronlarning ichki illatlarini, zodagonlarni rostgo'ylik bilan tanqid qilgani uchun ta'qib, quvg'in va jazoga uchrar edilar.

Shunday qilib, XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi adabiyotida bir-biriga qarama - qarshi ikki yo'nalish mavjud edi.

Feodal - klerikal adabiyot, garchi hukmronlik mavqeiga ega bo'lsa-da, g'oyaviy jihatdan reaksiya, badiiy jihatdan shaklbozlik, radifgo'ylik, ofarinbozlik tarzidagi istiqbolsiz adabiyot edi. Xonlarning maddoh shoirlari ijodida o'z mohiyati bilan ikki xil taqlidchilik mavjud edi. Ularning biri shoirlarning o'tmish maddohlariga qilgan ko'r - ko'rona taqlidida ham, ularning o'zaro taqlidlarida ham amir, xonlar va boshqa feodallarning manfaatlari ko'zda tutilar, ofarinbozlikdan nariga o'tilmas edi. Chunki saroy ahllarining talablari va ularning adabiyotidagi tushunchalar undan nariga o'tolmas edi. Bu o'rinda ularga diniy-xurofiy asarlar juda qo'l kelar, quyi tabaqalarni boshqarishda o'sha chala dindorlar va ularning tasavvuf haqidagi chala tushunchalari o'tkir qurol bo'lib xizmat qilar edi.

Taraqqiyparvar - demokratik adabiyot namoyandalari ijodida davr, zamon va sharoitga ko'ra, mahdudlikning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lishidan qat'iy nazar, hayot haqiqatini kuylash asosiy o'rinni egallar edi. Bu ijodkorlar asosan Gulxaniy, Maxmur, Munis, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy kabilar edi. Bularning g'azallarida, qasida va qit'alarida, ruboiy va chistonlarida, zarbulmasal va dostonlarida xalq hayotiga achinish, uning orzu-umidlarini kuylash, pok insoniy ishq-muhabbat dardlariga sheriklanish, ilm-ma'rifatning ravnaqi, tinchlik va obodonchilik uchun kurash motivlari o'z ifodasini topgan. Hayotiylik bu shoirlar ijodining asosiy xususiyati bo'lgani uchun ular o'z g'azallari, dostonlarida o'z zamonasiga mos ravishda fikrlar aytdilar, mehnat, ijod, yashash erkinligi orzulari bilan qalam tebratdilar.

XVIII asarda va XIX asrning birinchi yarmida ko'pgina tarixiy asarlar va tazkiralari yaratilishi bilan birga, badiiy tarjima sohasida ham ancha ish qilindi. Fors-tojik tilida yaratilgan mashhur asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu sohada Sayid Husayn Xorazmiy, Munis, Xoziq, Ogahiy, Volidxoja, Siddiq va Xiromiyning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Munis va Xoziq XV asrda yaratilgan Mirxondning mashhur «Ravzat - us safo» asarini o'zbek tiliga tarjima qila boshlagan bo'lsalar, Ogahiy Sa'diyning «Guliston» asarini, XVII - XVIII asrlarda Hindistonda yashagan Muhammad Vorisiyning «Zubdat - ul hikoyat» asarini, Kaykovus bin Vushmagirning mashhur «Qobusnoma»sini, Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston»i kabi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi.

XVIII- XIX asrlarda faqat nasriy asarlar emas, balki she'riy asarlar, poemalar ham tarjima qilindi. Bu sohada Xoja Sayid Husayn tomonidan «Vomiq va Uzro», «Eron shohi Zahir Kirmoniy», Xiromiy tomonidan «Chor darvesh», « To'tinoma», Ogahiy tomonidan Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar», Xisrav Dehlaviyning «Hasht behisht», Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Absol», «Yusuf va Zulayho» kabi asarlarining tarjimalarini ta'kidlash lozim.

Turli uslub bilan amalga oshirilgan badiiy tarjimaning hammasida ham o'zbek xalqini qo'shni xalqlar adabiyotining eng yaxshi va mashhur namunalari bilan tanishtirish maqsadi ko'zda tutilgan edi. Bu davr tarjimachiligida katta yutuqlarga erishildi. Tarjimonlar asosan axloqiy-didaktik va ishqi-romantik asarlarni tanlab tarjima qildilar. Bu o'rinda, shubhasiz, tarjimonning dunyoqarashi, o'sha zamondagi adabiy oqimlarga munosabati chuqur iz qoldiradi.

XVIII asr va XIX asrning boshlaridagi adabiyot o'z o'rnida yangi davr, yangi adabiy jarayonning debochasi sifatida tarixda iz qoldirgan. Chunki, mana shu taraqqiyparvar adabiyotgina bo'lajak demokratik adabiyotning paydo bo'lishiga yo'l ochib berdi. Davrlar o'zining tarix, falsafa, san'at va adabiyot sohalariga, davlatning butun madaniy hayotiga o'zining naqshini izlarini soladiki, bu naqshlar asrlar davomida o'z mavqeini saqlab turaveradi. Toki, kelajak avlodlar uning tub mohiyatini, uning o'z zamonasi va kelajak avlodlariga qoldirajak ma'naviyatini sarhisob qilgan holda baholayveradilar. Bu o'rinda XVIII asr va XIX birinchi yarmi o'tmish asrlar, ya'ni XVI- XVII asrlarga nisbatan ancha sermahsul va mazmundor davrlar hisoblanishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan manbalar fikrimizning isbotidir.

#### A D A B I Y O T L A R

1. Abdullaev, V., O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, T-1967 y. 173 – betlar.
2. Istoriya Uzbekskoy literatury, izd «Fan», T-1989 g. v 2-tomax , 2-tom str. 79-108.
3. Munis, Saylanma, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T-1980 y. 3-10 - betlar.
4. Ogahiy, Asarlar, VI jildlik, I jild, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T-1971 y. 5-35 - betlar.

#### XX ASR ADABIYOTI.

##### REJA:

1. O'zbek adabiyotida «Milliy Uyg'onish» davri.
2. 30- 50 yillar O'zbek Adabiyoti.
3. 50- 80 yillar O'zbek Adabiyoti.

**O'zbek adabiyotida «Milliy Uyg'onish» davri.** XIX asrning so'nggi choragida Markaziy Osiyoning chorizm tomonidan bosib olinishi bilan o'zbek xalqi tarixida yangi davr - mustamlakachilik davri boshlandi. Qariyb 130 yil davom etgan mustamlakachilik davrida O'zbekiston dastlab «oq», keyin «qizil» kishanlar ostida yashadi. Mustamlakachilikning bu har ikkala bosqichida moddiy boyliklarimiz tinimsiz ravishda tashib ketildi,.. mamlakatimizda ruslashtirish jarayoni kechdi,.. ko'z-ko'z qilsa arzugilik milliy tarixi soxtalashtirildi. To'g'ri, Sovet hokimiyati yillarida agrar sanoat, fan va madaniyat bir qadar rivoj topdi, shaharlarimizning me'moriy qiyofasi o'zgardi. Lekin o'zbek xalqi, ayniqsa, uning Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy singari zukko farzandlari so'nggi 130 yil davomida mustaqillik haqidagi orzu va umidlar bilan yashadi.

XX asrning boshlarida xalqning ana shunday ilg'or fikrli, o'tkir nigohli, g'ayrat va shijoatli siymolari sifatida o'zbek jadidlari maydonga chiqdilar. Shu davrda Eron va Turkiyada milliy inqiloblar sodir bo'lgan va Sharqda uyg'onish boshlangan edi. Ana shu uyg'onish davrining qaldirg'ochlari sifatida Turkiyada yosh turklar paydo bo'lib, ularning islohchilik harakatlari Fitrat singari Istanbulda tahsil ko'rib qaytgan yoshlar ongi va dunyoqarashiga katta ta'sir o'tkazdi. Bog'chasaroyda Ismoil G'aspirali nashr etgan «Tarjimon» gazetasining, shuningdek, Qozon, Ufa va Orenburgda chiqa boshlagan nashrlarnig ta'siri ham o'zbek jadidchiligining tug'ilishi va qudratli xarakatni vujudga keltirishda muhim omil bo'ldi.

XX asrga kelib Turkistonda ijtimoiy va siyosiy hayotda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Mustamlakachilik siyosati yanada kuchaydi. Turkiston Rossiyaga, asosan, xomashyo

xazinasida kerak bo'lib, tayyor mahsulot masalasida unga doimo qaram bo'lib turishi lozim edi. Buning natijasi o'laroq xalq orasida norozilik harakatlari boshlandi. Va ilg'or guruhlar jadidlar orqasidan ergasha bordilar. Milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, milliy ozodlik harakatlari kuchaydi. Bu harakatga javoban mahalliy hukumat jadidlariga qarshi keskin choralarni belgilaydi, ammo ular har qanday to'siqqa qaramay o'z g'oyalarida sobiq qoldilar.

Shunday sharoitlarda hayotdagi o'zgarishlar, yangiliklar, murakkabliklar, ziddiyatlar, kurashlarni hozirjavoblik bilan aks ettiruvchi o'ziga xos tafakkur chirog'i badiiy adabiyot bo'ldi.

Shakl, mazmun, g'oya, janr, muammo, usul jihatidan bu davr adabiyotida xilma-xil yo'nalishlar xukm surdi. Xalqni ma'rifatga chorlovchi, jadidchilik g'oyalarini ilgari suruvchi asarlar bilan bir qatorda diniy yo'nalishdagi asarlar ham yaratildi. Vatanparvarlikka, milliy uyg'onishga chorlovchi ilg'or shoirlar bilan bir qatorda an'anaviy ruhda she'r yozuvchi shoirlar ham oz emas edi. Millatparvar, jonkuyar asarlar davr hayotidagi illatlarni, mustamlakachilik siyosatidagi norasoliklarni hajv etib, ularga qarshi kurashga chorlasalar, ayrim zamonasoz shoirlar imperator hazratlari-yu, uning to'ralarini madh etardilar.

Bu davr o'zbek adabiyotida yozuvchilarning o'zidagi badiiy tafakkurning o'sishi hamda turk, tatar, ozarbayjon, rus adiblari ta'sirida roman, drama, yangi yo'nalishdagi doston, publitsistik maqolalar paydo bo'ldi.

**XX asr boshlaridagi o'zbek nasri.** O'zbek adabiyoti tarixining V tomida bu davrga shunday ta'rif beriladi: «XIX asrning 2-yarmidagi demokratik shoirlar ijodi uchun xarakterli xususiyat shundan iborat

ediki, ular xalq hayotining real manzarasini yaratib, kambag'allarning og'ir ahvolini haqqoniy tasvirlaydilar, mehnatkashlarni ezuvchi zolim boylar va amaldorlarning yaramas xatti-harakatlarini qoralaydilar. Ayni paytda ular boyonlarni insofga keltirish, kambag'allarga yordam berishga ko'ndirish mumkin deb o'ylaydilar. Ikkinchi bosqichga o'tib esa, qanday qilib bo'lsa-da, jamiyatni o'zgartirish kerakligi tushunchasi qat'iylashdi»

Darslikda aytilishicha, XX asr boshlarida yaratilgan prozaik asarlarini, asosan, ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchisi, pedagogik-didaktik asarlar. Ular jumlasiga S.Ayniyning 1909 yilda yozilgan va 1917 yilda qayta nashr qilingan «Taxzibus-sibyon» («Bola tarbiyasi»), Hamzaning 1914-1915 yillarda tuzgan «Engil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» singari asarlarini kiritish mumkin.

Ikkichisi, sof badiiy - publitsistik asarlar. Ular Hamzaning «Milliy roman yoxud yangi hayot», S.Ayniyning «Xonadoni xushbaxt», Qodiriyning «Juvonboz», «Uloqda», Cho'lponning «Qurboni jaholat», «Do'xtur Muhammadiyor», Fitratning «Sayyohi hindiy» va «Munozara» asarlaridir.

**XX asr boshlaridagi o'zbek she'riyati. Ma'rifatparvarlik.** XX asr boshlaridagi ijodkorlar o'z asarlarida asosiy e'tiborni Turkistonning qoloqligini ko'rsatishga qaratdilar. Tavallo ijodida yevropaliklar madaniyati bilan turkistonliklar madaniyatini, o'qish-o'qitish ishlarini chog'ishtirish yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Avloniy ham Tavalloga ergashib shunday yozadi:

Boshqalar ilmu hunar soyasida yaxshi yashar,

Ilmsiz, faqir, earuratga bizar quldur, quldur.

Shuning uchun Hamza, So'fizoda, A.Avloniy, Mirza Ho'qandiy va boshqalar maktab ochib o'qitishga alohida e'tibor berdilar.

XX asr boshlarida o'zbek tilida vaqti - vaqti bilan nashr etilib turgan «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osioy», «Samarqand», ayniqsa, «Turkiston viloyatining gazetisi», «Sadoyi Turkiston» gazetalarida, shuningdek, «Buxoroyi sharif» va «Oyina» jurnallarida ma'rifatparvar shoirlarning she'rlari muntazam bosilib turishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Hamza, Avloniy, Fitrat, Tavallo, Ibrat, Sidqiy, Xurshid, Xoji Muin, Bahrombek kabi shoirlar bayozlari to'plamining nashr etilishi shu davrdagi muhim voqealardan biridir.

Nozimaxonim:

Ko'ring, do'stlar, yuz ming voy, ayshu ishrat bir yonda,

Qashshoq, mazlum boshida qayg'u-xasrat bir yonda.

**Dramaturgiya.** 1911 yili Qo'qon shahrida yashovchi tatar mualliflardan Abdurauf Samadov «Mahramlar» nomli, Behbudiy «Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi» nomli pesalarini yozdilar. «Mahramlar» o'sha yiliyoq Namanganda «Ishoqiya» matbaaxonasida chop etildi. «Padarkush» esa juda qiyinchilik bilan nashr qilinadi. 1923 yil 23 iyulda sahnada qo'yishga ruxsat etiladi va katta shuhrat qozonadi. Uning ta'sirida 1913 yil Nusratullo Qudratulloning «To'y», 1914 yil Abdullo Badriyning «Ahmad», «Juvonmarg», Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» asarlari yoziladi. Hamza faoliyati ham shu davrlarda boshlanib, uning «Zaharli hayot», «Ilm hikoyati» «Normuhammad domlaning kufr xatosi» asarlari yaratiladi.

1916 yilda Avloniy «Advokatlik osonmi?», Hoji Muin «Ko'knori», «Juvonbozlik qurboni», «Qudratullo» «Kengash majlisi», 1917 yilda Fitrat «Qon», «Bekjon», A.Badriy «Boybachcha», «O'gay ota» kabi pesalarini yaratadilar.

XX asr adabiyoti va madaniyati tarixida Mahmudxo'ja Behbudiy alohida o'rin tutadi. Asr boshida Behbudiyning Arabiston va Turkiya safarlarida bo'lishi, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg shaharlariga borishi uning dunyoqarashida chuqur iz qoldiradi. Natijada zamon va ijtimoiy ehtiyoj tufayli tug'ilgan «Bolalar uchun kitob», «Rusiyaning qisqa jo'g'rofiyasi» singari qo'llanmalarida uning shu davr ma'rifatparvarlik g'oyalari namoyon bo'ladi.

U o'zbek dramaturgiyasining asoschisidir. Behbudiy birinchilardan bo'lib 1911 yilda «Padarkush» dramasi yozadi.

Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlarini kiritishga ta'sir ko'rsatgan, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intilgan, jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy o'lkada ham nazariyotchi, ham amaliyotchi sifatida ko'p ishlarni amalga oshirdi. 1904 yilda Toshkentdagi Mirobod mahallasida jadid maktabini ochdi, unga o'zi mudirlik qildi va dars berdi.

Uning «Birinchi muallim» (1909), «Ikkinchi muallim» (1912) nomli darsliklari hamda «Turkiya guliston yoxud axloq» (1913) nomli qo'llanmasi o'z davrida yoshlarni yangicha yo'nalishda o'qitish va an'anaviy milliy ruhdagi besh to'plamdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» asari (1909- 1916) maktablarda qo'llanma vazifasini o'tadi.

**30- 50 yillar adabiyoti.** 30-yillarning tarixiy manzarasi 20-yillarning so'ngida boshlangan jamoalashtirish (kollektivlashtirish), industrilashtirish kabi ommaviy safarbarlik tufayli faqat

shaharliklarga emas, qishloq axli ham o'zlarining hosildor yerlaridan mahrum bo'lishligi bilan karakterlanadi.

30-yillarning avvalidan boshlaboq jamiyatni «yot unsurlar»dan tozalashga kirishildi. Bu borada o'ziga to'q, o'rtahol hayot kechirayotgan xalqning katta qismi va ayniqsa, 1937 yilga kelib xalqqa qarshi, uning «guli» bo'lgan ziyolilarga qarshi qaratilgan qirg'in avj nuqtasiga ko'tarildi. Shu sababdan «yangi hayot»ning barpo etilayotgani, «yangi kishi» ning tug'ilib kelayotganligi haqidagi afsonalarga ishontirildi. 30 - yillar adabiyotining yetakchi sohasi - she'riyat sovet tuzumini kuylash, uning afzalliklarini ko'z-ko'z qilishda boshqa adabiy turlariga nisbatan bayroqdorlik qildi. Yozuvchilarning Butunittifoq qurultoylarining qarorlariga ko'ra shoir va yozuvchilar besh yillik gigantlari - sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar, kolxoz (jamoat xo'jaligi) va sovxoz (sovet xo'jaligi)larga borib, «yangi hayot»ni barpo etayotgan zamondoshlari bilan tanishdilar va ular mehnatini kuylashga kirishdilar. 30 - yillarning o'rtalariga kelib Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Usmon Nosir kabi shoirlar ijodida lirikaning go'zal namunalarini paydo bo'ldi.

Oybekning «O'zbekiston», Hamid Olimjonning «Baxtlar vodiysi» va boshqa qator she'riy asarlarda o'zbek she'riyatining voqelikni teran idrok etish hissiyoti sezilib turdi.

Shu yillarda, ayniqsa, avj olgan ikkinchi yo'nalish G'afur G'ulom nomi bilan bog'liq. Iste'dodli shoir davrining tirik nafasini «Turksib yo'llarida», «Yalovbardorlikka» kabi she'rlarida mujassamlashtirdi.

30- yillar adabiyoti muayyan yutuqlar bilan birga qo‘pol xatolarni ham chetlab o‘tmadi. Partiya adabiyotga rahbarlik qilar ekan, asarlar odatda partiya ekan ko‘chatlarning zaharli mevalar berishini sezgan ziyolilar o‘z sohalaridan chetlashtirildi, qatag‘on qilindilar.

30-yillar adabiyoti erishgan yutuqlardan biri uning xalq ommasi bilan yaqin aloqa o‘rnata olganligida bo‘ldi. Yozuvchi va shoirlar Katta Farg‘ona kanali, Farhod GESi kabi umumxalq qurilishlarida mehnat ahli bilan birga bo‘lib, uni zavqlantira, ruhlantira oldilar. Adabiyotning bu xususiyati, ayniqsa, urush yillarida ko‘rindi.

Vatan urushi davrida she‘riyat, nasr va dramaturgiya turlarida yaratilgan ko‘pgina asarlar safarbarlik ruhiga ega bo‘ldi. Oybekning «O‘lim yovga!», Hamid Olimjonning «Jangchi Tursun», G‘afur G‘ulomning «Sen yetim emassan» kabi asarlari xalqni qahramonona kurash va mehnatga otlantirdi.

Publitsistik maqolalar va ocherklarning bu davrdagi ahamiyati oshganiga qaramay, yozuvchilar urush davri haqiqatini ifodalashda hikoya, qissa, va roman janrlaridan ham keng foydalandilar. Abdulla Qahhor, Oydin, Said Ahmad kabilarning front orqasidagi kishilar jasoratini

yoritish niyatida yozgan «Asror bobo», «Xotinlar», «Kampirlar sim qoqdi» kabi asarlari yaratildi.

O‘zbek dramaturglari ham harbiy davr talabidan kelib chiqib, xalqni qahramonlikka da‘vat etuvchi sahna asarlarini yaratdilar. Teatr sahnalarida juda qisqa muddat ichida qator pesalarni tomoshabinlar e‘tiboriga taqdim etdilar. H. Olimjonning «O‘zbekiston qilichi» Uyg‘un va S.Abdullaning «Qasos», Tuyg‘un va Amin Umariyning «Davron ota», kabi dramalar shu tarzda maydonga keldi. Bu asarlar Komil Yashin qalamiga mansub «O‘lim bosqinchilarga» pesasi bilan birga shu davr dramaturgiyasining safarbarlik g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan namunalarini tashkil etdi.

Shu davrlarda o‘zbek adabiyotida tarix - o‘tmishga murojat qilish kuchaydi. Chunki, ijodkorlar oldida faqat bugunninggina emas, tarixning nafasini ham sezib turish mas‘uliyati turar edi. Shu sababdan ijodkorlar xalqimizning milliy qahramonlari siymolarini yaratishga bel bog‘ladilar. Oybek «Mahmud Torobiy», Hamid Olimjon «Muqanna», Maqsud Shayxzoda «Jaloliddin Manguberdi», Uyg‘un va Izzat Sultonlar «Alisher Navoiy» pesalarini yaratdilar. Dastlabki uch asardagi milliy ozodlik uchun kurash mavzulari harbiy davr ruhiga uyg‘un edi.

Urushdan keyingi yillarda xalqni ulug‘ g‘alabaga olib kelgan omillarni nazardan o‘tkazar ekanlar, G‘.G‘ulom «Vaqt», «Kuz keldi», Oybek «Raisa», Shayxzoda «Aks sado» singari she‘rlar yaratib, xalq qudrati manbalarini idrok qilishga urindilar.

50-yillargacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti bugungi kun talablari asosida yondoshganda, Oybekning «Navoiy» romani yoxud G‘.G‘ulomning «Vaqt» she‘ri bilan bellasha oluvchi asarlarni bera olmadi.

Keyinchalik ana shu badiiy zamindan Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Shukur Xolmirzaev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari shoir va yozuvchilar yetishib chiqdilar.

30 – 50-yillar adabiyoti Oybek va G‘.G‘ulom, H Olimjon va Shayxzoda, Uyg‘un va Yashin, Mirtemir va S.Abdulla, Usmon Nosir va Zulfiya va boshqa qator iste‘dodli yozuvchilarni yetishtirib berdi. Agar partiyaning adabiyotga rahbarligi to‘g‘ri bo‘lganida va yana balki ma‘daniyat, san‘at ishlariga «siyosiy rahbarlik» qilmaganida, sotsialistik realizm uslubi ularning iste‘dodini jilovlamaganida va vulgar, qo‘pol, bir yoqlama tanqidchilik adabiyotimiz ustiga tinmay qora bo‘yoqlar sohib turmaganida bu san‘atkorlar ko‘plab o‘lmas asarlar yaratgan bo‘lar edi.

**50 - 80 - yillar adabiyoti.** 50-yillarning o‘rtalarida mamlakatda erkinlik shabadasi esa boshladi. Shaxsga sig‘inish oqibatlarini tugatish, demokratiyani kengaytirish, qonunchilikni tiklash iqlimi qaror topa boshladi, erkin ijodiy fikrlashga birmuncha imkon yaratildi. Fan - texnikani rivojlantirishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishildi.

Respublikamizda adabiy hayotni sog‘lomlashtirish yuzasidan muxim tadbirlar amalga oshirildi. 30 - yillarda shaxsga sig‘inish qurboni bo‘lgan A. Qodiriy, So‘fizoda, Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir singari adiblarga qo‘yilgan asossiz ayblar olib tashlandi, ularning asarlari xalqqa

qaytarildi. 40 - yillarning oxiri 50 - yillarning boshlarida qatog'onga uchragan M. Shayxzoda, Shuxrat, S. Ahmad, Shukrullo kabi adiblar oqlanib, jo'shqin ijodiy mexnatga qaytdilar. Ma'naviy merosga munosabatda yo'l qo'yilgan ayrim xatolar tuzatildi, adabiyotga bir yoqlama jonlanish, yangi bir ko'tarilish boshlandi. Oybek, G'. G'ulom, A. Qaxxor, Uyg'un, K. Yashin, Zulfiya, Mirtemirlar g'ayrat bilan ijodga kirishdilar. Bu davrda adabiyotidagi yo'nalishda bir qator sifat o'zgarishlari paydo bo'ldi. Voqealarni bor xolicha murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishga xarakat qilindi. Adabiyoning mavzu muammolari doirasi ancha kengaydi, jamiyat bosib o'tgan yo'lni yangicha tanqidiy idrok etish. Boholash inqilobdavri, 30 - yillar, Vatan urushi va Urushdan keyingi davr. Haqiqatini, shaxsga sig'inish tufayli kishilar boshigatushgan kulfatlarni aytishga yo'l ochildi. A. Qodiriy «Sinchalak», «Daxshat», Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» P. Qodirovning «Uch ildiz» Shuxratning «Oltin zanglamas», O. Yoqubovning «Muqaddas» kabi asarlarida, Oybek, Zulfiya, Mirtemir, S. Zunnovanning lirikasida bunday yangi alomatlar yorqin namoyon bo'ldi.

Adabiyotdagi ana shu o'zgarishlar hayotbaxsh tamoyillar 60 - yillar o'rtalaridan, ayniqsa, 70 - yillarga kelib jiddiy to'siqlarga duch keldi. Avvalo ko'pgina yaxshi qarorlar qog'ozlarda qolib ketdi, taraqqiyotimiz sur'ati keskin susayib qoldi, iqtisodiy - ma'naviy parokandalik kuchaya bordi, mamlakatda tanglik vaziyati vujudga keltirdi. Bu yillar turg'unlik yillari, deb nom oldi.

80 - yillar ostonasida O'. Xoshimovning «Teraklar yaproq yozdi», «Nur borki, soya bor», «Dexqonning bir kuni» kabi asarlari kitobxonlarni hayajonga soldi. Maktab bolalarining umri paxtazorda o'tayotganligi, zaxarli dori sepilgan g'o'za bargidek erta xazon bo'layotgani. Yangi tushgan kelinchaklarning og'ir mehnat girdobida kechayotgani, qishloqdagi, kasalxonadagi, savdo sohasidagi, oliy o'quv yurtlaridagi adolatsizliklar qator yetuk ijodkorlar asarlarida zo'r hayajon bilan qalamga olindi.

Bu davr adabiyotida badiiy tasvir doirasi kengaytirishga bo'lgan intilish shakl, uslub sohasidagi izlanishlar davom etdi. Ayniqsa she'riyatimiz rang - barang tus oldi. Unda mumtoz adabiyotimizning g'azal, muxammas, ruboiy, tuyuq kabi she'riy shakllari hamda xilma - xil poetik san'atlarimiz g'arb she'riyatining sonet. Roman, elegiya kabi turlariri halq qo'shiqlarini yodga tushuruvchi o'ta sodda, samimiy satrlar bilan barobar, mumtoz she'riyatimizga xos murakkab majoziy tagdor misralar yaratildi. Haqiqiy ma'nodagi realistik, falsafiy. O'ychan she'riyat turi xuddi shu bosqichda o'zini to'laroq ko'rsatdi.

Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Rahmon kabi shoirlar 80 - yillarga kelib, inson ruhiyatini rang - barang qirralarini aks ettiruvchi lirik asarlar yaratdilar. Bu davrga kelib nasrimizdagi shakliy - uslubiy izlanishlar ko'zga yanada ochiqroq tashlandi. An'anaviy romanchilik uslubi bilan bir qatorda ramziy mushohada asosiga qurilgan asarlar, shuningdek, xilma - xil shakl - uslublar qo'shilishidan iborat asarlar paydo bo'ldi.

Avvalo, tarix, inson xotirasi, turmush saboqlari masalalariga qiziqish ortdi. O. Yoqubovning «Ulug'bek xazinasini», «Ko'xna dunyo», P. Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni», Mirmuhsinning «Memor» kabi asarlari ana shunday intilish samarasidir.

XX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyoti taraqqiyotini P. Qodirovsiz tasavvur qilish qiyin. Shu o'rinda o'zbek adabiyotining shuhratini ko'targan adiblardan O. Yoqubov, O'. Hoshimov, Sh. Xolmirzaev. G'. G'ulom kabilarning ham faxr bilan tilga olish zarur. Ular o'z asarlarida turg'unlik davrining kirdikorlari, To'rachilikning oqibatlarini, milliy boylik sanalgan paxta mahsulotining halq azobiga aylantirilish va boshqa salbiy oqibatlar haqida qalam tebratdilar.

XX asarning 80 - yillari o'z o'rnida halq hayoti bilan turmush haqiqatlarini solishtirishlari natijasida sodir bo'ldi. Shu yillar adabiyoti mustaqillik davrining dastlabki qo'ng'iroqlarini chalgan edi.

#### A D A B I Y O T L A R

1. Mirzaev S. , Shermuxammedov S. , Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi, «O'zbekiston» nashriyoti, T- 1993 yil. 17- 68 bet

2. O'zbek adabiyoti, II - sinf uchun darslik, «O'qituvchi» nariyoti T- 1995 y. 146- 283 betlar.

3. Jamoa, Kollektiv, O'zbek adabiyoti masalalari, Adabiy tanqidiy maqolalar to'plami. T- 1959 yil.

## HOZIRGI ADABIY JARAYON.

### R E J A

1. 80 - yillar oxiri va 90 - yillar boshlaridagi ijtimoiy hayot.

2. O'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos hususiyatlari.

3. Yangi tafakkur, yangi adabiy jarayon.

Mamlakatimiz halq ho'jaligida 70-80 yillarda yutuqlarga erishildi. Biroq jamiyatimiz tarixiy taraqqiyoti davomida, xusisiy shaxsga sig'inish va turg'unlik yillarida turli jiddiy xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Dabdababozlik , maqtonchoqlik , ko'zbo'yamachilik , oshna - og'aynigarchilik, o'z mansabini suiste'mol qilish, halqni va davlatni aldash, poraxo'rlik singari illatlar tomir otdi. Oqibatda mamlakat va xalq ahvoli keyingi yillarga kelib, yaxshilanish o'rniga yomonlashib bordi. Ahvolni tuzatish uchun hayotda tub o'zgarishlar - sifat o'zgarishlar qilish lozim bo'lib qoldi. Natijada davr talabiga ko'ra 1985 yildan yangi siyosiy tafakkur shiori o'rtaga tashlandi. Shu tariqa mamlakatimiz o'z taraqqiyoining yangi davriga qadam qo'ydi.

O'tgan qisqa vaqt ichida halqimiz yangi siyosiy tafakkur tufayli ko'pgina tadbirlarni amalga oshirdi. Oqibatda hayotda demokratiya va oshkoralik kuchaydi. Har narsani o'z nomi bilan atashga , yaxshini yaxshi, yomonni yomon, jinoyatni jinoyat deb ochiqchasiga aytish imkoniyat yaratildi.

Adabiyot yangi kun fikr, yangi obrazlar bilan boyidi. Asarlarning g'oyaviy mazmunidagi emas, shaklida ham o'zgarishlar yuz bera boshladi. Yangi siyosiy tafakkur sharofati bilan 80-yillarning o'rtalaridan boshlab adabiyotimizda tanqidiy rux, oshkoralik va demokratiya misli ko'rilmagan tarzda o'sa bordi. O'zbek adabiyoti 8- yillarga kelib o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi

Bu davrda halq ommasining jamiyat hayotidagi hal qiluvchi roli tiklandi. Halqning siyosiy ongi va dunyo qarashida tub sifat o'zgarishlari yuz berdi. Shu bilan bog'liq holda halq ommasining talab va istaklari ortdi. Yangi firka, yangi g'oyalar maydonga chiqdi.

Endilikda mustaqillik tufayli O'zbekiston yozuvchilari hayot haqiqatini butun borlig'i va murakkabligi bilan ro'y - rost aks ettirish yo'lidan bormoqdalar. Bu holni adabiyotimizning hamma janrlarida ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa she'riyatimiz realizm - haqqoniylik kuchaydi. Chunonchi avvallari G' hususan, turg'unlik yillari da G' inson mehnati ko'pincha bir tomonlama, oson ish sifatida dabdabali qilib, aks ettirishardi. Shunisi muhimki, qayta qurish davriga kelib bu mavzu, chunonchi, paxtazor mehnatining og'irligi va uning o'ziga xos mashaqqatlari butun borlig'i bilan aniq tasvirlana boshlandi. Bu jihatdan , ayniqsa, A. Oripov. E. Vohidov, R. Parfi, O.Matjon, U.Azim, Sh. Raxmon, A. Suyun, M. Yusuf, Z. Mo'minova va boshqa qator shoirlarimizning sermahsul ijodi xarakterlidir. Ularning she'rlarida halq va jumxuriyat hayotini yaxshilashga qaratilgan muammolar, oddiy inson qadr - qimmatini tiklash va ko'tarish, o'zbek tiliga davlat tili ma-qomini berilishi kabi dolzarb mavzular teran aks etgan. Bu albatta, so'nggi yillarda adabiyotda haqqoniylik, oshkoralik, tanqidiy ruh kuchayganligining samarasidir. Jamiyatni qayta qurish davrida lirika singari liro - epik she'riyat yangi zamon ruhini to'g'ri aks ettirdi. Dostonchilikda oshkoralik, avvallari

aytish mumkin bo'lmagan gaplarni topib dangal yozish, odamlar onggiga haqiqatni chuqur singdirish odati kuchaydi. A. Oripovning «Ranjkom», S. Akbariyning «Qatog'on», O.Matchonning «Nega men?», A.Suyuning «O'zbekiston», X.Davronning «Vatan haqida yetti rivoyat» kabi dostonlarida poklik bilan nopoklik o'rtasidagi hayot - mamot kurashi, shaxsga sig'inish davrining illatlari va ularning fojeali oqibatlari o'rin obrazli ravishda tasvirlab berildi.



Bu davrda nasrida shaxsga sig'inish va turg'unlik davridagi hayotni tanqidiy nuqtai nazardan talqin etib tasvirlovchi publitsistik maqolalar, hikoya va ocherklar, qissa va romanlar yaratildi. Yangi zamon g'oyalarini ifodalashda O. Yoqubov O'. Xoshimiov, P. Qodirov, A. Ibrohimov, S. Azimov publitsistika imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan bo'lsalar, A. Muxtor, Mirmuxsin, U. Umarbekov, Sh. Xolmirzaev, U. Ksmonov hikoya janrda samarali ijod qildilar.

O'zbek romanchiligida ham zamon talablariga hozirjavoblik kuchaydi. Qisqa vaqt ichida turli mavzularda o'nlab romanlar yozildi. «Oq qushlar oppoq qushlar» O. Yoqubov, «Lolazor» M. Muhammad Do'st, «Jinoyatchilik» S. Ahmad, «Ilon o'chi» Mirmuxsin, «Unutilgan sohillar» N. Qobil; «Mungli ko'zlar» X. To'xtaboev kabi romanlar tezkorlik va hozirjavoblik bilan yaratilgan bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan pishiq. Binobarin bu yirik asarlarning aksariyati o'zbek romanchiligida yangilik bo'ldi. Bu romanlarning mavzui yangi bo'lganidek, ularda tanqidiy ruh, oshkoralik kuchli. Bu yangi romanlarda turg'unlik davrining jumhuriyat hayotining turli sohalariga yetkazgan ziyon-zaxmatlari yaqqol taqqoslanib tasvirlab berilgan.

Demak, o'zbek romanchiligi hozirgi zamonning muhim mavzularini tasvirlash bilan birga badiiy mahorat masalasiga ham alohida e'tibor bermoqda. Shuning uchun ham yangi romanlarimizning o'qimishli - qiziqarli bilan kitobxonlarni jalb qilmoqda.

#### A D A B I Y o T L A R :

1. Mirzaev S. Shermuxammedov S. Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi «O'zbekiston» nashriyoti, T - 1993 y. 68 -76 betlar.
2. O'zbek adabiyoti, II- sinf uchun darslik, «O'qituvchi» nashriyoti T- 1995 305 - 318 betlar.

#### **Mustaqillik davri adabiyoti va vazifalari**

#### **R E J A**

1. 1990 yillardan keyingi asarlarga bir nazar
2. Mustaqillik davrining debocha asarlari.
3. Mustaqillik ma'naviyati va adabiyoti

Jamiyat ijtimoiy va ruhiy muhitlarining shakllanishi bevosita inson faoliyati bilan bog'liq. Insondagi barcha yaxshi hislatlar asosan oila va ta'lim - tarbiya muassasalarida yaratiladi. Bu ta'lim - tarbiya o'choqlarida shaxs faoliyatini shakllantirish va uni rivojlantirish uchun tabiiyki, kerakli, yetarli va zaruriy manbaalar bo'lmog'i shart. Bu masalada fikr yuritilar ekan, keyingi davrlardagi ijobiy o'zgarishlar haqida to'xtalmoq darkor.

O'zbek adabiyoti tarixidan ma'lum mashhur ijodkorlardan tashqari ular bilan hamnafas yashab ijod etgan, mumtoz san'at namunalarini yaratgan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Burxoniddin Rabg'uziy, Abulg'oz Bahodirxon, Amiriy, Feruz, Avloniy, Bexbudiy, Fitra, Cho'lpon kabi o'nlab ijodkorlarni noyob meroslari qayta, to'la nashr etildi, ilmiy - estetik taxlil qilinmoqda.

Milliy ong shakllanish ma'naviy o'z - o'zining tanish, erkin ruhni tarbiyalash ishiga safarbar etilgan adabiyot o'zining eng iste'dodli vakllari qiyofasida iqtisodiy, siyosiy hayotning barcha muammolariga faol arlashib kelmoqda. O'zining salmoqli fikrini jamiyat qatlamlariga singdirib bormoqda

Hozirgi she'riyatimizning yetakchi tamoyillarini belgilab berayotgan E. Voxidov, A. Oripov, R. Parfi, O. Matjon kabi shoirlarning keyingi yillarida yaratgan asarlari mustaqillik davri adabiyotining debochasi bo'lib hisoblanishi tabiiy. Chunki, millat dardiga sheriklik, ammo hali anglamagan muammolar hayolidagi qiynoq shoirlar ijodida farzandlik tuyg'usi, fidoiylik hissi sezilib turibdi. Ayniqsa 80 - yillar bo'sag'asida yozilgan E. Vohidovning «O'zbekim», A. Oripovning «Vatanim manim» kabi asarlari mustaqillik uchun chalingan bong edi.

Keyingi paytlarda Muhammad Yusufning o'nlab she'rlari millinolab odamlarning qalbidan joy oldi. Mustaqillik davrining dastlabki paytlarida adabiyot maydoniga chiqa boshlagan, o'z asarlari bilan turg'unlik davri ma'naviyatini parchalayotgan adiblardan Tog'ay Murod, Murod

Muhammad Do‘st, Xurshid Davron kabilar borki, bular yangi davr adabiyotining ilk vakillaridan hisoblanadi.

Jamiyatdagi keskin o‘zgarishlar sahnaga ham o‘z nafasi va qahramonlarini olib kirdi. Bu masalada turg‘unlik davrining qotib qolgan mafkurasiga isyon tarzida sahna yuzini ko‘rgan Sharof Boshbekovning «Temir xotin» dramasi fikrimizning dalilidir.

Yangi tafakkurning hayotiga kirib kelganida endigina 8- 9 yil bo‘lsada, bu yillar adabiyotimizda o‘z izini qoldirdi. Chunki bu yillar ijodkorlar uchun izlanish va qizg‘in ijod davri bo‘ldi.

Natijada so‘z san‘atining barcha janrlarida muayyan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Eng muximi, ijodkorlarimiz yangi tafakkurning tub mohiyati chuqur anglanganlari holda, uning qo‘llab - quvvatlovchi va bu muxim ishni jadallashtirishga xizmat qiluvchi rang- barang badiiy asarlar yaratilmoqdalar.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘li - rivojlanish bosqichlari o‘ziga xosdir. XX asr adabiyoti tarixi 1917 yildadan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga yangi o‘zbek adabiyoti paydo bo‘ldi, shakllandi, yangi hayot bilan chambarchas bog‘liq holda o‘ydi, ma‘suliyatli va sharaflidir. Chunki, asar qahramonlarining onggi, turmush tarzi. Orzu-istaklari, intilish - maqsadlari ham o‘ziga xos, mukammal shaxs sifatida, uning ichki kechinmalaridagi buyuk kelajakka intilish va bu yo‘ldagi to‘siqlarga isyon ko‘taruvchi fikrlar ko‘lamini to‘la yoritishga qaratilishi lozim.

Hozirgi paytda respublikamizda 55 ta oliy, 250 ga yaqin o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 550 mingga yaqin talaba ta‘lim olayotgan bo‘lsa, bular endi mustaqil o‘zbekistonning kelajagini belgilovchi kadrlardir. Bu katta kuch,. Bu yerlarda ta‘lim olayotgan yoshlarning ma‘naviy boyligini shakllantirish, rivojlantirish uchun o‘zbek adabiyotining roli katta. Bu ulkan vazifa o‘z rinda ijodkorlardan ham , tarbiyachilar ham va pirovard talabalardan ham mustaqil respublikamiz sha‘ni - shuhrati, o‘tmishi va kelajagini belgilovchi mexnat faoliyati talab qiladi

#### A D A B I Y O T L A R

1. Mirzaev S, Shermuxamedov S. , Hozirgi o‘zbek o‘dabiyoti tarixi,. «O‘zbekiston» nashriyoti T- 1993 y. 73 - 77 betlar
2. O‘zbek adabiyoti, II-sinflar uchun darslik, «O‘qituvchi» nashriyoti, T- 1995 y. 316 - 318 betlar.
3. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida, «O‘zbekiston » nashriyoti, T- 1994 y. 43 - bet.

### **III BO`LIM**

- **ORALIQ NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**
- **YAKUNIY NAZORAT UCHUN VARIANTLAR**
- **TEST SAVOLLARI**
- **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

### Oraliq nazorat uchun savollar.

1. Eng qadimgi og`zaki adabiyot yodgorliklarini aytib bering.
2. Arablar istilosi va uning oqibatlarini ayting.
3. Asotir va afsonalar.
4. Qaxramonlik eposi.
5. O`rta Osiyo eposlar vatani ekanligi.
6. Qadimgi qaxramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari haqida.
7. «Avesto» muqaddas kitob.
8. «Avesto»ning adabiy, ilmiy, tarixiy ahamiyati.
9. O`rxun-Enasoy yodgorliklari.
10. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining kashf qilinishi haqidagi ma`lumotlar.
11. O`rxun-Enasoy yodgorliklarning til xususiyati, adabiy qimmati.
12. Maxmud Qoshg`ariyning hayoti va faoliyati haqida ma`lumot.
13. «Devonu-lug`otit-turk» asarining yaratilishi va tuzilishi.
14. «Devonu-lug`otit-turk» asarida turkiy tillar leksikasi va morfologiyasining izohlanishi.
15. Maxmud Koshg`ariyning turkiy tillar fonetik qonuniyatlarining kashfiyotchisi ekanligi.
16. «Devonu-lug`otit-turk» asarining tarixiy ahamiyati.
17. «Devonu-lug`otit-turk» asarining ilmiy ahamiyati.
18. Yusuf Xos Xojib hayoti va faoliyatini o`rganish tarixi
19. «Qutadg`u bilig» dostoni.
20. «Qutadg`u bilig» dostonining yaratilish tarixi.
21. «Qutadg`u bilig» dostonida didaktika
22. «Qutadg`u bilig» dostonidagi diniy-tasavvufiy fikrlar.
23. «Qutadg`u bilig» dostonining syujeti va kompozision qurilishi.
24. «Qutadg`u bilig» dostonidagi obrazlarning majoziy xarakteri.
25. O`zbek adabiyoti rivojida Yusuf Xos Xojib dostonining tutgan o`rni va ahamiyati.
26. «Qutadg`u bilig» va halq og`zaki ijodi.
27. Ahmad Yugnakiy o`zbek didaktik adabiyotining namoyondasi sifatida.
28. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o`rganish tarixi.
29. Ahmad Yugnakiyning «HIBAT-UL-HAQOYIQ» dostonida didaktika.
30. «Hibat-ul-haqoyiq» asaridagi ijtimoiy falsafiy va ahloqiy masalalar.
31. «Hibat-ul-haqoyiq» asarida diniy-tasavvufiy fikrlar.
32. «Hibat-ul-haqoyiq» dostonining qurilishi, badiiy qimmati.
33. «Hibat-ul-haqoyiq» dostonida badiiy ifoda uslubi.
34. «Hibat-ul-haqoyiq» dostonida she`riy san`atlar, vazn va qofiya.
35. «Hibat-ul-haqoyiq» dostonining til xususiyatlari.
36. Axmad Yugnakiy ijodining turkiy halqlar adabiyoti rivojidagi o`rni.
37. Axmad Yugnakiyning asarlarini aytib bering?
38. Ahmad Yassaviy- turkiy adabiyotning yirik vakili.
39. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.
40. Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyati.
41. Tasavvuf-Ahmad Yassaviy ijodining bosh mavzusi sifatida.
42. Ahmad Yassaviy hikmatlari.
43. Ahmad Yassaviyning hikmatlarining badiiy qimmati.
44. Ahmad Yassaviyning turkiy hikmat maktabini ta`sis etishi.
45. Adabiyot rivojida Ahmad Yassaviy ijodining ahamiyati.
46. 14-16 asrlarda ijtimoiy siyosiy hayot.
47. Mo`g`ul hukmronligining zaiflashishi.
48. Temur imperiyasining yemirilishi.
49. Shayboniylar imperiyasining yuzaga kelishi.
50. Shayboniylar haqida ma`lumot.

51. 14-17 asrlarda ilm fan taraqqiyoti.
52. 14-17 asr davri adabiyotining yetakchi hususiyatlari.
53. 14-17 asrda dunyoviy adabiyotning maydonga kelishi.
54. O`zbek adabiyotining boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqasini kuchayishi.
55. Yozma adabiyot bilan halq og`zaki ijodi o`rtasidagi munosabatning rivoji.
56. Turkiy tilning adabiy til darajasiga ko`tarilishi.
57. O`zbek adabiyotining eng yuqori cho`qqiga ko`tarilishi.
58. Rabg`uziy 14 asr o`zbek adabiyotining yirik vakili.
59. Rabg`uziyning hayoti va ijodiy faoliyati.
60. «Qissasi-Rabg`uziy» asari.
61. «Qissasi-Rabg`uziy» asarining yaratilish tarixi.
62. «Qissasi-Rabg`uziy» asarining tuzilishi g`oyaviy mazmuni.
63. «Qissasi-Rabg`uziy» asaridagi xikoyatlarning badiiy hususiyatlari.
64. «Qissasi-Rabg`uziy» asarining tarbiyaviy ahamiyati.
65. «Qissasi-Rabg`uziy» asarining o`zbek nasri rivojidadagi ahamiyati.
66. Xorazmiy-yirik shoir.
67. Xorazmiy haqida ma`lumot beruvchi manbaalar.
68. Shoir Xorazmiy ijodining o`rganilish tarixi.
69. Xorazmiy ijodiga eskicha qarashlarga munosabat.
70. Sharq adabiyotida «Noma» janri.
71. Xorazmiy «Muhabbatnoma» asarining yaratilish tarixi.
72. «Muhabbatnoma» asarining kompozision hususiyatlari.
73. «Noma» janrining hususiyatlari.
74. «Muhabbatnoma» asarida timsollar g`oyaviy yo`nalishlar.
75. «Muhabbatnoma» asarining badiiyati.
76. O`zbek adabiyoti tarixida 20 asr adabiyotida muhabbatnoma an`analari.
77. O`zbek adabiyoti tarixida «Muhabbatnoma» asarining o`rni.
78. «Muhabbatnoma» asarining badiiy tili.
79. «Muhabbatnoma» asarida dunyoviy sevgi mavzusi. «Yor va oshiq» obrazi.
80. «Muhabbatnoma» asarining nusxalari.
81. Sakkokiyning ijodi xususan qaysi xukmdorning davriga to`g`ri keladi.
82. Sakkokiy lirik shoir.
83. Shoir Sakkokiy hayoti va ijodi haqida ma`lumot beruvchi manbaalar.
84. Sakkokiy ijodining o`rganilish tarixi ularga munosabat.
85. Sakkokiyning adabiy merosi.
